

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

**G.G‘. NAZAROVA, H.X. XALILOV, A.A. ESHTOYEV,
I.A. AHMEDOV, N.Z. HAKIMOV, U.H. MUHAMEDRAHIMOV**

JAHON IQTISODIYOTI

Oliy o‘quv yurtlarining «Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar» ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik

O'quv qo'llanmada jahon xo'jaligi va uning rivojlanish bosqichlari, tabiiy resurslari va undan foydalanish muammolari, jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimoti, rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar iqtisodiyoti chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, jahon xo'jaligidagi integratsion va globallasuv jarayonlarning borishi, xalqaro korporatsiyalar, global muammolarning iqtisodiy ko'rinishlari, erkin iqtisodiy hududlarning xalqaro savdodagi ahamiyati masalalari, O'zbekistonning jahon xo'jaligiga kirishi, xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarda ishtiroki va uning muammolari, bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, jahonning ilg'or mamlakatlari tajribasidan keng foydalanish yo'llari va muammolari yoritib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma kasb-hunar kollejarining iqtisodiyot, biznes va boshqaruv-tayyorlov yo'nalishidagi talabalari, professor-o'qituvchilari va shuningdek, jahon iqtisodiyoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **Q. ABIRQULOV** — iqtisod fanlari doktori, professor; **Z. ODILOVA** — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida BMTga a'zo bo'lgan 190 dan ortiq mustaqil davlatlar mavjud bo'lib, ushbu davlatlarni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishiga ko'ra uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. *Rivojlangan davlatlar guruhi* (hozirgi kunda jahonning 30 ga yaqin davlatlari kiradi).

2. *Rivojlanayotgan davlatlar guruhi* (hozirgi kunda jahonning 100 dan ortiq davlatlari kiradi).

3. *O'rta asr iqtisodiyotli davlatlar guruhi* (MDH va Sharqiy Yevropa mamlakatlari).

Jahon xo'jaligida ushbu davlatlar o'zlarining tarixan rivojlanishida turli iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy bosqichlarni bosib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, xususiy mulkchilik, ya'ni sinfiy jamiyatning (Sharqning antik va O'rta asr davlatlarining, shuningdek, Yevropaning O'rta asr davlatlarini) vujudga kelishi bilan bog'liq holda jahon iqtisodiyotida bozor munosabatlarini ham shakllantirib, rivojlanib bordi. Bunday munosabatlar dastlab Yevropaning bir qator mamlakatlarida (Gollandiya-Niderlandiya, Angliya va h.k.larda) XVI—XIX asrlarda tez rivoj topib borgan edi. Jahon iqtisodiyotida ro'y bergan buyuk jug'rofik kashfiyotlar (XVI—XIX asrlar) oqibatida jahon xo'jaligida mustamlakachilik tizimi paydo bo'lishi jahondagi ba'zi-bir davlatlarning tez rivojiga va aksincha, yer yuzidagi ko'pgina mamlakatlarning (asosan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari) iqtisodiy-siyosiy qaramligiga va halokatiga olib keldi. Xullas, jahon xo'jaligida bozor munosabatlari deyarli barcha davlatlarda hukmronlik qilgan bo'lsa-da, uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy oqibatlari turlicha ko'rinishda bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, jahon xo'jaligi barcha davlatlar uchun umumiy bo'lgan bir tabiiy va iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy qonunlar asosida takomillashib, rivojlanib boradi. Ya'ni, jahon xo'jaligida bozor munosabatlari rivojlanishining alohida bir milliy libosi yo'q, ammo rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari mavjud bo'lib, ularni mazkur mamlakatlarning tabiiy sharoitida, resurslarida, milliy

an'analarda, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanish jihatlarning turlicha rivojlanish darajasida ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham jahon iqtisodiyotida ba'zi-bir davlatlar yuqori darajada, ayrimlari o'rtacha, ba'zi-birlari esa (asosan, ko'pchiligi) past rivojlangandir. Shu sababli jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarning (ayniqsa, sanoati rivojlangan davlatlar) va shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarning (ayniqsa, «yangi industrial mamlakatlar» deb nom olgan davlatlarning) iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanish yutuqlarini atroflicha chuqur tahlil qilish, ushbu davlatlarning iqtisodiy rivojlanish tajribasidan ijodiy foydalanish O'zbekiston Respublikasi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida (1991) jahon xo'jaligiga o'zining ilk qadamini qo'ydi. Boshqaruv mexanizmining yangi demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanish shart-sharoitida, ya'ni bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borayotgan bir sharoitda respublikaning integratsion jarayonlarga, shuningdek, xalqaro tashkilotlarga faol va keng ko'lamda jalb etilishiga xalaqit berayotgan bir qator to'siqlarni, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan olganda, bozor munosabatlari nazariyasi va amaliyotini, raqobatbardosh iqtisodiy asoslarini, firma va korporatsiyalarning iqtisodiy aloqalardagi ishtiroki masalalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish respublikamizda tobora ortib borayapti. Bu muammolar hozirgi kunda tor guruhdagi mutaxassislarning o'rganish predmeti bo'lmay qoldi. Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligini bir qismi ekanligini tan olinishi esa «Jahon iqtisodiyoti» fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada ortib borishiga sabab bo'layotir.

O'zbekistondagi sanoat korxonalarining ishlab chiqargan mahsulotlari tashqi bozorga chiqishi, xorijiy firma va kompaniyalarning respublikada endigina shakllanib kelayotgan tovar va xizmatlar bozoriga kirib kelishi ilgari xo'jalik amaliyotida duch kelinmagan yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan bir qator mustaqil davlatlar qatori O'zbekistonda ham bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarning kamligi yoki deyarli yo'qligi sezilyapti. Bu borada «Jahon iqtisodiyoti» predmetining maqsadi jahon hamjamiyati iqtisodiy hayotidagi asosiy jarayonlar va hodisalarni o'rganishdir. Ushbu

maqsadga muvofiq, kurs o'z oldiga quyidagi asosiy qarashlar konsepsiyasini faktik manbalar va statistik materiallar asosida o'rganishdek muhim vazifani qo'ygan:

- jahon iqtisodiyoti: mohiyati va XX—XXI asrlar bo'sag'asida taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari;
- zamonaviy jahon xo'jaligi subyektlari va mamlakatlarning jahon xo'jaligida tutgan o'rnini tavsiflovchi faktik manbalarni va statistik materiallarni;
- xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlar ko'rinishlari va borishini;
- jahon iqtisodiyotidagi global muammolarni (demografik, oziq-ovqat, tabiiy resurslar, xalqaro xavfsizlik, ekologiya va h.k.lar);
- jahon xo'jaligida tabiiy resurslarning salohiyati;
- jahon iqtisodiyotida inson resurslarining o'rni;
- jahon xo'jaligi taraqqiyotida ilmiy-texnik salohiyati;
- jahon xo'jaligida tarmoq tuzilmasi tushunchasi va zamonaviy sanoatning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni;
- rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni jahon xo'jaligida tutgan o'rnini;
- O'zbekistonning jahon xo'jaligiga kirishi. Respublikani xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda ishtiroki va h.k.lar.

O'zbekiston jahonning 100 dan ortiq rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari bilan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalarni olib bormoqda. Ushbu mamlakatlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni to'g'ri olib borishi uchun ham jahonning ushbu mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish yo'llarini (modellari) har tomonlama va keng o'rganish maqsadga molikdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasida (1993) respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov shunday degan edi: «Bizning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'limiz respublikaning o'ziga xos turmush tarzini, shart-sharoitlarini va xususiyatlarini, xalq an'analari va urfodatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslangan. Ayni paytda bizning yo'l jahon amaliyoti to'plagan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga o'tgan mamlakatlar orttirgan ijobiy tajribalarni ham hisobga oladi».

Qo'llanma birinchi bor yaratilganligi tufayli ba'zi-bir juz'iy kamchiliklardan holi emas. Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda o'zlarining qimmatli maslahatlarini, ijobiy va tanqidiy fikrlarini bildirganlarga mualliflar minnatdorchilik izhor qilishadi.



*1-bob. JAHON XO'JALIGI VA UNING
SHAKLLANISH BOSQICHLARI*

**1.1. «Jahon iqtisodiyoti» fanining predmeti
va o'rganish xususiyatlari**

XX—XXI asrlar bo'sag'asida ro'y bergan keng ko'lamdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar jahon xo'jaligi va uning mohiyatiga o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Bu jarayonlar ta'sirida jahon xo'jaligida sezilarli siljishlar, o'zgarishlar yuz berib, rivojlanishining yangi, turli-tuman va ko'p variantli bosqichlari shakllandi.

Jahon iqtisodiyotida nafaqat dunyo, balki uni tushunish, talqin qilish ham o'zgarib bormoqda. Jahon xo'jaligida, ayniqsa, Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida shunday tub o'zgarishlar yuz berdiki, bu o'zgarishlar ham, albatta, jahon xo'jaligining rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Ma'lumki, hozirgi kunda jahon mamlakatlari bir-biri bilan shunday o'zaro bog'lanib ketganki, biz bularni, asosan, o'zaro iqtisodiy aloqalarni turli darajada rivojlangan iqtisodiy tuzilmalarning ishtirokida ko'rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar nafaqat turli darajada rivojlanganligi bilan, balki xalqaro mehnat taqsimotiga va jahon xo'jaligiga turli darajada jalb qilinganligi bilan ham farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida (1991) jahon maydoniga o'zining ilk qadamini qo'ydi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitda, ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tishning tarkibiy qismiga aylangan bir sharoitda respublikamizning integratsion jarayonlarga faol va keng ko'lamda jalb etilishiga xalaqit berayotgan bir qator to'siqlarni yengib o'tishga to'g'ri kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan olganda, bozor munosabatlari nazariyasi va amaliyotini, raqobatbardosh iqtisodiyot asoslarini va korporatsiyalarning tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida ishtiroki usullarini o'rganishga bo'lgan qiziqish respublikamizda tobora ortib bormoqda. Bu muammolar hozirgi kunda tor guruhdagi mutaxassislarning o'rganish predmeti

bo'lmay qoldi. Milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligining bir qismi ekanligini tan olinishi esa «Jahon iqtisodiyoti» fanining o'rganish predmetini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

O'zbekistondagi sanoat korxonalarini ishlab chiqargan mahsulotlar tashqi bozorga chiqishi va xorijiy firmalarning respublikamizda endigina shakllanib borayotgan tovar va xizmatlar bozoriga kirib kelishi ilgari xo'jalik amaliyotida duch kelinmagan bir qator yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Yangi mustaqillikka erishgan mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham bozor sharoitida, ayniqsa, xalqaro bozor sharoitida faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarining kamligi yoki deyarli yo'qligi sezilyapti.

«Jahon iqtisodiyoti» fanini o'rganishda uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari to'xtalib o'tamiz:

- jahon iqtisodiyoti: mohiyati va XX—XXI asrlar bo'sag'asidagi taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari va tamoyillari;
- zamonaviy jahon xo'jaligini subyektlari va mamlakatlarning jahon xo'jaligida tutgan o'rmini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi;
- xalqaro iqtisodiy integratsiya;
- XX—XXI asrlar bo'sag'asida jahon iqtisodiyotidagi global muammolar;
- zamonaviy jahon xo'jaligining tabiiy resurslari salohiyati;
- jahon iqtisodiyotidagi inson resurslari;
- ilmiy-texnik salohiyat va uning zamonaviy jahon xo'jaligi taraqqiyotidagi roli;
- jahon xo'jaligida tarmoq tuzilmasi tushunchasi va zamonaviy sanoatning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rmi;
- jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'rmi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo'jaligida tutgan o'rmi.

1.2. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining mohiyati va shakllanish bosqichlari

Zamonaviy jahon xo'jaligi yoki jahon iqtisodiyoti — bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlariga bo'ysunuvchi, doimiy harakatdagi, o'sib, rivojlanib boruvchi xalqaro iqtisodiy aloqalarga o'zaro bog'liq bo'lgan milliy iqtisodiyotlar yig'indisi, global iqtisodiy organizmdir.

Jahon xo'jaligi vujudga kelishi va rivojlanishida uzoq hamda juda qiyin bo'lgan bir qator rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Ayrim tadqiqotchilar uning vujudga kelishini Rim imperiyasi davri (er.av.

II va eramizning IV asrlari) bilan bog'lashadi. Bunda ular Rim imperiyasini o'sha vaqtdagi butunjahon xo'jalik tizimi, deb baholashadi. Boshqa bir guruh olimlar esa jahon xo'jaligini faoliyat ko'rsata boshlagan davrini XV—XVI asrlar bilan, ya'ni buyuk jug'rofik kashfiyotlar davri bilan bog'lashadi. Aynan shu kashfiyotlar qimmatbaho toshlar, metallar, shirinliklar va qullar bilan xalqaro savdoning tez rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ammo bu davrdagi jahon xo'jaligi cheklangan bo'lib, faqat savdogarlarning sarmoyalari ishlaydigan soha bo'lgan edi, xolos.

Zamonaviy jahon xo'jaligi Yevropada ro'y bergan sanoat inqilobidan keyin (XVIII asr oxiri va XIX asr boshlari), kapitalning monopol bosqichiga o'tishi davrida (XIX asr oxiri va XX asr boshlari) vujudga keldi. XIX asr oxiri va XX asr boshidagi jahon xo'jaligi o'zining rivojlanish xususiyatlari bilan XX asrning 60—90-yillaridagi jahon xo'jaligidan tubdan farq qilishi bizga ma'lum.

O'zining rivojlanish xususiyatlari bilan XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmidagi jahon xo'jaligi «kapitalning kuchiga» nisbatan ko'p jihatdan oddiy kuchga, ya'ni, iqtisodiyotga yot bo'lgan majburiyatlarga asoslangan bo'lib, bu davrdagi jahon xo'jaligida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjud edi. Bularni biz kapitalistik mamlakatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda (jumladan, ikki Jahon urushi), shuningdek, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda ko'rishimiz mumkin. XX asrning birinchi choragida jahon xo'jaligi ikki qismga: *jahon kapitalistik xo'jalik tizimiga va jahon sotsialistik xo'jalik tizimiga* bo'lingan edi. Jahon iqtisodiy aloqalari tizimida esa jahon kapitalistik xo'jaligi tizimi ustunlik qilgan. 90-yillar boshida xalqaro savdo tovar aylanmasining 9/10 qismi jahon kapitalistik xo'jaligi doirasida ro'y bergan. 80-yillar oxirida xalqaro iqtisodiy ayirboshlash kanallari orqali kapitalistik dunyoning umumiy yalpi mahsulotining bor-yo'g'i 1/5 qismi sotilgan, xolos. Sobiq sotsialistik mamlakatlarda jahon milliy daromadining 1/3 qismi, shu jumladan, O'LYoK davlatlarida esa 1/4 qismi ishlab chiqarilgan.

XX asrning 60-yillardan boshlab jahon xo'jaligi tizimiga rivojlanayotgan davlatlar qo'shildi. 70-yillarning o'rtalariga kelib, ular orasidan «yangi industrial mamlakatlar» (YaIM), ya'ni Osiyo—Tinch okeani mintaqasida to'rtta kichik «ajdarho» deb nom olgan Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur va Lotin Amerikasida Braziliya, Argentina, Meksika davlatlari rivojlanish borasida sezilarli darajada ilgarilab ketgan edi.

90-yillar boshida MDH hududida va Sharqiy Yevropada ro'y bergan inqilobiy o'zgarishlardan so'ng jahon xo'jaligi yaxlit, butun bir organizm ko'rinishini oldi. Shakllanib kelayotgan global jahon xo'jaligi tizimida bir tekis bo'lmagan holda rivojlangan, sanoati rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan davlatlar va o'tish davri shaklidagi iqtisodiy tizimli davlatlarning milliy iqtisodiyotlarini o'z ichiga olgan bir qator davlatlar paydo bo'ldi. Jahon xo'jaligida ko'plab qarama-qarshiliklar va turlicha rivojlangan an'analarni saqlab qolgan holda XXI asr bo'sag'asidagi jahon xo'jaligi XX asr o'rtasidagi jahon xo'jaligi bilan solishtirib bo'lmaydigan darajada ko'proq integratsiyalashib o'zgarib ketdi.

Xo'sh, zamonaviy jahon xo'jaligining mohiyati, uning o'ziga xos tomonlari, ko'rsatkichlari va rivojlanish omillari nimalardan iborat?

XXI asr bo'sag'asidagi jahon xo'jaligi — o'z miqyosiga ko'ra globaldir, u to'liq ravishda bozor iqtisodiyotining tamoyillari, xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv qonuniyatlariga, ishlab chiqarishning baynalmillalashuviga asoslanadi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi o'n yilliklarda jahon xo'jaligi rivojining yetakchi an'alaridan biri, bu ko'plab davlatlarning birin-ketin yopiq milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yuz tutgan iqtisodiy ochiq tipdagi xo'jalikga o'tishi hisoblanadi. Urushdan keyingi iqtisodiy tiklanish davrida (50—60-yillar) va keyingi 70—90-yillarda G'arbiy Yevropa davlatlarining hukumat rahbarlari yanada faollik ko'rsatib, oldingi avtokratik qoldiqlardan qutilishgan edi.

Ayni shu davrda jahon xo'jaligida AQSH o'zining «ochiq savdo», «ochiq iqtisodiyot» qarashlari konsepsiyasi bilan chiqqan edi. Bu, avvalo, jahon bozorida AQSH o'z xohishlarini o'tkazish maqsadini qo'ygan bo'lsa, ikkinchidan, jahon urushidan g'olib bo'lib, yanada boyib chiqqan jahonning eng ilg'or savdo mamlakati sifatida yangi iqtisodiy tartib va qo'llanmalarni taklif etgan edi. Bunday «*erkin savdo*» va «*ochiq iqtisodiyot*»dan iborat qarashlar konsepsiyasi esa hukmron iqtisodiyotning kamroq rivojlangan davlatlarga qarshi qurolli, AQSH korporatsiyalarining mislsiz ekspansiyaga bo'lgan intilishlarini bildirar edi. Bunday «ochiq iqtisodiyot» haqidagi qarashlar konsepsiyasi to'g'risida fransiyalik iqtisodchi olim Mishel Pebro ochiq-oydin shunday degan: «Ochiq, erkin savdo — ilg'or iqtisodiyot uchun eng qulay o'yin qoidalaridir». Ammo urushdan keyingi yillarda jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy holatning o'zgara borishi bilan bog'liq holda ochiq iqtisodiyot haqidagi qarashlar konsepsiyasi bir tomonlamali, ya'ni Amerika ekspansionizmining

manfaatlariga yo'naltirilganlikni yo'qota borib, obyektiv, chuqur omillar faoliyatiga asoslangan, jahon xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi ma'nosini oldi.

Xo'sh, jahon iqtisodiyotini baynalmilallashuvi miqyosi va xarakteriga, uning ochiqligi darajasi oshishiga katta ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatib kelayotgan asosiy omillar nimalardan iborat?

Ma'lumki, ochiq iqtisodiyotni shakllantirishda davlat katta rol o'ynaydi. Davlat tovar va xizmatlar olib chiqishni rag'batlantirib, xorijiy firmalar bilan kooperatsiyalarga, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga yordamlashib, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni rag'batlantirish funksiyasini oladi. Chet eldan investitsiyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi va axborot vositalari oqib kelishini yengillashtirib, mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Jahon mamlakatlarining ochiq iqtisodiyotga o'tish jarayonlari transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyati bilan yanada tezlashdi. Yangi bozorlarni o'zlashtirishga intilib, turli mamlakatlarda ko'plab kichik shoxobchalar, sho'ba korxonalari tashkil etib, TMK xorijiy davlatlarning proteksionistik to'siqlarni aylanib o'tdilar va xalqaro iqtisodiy ayirboshlashni baynalmilallashtirdilar.

XX asrning ikkinchi yarmida transport, axborot-aloqa vositalarining sezilarli rivojlanishi ham milliy iqtisodiyotning «ochiqlik» darajasini rivojlanishida va shuningdek aholini harakatchanlik holatini oshishida ham muhim rol o'ynadi. Asta-sekin, o'zoq yillar mobaynida davlatlarni bir-biridan ajratib turgan savdo-iqtisodiy, moliyaviy-valuta to'siqlar olib tashlandi. Xalqaro ayirboshlashning erkinlashtirilishi esa milliy xo'jaliklarning tashqi iqtisodiy sharoit va ta'sirlarga moslashishini yengillashtirdi, ularning xalqaro mehnat taqsimotda yanada faollik ko'rsatishiga imkon yaratdi.

60-yillardan boshlab jahon iqtisodiyotida «ochiqlik» jarayonlari bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarga tarqala boshladi. 80-yillar boshida Xitoy ham «ochiqlik» siyosatiga tarafdor ekanligini e'lon qildi. Shunday qilib, «ochiqlik» atamasi dunyoning ko'plab mamlakatlarining izohli lug'atiga kirib bordi. Masalan, arabcha «infitax», xitoycha «kayfan» va h.k.lar. Xullas, jahon iqtisodiyoti tushunchasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- insonlarning ishlab chiqarish faoliyati yig'indisi;
- milliy iqtisodiyotlar yig'indisi;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlar yig'indisi;
- transmilliy kompaniyalar va transmilliy banklar faoliyati;
- mamlakatlar guruhi integratsiyasi;
- insoniyatning iqtisodiy faoliyati natijalari va boshqalar.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti XIX asrning oxiri va XX asr boshlariga kelib, vujudga kelgan va hozirgi kunda ham taraqqiy etib borayotgan iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosini tovarlar va xizmatlar ko'rsatish, intellektual mulk mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni xalqaro savdo jarayonida taqsimlovchi, ayirboshlovchi hamda iste'mol qiluvchi milliy iqtisodiyotlar tashkil etadi.

1.3. Jahon iqtisodiyotida «ochiq iqtisodiyot» tushunchasi

Jahon iqtisodiyotida «erkin savdo» va «ochiq iqtisodiyot» kabi tushunchalarni farqlash lozim. «Erkin savdo» haqidagi qarashlar konsepsiyasi aslida A. Smitning siyosiy iqtisodiyotidan (XVIII asr) boshlangan bo'lib, u zamonaviy amerika iqtisodchilarning kashfiyoti emasligini bilishimiz zarur. «Ochiq iqtisodiyot» tushunchasi ishlab chiqarish omillari, axborot, milliy valutalarning o'zaro almashuvi erkin harakatini o'z ichiga olgan tovarlar savdosi sifatidagi «erkin savdo» to'g'risidagi qarashlar konsepsiyasidan kengroq bo'lgan tushunchadir. Ochiq iqtisodiyotni *avtarkiya**, o'z-o'zini ta'minlash iqtisodiyoti, haddan tashqari o'z kuchiga suyanishning *antipodi*** sifatida ham tushunish lozim. Ochiq iqtisodiyotning vujudga kelishi — bu jahon iqtisodiy rivojlanishining obyektiv an'anasidir. Ochiq iqtisodiyot tamoyillariga mos ravishda harakat qilish — bu jahon bozori andozalarini tan olish, uning qonunlari asosida harakat qilishdir.

Ochiq iqtisodiyot iqtisodiyotning yaxlitligini, jahon xo'jaligiga, jahon bozoriga integratsiyalashgan yagona iqtisodiy majmuani nazarda tutadi. Ochiq iqtisodiyot bu turli hamkorlikdagi tadbirkorlik shakllaridan faol foydalanish, erkin tadbirkorlik hududlarini tashkil qilish, tashqi savdoda davlat yakkahokimligini yo'qotish (ko'p sohalarda bo'yicha), xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning nisbiy ustunliklaridan samarali foydalanishdir.

Ochiq iqtisodiyotning eng muhim o'lchovlaridan biri ma'lum iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va xalqaro raqobatbardoshlik doirasida (soha va makroiqtisodiy darajada) kapital qo'yilmalar, texnologiyalar, axborot oqimini rag'batlantiruvchi qulay investitsion muhitdir. Ochiq iqtisodiyot ichki bozorning chet el kapitali, tovarlari, texnologiyalari, axborotlari, ishchi kuchi oqimining ochiqligini nazarda tutadi.

* *Avtarkiya* — yopiq iqtisodiyot.

** *Antipodi* — butunlay zid.

Ochiq iqtisodiyotning afzallik tomonlarini biz quyidagi hollarda ko'rishimiz mumkin:

- ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashishi;
- resurslarni mulohaza bilan samaradorlik darajasiga qarab taqsimlash;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimi orqali jahon tajribasining tarqalishi;
- milliy ishlab chiqaruvchilar orasida jahon bozori tomonidan rag'batlantirilgan raqobatning kuchayishi.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida shakllanib bo'lgan ochiq iqtisodiyot va ochiq iqtisodiyotga o'tish bir xil narsa emas. Ochiq iqtisodiyot davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarida nazoratsizlik va hamma narsa mumkin, chegaralar ochiq degani emas. Ochiq iqtisodiyot uning aqlga sig'adigan darajada amalga oshirish mexanizmini shakllantirishda davlatning sezilarli aralashuvini talab qiladi. Hech bir mamlakatda iqtisodiyotning mutlaq ochiqligi yo'q.

Stixiyali ochiqlik iqtisodiy rivojlanishga yordam bermaydi, balki iqtisodiy xavfsizlikka xavf tug'diradi. Samaradorlik, raqobatbardoshlik, milliy xavfsizlik tamoyillari asosida qurilgan ochiqlikni eksport tarkibi va kapital harakati, shuningdek, ularning tashqi dunyo bilan o'zaro ta'sirining faqat shakliga emas, balki valuta, soliq, kredit va investitsiya siyosatiga bog'liqligini hisobga olmasdan turib tushunib bo'lmaydi.

Ochiqlik darajasining birinchi darajali ko'rsatkichlari qatoriga eksport va importning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini kiritish mumkin. Ularning kombinatsiyasi alohida milliy iqtisodiyotning jahon bozori bilan aloqalari miqyosi haqida tushuncha beradi. Shunday qilib, eksportning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) munosabati eksport kvotasi sifatida aniqlanadi:

$$E_k = (E/YaIM) \cdot 100 \%,$$

bu yerda, E_k — eksport kvotasi; E — eksport hajmi.

Agar E_k 10 % bo'lsa, iqtisodiyotning ochiqligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Iqtisodiyot ochiqligining boshqa ko'rsatkichi import bilan YaIM munosabatidan kelib chiquvchi import kvotasi ko'rsatkichidir:

$$Im_k = (Im/YaIM) \cdot 100 \%,$$

bu yerda, Im_k — import kvotasi; Im — import hajmi.

Ochiqlikning kompleks ko'rsatkichlaridan biri deb, odatda, tashqi savdo kvotasi ko'rsatiladi:

$$TS_k = (TS/YaIM) \cdot 100 \%,$$

bu yerda, TS_k — tashqi savdo kvotasi; TS — tashqi savdo obo-rotining hajmi.

Bu ko'rsatkichning kamchiligi unda kapital eksporti kattaligi hisobga olinmaganligidir. Quyida «katta yettilik» davlatlari uchun tashqi savdo kvotasi ko'rsatkichlari keltirilgan:

Angliya — 41,8 %;

Germaniya — 50,8 %;

AQSH — 17,0 %;

Yaponiya — 17,8 %.

Mamlakat ichki bozorining hajmi, uning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga, mamlakatning xalqaro ishlab chiqarishda qatnashuviga, iqtisodiyotning ochiqligi darajasi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanganlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarga bog'liqdir. Ba'zi bir iqtisodchi olimlar iqtisodiyot strukturasiidagi asosiy sohalarning (energetika, metallurgiya, tog'-kon va boshq.) ulushi qancha ko'p bo'lsa, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki, iqtisodiyotning ochiqligi shuncha kam bo'ladi, fikrini bildirishadi. Amerikalik iqtisodchilar J. Saks va E. Uornerlar esa milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi mamlakatda «haddan tashqari katta» eksport va import bojlarining yo'qligi, milliy valutaning «yetarli darajada» konvertatsiyasi mavjudligi bilan aniqlanadi, deyishib, «davlat sotsialistik bo'lmasligi kerak», fikrini bildirishadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ko'rsatib berilgan koeffitsient va ko'rsatkichlar har doim ham iqtisodiyot ochiqligi holatini to'liq ko'rsata olmaydi. Masalan, tashqi savdo kvotasi ma'lum ma'noda iqtisodiyot ochiqligini namoyish qilsa ham, uning sintetik ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Tashqi savdo kvotasi, asosan, davlatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini ko'rsatadi. Bu esa ochiq iqtisodiyot tushunchasining bir qismi xolos. Iqtisodiyotning ochiqligi ko'rsatkichi esa murakkab, kompleks ko'rsatkichdir.

1995-yilda Rossiyada tashqi savdo kvotasi 35 % ga yaqin bo'lib, YaIM ning taxminan 25 % eksportga to'g'ri kelgan. Xo'sh, bu Rossiya iqtisodiyoti yuqori darajada ochiq ma'nosini beradimi? Xullas, bojlarining na o'rtacha darajasi bo'yicha, na eksport tarkibi bo'yicha, na investitsion iqlim parametrlari bo'yicha, na boshqa bir qator ko'rsatkichlari bo'yicha bu savolga qoniqarli javob berish mumkin emas. Chunki, Rossiyaning stixiyali tarzda shakllanayotgan ochiq iqtisodiyoti tartibsizlik va anarxiyaga yaqindir. Uni ko'proq

kvaziochiqlik * deb ta'riflasha bo'ladi. Bunday «ochiqlik» yalpi demokratiyalashda tashqi savdoni tartibsiz erkinlashtirish bo'lganligi uchun ham iqtisodiyotni samaradorligini va uning raqobatbardoshligini oshirishda yordam bermasdan, aksincha, unga sezilarli zarar ham yetkazib, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solayapti.

Germaniyalik iqtisodchi X. Shreder, «MDH mamlakatlarining jahon bozoriga kirib borishi, savdo imtiyozlari, proteksionistik choralar va keng miqyosdagi texnik-texnologik yordamsiz mumkin emas», deb ta'kidlaydi. O'z navbatida M. Pebro, «savdoning erkinligi «ehtiyotkorliksiz» bo'lishi kerak emas, chunki bu qoidalardan ko'ro'rona foydalanish tezda kuchsizlarning kuchlilarga bo'ysunishiga, iqtisodiy kolonializmni kelib chiqishiga olib kelishi mumkin», deb eslatib o'tadi.

Nazorat savollari

1. «Jahon iqtisodiyoti» fani nimani o'rganadi?
2. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
3. Jahon xo'jaligini tarixan shakllanish bosqichlarini bayon eting.
4. «Ochiq iqtisodiyot» deganda nimani tushunasiz?
5. Iqtisodiyotning ochiqligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar xususida nimalar bilasiz?

* *Kvaziochiqlik* — o'zaro ochiqlik munosabatlari.

**2-bob. MAMLAKATLARNING TASNIFLANISHI
VA ULARNING JAHON XO'JALIGIDAGI
ISHTIROKI**

**2.1. Jahon iqtisodiyotida davlatlarning iqtisodiy
birlashmalari, asosiy tiplari**

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotning hech biri jahon xo'jaligi va jahon iqtisodiyotidan ayrim holda boshqa bir milliy iqtisodiyotlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishmay turib to'laqonli ravishda rivojlana olmaydi. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotning to'la avtonomligi to'g'risida gapirganda, ya'ni yopiq iqtisodiyotli mamlakatlarga (Shimoliy Koreya va Kuba) misol keltirish juda mushkul. Masalan, 1990-yilning oxirlarida Shimoliy Koreyada ocharchilik yuz bergan bir paytda bu mamlakatga Janubiy Koreya va XXR tomonidan beg'araz insonparvarlik yordami ko'rsatilgan edi. Kubaning jahon mamlakatlari bilan bo'ladigan tashqi iqtisodiy bitimlar soni juda kam bo'lishiga qaramay, ushbu mamlakat sayyohlarni qabul qilish va mashhur Gavana sigaralarini xorijga yetkazib berishga ixtisoslashgan edi.

Dunyodagi barcha mamlakatlarning jahon xo'jalik aloqalarida tutgan o'rni, eng avvalo, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Bu ko'rsatkichlar qatoriga mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) yoki yalpi milliy mahsulot (YaMM) hajmini, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM yoki YaMMni, o'rtacha ish haqi miqdorini, tashqi savdo operatsiyalari hajmini, kapital harakatidagi ko'rsatkichlarni, mamlakatlarning tashqi qarzlari miqdorlari va h.k.larni kiritish mumkin. Bundan tashqari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashda inflatsiya va ishsizlikning o'sish sur'ati, foiz stavkasi darajasi, soliq stavkalari, milliy valuta kursining yetakchi mamlakatlar valutalariga nisbatan o'zgarish dinamikasi va boshqa nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, jahon mamlakatlarini o'zaro solishtirishda aholining savodxonlik darajasi, ijtimoiy rag'batlantirish va nafaqa miqdori, o'rtacha umr ko'rish davri kabi ko'rsatkichlari ham inobatga olinadi.

Jahon mamlakatlarini guruhlarga ajratishda turli mezonlardan ham keng foydalaniladi. Ana shunday mezonlardan biri hududiy yondashuvdir. Mamlakatlar qit'alar bo'yicha guruhlanadi. Misol uchun Yevropa qit'asini G'arbiy, Markaziy va Sharqiy Yevropaga ajratib, iqtisodiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdoriga ko'ra, jahon mamlakatlarini eng kam rivojlangan, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar guruhiga bo'lib o'rganiladi. Xullas, BMTning iqtisodiy tahlillari bo'yicha jahon mamlakatlarini hozirgi kunda quyidagi guruhlarga: rivojlangan mamlakatlar (bozor iqtisodiyotli davlatlar), o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga bo'lib o'rganilmoqda. Bu guruhlarga kiruvchi mamlakatlarni ham turli iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy tamoyillarga ko'ra, yana bir necha kichik guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin. Masalan, rivojlangan mamlakatlarning ichida eng taraqqiy etgan «yettilik» mamlakatlar — AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Kanadani yoki YeI mamlakatlarini (Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Portugaliya, Shvetsiya, Finlandiya, Fransiya va boshq.) alohida ajratib olib o'rganish mumkin. Rivojlangan mamlakatlardan Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shveysariya kabi davlatlar Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasiga birlashgan bo'lsa, Shimoliy Amerikadagi AQSH, Meksika va Kanada esa mintaqaviy NAFTA tashkilotiga birlashgan.

O'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar guruhiga sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarni kiritish mumkin.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarni hududiy joylashuvi, iqtisodiyotining rivojlanishi va tashqi qarzi miqdorlari darajasi jihatidan ham bir necha guruhlarga ajratib o'rganish mumkin. Masalan, sof kreditor, sof qarzdor mamlakatlar yoki energiya resurslarini eksport qiluvchi yoki bu resurslarni import qiluvchi mamlakatlar va h.k.lar. Xullas, yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda jahon mamlakatlarini quyidagi elementar tipologiyasini keltirishimiz mumkin:

1. Rivojlangan «katta yettilik» davlatlar guruhi.
2. Rivojlangan boshqa mamlakatlar guruhi.
3. Rivojlanayotgan «yangi industrial mamlakatlar» guruhi.

4. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari guruhi.
5. Iqtisodiy o'tish davridagi MDH davlatlari guruhi.
6. Xitoy Xalq Respublikasi.
7. Hindiston va Pokiston.
8. Nisbatan tezroq rivojlanib borayotgan mamlakatlar guruhi.
9. Klassik rivojlanayotgan davlatlar guruhi.
10. Eng kam rivojlangan mamlakatlar guruhi.

Jahon mamlakatlarini daromad darajasiga ko'ra, kam daromadli (ularning soni 60 ta), o'rtadan past daromadli (59 ta), o'rtadan yuqori daromadli (37 ta) va yuqori daromadli (53 ta) mamlakatlar guruhiga ham ajratib o'rganish mumkin.

2.2. Jahon xo'jaligida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va ishtiroki

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish omillarning va mamlakatlarning rivojlanish shart-sharoitlarini turli-tumanligi iqtisodiy rivojlanish darajasini bir tomonlama baholash imkonini bermaydi. Buning uchun jahon iqtisodiyotida bir qator asosiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jumladan:

1. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM yoki YaMM miqdori.
2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad.
3. Milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibi.
4. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy mahsulot tur-larining ishlab chiqarilishi (alohida tarmoqlarning rivoj-lanish darajasi).
5. Aholining turmush darajasi va sifati.
6. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va boshqalar.

Qayd etib o'tish joizki, jahon iqtisodiyotida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi — bu tarixiy tushunchadir. Milliy iqtisodiyotning yoki jahon hamjamiyatining har bir rivojlanish bosqichi uning asosiy ko'rsatkichlariga u yoki bu darajadagi o'zgarishlarni kiritib turadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM yoki YaMM miqdori iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashdagi eng muhim ko'rsatkichdir. Jahon mamlakatlarini rivojlanayotgan yoki rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritishda ana shu ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 6000 AQSH dol-laridan kam bo'lmasligi kerak. Ba'zi bir rivojlanayotgan mam-lakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ushbu ko'r-

satkichdan yuqoriroq (masalan, Sloveniya — 9840, Saudiya Arabistonida — 7150, Urugvay — 6130 va h.k.lar) bo'lsa-da, ularni boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlari yig'indisi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritib bo'lmaydi.

Jahon xo'jaligida iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Uning tahlili YaIM ko'rsatkichlari asosida olib boriladi, ya'ni tarmoqlarning YaIM dagi ulushi hisoblanadi. Eng avvalo, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining nisbati e'tiborga olinadi. Bu nisbat, birinchi navbatda, jahon mamlakatlari iqtisodiyotida qayta ishlash sanoatining solishtirma og'irligi bilan aniqlanadi.

Jahon iqtisodiyotida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarilishi ham mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, eng avvalo, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan elektroenergiya mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Chunki elektroenergiya boshqa barcha ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishi asosidir. Bu ko'rsatkich bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi nisbat 500:1, ba'zan bundan ham yuqori bo'lishi ham mumkin.

Jahon iqtisodiyotida elektroenergiyadan tashqari sanoat mahsulotlari ichida muhim ahamiyat kasb etuvchi turlari ichida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan po'lat eritish, metall kesuvchi dastgohlar, avtomobillar, tabiiy o'g'itlar, kimyoviy tolalar, qog'oz va h.k.larni ham alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, don, sut, go'sht, shakar, kartoshka kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi ham muhim ko'rsatkich sanaladi. Turmush faravonligini aniqlashda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan nooziq-ovqat tovarlar (matolar, kiyimlar, poyabzal, to'qimachilik mahsulotlari) ham zarur ko'rsatkichdir.

Mamlakat aholisini turmush faravonligini aniqlashda YaIMning foydalanish bo'yicha tarkibi, ayniqsa, shaxsiy iste'mol xarajatlari muhimdir. Uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar qancha ko'p iste'mol qilinsa yoki xizmatlardan keng foydalanilsa, ushbu mamlakat shuncha rivojlangan hisoblanadi. Aholining turmush tarzi darajasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq ko'rsatkichlar (iste'mol savati va yashash minimumi tahlili) bilan ham bog'liqdir. Bundan tashqari, jahon iqtisodiyotida aholi turmush tarzini aniqlashda mehnat resurslari holat va xizmatlar sohasining rivojlanishi ko'rsatkichlaridan ham keng foydalaniladi.

2.3. Jahon xo'jaligida mamlakatlarning raqobatbardoshligini aniqlash

Jahon xo'jaligida mamlakatning raqobatbardoshligi nimalarga bog'liq? Uning negizida qanday omillar yotadi? Nima uchun ba'zi mamlakatlar ulkan zafarlarga erishyapti-yu, boshqalari esa yo'q? Nima sababdan jahon bozorlarida faqatgina ba'zi bir mamlakatlarga tegishli bo'lgan kompaniyalar yetakchilik qilmoqda? Bunday savollar jahon iqtisodiyotida juda ko'plab uchrab turadi. Biron bir kompaniyaning raqobatbardoshligini aniqlash iqtisodiyotda unchalik qiyin emas. Xo'sh, mamlakatning raqobatbardoshligini qanday aniqlash mumkin? Buning uchun qanday ko'rsatkichlarni ko'rib chiqish zarur? Ko'plab iqtisodchilarni ana shunday masalalar azaldan qiziqtirib kelmoqda.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida Yaponiya va YeI mamlakatlari milliy valutalari kursini AQSH dollariga nisbatan pasaytirish hisobiga ustunlikka ega bo'lishmoqda. AQSH iqtisodiyoti esa to'lov balansining kamomadiga qaramasdan, o'z salohiyati bo'yicha jahonda tengsizdir. Savol tug'iladi: *xo'sh, raqobat ustunliklari nima o'zi? Ular qanday yuzaga keladi?*

Shunday qilib, yuqoridagi barcha savollarga amerikalik iqtisodchi Maykl Porter nazariyasi yordamida javob topishimiz mumkin. Ya'ni, u mamlakat raqobatbardoshligini uning jahon bozorlarida ishtirok etuvchi kompaniyalari raqobatbardoshligi orqali aniqlashni taklif etadi. Maykl Porter mamlakat farovonligi darajasini dastlab mikro darajada qarab chiqish kerak, zero YaIM va milliy daromad alohida olingan kompaniyalar — ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratiladi. Porter fikricha, hattoki eng rivojlangan mamlakatlarda ham sanoatning barcha tarmoqlari va barcha kompaniyalari bir paytda gullab-yashnay olmaydi. Milliy iqtisodiyot rivojining muvaffaqiyati xalqaro miqyosda faoliyat olib boruvchi kompaniyalar bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, xalqaro savdo orqali turli mamlakatlarning eng raqobatbardosh sohalarida yaratilgan mahsulotlar qayta taqsimlanadi. Hech bir mamlakat barcha jabhalarda ustunlikka ega bo'la olmaydi, chunki resurslar cheklanganligi bunga xalaqit beradi. Asosiy va eng muhim vazifa mavjud resurslardan oqilona foydalanishdir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, eng rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqaruvchilarida ham raqobatbardosh bo'lmagan sohalar mavjud. Binobarin, mamlakat iqtisodiyotning eng samarador va raqo-

batbardosh segmentlarida ixtisoslashishi kerak. Raqobatbardosh bo'lmagan tarmoq sohalari yo xorijga ko'chirilishi yoki ulardan umuman voz kechilishi mumkin. Jahon iqtisodiyotida milliy sanoat va xizmatlar sohasining, qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligi erkin bozor sharoitidagina to'laqonli bo'ladi. Har qanday proteksionizm, mahalliy kompaniyalarga subsidiyalar berilishiga, ichki bozorga xorijiy raqobatchilar kirishining cheklanishi milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatning raqobatbardoshligiga to'rt xususiyat (omillar sharti, ichki talab sharti, turdosh va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning mavjudligi, firmalar tuzilmasi strategiyasi va tarmoq ichidagi raqobat) to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazadi. Ushbu to'rt xususiyat mahalliy kompaniyalarda raqobat qiladigan muhitni shakllantiradi. Bu muhit iqtisodiyotda raqobat ustunliklarini yaratilishiga yordam berishi yoki, aksincha, ularning yuzaga chiqishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin.

Jahon iqtisodiyotida omillar sharti ishlab chiqarish omillarini ifodalaydi. Bu shartlarga inson resurslari, tabiiy resurslar, ilmiy-axborot salohiyati, kapital, infratuzilma kiradi. Mamlakat raqobatbardoshligi uchun kerak bo'lgan asosiy omillar (tabiiy va iqlimiy resurslar, mamlakatning jo'g'rofiy joylashuvi, malakaga ega bo'lmagan aholi) tabiiy in'omidir. Rivojlantiriladigan omillarga (zamonaviy infratuzilma, yuqori malakali kadrlar, ilmiy-texnikaviy axborot vositalari va h.k.lar) esa mehnat qilish, ter to'kish natijasida erishiladi. Aynan ana shu rivojlantiriladigan omillar jahon iqtisodiyotida raqobat ustunliklarini beradi. Yuqorida qayd qilingan omillarni umumiy va ixtisoslashgan omillarga ham ajratish mumkin. Umumiy omillardan (avtomobil yo'llari, temir yo'llar, universitetlar, tijorat banklari va ommaviy kutubxonalar) faoliyatning barcha turlarida foydalanish mumkin. Ixtisoslashgan omillardan (yuqori tezlikka ega bo'lgan temir yo'l izlari, texnologik institutlar, ipoteka banklari va tibbiyot kutubxonalaridan) alohida faoliyat sohaslarida foydalanish mumkin. Bu yerda ixtisoslashgan omillar jahon iqtisodiyotida raqobat ustunliklari uchun beqiyos va uzoq muddatlilik bilan ajralib turadi.

Ichki talab sharti xususiyatida ichki talab hajmi emas, balki uning sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, ichki talab shartlari xususiyatida quyidagilar ko'proq ahamiyatga egadir:

- talab tarkibi (bozorni segmentlarga bo‘lish va xaridor ehtiyoji tabiati, bozor sig‘imi, to‘lov qobiliyatiga ega talabning mavjudligi, ehtiyojlar to‘g‘risidagi axborotlar, davlat xaridlari, milliy sifat standartlari, aholi konsentratsiyasi, xaridorlarning ma‘lumoti darajasi va h.k.lar);
- ichki talab o‘shining hajmi va tabiati;
- ichki bozordagi afzalliklar, tashqi bozorga olib o‘tiladigan mexanizmlar.

Bunda uchinchi shartning mohiyati shundan iboratki, alohida olingan bir tarmoqning rivojlanishi turdosh va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarining rivojlanishiga olib keladi. Masalan, Shvetsiyada metallni qayta ishlash sanoati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faoliyat sohalari (yuqori sifatli po‘lat, podshipniklar, turli instrumentlar elektr asbob-uskunalari, avtomobillar ishlab chiqarish) taraqqiy etgan.

Jahon mamlakatlarida kompaniyalarni tashkil etish usullari, maqsadlari va strategiyalari bir-biridan farq qiladi. Firmani boshqarish usuli, rahbarlikni olib borish, raqobat turlari milliy xususiyatlarga bog‘liqdir. Masalan, Germaniyada yirik kompaniyalar, Italiyada esa kichik va o‘rta biznes bilan shug‘ullanuvchi, oilaviy korxonalar, asosan, raqobatbardosh sanaladi. Bunda, kompaniya o‘z strategiyasiga ega bo‘lmasa yoki uning strategiyasi noto‘g‘ri bo‘lsa, bu kompaniya, o‘z navbatida mamlakat rivojlanishda muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, agar mamlakatda bir xil tovar ishlab chiqaruvchi yoki bir xil xizmat ko‘rsatuvchi bir necha milliy ishlab chiqaruvchilar bo‘lsa, bu milliy iqtisodiyot rivoji uchun ulkan yutuq hisoblanadi. Tarmoq ichidagi raqobat iqtisodiy tizim rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi to‘rt xususiyatdan tashqari raqobatbardoshlikka tasodifiy hodisalar ham va shuningdek, davlat siyosati ham ta‘sir (ijobiy yoki salbiy ta‘sir) ko‘rsatishi mumkin. Tasodiflarga kompaniyalar ham, hukumat ham o‘z ta‘sirini o‘tkaza olmaydi. Tasodifiy hodisalarga quyidagilar — kashfiyotlar, yirik texnologik siljishlar, resurslar narxining keskin o‘zgarishi, jahon bozori yoki ichki bozorlarda talabning kutilmaganda oshishi, hukumat rahbarlarining siyosiy qarorlari, urushlar, tabiiy ofatlar va boshqalar misol bo‘la oladi. Xullas, jahon iqtisodiyotida mamlakat raqobat ustunligiga erishish uchun yuqorida qayd etilgan barcha xususiyatlar bo‘yicha ustunlikka ega bo‘lish kerak. Biron-bir alohida ajratib olingan xususiyat bo‘yicha ustunlik xorijiy raqobatchilar tomonidan osongina bartaraf etilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Jahon iqtisodiyotidagi davlatlar qanday mezonlarga ko'ra tasniflanadi?
2. Iqtisodiy birlashmalarning asosiy tiplari qaysilar?
3. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi qanday aniqlanadi?
4. Mamlakatlarning jahon xo'jaligida ishtiroki nimalar bilan belgilanadi?
5. Jahon xo'jaligida mamlakatning raqobatbardoshligini qanday aniqlash mumkin?

3.1. Xalqaro mehnat taqsimotining mazmuni va mohiyati

Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotida yahlit bir jahon xo'jaligiga birlashishini va shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va mohiyatini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir. Dunyoning barcha mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda u yoki bu jihatlari bilan xalqaro mehnat taqsimotiga (XMT) qo'shilgan. Uning chuqurlashuvi esa ilmiy-texnikaviy inqilobning (ITI) ta'siri ostida bo'lgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidan kelib chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish jahonning barcha davlatlar uchun qo'shimcha iqtisodiy samara berib, o'z ehtiyojlarini eng kam xarajatlar bilan to'liqroq qondirish imkonini beradi.

Xo'sh, mehnat taqsimoti nima? *Mehnat taqsimoti* — bu tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimdir. U jamiyat rivojlanishi jarayonida faoliyatning sifat jihatdan differentsiatsiyasi natijasida kelib chiqadi. Xalqaro mehnat taqsimoti davlatlar o'rtasidagi mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimoti darajasi hisoblanadi. U alohida davlatlar o'rtasidagi ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga asoslanadi. XMT jahon xo'jaligida kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish jarayonlarni o'sib borishida ham muhim rol o'ynab, birinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro aloqasini ta'minlaydi, ikkinchidan, ishlab chiqarishda xalqaro ixtisoslashuv va mintaqaviy ixtisoslashuv proporsiyalarni shakllantiradi.

Ma'lumki, xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risidagi qarashlar konsepsiyasi XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida yashab o'tgan ingliz klassik iqtisodiy ta'limotchilar A. Smit va D. Rikardo ishlarida asoslanib, rivojlantirilgan edi. A. Smit xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasini tahlil qilib, savdo va tadbirkorlik erkinlik zarurligini isbotlagan edi. Uning fikricha, savdo erkinligidagi turli to'xisiqlar alohida mintaqalar va butun bir davlatlar o'rtasida ro'y berayotgan xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashishiga xalaqit beradi.

To'siqlarning yo'qotilishi va xalqaro almashuv maydonlarining kengayishi esa milliy iqtisodiyotning ixtisoslashuviga va ularning o'zaro bog'liqligini kengayishiga, umumjahon xo'jaligining yuzaga kelishiga olib keladi.

Xullas, A. Smit keyinchalik o'zining juda mashhur bo'lib ketgan erkin savdo shiorini olg'a surgan edi. Uning qarashlar konsepsiyasini esa keyinchalik ingliz iqtisodchilari D. Rikardo, R. Torrens va Jon Styuart Mill rivojlantirgan edi. Ushbu klassiklarning xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risidagi ilmiy nazariyasining asosiy yutuqlarini biz ishlab chiqarishning nisbiy xarajatlari nazariyasida ko'ramiz. Bu nazariya xalqaro savdo haqidagi iqtisodiy ta'limotning «klassik» asosi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning nisbiy xarajatlari nazariyasi asosida mamlakatlar orasida ishlab chiqarish sharoitlarida farq mavjudligi haqidagi g'oya yotadi. Bunga ko'ra har qanday mamlakatda har qanday tabiiy va iqlimiy sharoitlarda har qanday tovar ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin, deb hisoblanadi. Masalan, Shotlandiyada uzum yetishtirish mumkin. Lekin uning narxi juda baland, undan olinadigan vino esa kam iste'mol qilingan bo'lardi.

U yoki bu tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni solishtirish, talab bo'lgan barcha tovarlarni ishlab chiqarishdan ko'ra eng kam xarajat talab qiladigan ma'lum bir tovar ishlab chiqarish foydaliroq, degan xulosaga olib keladi. Ushbu tovarga ixtisoslashish tashqi bozorda ayirboshlash yo'li bilan boshqa barcha tovarlarni olish imkonini beradi.

Nisbiy xarajatlar nazariyasi biron-bir tovar ishlab chiqarishda bir davlatning boshqa davlatdan mutlaq ustunligi mavjudligida emas, balki bunday ustunlik mavjud bo'lmagan holatda ham ixtisoslashuv foydali ekanligini isbotlaydi. Agar xalqaro darajadagi xarajatlarga nisbatan kam xarajat bilan tovar ishlab chiqarishning iloji bo'lmasa, xarajatlarning o'rtacha darajadan ko'pligi qaysidir bir tovarda eng kam bo'ladi.

Boshqa tovarlarga nisbatan foydaliroq bo'lgan shu tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak. Shu holatdagi ixtisoslashish esa samara beradi. Bunda teskari holat ham nazarda tutilgan. Mamlakat bir necha tovarlar bo'yicha ustunlikka ega bo'lsa, bu ustunlik maksimal bo'lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashish kerak. Xullas, siyosiy iqtisod sohasidagi klassiklarning ushbu g'oyalari E. Xeksher, P. Samuelson, B. Olin, V. Leontev va boshqa bir qator hozirgi zamon iqtisodchilari tomonidan yanada rivojlantirilgan.

3.2. Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi? Birinchidan, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, ikkinchidan, ishlab chiqarishda samaradorlikni ko'tarish, uchinchidan, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga intilish zaruriyati kabi omillar ta'sir qiladi.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi jarayonidagi asosiy narsa, bu shu jarayonning har bir ishtirokchisi o'zining XMTdagi ishtirokidan iqtisodiy foyda qidirishi va topishidir.

Har qanday davlatning xalqaro almashuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklarini amalga oshirishi qulay sharoitlarda (eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlaridagi farqni aniqlash, arzonroq bo'lgan import tovarlardan foydalanib milliy ishlab chiqarishdan voz kechgan holda ichki xarajatlarni kamaytirish orqali va h.k.lar) amalga oshiriladi.

Agar biz jahon xo'jaligini butun bir tizim sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda XMTni ushbu tizimni tashkil qiluvchi birlashtiruvchi asos, deb bilishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanish sur'atlari koeffitsientlari 1971—2000-yillarda quyidagicha xarakterlangan edi (1-jadval):

1-jadval

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanish sur'atlarini koeffitsientlari

Ko'rsatkichlar	1971—1980	1981—1990	1991—2000
Jahon	1,08	1,21	1,08
Sanoati rivojlangan davlatlar	1,11	1,31	1,15
Rivojlanayotgan davlatlar	0,99	1,03	0,80

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlarning ishlab chiqarishi ko'p holatlarda tashqi iste'molchilarga va shuningdek, ichki talab importga yo'nalgan bo'ladi, deb taxmin qilinsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa ichki bozorning nisbatan tez, lekin *ekstensiv kengayishi* bashorat qilinmoqda.

3.3. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining o'ziga xos tomonlari. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi

Ma'lumki, XX asrning 80—90-yillarda jahon xo'jaligida misli ko'rilmagan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar ro'y bergan bo'lib, ular xalqaro mehnat taqsimotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan edi. Jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining asosiy yo'nalishi xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayishi bilan chambarchas bog'liqdir. *Xalqaro kooperatsiya* (XK) va *xalqaro ixtisoslashuv* (XI) xalqaro mehnat taqsimotining shakllari bo'lib, uning mohiyatini namoyon etadi.

Turli davlatlardagi korxonalarining ma'lum bir tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi zamonaviy ilmiy-texnika inqilobi bilan chambarchas bog'liqdir. Ishlab chiqarishning texnologik tizimini murakkablashib borishi bilan bog'liq holda tayyor mahsulotda ishlatiladigan asbob-uskunalar ko'paydi. Masalan, yengil avtomobilda 20 mingdan ortiq, prokat dastgohlarida 100 mingdan ortiq, elektrovozlarda esa 250 mingga yaqin detal ishlatiladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi, asosan, ikki yo'nalish (*ishlab chiqarish va hududiy yo'nalish*) bo'yicha rivojlanib boradi. O'z navbatida ishlab chiqarish yo'nalishi: a) sohalararo; b) davlatlar guruhi; d) alohida korxonalarining ixtisoslashuviga bo'linadi. Hududiy ishlab chiqarish yo'nalishi esa o'z navbatida: a) alohida davlatlar; b) davlatlar guruhi; d) jahon bozori uchun hududlarda ma'lum tovarlarni ishlab chiqarish kabi ixtisoslashuviga bo'linadi.

Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvining asosiy turlariga, birinchidan, predmetli (mahsulot ishlab chiqarish), ikkinchidan, detalli (mahsulotni tashkil qiluvchilarni ishlab chiqarish), uchinchidan, texnologik yoki bosqichli, ya'ni, alohida texnologik jarayonlarni amalga oshirish turlarini (masalan, yig'ish, bo'yash va h.k.lar) kiritish mumkin.

Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi — xalqaro mehnat taqsimotining dinamik shaklidir. XX asrning 50—60-yillarida avtomobilsozlik, aviasozlik, plastmassa ishlab chiqarish va h.k.lar ixtisoslashishida oldingi o'rinlardan birida turgan bo'lsa, 70—80-yillarga kelib esa xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvida ushbu sohalar ilg'or o'rinlardan birini egallagan edi.

Xalqaro mehnat taqsimotining boshqa bir shakli — *xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir*. Uning obyektiv asosi bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining o‘z borayotgan darajasi hamda mamlakat ichida yoki tashqarisida ro‘y berishidan qat’iy nazar mustaqil korxonalar o‘rtasidagi barqaror ishlab chiqarishdagi aloqalar jarayoni hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida ITI ishlab chiqarish kooperatsiyasining muhim elementi bo‘lib, uning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Ishlab chiqarish kooperatsiyasi ma’lum bir munosabatlar tizimi sifatida xizmat ko‘rsatayotgan faoliyat sohasi va hamkorlik usuli bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi o‘zining rivojlangan shakllarida hamkorlikning turli sohalarini qamrab olgan bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ishlab chiqarishda texnologik hamkorlik. Ushbu hamkorlikka:
 - a) litsenziyalar berish va mulkchilik huquqlaridan foydalanish hamkorlik;
 - b) loyiha va konstruktorlik hujjatlarini, texnologik jarayonlarni, mahsulotning texnik darajasi va sifatini, qurilish va montaj ishlarini, kooperatsiyalashgan korxonalarni zamonaviy ishlab chiqishga moslashtirish hamkorlik;
 - d) ishlab chiqarishni boshqarish, standartlashtirish, unifikatsiyalash, sertifikatlashni takomillashtirish va shuningdek, ishlab chiqarish dasturlarini taqsimlash kabi hamkorlik kiradi.
2. Kooperativ mahsulotni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan savdo-iqtisodiy jarayonlardagi hamkorlik.
3. Sotilgan texnik asbob-uskunalarga, stanoklarga xizmat ko‘rsatish sohasidagi hamkorlik.

Jahon iqtisodiyotida kooperativ aloqalarni o‘rnatishda foydalaniladigan uch asosiy usulga (hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish, shartnoma asosida ixtisoslashish, qo‘shma korxonalar tashkil qilish), alohida e‘tiborni qaratmoq zarur.

Hamkorlikdagi dasturlar amalga oshirish o‘z navbatida ikki asosiy shaklda (*pudrat asosida ishlab chiqarish kooperatsiyasi va hamkorlikdagi ishlab chiqarish*) amalga oshiriladi. Shartnoma asosida ixtisoslashish ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqarish kooperatsiyasi ishtirokchilari orasida taqsimlanishini nazarda tutadi. Qo‘shma korxonalarni tashkil etish esa bu integratsiyalashgan kooperatsiyadir.

3.4. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining g'arbdagi zamonaviy qarashlar konsepsiyasi

Jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimotini modernizatsiya qilish sohasidagi g'arb tadqiqotlarini ikki asosiy guruhga (birinchidan, «bir-biriga bog'liqlik»ning turli variantlardagi qarashlar konsepsiyasiga ega bo'lgan, ikkinchidan, XMTning mavjud modellari qayta ko'rish bo'yicha muayyan rejalar asosida ish olib boruvchi guruhlar) bo'lib o'rganish mumkin.

Ma'lumki, «bir-biriga bog'liqlik» konsepsiyasi vakillaridan biri — gollandiyalik iqtisodchi olim K. Nuvenxuzdir. U o'z fikrlarini tasdiqlashda birinchi navbatda barcha davlatlar uchun umumiy bo'lgan ekologik omillarga (atrof-muhitning barqaror emasligi, yerdagi tabiiy resurslarning cheklanganligi) murojaat qilgan edi. Uning fikricha rivojlangan davlatlar rivojlanayotgan davlatlarning xomashyo resurslariga qaram bo'lgan holda rivojlanayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlar esa o'z navbatida sanoati rivojlangan davlatlardan zamonaviy texnik-texnologik va boshqa sanoat mahsulotlariga qaramlikda rivojlanib kelmoqda.

Demak, ular bir-biriga iqtisodiy jihatdan bog'liqdir. Gollandiyalik olimning fikricha mana shundan kelib chiqqan holda jahon xo'jaligida xalqaro mehnat taqsimotini vujudga keltirib, yanada rivojlantirmoq kerak. K. Nuvenxuzning o'zaro bog'liqlik konsepsiyasi jahon iqtisodiyotida umumiy xarakterga ega bo'lib, ular boshqa iqtisodiy nazariyalar guruhini, ya'ni mavjud xalqaro mehnat taqsimotini «zamonaviylashtirish» nazariyasini vujudga kelishi uchun asos bo'lgan edi.

Xalqaro mehnat taqsimotini «zamonaviylashtirish» nazariyasiga muvofiq, rivojlanayotgan davlatlar proteksionizm siyosatidan voz kechishib iqtisodiyotga xorijiy kapitalni keng jalb qilishlari lozim (ko'pgina rivojlanayotgan davlatlar xuddi shunday ham qilishmoqda). Ular jahon iqtisodiyotida «ochiq eshiklar», «ochiq iqtisodiyot» siyosatini olib borib, ko'plab qo'shma korxonalar, erkin tadbirkorlik zonalarni tashkil qilishyapti.

Bunday holatlarni biz, ayniqsa, Osiyo—Tinch okean mintaqasi va Lotin Amerikasidagi «Yangi industrial mamlakatlar»da (Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Tayvan, Braziliya, Argentina va h.k.lar) keng yoyilganini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda ushbu davlatlar proteksionizm siyosatidan to'liq voz kechmasdan undan zarur bo'lganda foydalanmoqda ham.


Sanoati rivojlangan davlatlarning iqtisodchilari fikricha, «zamonaviy» xalqaro mehnat taqsimotini mazmuni va mohiyati nimada? Asosiy ma'no rivojlanayotgan davlatlarni yangi sohalarga yo'naltirishdan iboratdir. Ular, birinchi navbatda, sanoati rivojlangan davlatlar ehtiyojini qondirish uchun eksportga mehnat talab, material talab standartlashgan tovarlar ishlab chiqarishga moslashishlari kerak.

O'z navbatda sanoati rivojlangan davlatlar ham yuqori malakali ishchi kuchi talab qilinadigan va ITI tez rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalarga moslashishlari ham lozimdir. Ushbu nazariya hozirgi kunda asta-sekin amalga oshirilmoqda. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilayotgan kapitalning umumiy hajmida qayta ishlashga yo'naltirilgan kapitalning ulushi ko'payib, qisman «zararli» ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanayotgan davlatlarga ko'chish jarayonlari ro'y berayotir.

Jahon iqtisodiyotida sohaviy ixtisoslashish uch bosqichli sxema bo'yicha amalga oshirilmoqda. Jumladan, birinchidan, rivojlanayotgan «yangi industrial davlatlar», asosan, nisbatan malakali mehnat va zamonaviy texnologiyalar talab qiluvchi tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashmoqda, ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarning kamroq rivojlanganlari asosan, mehnat talab, ishlab chiqarish va jahon bozoriga xomashyo yetishtirib berishga ixtisoslashmoqda (eng kam rivojlangan davlatlar bu sxemaga umuman tushmaydi), uchinchidan, sanoati rivojlangan davlatlar asosan kapital-talab, yuqori texnologiyali tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashmoqda.

Xullas, jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimotining zamonaviy qarashlar konsepsiyasi, uni rejalari va shuningdek, bu nazariyalarni amalga oshirishni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, jahon xo'jaligida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishining hozirgi darajasida sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida yangi turdagi xalqaro ixtisoslashish va kooperatsiyalashuv jarayonlari vujudga kelib, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida integratsion jarayonlar kuchayib bormoqda.

Keyingi yillarda iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos va mos yo'lini tanlagan O'zbekiston ham xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnini topmoqda. Ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy topishi, yangi texnologiyaning kirib kelishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatyapti. Zero, bu boradagi hamkorlikni yuksak pog'onaga ko'tarish uchun har tomonlama bilimga ega bo'lgan mutaxassislar kerak bo'ladi. Shak-shubha yo'qki, o'zbekistonlik yoshlarning bu boradagi salohiyati yetarli.

- 
1. Xalqaro mehnat taqsimotining mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
 2. Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi qanday omillarni bilasiz?
 3. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining o'ziga xos tomonlarini xarakterlab bering.
 4. Xalqaro ixtisoslashuv nima?
 5. Ishlab chiqarish kooperatsiyasining mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
 6. Xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishining g'arbdagi zamonaviy qarashlar konsepsiyasini bayon eting.

4.1. Jahon iqtisodiyotining aloqa va kommunikatsiya tizimlari

XX asrning 70-yillaridan so'ng jahon xo'jaligida, ayniqsa, ishlab chiqarishning baynalmillallashuvi jarayonlari kuchayib borishi natijasida ishlab chiqarish kompaniyalari yiriklashib, ularning faoliyat ko'rsatish doirasi yanada kengayib borgan edi. Kompaniyalarning xalqaro bozorlarda faoliyat yuritishlari uchun vertikal integratsiya va tashqi aloqalar tizimi muhim rol o'ynamoqda. Jahon iqtisodiyotida tashqi aloqalarni rivojlangan kommunikatsion tizimlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Jahon iqtisodiyotida aloqa va transport tizimi YaIM yaratishda muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan davlatlarning xo'jaligini ushbu sohalarida YaIMning 9,5 %, o'rtacha rivojlangan davlatlarda 6,8 %, iqtisodiy past rivojlangan davlatlarda esa 5,4 % yaratilmoqda.

Aloqa va kommunikatsion tizimlar global miqyosdagi takror ishlab chiqarish jarayonlarning muhim elementi hisoblanadi. Aloqa tizimi turli shakldagi axborot yetkazib berish va tarqatish bilan shug'ullanadigan sohalarning majmuyi hisoblanadi.

Jahon xo'jaligi hozirgi kunda rivojlanishning axborotlashtirish rivojlanish bosqichiga o'tib bormoqda. Bu bosqichda aloqa va axborot texnologiyalari jahon xo'jaligining eng asosiy elementiga aylanadi.

Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy sharoitlar tez o'zgarib borayotgan bir davrda iqtisodiy qarorlar qabul qilish va shuningdek, aniq axborot olishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida aloqa tizimining tez rivojlanishi va takomillashishiga sabab bo'layotir. 1985—2000-yillarda xalqaro aloqa xizmatlari hajmi 5—6 barobarga ko'paygan edi.

Jahon iqtisodiyotida aloqa asosan ikki xil ko'rinishda, ya'ni *pochta va elektron aloqalar* ko'rinishida sodir bo'ladi. *Pochta aloqasi* asosan xatlarni, pullarni, davriy nashrlarni jo'natuvchilardan qabul qilib, ularni tayyorlab manziliga yetkazib berish va boshqa xizmatlarni bajaradi.

Elektron aloqa tizimi bu simlar, radio va boshqa elektron vositalar orqali belgi, signal, matn, tasvir, ovozni uzatish va qabul qilishdan

iboratdir. Elektron aloqalar shakliga telefon, videotelefon, telegraf, faks, radio, televideniye, elektron pochta xizmatlari ham kiradi.

Milliy aloqa xizmatlari ko'p jihatdan, mintaqaviy va xalqaro bozorlarning rivojlanishi darajasiga bog'liqdir. Ushbu xizmatlar darajasi bo'yicha jahonda birinchi o'rinda Yel (jahon hajmining 35,2 %), ikkinchi o'rinda Shimoliy Amerika (30,7 %) turadi.

1970—1980-yillarda elektron aloqa tizimlari texnologiyasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bu davrda aloqa tizimida sun'iy yo'ldoshlar, shisha-tolali kabellar, raqamli texnologiyalar kiritila boshlandi. Bu esa o'z navbatida axborot xizmatlari texnologiyasi shakllarini ko'paytirgan edi.

Jahon iqtisodiyotida aloqa va axborot tizimlarining rivojlanishi samaradorlikni oshirish imkonini yaratadi. Amerikalik olimlarning fikricha, aloqadan sifatli va o'z vaqtida foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini 6—10 % ga, muomala xarajatlarini esa 7—20 % ga kamaytirish imkonini berar ekan. Mikrodarajada axborot tizimlaridan samarali foydalanish moddiy zaxiralarni 3—4 marta, aylanma mablag'larni 7—10 % ga kamaytirish imkonini beradi. Aytish lozimki, aloqa jahon iqtisodiyotida xo'jalik resurslaridan optimal foydalanish vositasiga aylangan. Xullas, aloqa tizimlari va informatika ishchi kuchidan foydalanish darajasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda ko'plab tovarlar tannarxida qo'shimcha qo'shilgan informatsion xizmatlar (dizayn, qadoqlash, reklama, tarqatish, boshqaruv va h.k.lar) asosiy komponentga aylanib, uning 80 % ni tashkil etmoqda.

4.2. Jahon iqtisodiyotida transport va aloqa tizimining tutgan o'rni

Jahon iqtisodiyotida transport ham kommunikatsiya tizimiga kiradi. Hozirgi kunda transport tizimining asosiy vazifasi ishlab chiqarish resurslarini takror ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lab, ularning bozorga chiqishini ta'minlashdan iboratdir. Boshqacha aytganda, jahon iqtisodiyotida transport tizimi ishlab chiqaruvchilarni, xaridor va sotuvchilarni ajratib turuvchi vaqt va makonni birlashtirib turadi.

Jahon iqtisodiyotida transport ishlab chiqarish kuchlarini joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish jarayonining bir qismi bo'lgan transport ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni

ta'minlaydi. Transportning YaIMdagi ulushi jahonning ko'pgina mamlakatlarida 4—9 % ni, bandlikda 3—8 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlarda transportda yuk tashish ishlab chiqarishning zamonaviy miqyosida bir kishiga o'rta hisobda to'g'ri keladigan mahsulot miqdori yiliga 20—25 tonnani, jahon bo'yicha esa 10 tonnani tashkil etadi. Ayni bir paytda jamoat mahsulotining har bir tonnasi o'rta hisobda transportning 860 t/km ishlashini talab qiladi.

Jahon iqtisodiyotida insonning mobilligi (harakati) ham oshib bormoqda. Agar 1900-yilda AQSH fuqarosi yiliga o'rta hisobda 698 km yo'l bosgan bo'lsa, 80—90-yillarda yiliga o'rta hisobda 19,2 ming km yo'l bosgan edi. Iqtisodiy past rivojlangan davlatlarda aholining harakatchanligi yiliga o'rtacha 480—660 km.ni tashkil etgan bo'lsa, uchinchi dunyoning eng rivojlangan davlatlarida bu ko'rsatkich 20 barobar ortgan edi.

Xullas, insonlarning harakatchanligi u yoki bu mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning o'rtacha darajasiga yetgandan so'ng keskin o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida transport tizimining rivojlanib borishi yo'l qurilishi va yuk-yo'lovchi tashish miqdoriga qarab aniqlanadi. Jahon xo'jaligida hozirgi kunda yuk tashish miqdori yo'llar qurilishidan ko'ra tezroq rivojlanib bormoqda. Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi oshib borishi bilan yuk tashish dinamikasi pasayib, yo'lovchi tashish darajasi ortib boradi.

Masalan, 1940—1980-yillarda AQSH transport tizimining YaIM 4,9 marta, shaharlararo yuk aylanmasi 3,9 marta, yo'lovchi tashish 5,6 marta o'sgan edi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida mintaqaviy tashilayotgan yuk miqdorlari bo'yicha transport turlari orasida birinchi o'rinda avtomobil transporti, keyingi o'rinlarda esa temir yo'l, dengiz, quvur, ichki daryo va aviatsiya transportlari turadi.

Jahon miqyosida yuk tashish miqdorlari bo'yicha birinchi o'rinda esa dengiz transporti turadi. Uning hisobiga jahonda tashilayotgan yuklarning 60 % to'g'ri keladi.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida transportning barcha turlari va transport jarayonining barcha milliy va xalqaro darajadagi bo'g'inlari jahon transport tizimini tashkil etadi.

Turli guruhlariga kiruvchi davlatlarning transport tizimlari turlicha bo'lib, bu asosan, davlatlarning rivojlanishidagi farqiga bog'liqdir. Transport xizmatlari bozorida rivojlangan davlatlarning

transport tizimi yuk tashilishining asosiy qismini ta'minlaydi (70 % atrofida). Rivojlangan davlatlarning yuk oborotida dengiz transporti yetakchi o'rinda turadi.

Jahon iqtisodiyotida g'arb davlatlari transport xizmatlari bo'yicha keng tarmoqli avtomobil va temir yo'llar tizimiga ega. Bu davlatlarda jahon portlarining 63 % joylashgan bo'lib, ularda jahon yuk oborotining 3/4 qismi bajariladi. Transport vositalarining asosiy qismi ham shu davlatlarga to'g'ri keladi. Dunyodagi avtomobil transportining 80 %dan ortig'i Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropada davlatlariga to'g'ri keladi. G'arb davlatlari dengiz flotining 60,5 % tonnajini nazorat qilib, uning 39 % to'rtta davlat — Gretsiya (16,6 %), GFR (8 %), AQSH (7,2 %) va Norvegiya (6,9 %) hisobiga to'g'ri keladi.

Jahon iqtisodiyotida dengiz flotini davlatlar va mintaqalar bo'yicha hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular odatda ro'yxatga olingan mamlakat bo'yicha hisobga olinadi. Bunday holatda rivojlanayotgan davlatlar ilg'or o'rinlardan birida turadi. Ro'yxatga olish bo'yicha eng yirik rivojlanayotgan mamlakatlarga — Liberiya (tonnajning 32 %), Panama (31 %), Bagama orollari (12 %) hamda Bermud orollari, Kipr va Malta kiradi.

Ushbu davlatlar orasida ma'lum bir ixtisoslashish mavjud. Misol uchun yuk tashuvchi tankerlarning asosiy qismi Liberiya (42 %), Panama (26 %) bayrog'i ostida suzib, asosan Panamada, yo'lovchi tashiydigan kemalar esa Bagama orollarida ro'yxatdan o'tishadi.

Rivojlanayotgan davlatlarning transport tizimi jahon yuk aylanmasining 20 % ni amalga oshiradi. Unda dengiz transporti asosiy o'rinni egallaydi. Rivojlanayotgan davlatlar jahon savdo flotining 35 % ni nazorat qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida eng yirik kema flotiga ega bo'lgan davlatlar bo'lib Xitoy va Janubiy Koreya hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda transportning yengil avtomobillari 10 %, avtobus va yuk mashinalarining 20 % jamlangan (bu AQSHnikidan kamroqdir).

Xullas, jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda raqobat, ilmiy-texnik va texnologiyalarning rivojlanishi, tovarlarning hayotiylik davrining kamayishi, iste'molchilarning sifatini yaxshilash va narxlarni pasaytirishdagi talablari ishlab chiqaruvchilar, transport va kommunikatsion kompaniyalarni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga undamoqda (o'tgan asr mobaynida transport xarajatlarining real narxlari 12 marta kamaytirilgan edi).

4.3. Jahon xo'jaligida transport va aloqani xalqaro tartibga solinishi

Jahon iqtisodiyotida transport va aloqani iqtisodiy nuqtayi nazardan tartibga solish turli daraja va shakllarda (hukumatlararo miqyosda, kompaniyalarning iqtisodiy munosabatlari miqyosida) amalga oshirilmóqda. Hukumatlararo va xususiy monopolistik miqyosdagi hamkorliklar, asosan, ikki tomonlama amalga oshirilishi bilan bir qatorda ko'p tomonlama asosda ham amalga oshirilishi mumkin. Jahon iqtisodiyotida transport va aloqani xalqaro tartibga solishning asosiy vositasi bo'lib, xalqaro kelishuvlar xizmat qiladi. Bu kelishuvlar jahon xo'jaligida turli tashkilotlarning tuzilishiga sabab bo'lmoqda.

Transport sohasidagi ko'p tomonlama hukumatlararo xalqaro munosabatlar turli xalqaro tashkilotlar doirasida amalga oshirilib, bunday tashkilotlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Xalqaro dengiz tashkiloti.
- Fuqarolik aviatsiyasi xalqaro tashkiloti.
- Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi.
- Kema egalarining xalqaro assotsiatsiyasi.
- Xalqaro kemachilik palatasi va boshqalar.



1. Jahon xo'jaligida aloqa va kommunikatsiya tizimlarining ahamiyati haqida nima bilasiz?
2. Jahon xo'jaligida transport kommunikatsiya tizimining asosiy vazifalarini ko'rsating.
3. Jahon iqtisodiyotida transport tizimining ahamiyatini xarakterlab bering.
4. Jahon xo'jaligida transport va aloqani xalqaro tartibga solish shakllarini bayon eting.

5.1. Jahon xo'jaligida jamg'arma va iqtisodiy rivojlanish

Jahon xo'jaligining rivojlanishida moddiy ishlab chiqarish kuchlarining son jihatdan yaxshilanishi va sifat jihatdan takomillashuvi muhim ahamiyatga ega. Jahon xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlari iqtisodiy rivojlanishning birlamchi omili hisoblangan kapitalning ko'p miqdorda talab qiladi. Kapitalning jamg'arilishi kompaniyalar, uy xo'jaliklari va davlatlarning jamg'armalaridan shakllanadi.

Jahon iqtisodiyotida kapital jamg'arilishi jarayonida moddiy-texnik baza va ilmiy salohiyat shakllanadi. Jahon iqtisodiyotining miqyosi va kapital qo'yilmalarining strukturasi iqtisodiy o'sishning darajasi va sur'atini belgilab beradi.

Jahon iqtisodiyotida jamg'arish darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda iqtisodiy o'sish sur'ati odatda yuqoriroq bo'ladi. 1984—1994-yillarda YalM o'sish sur'atlari eng yuqori bo'lgan 20 davlatdan 14 tasida jamg'arish miqdori 25 % dan yuqoriroq bo'lgan. Qolgan 6 davlatda 18 % dan kam bo'lmagan. O'sish sur'atlari eng past bo'lgan 20 davlatdan 8 tasida jamg'arish miqdori 10 % dan kamroq bo'lgan. Lekin jamg'armalar va iqtisodiy o'sish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik bir chiziqli emas.

Ayrim davlatlarda, masalan, Shveysariyada jamg'arish miqdori ancha katta bo'lsa-da, xo'jalikning iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan pastdir. Aksincha bo'lgan holatlar ham mavjud. Ammo umuman olganda, jamg'arishlar darajasi yuqori bo'lishi iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish uchun davlat birinchi navbatda o'z jamg'arish miqdorini oshirishi kerak.

Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, jamg'arish miqdori aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori yuqori va o'rta darajada bo'lgan davlatlarning iqtisodiy o'sishga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, intensiv o'sish sharoitida jamg'arma miqdorining kamayishi har doim ham o'sish sur'atlarini pasayishiga sabab bo'lmaydi. Kapital samaradorligining oshishi iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash uchun kamroq kapital sarflanishiga olib keladi.

Jahon xo'jaligining rivojlanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy o'sish ham o'z navbatida jamg'armalarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Masalan, Sharqiy Osiyodagi tez rivojlanayotgan yangi industrial mamlakatlarda oldinga xo'jalikning iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan, keyinchalik jamg'armalar darajasi o'sib borgan.

5.2. Jahon iqtisodiyotida jamg'armalarning rivojlanish darajasi

Jahon xo'jaligida jamg'armalarning rivojlanish darajasi 1960—1990-yillarda keskin o'zgarib bordi. Jahon iqtisodiyotida jamg'armalarning rivojlanish darajasi 60-yillarda o'sib borgan bo'lsa, 70-yillarda keskin oshganligini va 80-yillarda esa sezilarli darajada kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida jamg'armalar ulushining kamayishi, avvalo, rivojlangan mamlakatlarning davlat sektoridagi jamg'armalar ulushining kamayishi bilan bog'liqdir. Ko'pgina sanoati rivojlangan mamlakatlarning xususiy sektorida jamg'armalar miqdori 20 % atrofida saqlanib turgan bo'lsa-da, davlat sektorining jamg'armalari 4 % dan 0,5 % gacha kamayib va hatto 90-yillarning oxirida qariyb nolga tenglashib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Rivojlanayotgan davlatlarda jamg'arish jarayonlari esa teskari yo'nalishda rivojlanib bormoqda. Ushbu davlatlarning xo'jaligida jamg'arish darajasi 70-yillardagi 19 % dan 90-yillarning oxiriga kelib 27 % ga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.



1. Jamg'arma va iqtisodiy rivojlanishning mazmuni va mohiyatini ochib bering.
2. Jahon iqtisodiyotida jamg'arish darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda iqtisodiy o'sish darajasi qanday ko'rinishda bo'ladi?
3. Jahon xo'jaligida jamg'armalarning rivojlanish darajasini xarakterlab bering.

6-bob. JAHON XO'JALIGIDA TABIIY RESURLAR VA ULARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

6.1. Xomashyo resurslarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish

Jahon xo'jaligining rivojlanishida tabiiy resurslar bilan bog'liq bo'lgan muammolar muhim rol o'ynaydi. Ushbu muammolar mamlakatlar iqtisodiyotining ishlab chiqarish, moliya-valuta va tashqi iqtisodiy va boshqa sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buni, biz jahon iqtisodiyotida 70-yillardagi iqtisodiy inqirozlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, tabiiy xomashyo resurslari har qanday ishlab chiqarish uchun boshlang'ich material bo'lib hisoblanadi. Xomashyo resurslarining mahsulotdagi ulushi turli mahsulotlarda turlicha bo'lishi ham mumkin. Masalan, mashinasozlik sanoatida xomashyo resurslarining ulushi 10—12 % ni tashkil etsa, asosiy kimyoviy sintez mahsulotlarda esa 80—90 % ni tashkil etishi mumkin.

Tabiiy xomashyo resurslari ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyoti uchun sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat boyligi va daromad keltiruvchi asosiy manbalaridan biridir.

Jahon xo'jaligida ishlab chiqarish sohalarning ko'payib borishi, xomashyo resurslari iste'molining ortib borishiga sabab bo'ladi. 1945—1975-yillarda mobaynida jahon xo'jaligida iste'mol qilingan xomashyolar mahsulotlarining miqdori 1940-yilgacha bo'lgan insoniyat tarixida iste'mol qilingan xomashyo mahsulotlarining miqdori bilan teng bo'lgan. Sanoati rivojlangan davlatlarda ushbu davr mobaynida ishlab chiqarish 3,5 marta o'sgan bo'lsa, metallurgiya sanoat mahsulotlarini iste'moli taxminan 3 marta, tog'kon, kimyoviy sanoat mahsulotlari iste'moli 3,5 marta, birlamchi energiya manbalari (neft, gaz, ko'mir, uran) iste'moli esa 2,6 marta o'sgan edi. Xullas, hozirgi paytda jahon iqtisodiyotida xomashyo mahsulotlari iste'moli miqdorining o'zgarishiga, asosan, quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

— *moddiy ishlab chiqarish darajasi*. Moddiy ishlab chiqarishning o'sishi xomashyoga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi;

— *ilmiy-texnik rivojlanish*. Ilmiy-texnik rivojlanish yakuniy mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar darajasining nisbatan pasayishi va strukturasi o‘zgarishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyotida iste‘mol hajmi o‘sib borishi sayyoramizning resurslar salohiyatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Bu esa obyektiv jihatdan tabiiy resurlardan oqilona foydalanish muammolarini keskinlashuviga sabab bo‘lgan edi. Shu nuqtayi nazardan jahon xo‘jaligida yer resurslari qanchaligi dolzarb muammolardan biri ekanligini bilishimiz mumkin.

Jahon xo‘jaligidagi yer usti va yer ostidagi tabiiy xomashyo resurslar miqdori cheksiz emasligi barchamizga ma‘lumdir. Tabiiy resurslarning xususiyati shundaki, ular yakuniy mahsulot bo‘lib, ularning miqdori u yoki bu elementning yer qobig‘i va jahon okeani-dengizlarida mavjudligi bilan belgilanadi. Demak, nazariy jihatdan tabiiy resurslardan uzoq yillar mobaynida intensiv foydalangan holda ularning tugab qolishi xavfi mavjud. Ammo maksimal miqdor nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, ko‘plab elementlarning yer qobig‘idagi miqdori tabiiy resurslarning hozirgi kundagi iste‘molidan ming-milion marotaba ko‘proqdir.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan olganda, tabiiy foydali qazilma boyliklarning sanoat zaxiralari muhim ahamiyatga ega. Sanoat zaxiralari deganda, mavjud narxlar va texnikaviy bilimlar darajasida o‘zlashtirish uchun samarali, sifatli va yaxshi o‘rganilgan tabiiy foydali qazilma boyliklarning zaxiralari tushuniladi. Bunday resurslar miqdori jahon xo‘jaligida nisbatan cheklangan. Masalan, sanoat zaxiralari umumiy miqdorining o‘rtacha yillik qazib olish darajasiga nisbati temir rudasi bo‘yicha 190 yilga, nikel bo‘yicha 76 yilga, aluminiy bo‘yicha 280 yilga, mis 60 yilga, ko‘mir 600, gaz 54, neft 45 yilga tengdir. Agar biz ushbu foydali qazilmalarni qazib olish darajasi yildan-yilga oshib borishini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, bu muddat yana ham kamayishi mumkin.

Agar jahon iqtisodiyotida foydali qazilma boyliklarning sanoat zaxiralarini qazib olishga nisbatini o‘zgarimas holda olinsa, zaxiralarning tugab qolishi tezisi to‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Ammo ushbu nisbatning dinamikasi ko‘rib chiqilganda, holat butunlay o‘zgarishi ham mumkin. XX asrning 50-yillaridan o‘ng jahon xo‘jaligida tabiiy foydali qazilma boyliklarning sanoat zaxiralarini ITT natijasida geologik qidiruv ishlari tez sur‘atlar bilan o‘sib borgan edi. Jumladan, 1950—1990-yillarda jahon xo‘jaligidagi fosfat rudalarining sanoat zaxiralardan foydalanish taxminan 112 marta, temir rudasi

— 2,2, xromli rudalar — 8, neft — 11, aluminiy — 37, mis — 5,7 marta o‘sgan edi. Jahon xo‘jaligida foydali qazilma boyliklardan foydalanish tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, sanoat zaxiralari miqdorining o‘shish sur‘atlari qazib olish sur‘atlaridan balandroq ekan. Umuman olganda, jahonda tabiiy resurslarning sanoat zaxiralari xo‘jalik rivojlanishini ta‘minlash nuqtayi nazaridan yetarli hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu zaxiralarning miqdori kam o‘rganilgan hududlarda va shuningdek, yaxshi ma‘lum bo‘lgan hududlarda ham sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

6.2. Tabiiy resurslar va ishlab chiqarish kuchlari

Jahon xo‘jaligining tabiiy resurslar bilan yetarli darajada ta‘minlanganligi mamlakatlarning tabiiy xomashyo resurslariga bo‘lgan ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilmaydi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish kuchlari va mineral resurslarni joylashishida sezilarli farqlar mavjud. Sanoati rivojlangan davlatlarda noyoqilg‘i tabiiy resurs zaxiralarning 36 %, neftning 5 %, qayta ishlash sanoatining 81 % joylashgan. Ushbu davlatlar jahon xo‘jaligida katta miqdordagi aniqlangan tabiiy xomashyo resurslarining, (masalan, xrom, qo‘rg‘oshin, rux, kaliy tuzlari, uran xomashyosi, boksitlar, temir rudasi va boshq.) juda oz qismiga ega. Rivojlangan davlatlar orasida eng ko‘p tabiiy resurslarga Avstraliya, JAR, Kanada, AQSH kabi mamlakatlar ega.

Rivojlanayotgan davlatlar hududida jahon xo‘jaligi noyoqilg‘i tabiiy resurslarning 50 %, neftning 2/3 qismi, tabiiy gazning 50 %, fosfatlarning 90 %, qalayning 86 %, kobaltning 88 %, mis va nikel rudalarining 50—55 % joylashgan. Ammo, rivojlanayotgan davlatlar jahon xo‘jaligi qayta ishlash sanoat mahsulotlarining bor-yo‘g‘i 20 % ni ishlab chiqaradi.

Rivojlanayotgan davlatlar orasida ham foydali qazilma boyliklar bilan ta‘minlanganlik darajasida katta farqlar mavjud. Jahon iqtisodiyotida tabiiy foydali qazilma boyliklarning asosiy qismi taxminan jahonning 30 ta rivojlanayotgan mamlakatlarida joylashgan. Masalan, Fors ko‘rfazi davlatlari hududida jahon neft zaxiralarning 2/3 qismi joylashgan. Neftga boy bo‘lgan O‘rta Sharq mamlakatlardan tashqari, Braziliya, Chili, Gvineya, Zair, Zambiya kabi davlatlarni ham alohida ko‘rsatish mumkin.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari ham sezilarli miqdordagi tabiiy resurslarga ega. Ushbu mintaqada umuman jahon xo‘jaligida Rossiya

tabiiy xomashyo zaxiralariga eng boy davlatlardan biri hisoblanadi. Rossiya hududida jahon neft zaxiralarining 13 %, tabiiy gaz va ko'mirning 39 %, temir rudasining 2/3 qismi, apatitning esa 70 % joylashgan. Xullas, Rossiyaning tabiiy resurslari zaxirasi AQSHnikidan 3 barobar, XRRnikidan 4,4 barobar ko'pdir.

Jahon xo'jaligida tabiiy xomashyo resurslar nisbatan kam davlatlarda mavjud. Jahon iqtisodiyotida xomashyoning asosiy qismini iste'mol qiladigan davlatlar soni undan ham kamdir. Sanoati rivojlangan davlatlar noyoqilg'i tabiiy xomashyoning 69 % ni, neftning 58 %, tabiiy gazning 50 % ni iste'mol qiladi. Natijada, ushbu davlatlarda tabiiy xomashyo mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni iste'mol qilishi o'rtasida ham katta farqlar mavjud. AQSHda bu ko'rsatkich 20 % ni tashkil etadi. YeI davlatlari esa tabiiy xomashyoga resurslariga bo'lgan ehtiyojining faqat 2/3 qismini qondira oladi, xolos. Yaponiyada esa bu ko'rsatkich yana ham pastroq bo'lib 1/3 qismini tashkil etadi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSH uchun eng katta muammo neftga bo'lgan ehtiyojni qondirishdir. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida iste'mol qilingan neft miqdori qazib olingan neft miqdoridan 2,5 marta, AQSHda 1,9 marta ko'pdir. Yaponiya iste'mol qiladigan neft mahsulotlarining barchasini import qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatning rivojlanish darajasi nisbatan pastligi uchun ham jahon tabiiy xomashyosining 16 % ni iste'mol qiladi, xolos. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashish jarayonlari yildan-yilga kuchayib borishi natijasida bu davlatlarning tabiiy xomashyo resurslariga bo'lgan ehtiyoji tobora oshib bormoqda.

6.3. Tabiiy resurslardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari

Jahon iqtisodiyotida har qanday mamlakatning iqtisodiy holati faqatgina ushbu mamlakatda tabiiy xomashyo resurslarining mavjudligi yoki yo'qligiga bog'liq bo'lmay, jahon xo'jaligining tabiiy xomashyo sektoridagi holatiga ham bog'liqdir. Bu holat, eng avvalo, tabiiy foydali qazilmalarning asosiy ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilariga ham tegishlidir.

Jahon xo'jaligida xomashyo mahsulotlari savdosi xalqaro savdoning muhim qismlaridan biridir. Tabiiy xomashyo mahsulotlari hisobiga jahon eksportining 19—20 % to'g'ri keladi. Xomashyo

eksportida yoqilg'i-energetika mahsulotlari 53 % ni tashkil etadi. Hozirgi kunda xomashyo mahsulotlari eksportida sanoati rivojlangan mamlakatlarning roli oshib boshqa rivojlanayotgan davlatlarning roli esa kamayib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan davlatlar ulushining kamayishi ularning xomashyo mahsulotlarini yetkazib beruvchi davlatlar sifatidagi iqtisodiy ahamiyatini kamaytirmaydi. Masalan, YENing xomashyo mahsulotlarini importining 50—52 % rivojlanayotgan davlatlar hisobiga to'g'ri keladi. Xomashyo mahsulotlarini eksporti sanoat rivojlanishi jihatdan ancha qoloq hisoblangan rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa iqtisodiyotni xomashyo eksportiga qaram qilib qo'yadi. Jahon xo'jaligida rivojlanayotgan davlatlarning bir qanchasi uchun xomashyo mahsulotlarini eksporti muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Zambiya va Zoir eksport tushumlarining 90 % va 69 % ni mis eksportiga, Mavritaniya eksport tushumlarining 70 % dan ortig'i temir rudasi eksportiga, Gvineya eksport tushumlarining 70 % ni boqsitga to'g'ri keladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro xomashyo bozorlarining rivojlanish xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Resurslardan oqilona foydalanish sohasida xalqaro aloqalarning asosiy subyektlari xususiy kompaniyalar hisoblanadi. Ularning asosiy qismi g'arb davlatlarining TMK tashkil etib, ular xomashyo resurslarini qazib olishni ham, undan samarali foydalanishni ham nazorat qilishgan. Bu holat XX asrning 60—70-yillarida kelib biroz o'zgargan edi. Yani, rivojlanayotgan davlatlar asta-sekin tabiiy resurslarni o'zlari nazorat qila boshlagan edilar. Xomashyo jahonning bozorlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning to'liq yoki qisman davlatga tegishli bo'lgan kompaniyalari ham paydo bo'ldi. Ularning noyoqilg'i xomashyo mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi unchalik katta bo'lmasa-da, 10 % atrofida neft ishlab chiqarishdagi ulushi juda kattadir. Jahon xo'jaligida bozorlarning tashkiliy tuzilishi narx-navoning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar bozorlar bir necha kompaniya tomonidan nazorat qilinsa va ayniqsa u yoki bu xomashyoni qazib olish va eksport qilish bo'yicha kvotalar haqida kelishuvlar tuzilsa narx-navolar sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Bunga xalqaro neft mahsulotlarni bozorini yaqqol misol qilib ko'rsatsa bo'ladi.

Ma'lumki, 1973-yilda OPEK davlatlari tomonidan neft qazib olish korxonalari davlat ixtiyoriga o'tkazilgach, ular narxni o'zlari belgilay boshladi. Natijada, neftning narxi 1972—1981-yillar

mobaynida 14,5 marta, yoqilg'i narxi 13,5 marta, xomashyo resurs o'rtacha narxi esa 12,5 marta oshgan edi. Neft narxini saqlab turish uchun OPEK davlatlari uni qazib chiqarishni kvotalashdi va shu yo'l bilan uning narxini hozirgi kungacha yuqori bo'lishiga erishib kelishmoqda.

Jahon xo'jaligida tabiiy xomashyo mahsulotlarining narxlarini keskin o'sishi sanoatda takror ishlab chiqarish sharoitlarining keskin o'zgarishiga olib keldi. Jahon iqtisodiyotida 70-yillarda ro'y bergan yoqilg'i inqirozi foydali qazilma boyliklardan samarali foydalanish, tabiiy xomashyo resurslarini qazib olishda ekstensiv usullardan intensiv usullarga o'tish muammolari paydo bo'ldi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy siyosati asosan xomashyo resurslarini tejash, ishlab chiqarishda yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talabni kamaytirishga qaratilmoqda. Shu maqsadda jahonning ko'pgina davlatlari ikkilamchi xomashyo resurslaridan foydalanish masalalariga o'z e'tiborini qaratmoqda.

Ushbu chora-tadbirlar ishlab chiqarishning material va yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talablarini keskin kamayishiga olib kelmoqda. Jumladan, 1960—1990-yillarda ishlab chiqarishning energetika resurslariga bo'lgan talab darajasi 25 % ga kamaygan bo'lib, bu an'ana hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Jahon xo'jaligida, ayniqsa, energiyaning muqobil manbalaridan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Masalan, jahon xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 25 % AESlarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlar xomashyo mahsulotlari bilan o'zini o'zi ta'minlash darajasini oshirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar natijasida Avstraliya, Kanada, AQSH va JAR ko'plab turdagi tabiiy xomashyo resurslarini ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha jahonda ilg'or o'rinlardan biriga chiqib olgan edi.

Jahon iqtisodiyotida tabiiy xomashyo resurslarining asosiy iste'molchisi bo'lgan rivojlangan davlatlar ham, asosiy eksporter bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar ham jahon bozorlari ustidan o'z nazoratini o'rnatishga intilmoqda. Bunga rivojlanayotgan davlatlar xomashyo ishlab chiqaruvchi davlatlar tashkilotini (masalan, OPEK tashkiloti) tuzish orqali erishishga harakat qilishyapti.

XX—XXI asrlar bo'sag'asida jahon xo'jaligining tog'-kon sanoatida g'arb davlatlari TMKlarining roli oshib bormoqda. Noyoqilg'i

sektorda «Anglo–Ameriken korporeyshn of Saus Efrika» boshchiligi-dagi eng yirik o‘nta kompaniya jahon tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarishning 30 % ustidan o‘z nazoratini o‘rnatgan edilar. 1990-yillarda uchtadan oltitagacha bo‘lgan TMK neft savdosining 75 %, mis savdosining 80–85 %, temir rudasi savdosining 90–95 %, qalay savdosining 75–80 %, fosfatlar savdosining 50–60 %, boqsitlar savdosining 80–85 % ustidan o‘z nazoratini o‘rnatgan edi.

Jahon bozoridagi holat MDH davlatlari metall eksportining oshishi bilan o‘zgardi. 1992-yildayoq MDH davlatlarining jahon eksportidagi ulushi aluminiy bo‘yicha 8,3 % ni, mis bo‘yicha 5 % ni, rux bo‘yicha 2,2 % ni tashkil etgan edi.

6.4. Tabiiy xomashyo resurslarda jahon narxlarining shakllanish xususiyatlari

Tabiiy xomashyo resurslarda narxlarni shakllanishining asosiy xususiyatlaridan biri — *renta munosabatlarining mavjudligi* hisoblanadi. Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqaruvchilar narxi odatda, ayni paytda ishlayotgan konlardan eng yomoni, mahsulotining tannarxi eng yuqori bo‘lgan korxonalar bilan belgilanadi. Bu holat boshqa ishlab chiqaruvchilarga renta olish imkonini beradi.


Tannarxga ta‘sir etuvchi eng muhim omil bo‘lib qazib olishning tog‘-kon geologik shart-sharoitlari, birinchi navbatda rudadagi foydali komponentlarning ulushi va konlarning qulay joylashganligi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida xomashyoning jahon narxlari dinamikasi va darajasini aniqlash uchun quyidagi narx shakllaridan keng foydalaniladi:

— *Ma‘lumot beruvchi narxlar*. Bunga eksport narxlarini ko‘rsatuvchi nashrlarda chop etilgan ulgurji va tashqi savdo narxlari kiradi. Odatda, bu narxlar aniq shartnomalarning narxini emas, sotuvchilarning narxini anglatadi. Bu narxlar amaldagi narxlar uchun «mo‘ljal» bo‘lib xizmat qiladi.

— *Birja kotirovkalari*. Bu narxlar birjadagi o‘zaro kelishuvlarning narxi asosida aniqlanadi. Birjada chayqovchilik hollari ko‘p uchrab turishi bois, birja kotirovkalari aniq narx darajasini ko‘rsatmasligi mumkin.

— *Xalqaro savdodagi shartnomalarning narxlari*. Bular tashqi savdo narxlarini ko‘rsatadi. Ushbu xildagi narxlar alohida tovarlar eksport yoki importidagi qiymatini uning miqdoriga bo‘lish orqali aniqlanadi.

- 
1. Jahon xo'jaligining rivojlanishida tabiiy xomashyo resurslari ahamiyatini xarakterlab bering.
 2. Jahon iqtisodiyotida xomashyo mahsulotlari iste'moli miqdorini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsating.
 3. Tabiiy resurslardan intensiv foydalanish qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin?
 4. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish kuchlari va tabiiy resurslarni joylanishdagi farqlarni ochib bering.
 5. Jahonning qaysi mamlakatlarida tabiiy resurslarni asosiy qismi joylashgan?
 6. Tabiiy resurslardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini bayon eting.
 7. Xomashyo resurslarda jahon narxlarining xususiyatlarini ochib bering.

7.1. Jahon xo'jaligida transmilliy korporatsiyalarning (TMK) vujudga kelishi va rivojlanishi

BMT ekspertlarining fikricha, transmilliy korporatsiyalar (TMK) «jahon mamlakatlar iqtisodining rivojlanishidagi asosiy dvigatellari» hisoblanadi. XX—XXI asrlar bo'sag'asida jahon xo'jaligida 40 mingdan ortiq TMKlar mavjud bo'lib, ular o'z davlatlaridan tashqarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan 250 mingga yaqin sho'ba korxonalarini ham nazorat qilib turishgan. Oxirgi yigirma yil mobaynida TMKning soni 5 barobar ko'paygan (1970–yilda 7 mingta bunday firma ro'yxatga olingan). Hozirgi kunda jahon xo'jaligida mavjud bo'lgan 100 ta eng yirik xalqaro kompaniyalarning 40 % mulki (shu jumladan, moliyaviy mulki) boshqa davlatlar hududida joylashgan.

Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi AQSH, Yel davlatlari va Yaponiyada joylashgan. Jahon xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 40 %, xalqaro savdoni esa 50—55 % ustidan yirik TMKlar o'z nazoratini o'rnatgan. TMK korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yillik miqdori 1 trln doll.dan oshiqroqni tashkil etib, ularda 73 mlndan ortiq kishi faoliyat ko'rsatadi (ya'ni, jahonda band aholining 1/10 qismini tashkil etadi).

Xo'sh, jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar nima, ularga qanaqa kompaniyalar kiradi? An'anaviy ravishda xalqaro korporatsiyalar faoliyatini o'rganadigan TMKlar tarkibiga yillik kapital aylanmasi 100 mln doll.dan oshuvchi va kamida 6 davlatda filiali bo'lgan firmalarni kiritadi. Keyingi yillarda ushbu ko'rsatkich tarkibiga rezident-davlatdan tashqarida sotilgan mahsulotlar miqdorini ko'rsatkichi ham kiritildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha jahonda Shveysariyaning «Nestle» firmasi (98 %) ilg'orlardan biri sanaladi.

BMT metodologiyasi bo'yicha xalqaro korporatsiyani uning aktivlari strukturasi qarab ham aniqlash mumkin. Transmilliy korporatsiyalar ichida eng ko'p xorijiy aktivga (moliya sektori-

transmilliy banklardan tashqari) Angliya-Gollandiya konserni «Royal-Datch shell», keyin AQSHning 4 firmasi: «Ford», «Jeneral motors», «Ekson» va «Ay-Bi-Em» turadi.

G'arb davlatlarining iqtisodiy adabiyotida xalqaro monopoliyalarning ko'plab turlarini (ko'pmilliy korporatsiyalar, baynalmilal korporatsiyalar, transmilliy korporatsiyalar, global korporatsiyalar va h.k.lar) uchratish mumkin. Filipp Kotler tashkiliy tamoyillar asosida aynan ana shunday xalqaro kompaniyalarni ko'rsatib o'tgan edi. Rossiyalik iqtisodchilar esa korporatsiyalarning quyidagi tasnifini berishadi:

Transmilliy korporatsiyalar — bu xorijiy aktivga ega bo'lgan milliy monopoliyalar. Ularning ishlab chiqarish va savdo-iqtisodiy faoliyatlari bir davlat chegarasidan chiqib ketadi.

AQSH iqtisodiyotida hissadorlik jamiyatlarni ham «korporatsiya» deyishadi. Jahon xo'jaligida zamonaviy transmilliy korporatsiyalarning ko'pchiligi Amerika kompaniyalarining ekspansiyasi tufayli vujudga kelganligi uchun ham bu atama iqtisodiy adabiyotlarga kirib kelgan. Hozirgi kunda transmilliy korporatsiyalarning huquqiy filiallari va sho'ba korxonalari jahonning turli davlatlarida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu kompaniyalar nisbatan mustaqil bo'lib, ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotish, ilmiy-tadqiqot va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish kabi ishlab chiqarish faoliyatlarini bajaradi. Umuman olganda, ular yagona ishlab chiqarish-sotish majmuyini tashkil etib, bu hissadorlik kapitaliga faqat ta'sischi davlat egalik qiladi. Shu bilan birga TMKlarning filial va sho'ba korxonalari aralash korxonalar ko'rinishida ham bo'lishi va ularda milliy kapital ustunlik qilishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotida *ko'pmilliy korporatsiyalar* (KMK) — ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotchilik asosida bir necha davlatlarning milliy korporatsiyalarini birlashtiruvchi xalqaro korporatsiyadir. KMKga 1907-yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan Angliya-Gollandiyaning «Royal-Datch Shell» kompaniyasini, kimyo-texnologiya konserni «Yunilever»ni, mashinasozlik, elektron injenerlik sohalariga ixtisoslashgan, Yevropaning mashhur Shveysariya-Shvetsiya ABB (*Asea Brown Boveriy*) kompaniyasini va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Jahon iqtisodiyotida Transmilliy va ko'pmilliy korporatsiyalar qatoriga xalqaro kompaniyalar ichida ajralib turuvchi global korporatsiyalarni (GK) ham kiritish mumkin. Ushbu kompaniyalar XX asming 80-yillarida vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda kuchayib

bormoqda. Global korporatsiyalar zamonaviy jahon xo'jaligida moliya kapitalining butun bir qudratini namoyon qiladi. Jahon iqtisodiyotida globalizatsiya jarayonlari hozirgi kunda ko'proq kimyo, elektrotexnika va elektron sohalarda, neft va avtomobil sohalarida, axborot, bank va boshqa bir necha sohalarda ro'y bermoqda.

Xo'sh, transmilliy korporatsiyalarni paydo bo'lishiga sabab nima? Ular paydo bo'lishining asosiy sababi, milliy-davlat chegaralaridan chiqib ketgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvidir. Ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi yirik kompaniyalar tomonidan xorijiy mamlakatlarda o'z bo'limlarini tashkil etib, milliy korporatsiyalarning TMKlarga aylanishi orqali ekspansiya xarakteriga ega bo'ladi. Jahon iqtisodiyotida kapital olib chiqish xalqaro korporatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishining eng muhim omillardan biridir.

Transmilliy korporatsiyalarni vujudga kelishining sabablaridan yana biri haddan tashqari foyda olishga bo'lgan intilishdir. O'z navbatida, kuchli raqobat, bu ko'rashda tirik qolish zaruriyati, xalqaro miqyosda ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyasi ham TMKlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

7.2. Jahon xo'jaligida TMKlar faoliyatining asosiy xususiyatlari

Jahon xo'jaligida ro'y berayotgan iqtisodiy jarayonlarning obyektiv natijasiga ko'ra, vujudga kelgan transmilliy korporatsiyalar o'ziga xos xususiyatga ega. Jahon iqtisodiyotida TMK xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchisi bo'lib, uning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Transmilliy korporatsiyalarda kapitalning harakati, odatda, korporatsiya joylashgan davlatda bo'layotgan jarayonlardan mustaqil ravishda sodir bo'ladi. Jahon xo'jaligida TMKlar yirik investitsiyalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab qiluvchi yuqori texnologiyali, ilm talab sohalarga intensiv kirib boradi. Ushbu sohalarni transmilliy korporatsiyalar tomonidan monopoliya qilish an'anasi ro'y beradi. 80-yillarning o'rtalarida ikki mingga yaqin eng yirik korporatsiyalar tomonidan dunyo sanoat mahsulotining 3/4 qismi ishlab chiqarilgan edi. Hozirgi kunda 500 ta eng kuchli transmilliy korporatsiyalardan 85 tasi xorijiy mamlakatlardagi investitsiyalarning 70—75 % ustidan o'z nazoratini o'rnatgan

bo'lib, taxminan ushbu 500 ta gigant TMKlar hissasiga jahon bozoriga chiqarilayotgan elektronika va kimyo sanoatining 80—82 %, farmatsevtikaning 93—95 %, mashinasozlikning 76—80 % sanoat mahsulotlari to'g'ri keladi.

G'arb iqtisodchilarining bashorat qilishicha, XXI asr boshlarida jahon xo'jaligida 300 dan 600 tagacha transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarilayotgan jami yalpi mahsulotining 75 % ustidan o'z nazoratini o'rnatib, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini sezilarli ravishda diversifikatsiya qilib borar ekan. Masalan, Shvetsiyaning «VOLVO» avtomobil konserni (Shvetsiyada 30 ta, xorijda bir necha o'nlab ixtisosli yirik sho'ba korxonalariga ega) hozirgi kunda nafaqat avtomobil, balki, katerlar uchun motor va aviadvigatellar, hatto pivo («Pripps») ishlab chiqarmoqda. O'z navbatida AQSHning 500 ta eng yirik transmilliy korporatsiyalari o'rta hisobda 11 sohada, eng kuchlilari esa 30—50 sohalik tarmoq korxonalariga egadir. Xullas, ko'p sohali ilg'or tarmoqli sanoat korxonalariga ega bo'lgan firmalarning 96 tasi Angliyada, 78 tasi Germaniyada, 84 tasi Fransiyada, 90 tasi Italiyada faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Jahon iqtisodiyotida kuchli ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan TMKlar ishlab chiqarishda tovarlar bozorini samarali rejalashtirishni ta'minlovchi ishlab chiqarish-savdo siyosatini olib bormoqda. Rejalashtirish bosh kompaniya doirasida amalga oshirilib, sho'ba korxonalarga tarqatiladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalarni vujudga kelishi va rivojlanishiga misol qilib, hozirgi kunda o'z qo'lida jahonning elektr jihozlari va sanoat uskunalari bozorining 25 % ni ushlab turgan «Elektroluks» TMKni ko'rsatish mumkin. 1912-yilda ikki shved kompaniyasining birlashishi natijasida vujudga kelgan ushbu kompaniya 20-yillardayoq Avstraliya va Yangi Zelandiya bozorlariga chiqib, ishlab chiqarishni tashkil qilgan edi. Oxirgi o'n yillikda «Elektroluks» kompaniyasi AQSHda uchinchi o'rinda turuvchi «Vestingauz», «Gibson» va boshqa markalar ostida kundalik texnik va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchi «Uayt Konsolideyted» kompaniyasini, Italiya va butun Janubiy Yevropada eng yirik elektr tovarlari ishlab chiqaruvchi «Zanussi» firmasi va shuningdek, GFRda asosiy elektr tovarlari ishlab chiqaruvchi «AEG» firmasini aksiyalarini sotib olgan edi. Xullas, bu uch firmani qo'shib olganidan keyin shvedlarning «Elektroluks» korporatsiyasi jahonning 75 mamlakatida kundalik elektrotexnik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish bo'yicha rivojlangan tizimga ega

bo'lgan lider kompaniyaga aylandi. 90-yillarning o'rtalarida ushbu transmilliy korporatsiyaning korxonalarida 110 mingdan ortiq kishi ishlab, uning yillik aylanmasi 1994-yilda 16 mlrd doll.ni tashkil etgan edi.

Jahon iqtisodiyotida TMKlar o'z ekspansiyasini kengaytira borib, jahon bozorini o'zlashtirishning turli shakllaridan (litsenziya berish, franchayzing, boshqaruv shartnomalari, texnik va marketing xizmatlari ko'rsatish, korxonalarni «kalit ostida» topshirish, vaqt bo'yicha cheklangan qo'shma korxonalar tuzish haqidagi shartnomalar, alohida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar) keng foydalanishadi. Bu shakllar ko'p jihatdan shartnomaga asoslanib, hissadorlik kapitalida boshqa firmalarning qatnashishiga bog'liq bo'lmaydi.

Jahon iqtisodiyotida *litsenzion kelishuvlar* ayniqsa, keng tarqalgan bo'lib, 90-yilda TMKning litsenzion kelishuvlarining hajmi 1970-yildagiga nisbatan qariyb o'n barobarga o'sgan edi. Litsenzion kelishuv yuridik shartnoma bo'lib, unga ko'ra litsenziar litsenziatga bir qancha muddatga to'lov evaziga ma'lum huquqlarni beradi. Litsenziya berish transmilliy korporatsiyaning ichki firma shartnomalari bo'yicha ham, texnologiya berishning tashqi kanallari bo'yicha ham amalga oshiriladi.

Franchayzing — uzoq muddatga mo'ljallangan litsenzion kelishuvdir. Bunda franchayzer kliyent — firmaga ma'lum huquqlar beradi. Bu huquqlar o'z ichiga ma'lum to'lovlar evaziga savdo markasi yoki firma nomidan foydalanish, shuningdek, texnik yordam ko'rsatish, ishchi kuchi malakasini oshirish, savdo va boshqarish bo'yicha xizmat ko'rsatish sohalarini oladi.

80-yillardan so'ng *jahon iqtisodiyotida boshqaruv va marketing xizmatlarini ko'rsatish* kabi transmilliy korporatsiyalar ekspansiyasini shakli keng tarqaldi. Boshqaruv xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomaga ko'ra, korxonani operativ nazorat qilish ma'lum to'lovlar evaziga boshqa korxonaga beriladi. Texnik va marketing xizmatlarini ko'rsatish haqidagi shartnomaga ko'ra, transmilliy korporatsiyalar ushbu firma faoliyatiga bog'liq bo'lgan texnik xizmatlarni amalga oshiradi. Bunday shartnomalar, asosan, mashina va uskunalarni ta'mirlash, «nou-xau»dan keng foydalanish bo'yicha maslahatlar berish, avariylarning oldini olish va sifatni nazorat qilish bilan bog'liq bo'ladi. Jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda korxonalarni (ishlab chiqarish obyektlarni) «kalit ostida» topshirish haqidagi shartnomalar ham keng tarqalmoqda. Bunda

transmilliy korporatsiya ma'lum obyektini qurish va rejalashtirish uchun zarur bo'lgan barcha ish faoliyatni amalga oshirish javobgarligini o'z bo'yniga oladi.

Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar tomonidan xalqaro bozorlarni egallashning eng yangi shakllaridan biri xorijda maxsus investitsion kompaniyalarni tashkil qilishdir. Bu kompaniyalarning asosiy vazifasi TMKning sho'ba va hamkorlikdagi korxonalarining mahsulotlarini mintaqaviy bozorlarga chiqarishni rag'batlantirish uchun ularni investitsiyalashdir. Bunday usuldan hozirgi kunda Afrikada alkogolsiz ichimliklarni sotish bo'yicha eng yirik xalqaro kompaniyalar — «Pepsi-kola» va «Koka-kola» keng foydalanishmoqda.

7.3. TMKlarning jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rni

Ma'lumki, TMKlar zamonaviy jahon xo'jaligining muhim ishtirokchilariga aylanib bormoqda. Sanoati rivojlangan davlatlar uchun aynan TMKlarining xorijdagi faoliyati ularning tashqi iqtisodiy aloqalarining xarakterini belgilab beradi. Bu davlatlar eksportida milliy kompaniyalarning o'zlarini xorijdagi filiallariga tovar yetkazib berishlari va xizmat ko'rsatishlarining ulushi kattadir. 80-yillarning ikkinchi yarmida bunday firma ichidagi savdoning ulushiga AQSH eksportini 14—20 %, Yaponiya eksportining 23—29 %, GFR eksportining 24—28 % to'g'ri kelgan edi. TMKlar jahondagi xususiy ishlab chiqarish kapitalining 1/3 qismi ustidan, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning esa 90 % ni nazorat qilishadi.

Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning sohaviy strukturasi ham turli tumandir. Xalqaro korporatsiyalarning 60 % ishlab chiqarish sohasida, 37 % xizmat ko'rsatish sohasida, 3 % qazib chiqarish va qishloq xo'jaligi sohasida banddir.

Amerikaning «Forchun» jurnalini bergan ma'lumotiga qaraganda, jahonning eng yirik 500 ta korporatsiyasi ichida 4 ta majmui — elektronika, neftni qayta ishlash, kimyo va avtomobilsozlik sanoat tarmoqlar asosiy rol o'ynaydi. Ular jahon iqtisodiyotida TMKlarning olib borayotgan tashqi savdo faoliyatining 80 % ana shu tarmoqlarga to'g'ri keladi.


Transmilliy korporatsiyalar investitsiyalarini mintaqaviy-sohaviy yo'nalishi juda xarakterlidir. Ular, odatda, «yangi industrial davlatlar», shuningdek, nisbatan rivojlangan va rivojlanayotgan dav-

latlarni qayta ishlovchi sanoat korxonalariga kapital qo'yishga harakat qilishadi. Bunda kapital oluvchi davlatlar orasida investorlar uchun raqobatchilik kurashi ro'y beradi.

Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy past kambag'al davlatlarga nisbatan iqtisodiy siyosat boshqacha bo'lib, bunda transmilliy korporatsiyalar kapitalni, asosan, qazib olish sohasiga qo'y-salar-da, ammo bu yerda ular eksportni kuchaytirishga harakat qiladi. Natijada, mahalliy bozorni egallash uchun TMKlar o'rtasida kurash kuchayib boradi. Shunday qilib, hozirgi kunda transmilliy korporatsiyalar u yoki bu davlatlarning xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimidagi taqdirini aniqlovchi omilga aylanib qolmoqda. TMKning faol ishlab chiqarishi, olib borayotgan investitsion siyosati, shuningdek, savdo faoliyati tufayli ular ishlab chiqarish va mahsulotlarni taqsimlashning xalqaro tartibga soluvchisiga aylanib bormoqda. Hatto, BMT ekspertlarining fikricha, TMKlar jahonda iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish uchun keng shart-sharoit yaratmoqda.

Transmilliy korporatsiyalarning jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi faoliyatining yaxshi tomonlarini ko'rsatib o'tish bilan bir qatorda, albatta, ularning faoliyat ko'rsatayotgan davlatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini ham ko'rsatib o'tish lozim bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- TMK faoliyat ko'rsatadigan davlatlarning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga xalaqit berishi;
 - davlat qonunlarini buzishi;
 - monopol narxlar o'rnatishi, rivojlanayotgan davlatlarning huquqini cheklovchi shartlarga majbur etishi va boshqalar.
- Xullas, jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar — xo'jaliklararo aloqalarning rivojiga doimo e'tibor berib, o'rganish va yetarli darajada xalqaro nazorat talab qiluvchi murakkab va doimiy ravishda rivojlanib borayotgan fenomenidir.



1. Jahon xo'jaligida TMKni tugan o'rni.
2. TMK nima va ularga qanday kompaniyalar kiradi?
3. Jahon iqtisodiyotida ko'pmilliy korporatsiyalar (KMK) deganda qanday korporatsiyalarni tushunasiz?
4. Jahon xo'jaligida TMK faoliyatining asosiy xususiyatlarini ochib bering.
5. Jahon iqtisodiyotida TMK faoliyatining ijobiy (yaxshi) va salbiy (yomon) tomonlari nimalardan iborat?

8-bob. GLOBAL MUAMMOLARNING IQTISODIY JIHATLARI

8.1. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning mohiyati va xususiyatlari

Jahon iqtisodiyotida hozirgi davr sivilizatsiyasi o'zining rivojlanish jarayonida hech qachon bugungi kundagidek keskin muammolar girdobiga duch kelmagan. Jahon iqtisodiyotida bu muammolarni hal etmasdan turib, insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan rivojlanib harakat qila olmaydi. Jahon iqtisodiyotida u yoki bu muammoni global, ya'ni umumjahon miqyosdagi muammolar ekanligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- uning olamshumul ahamiyat kasb etishi;
- insonlar hayotining barcha sohalariga taalluqliligi;
- muammoni hal etishda ko'pchilik davlatlarning birgalikda harakat qilishligi va h.k.lar.

Olimlar va jamoat arboblari orasida mamlakatlar yoki hududlar taraqqiyotidagi o'ziga xos masalalarning global muammolarga aylanishi xususida turli fikrlar va qarashlar konsepsiyasi mavjud. Shuni qayd etib o'tish joizki, bu jarayonga asosiy sabab jahon xo'jaligining XX asr industrial bozor iqtisodiyoti bosqichiga xos bo'lgan ekstensiv rivojlanishi bo'ldi.

Ammo, oxirgi o'n yilliklarda Yevropa, Amerika va Osiyoning rivojlangan mamlakatlari o'z iqtisodiyotlarini intensiv rivojlanish yo'liga o'tkazish uchun qanchalik harakatlar qilayotgan bo'lishsa-da, ko'plab qoloq, rivojlanayotgan, shuningdek, bir qator o'tish davri iqtisodiyotli sobiq sotsialistik mamlakatlar uchun intensivlashtirilish jarayoni yechilmagan eng muhim muammolar mavjud bo'lib qolmoqda.

Ushbu mavzuda insoniyat uchun eng dolzarb masalalarni qarab chiqish har taraflama universal ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etuvchi muammoni yechishdan boshlash lozim. Shundan so'ng tabiiy-iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan ekologik va oziq-ovqat

muammolari haqida soʻz ketadi. Mavzu soʻnggida aholi sonini oʻsishi bilan bogʻliq boʻlgan eng muhim masala — *demografik muammolar* tahlil etiladi. Ammo koʻrsatib oʻtilgan masalalar bilan jahondagi davlatlar va dunyo aholisini xavotirga solgan olamshumul darajadagi muammolarning xilma-xilligi cheklanib qolmaydi. Bundan tashqari, global muammolarni sharhlaganda va tahlil qilinganda, iqtisodiy jihatdagi masalalar ham diqqatimizni tortadi.

8.2. Jahon iqtisodiyotida quolsizlanish va harbiy ishlab chiqarishni oʻzgartirish anʼanalari

Insoniyat tarixida yuz bergan turli xildagi oʻn besh mingdan ortiq urushlarning iqtisodiyot uchun qanchalik vayron keltiruvchi taʼsirga egaligi barchaga maʼlum. Biroq, sivilizatsiya taraqqiyotining nisbatan tinch davrlarida armiya va mamlakat mudofaasi uchun xarajatlar davlat budjetlari uchun ogʻir yuk hisoblanadi. Muta-xassislarning hisob-kitoblariga koʻra, hozirgi paytda harbiy xarajatlar jahon YaIMining 5—6 % miqdoriga yetmoqda.

Qurol-yarogʻ tayyorlash eng koʻp mehnat va resurs talab qiluvchi ishlab chiqarish sohasi boʻlib, mudofaa qobiliyatini ushlab turish katta miqdordagi qoʻshimcha moliyaviy vositalarni talab qiladi.

Harbiy kuchlarni ommaviy qisqartirish va doimiy armiyalarni quolsizlantirish ulkan tejamkorlikka olib kelishi, iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishi, ochlik, qoloqlik va kambagʻallik bilan kurashga madad berishi mumkin. *Harbiy-sanoat majmui* — bu oʻlim keltiruvchi mahsulot ishlab chiqarishida band boʻlgan minglab korxonalar va millionlab insonlardir.

Bundan tashqari, jahon qurol-yarogʻ savdosi eng daromadli biznes koʻrinishlaridan biri boʻlib, baʼzi mamlakatlarga milliardlab dollar miqdorida daromad olib keladi.

Xullas, yuqoridagi qarashlar konsepsiyasidan soʻng konversiya muammosi, yaʼni harbiy ishlab chiqarishni fuqarolarga moʻljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga aylantirish muammosi kelib chiqadi. Konversiyani jahon iqtisodiyotida amalga oshirishning eng samarali yoʻllaridan biri «ikki yoqlama moʻljallangan» texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi, bu asbob-uskunalarni qaytadan sozlash va bu sohada bandlikni ushlab turish imkoniyatini beradi. Ayni bir paytda jahon iqtisodiyotida harbiy ishlab chiqarishga xos boʻlgan yuksak texnologiyalarda tayyorlangan mahsulotlarni sotish orqali katta foyda olish ham mumkin.

8.3. Jahon iqtisodiyotida ekologik muammolar

Ekologik muammolar ko'p asrlik tarixga ega, biroq, XX asrning 70—90-yillariga kelib, takror ishlab chiqarish va insonlarning xo'jalik faoliyati orasidagi muvozanatning buzilishi oqibatida biosfera holatida keskin yomonlashish holatlari kuzatila boshlandi. Jahon iqtisodiyotida ko'plab keltirilgan faktik ma'lumotlardan va shuningdek, ekspertlar tomonidan keltirilgan statistik raqamlarda atrof-muhit degradatsiyasi ko'lamining kattalashib borayotganligi qayd etiladi. Keyingi 100 yil ichida sayyoramizdagi o'rmonlarning uchdan ikki qismi yo'qolib ketdi, atmosferadagi karbonad anhidrid miqdori 13 % ga ko'paydi, o'nlab turdagi o'simlik va hayvonot dunyosi butunlay qirilib ketdi, insonning genofondining o'zi ham oldini olib bo'lmaydigan mutatsion o'zgarishlar xavfi ostiga tushib qoldi.

Bizning respublikamiz va shuningdek qo'shni davlatlar aholisi ham Orol dengizi suvining kamayib ketishi bilan bog'liq bo'lgan muammoni o'z boshidan kechirmoqda. Orol dengizining qurib qolishi faqat bizning O'zbekistonni muammosigina bo'lib qolmasdan, balki global muammo ekanligini jahon hamjamiyati ham bugungi kunda tan olmoqda. Bu muammo o'z vaqtida hal etilmasa, insoniyat va shuningdek, butun kishilik jamiyati uchun katta xavf tug'dirishi mumkin. Bu borada hozirgi paytda turli davlatlar ahamiyatiga ega bo'lgan dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Ekologik xavf-xatarlarning kuchayishi jahon iqtisodiyotida *ekologizatsiyalash* jarayonini rivojlantirishga asos bo'ladi, zero tabiatni himoyalash omillari savdo, investitsiyalar, ishchi kuchi migratsiyasi kabilarga ta'sir etadi. Mutaxassislarning qayd etishicha, hozirgi kunda umumiy aylanmasi 150 mlrd doll.ga teng bo'lgan tabiatni asrovchi tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarning maxsus bozorlari vujudga kelmoqda.

Atrof-muhitni himoya etish tadbirlari eksport qilinadigan mahsulotlarning raqobatbardoshligiga ham ta'sir qiladi, zero iste'molchilar ekologik toza va xavfsiz mahsulotlarni afzal hisoblashadi. Ekologik muammolarning kuchayishi shunga olib kelmoqdaki, bu muammolar ko'plab mamlakatlar rivojlanishining strategik dasturlarida markaziy o'rinlardan birini egallab, ularni global va hududiy xalqaro integratsion tashkilotlarning kun tartibiga olib kirishdi. Albatta, bu borada xalqaro tashkilotlarning eng yirigi — BMT ham chetda qolgani yo'q. BMT 1972-yildan buyon maxsus

atrof-muhit bo'yicha dastur (YuNEP)ni amalga oshirib kelmoqda. 1992-yilda o'tkazilgan atrof-muhit bo'yicha BMT anjumanining (Rio-de-Janeyro) o'tkazilishi katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu Anjuman qatnashchilari barqaror rivojlanish tamoyilini qabul qilishdi. Bu tamoyil o'z ichiga 27 ta tavsiyaviy xarakterdagi tamoyillarni olib, ularning mohiyati ekologik xavfsizlikning universal mezonlarini qabul qilish, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, sanoat va harbiy sohadagi chiqindilardan rejali ravishda foydalanish, yangi avlodni atrof-muhitni asrab-avaylashga qarata tarbiyalashdan iboratdir. Rio-de-Janeyrodagi anjuman «Yer xartiyasi»ni tayyorlashni belgilab oldi. Bu xartiya XXI asrning ekologik muammosini hal etishning strategik dasturi bo'lib hisoblanadi.

8.4. Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat va demografik muammolar

Sayyorimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan optimal ta'minlash rejimiga erishish muammosi XX asrning oxiriga kelib faqatgina o'ttizga yaqin rivojlangan mamlakatlar uchun o'z dolzarbligini yo'qotgan edi, xolos. Biroq, boshqa jahonning ko'pchilik davlatlari uchun bu muammo eng muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish asta-sekin o'sib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayon aholi sonining ko'payib borishiga nisbatan bir tekisda yuz berayotgani yo'q. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ba'zi bir davlatlarda bu masala barqarorlashgan, ya'ni bir odamga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsuloti miqdori o'zgargani yo'q. Garchi, so'nggi 30—40 yil ichida don mahsulotlari ikki marta ko'paygan bo'lsa-da, lekin bu vaqt davomida yer yuzidagi aholi soni ham 1,8 marta oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Xullas, oziq-ovqat muammosi vujudga kelgan eng jiddiy vaziyatlarni biz hozirgi kunda Saxara sahrosining janubidagi Afrika davlatlari va Osiyoning janubiy hamda markaziy qismidagi ba'zi davlatlarda (Afg'oniston, Bangladesh, Iroq) va shuningdek, bir qator Karib havzasi (Gaiti) davlatlarida ko'rishimiz mumkin. Bu davlatlarda yillik oziq-ovqat xavfsizligi ikki oydan kam muddatga to'g'ri keladi.

Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan oziq-ovqat masalalari bo'yicha Butunjahon uchrashuvida (1996-yil, noyabr) qayd qilinishicha, jahonda doimiy ravishda 800 millionga yaqin kishi to'yib ovqatlanmaydi. Qishloq xo'jaligida hosilning yaxshi bo'li-

masligi, tabiiy ofatlar, harbiy nizolarning bo'lib turishi va shuningdek, oshkora ocharchilikning «avj olishi» bilan bog'liq holda ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlardagi, shuningdek, o'tish davri iqtisodiyotli davlatlardagi aholining turmush farovonligi bilan bog'liq bo'lgan «yashirin» ochlik ko'rinishidagi holatlar yanada keng tarqalmoqda. Buni biz keyingi 15—20 yil ichida 54 davlatda oziq-ovqat bilan ta'minlashning mutlaq pasayib borganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Jahon mamlakatlari iqtisodiyotida, albatta, oziq-ovqat muammosini hal etish borasida olib borilayotgan ba'zi bir ijobiy misollarni ham keltirish mumkin. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli mavjud zaxiralar hisobiga kafolatlangan va shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi rejimini yaratish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishgan davlatlar qatoriga Vetnam, Hindiston, Xitoy, Meksika, Filippinni kiritish mumkin. Ularning xo'jalik sohasidagi tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, qishloq xo'jaligida «yashil inqilob»ni, ya'ni qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyani joriy qilish, o'simliklar va hayvonlar seleksiyasini rivojlantirish, unumdor tuproq tarkibini yaxshilash va qaytadan kultivatsiyalash kabi kompleks choratadbirlarni olib borilishi bu boradagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlardir. Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar tarmoqni investitsiyalashni yiliga 3,5—4 % ga ko'paytirish esa muhim omil hisoblanadi.

Shuni qayd etishimiz mumkinki, jahon iqtisodiyotida ishlov beriladigan maydonlar birligiga to'g'ri keladigan don mahsulotlari hosildorligini ko'paytirish, chorva mollari boshiga to'g'ri keladigan sut va go'sht mahsulotlari miqdorini oshirish kabi bir qator muammoni yechish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xullas, jahon hamjamiyati oldida 2025-yilgacha ochlikni boshidan kechirayotgan odamlar sonini ikki martaga kamaytirish va Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti standartlaridan past darajada egulik iste'mol qiluvchilar sonini sezilarli miqdorda qisqartirish kabi masalalar hozirgi kunda eng dolzarb muammo bo'lib turibdi.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida demografik muammolar mavjudligiga birinchi bo'lib XVIII asrning oxirida ilk bor ingliz donishmandi T.R. Maltus o'z e'tiborini qaratgan edi. Bu muammoning mazmuni va mohiyati shundaki, oziq-ovqat mahsulotlari va insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan boshqa moddiy nozne'matlar ishlab chiqarishga nisbatan aholi sonining nazorat qilib bo'maydigan darajada oshib borishidan iboratdir. Mutaxassislarning

bashorat qilishicha, 2020-yilga borib jahon aholisi soni 8 milliard kishiga yetib, uning 80 % Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarida yashaydi. Ko'z oldimizda yuz berayotgan bunday «demografik portlashlar» keyinchalik tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarishni va insonlarni xo'jalik faoliyatidagi muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida jahonning ko'plab mamlakatlarida ro'y berayotgan kambag'allikning oldini olish, yengish, ochlik, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi bir qator muammolarni yanada chuqurlashtirib yuborishi mumkin.

BMT va hududiy tashkilotlar demografik xavfga yetarlicha ahamiyat berib kelmoqda, ya'ni oilani rejalashtirish dasturlarini, aholi migratsiyasi va rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiya jarayonlarini moliyalashni amalga oshirmoqda. Xullas, yuqorida qayd etilgan barcha global muammolarni hal etish uchun jahon ekspertlari iqtisodiy tizimni qayta qurishni amalga oshirishni tavsiya etishyapti. Buning uchun, asosan, uch yo'nalishda (*sayyoramiz aholisi sonini barqarorlashtirish, energiya olishning muqobil manbalariga o'tish, utilitatsiyaga bo'ysunuvchi sanoat materiallaridan keng foydalanish*) harakat qilish zarurligini ko'rsatmoqda.



1. Umumjahon xarakteriga ega bo'lgan global muammolarni ko'rsatuvchi qanday mezonlarni bilasiz?
2. Jahon mamlakatlari taraqqiyotidagi global muammolar xususidagi qarashlar konsepsiyasi.
3. Jahon iqtisodiyotida qurollsizlanish va uning bartaraf etishdagi qarashlar tizimi.
4. Jahon iqtisodiyotida ekologik muammolarni bartaraf etishdagi olib borilayotgan chora-tadbirlar
5. Jahon xo'jaligidagi demografik va oziq-ovqat muammolarini bartaraf etishda ko'rilayotgan chora-tadbirlar.

9.1. Jahon xo‘jaligida aholi migratsiyasining dastlabki ko‘rinishlari

Jahon iqtisodiyotida mamlakatlar aholisining xalqaro migratsiyasi qadimgi davrda (antik, o‘rta asrlar) va shuningdek, kapitalistik ishlab chiqarish bosqichlari davrida, asosan, ko‘chmanchilik, harbiy yurishlar va o‘zga mamlakatlar hududini bosib olish yoki kolonizatsiya qilish kabi shakllarda ro‘y bergan edi.

Hozirgi kunda jahon mamlakatlari aholisining migratsiyasi o‘ziga xos xususiyatga egadir. Jahon migratsiyasining ro‘y berishida, avvalambor, aholining mehnat migratsiyasi muhim rol o‘ynaydi. Aholi migratsiyasining iqtisodiy sabablarini aniqlashda esa ularning siyosiy, diniy, etnik va irqiy kelib chiqishi sabablarini ham o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ba‘zi sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘z sanoat tarmoqlarining ba‘zi bir sohalarini rivojlanayotgan davlatlarning ishchi kuchi resurslari hisobiga rivojlantirib bormoqda. Masalan, Fransiyaning avtomobilsozlik sanoat korxonalarining 1/3 qismi, qurilish sohalarining 1/4 qismi, Belgiya tog‘-kon sanoat tarmoqlarining 1/2 qismi, Shvetsariyaning qurilish sohalarining 40—45 % xorijiy mamlakatlarning ishchi kuchi migratsiyalari hisobiga ishlayotir.

Jahon xo‘jaligida xorijiy ishchilarni «o‘ziga tortuvchi markazlar» Osiyo qit‘asining Yaqin va O‘rta Sharq (Saudiya Arabistoni, Quvayt, Baxreyn, Liviya, Iroq), shuningdek, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida (Singapur, Malayziya, Tayvan, Gonkong), Lotin Amerikasi davlatlarida (Braziliya, Argentina, Venesuela), Janubiy Afrika Respublikasida tashkil topgandir. Xalqaro integratsiyaning o‘ziga xos xarakterli tomonlaridan yana biri yashirin migratsiyaning nihoyatda yuqori ekanligidir. Keyingi yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlarida jumladan, sobiq SSSRning fuqarolari orasida yashirin emigrantlar soni tez o‘sib bormoqda.

Jahonning ko‘pgina mamlakatlari milliy hukumat boshliqlari migratsion jarayonlarga qo‘pol ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular nafaqat

emigrantlar soniga, balki ularning professional mutaxassisligiga, jinsiga (ayol va erkakligi), yoshiga, til bilishiga va nihoyat ularning mamlakatga doimo kelib-ketib turishligiga ham e'tibor berishyapti.

Jahon iqtisodiyotida mutaxassislashgan ishchi kuchlarini eksport qiluvchi alohida davlatlar ham ajralib chiqmoqda. Bunday davlatlar Yugoslaviya, Xorvatiya, MAR, Pokiston, Portugaliya, Hindiston, Turkiya, Ispaniya, Italiya, Iordaniya, Yaman Arab Respublikasi kabi o'nlab davlatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu davlatlarning ko'pchiligida ishchi kuchlarini eksport qilishdan ko'rgan foydasi tashqi savdo, turizm va boshqa sohalardan keladigan foydadan ancha yuqoriroq ekanligi ma'lumdir.

Jahon iqtisodiyotida ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatlarning keltirayotgan daromadlarini asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

— vositachilik qiluvchi firma va tashkilotlardan soliq undirish hisobidan olinadigan foyda;

— emigrantlar o'z valutasini bevosita vatanlariga o'tkazib turishi hisobidan kelayotgan foyda;

— xususiy investor — migrantlar tomonidan milliy iqtisodiyotni zarur bo'lgan vositalar (qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish, ko'chmas mulk va boshq.) bilan ta'minlab turishdan keladigan foyda va h.k.lar.

Xullas, jahon xo'jaligida ishchi kuchi migratsiyasi doimo o'sishlik, kengayishlik xarakteriga kirib bormoqda. XX—XXI asrlar bo'sag'asida jahon mamlakatlari bo'yicha yillik ishchi kuchi migratsiyalar soni taxminan 25—26 mln kishini tashkil etgan. Xalqaro migrantlarning 60—65 % rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri kelib, taxminan ularning 2/3 qismi sanoati rivojlangan mamlakatlarda mehnat qilishmoqda.

Jahon xo'jaligini milliy lashtirish munosabati bilan tashkil topgan milliy ishchi kuchi bozorlari bazasida mintaqaviy ishchi kuchi bozorlari tashkil topayapti. Xalqaro mehnat bozorlarini tashkil topishi va rivojlanishida TMKlar muhim rol o'ynab. ular professional mutaxassis-kadrlarni jahon xo'jaligining turli ishlab chiqarish tarmoqlariga joylashtirishda katta rol o'ynamoqda. TMKlar ishlab chiqarish va kapitalni bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga va hatto bir materikdan ikkinchi materikka o'tkazishga va shuningdek, xalqaro mehnat bozorining turli yo'llar bilan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib kelayotir. Bundan tashqari, TMKlar ishlab chiqargan o'z mahsulotlari bilan olib borayotgan texnik-texnologik siyosati bilan ishchi kuchi band bo'lgan tarmoqlarni o'zgarishiga ham sabab

bo'layapti. TMKlar xalqaro mehnat bozorida eng yuqori mutaxassislikka ega bo'lgan ishchi kuchlarini zamonaviy maqsad va talablar bo'yicha shakllanishida ham muhim rol o'ynamoqda.

Jahon iqtisodiyotida TMKlar yuqori rivojlanish darajasiga yetmagan ba'zi bir mamlakatlarning ishchi kuchlarini zamonaviy xalqaro ishlab chiqarish tizimiga «tortish»ga harakat qilib, ularni jahon mamlakatlarining zamonaviy texnik-texnologiyasi bilan, ilg'or ishlab chiqarish sohalari bilan tanishtirish imkoniyatiga ham ega bo'layapti. Hozirgi kunda xalqaro ishchi kuchi bozorlari doirasida maxsus ularga ta'sir ko'rsatuvchi «TMKlar segmenti» tashkil etilgan bo'lib, ular asosan G'arbiy Yevropa, Yaqin va O'rta Sharq, Lotin Amerikasi va Afrikada tashkil topgan ishchi kuchi bozorlarida faoliyat ko'rsatayotir. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solishda XMT ning tutgan o'rni kattadir.

Ma'lumki, inson resurslari jahon xo'jaligi resurslarining muhim ko'rinishlaridan biridir. An'anaviy mehnat resurslarini migrativ harakatini, ya'ni, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, biologik va jug'rofik omillari bilan bog'liq bo'lgan qonunlarini, ijtimoiy strukturadagi o'zgarishlar dinamikasini, aholining joylashuvi va ko'payishini demografiya fani o'rganadi. Demografiya fani asosida aholining kelajakdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy turmush tarzi qanday ahvolda bo'lishligi ishlab chiqiladi. Jahon iqtisodiyoti doirasida ba'zi-bir mintaqalardagi aholining kelajak turmush sharoitini, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'zgarib borishiga baho berilib bashorat qilinadi.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida ilk bor ingliz olimi T.R. Maltus (1766—1834) demografik muammolarning mavjudligiga birinchi bo'lib, o'z e'tiborini qaratgan edi. Maltus tabiat bilan hamohang o'simlik va hayvonlarning cheksiz ko'payish va yashash uchun kerakli mablag'lar o'sishi yo'nalishlarini tasdiq etib, o'zining «Nufus qonuni»ning matematik ifodasi nazariyasini yaratgan edi.

Uning fikricha, insonlar agar har 25 yilda ikki marta ko'payib, geometrik progressiya asosida ortib borsa (1, 2, 4, 8, 16, 32, 64, 128...), tirikchilik vositalari eng qulay sharoitlarda ham arifmetik progressiya (1, 2, 3, 4, 5, 6...) asosida ko'payishi mumkin. Ushbu sharoitda T.R. Maltus 200 yildan so'ng aholi sonining tirikchilik vositasiga nisbatan 256:9, 300 yildan so'ng esa 40096:13 bo'lishini nazariy tomonlarini ishlab chiqqan edi (2-jadval).

Jahon xo'jaligida XX asr yer kurasi aholisining keskin va tez o'sishligi bilan xarakterlanadi. Agar yer yuzida yashovchi aholi soni miloddan avvalgi 2,5—3 ming yillar ilgari (jez davrida)

T.R. Maltus «nufus qonuni»ning matematik ifodasi*

Aholining o'sishi	Geometrik progressiya	1, 2, 4, 8, 16, 32, 64, 128...
Tirikchilik vositalarining o'sishi	Arifmetik progressiya	1, 2, 3, 4, 5, 6...
200 yildan so'ng	Aholining o'sishi 256 marta	Tirikchilik vositalarining o'sishi 9 marta
300 yildan so'ng	Aholining o'sishi 9096 marta	Tirikchilik vositalarining o'sishi 13 marta

taxminan 50 mln bo'lgan bo'lsa, eramizning I asr boshlariga kelib 230 mln kishiga yetgan edi. XIX asr boshlarida yer kurasida yashovchi aholi soni 1 mlrd kishidan tashkil etgan bo'lsa, 1930-yillarga kelib 2 mlrd kishiga, 1960-yilda 3 mlrd kishiga, 1974-yilda 4 mlrd kishiga, 1987-yilda 5 mlrd kishiga yetgan edi. Olimlar tomonidan 2020-yilga borib yer yuzida yashovchi aholi soni 8 mlrd kishiga, 2030-yilga borib, esa 10 mlrd kishiga yetib, uning 75—80 % Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlariga to'g'ri kelishi bashorat qilinmoqda. Shunday qilib, BMT va jahon iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy tashkilotlar demografik muammolarga yetarlicha ahamiyat berib, oilani rejalashtirish dasturlari asosida aholi migratsiyasi va rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiya jarayonlarini moliyalashtirish ishlarini amalga oshiryapti. Jahon xo'jaligida ro'y berayotgan global muammolarni hal etish uchun jahon ekspertlari iqtisodiy tizimni qayta ko'rishni amalga oshirishni tavsiya etishmoqda. Buning uchun esa uch yo'nalishda (yer yuzi aholisi sonini barqarorlashtirish, yoqilg'i energetika resurslaridan foydalanishning muqobil manbalariga o'tish, ikkilamchi xomashyo resurslaridan keng foydalanish) harakat qilish zarurligini ko'rsatishayotir.

9.2. Jahon iqtisodiyotida «demografik portlash» jarayoni. Aholi o'zgarishidagi o'ziga xos populatsion sikllar

Jahon iqtisodiyotida yer yuzida aholisining keskin o'sish jarayonlari XX asrga xos bo'lib, buni olimlar odatdagidek «demografik portlash» jarayoni bilan bog'lashadi. Bu davrda aholi o'rtasida o'limning keskin pasayishi kuzatilib, tug'ilish nihoyat darajada yuqo-

*A.A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N.T. O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma, T., «Fan», 1997.

riligicha qolgan (asosan, rivojlanayotgan mamlakatlarda) yoki sal pasaygan bo'lsa-da, biroq o'limga nisbatan yuqoriligicha qolgan.

Jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda demografik statistika quyidagi tug'ilish va o'lim koeffitsientlaridan (promil o'lchovi bo'yicha, mamlakatda tug'ilayotgan va o'layotgan aholi soni 1 ming kishi hisobiga) keng foydalanmoqda. Aholi tabiiy harakati tug'ilish va o'lim o'rtasida o'zaro farqlarning koeffitsientida ko'rinadi. Jahon iqtisodiyotida aholi o'zgarishining o'rganish dinamikasini tahlillari natijasida quyidagi o'ziga xos populatsion sikllarni (bosqichlarni) o'rganish maqsadga muvofiqdir. Dastlabki populatsion xarakterdagi siklga:

- yuqori darajada tug'ilish;
- o'lim darajasining yuqoriligi va buning natura aholi o'sishining sekin borishi.

Bunday nopopulatsion siklga Osiyo, Afrikaning bir qator tropik va subtropik mamlakatlari, Okeaniya orollari davlatlari, ba'zi-bir Janubiy-Sharqiy Osiyo (kamroq darajada bo'lsa-da) davlatlarining aholisi xarakterlidir.

Ikkinchi populatsion xarakterdagi siklga:

- yuqori darajada tug'ilish;
- o'limning pasayishi natijasida aholi sonini keskin ko'payishi.

Bunday populatsion siklga Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining nisbatan rivojlangan ba'zi-bir mamlakatlarini («yangi industrial mamlakatlar»ni) kiritish mumkin.

Uchinchi o'ziga xos populatsion xarakterdagi siklga:

- tug'ilishni kamayishi (pasayishi);
- o'limning qisqarishi.

Bunday populatsion siklning xarakterli tomoni shundaki, tug'ilish o'limga nisbatan (uncha katta bo'lmasa-da) yuqoriroq bo'lishligi saqlansada, aholining o'sishlik darajasi doimo pasayib (kamayib) borishi kuzatiladi. Bunday populatsion siklga, asosan, sanoati rivojlangan mamlakatlarni AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqalarni kiritish mumkin.

To'rtinchi populatsion xarakterdagi siklga:

- tug'ilishning pastligi;
- o'limning kamligi va natijada, nisbatan barqarorlashish jarayoni yoki aholi o'sish dinamikasining minimal rivojlanish darajasi kuzatiladi.

Bunday populatsion xarakterdagi siklga Yel davlatlarini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Shunday qilib, jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlarning har biri yuqorida ko'rsatilgan aniq populatsion sikl bosqichlarini bosib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan

bir qatorda demografiyada, ba'zan o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan, populatsion xarakterdagi sikllar ham namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, aholi o'rtasida o'limning tug'ilishga nisbatan ortib borishi bilan aholining tabiiy o'sishlik darajasida minuslik holatiga ega bo'lgan koeffitsient paydo bo'lmoqda (depopulatsiya, ya'ni mamlakatlarda aholining tabiiy qisqarishi yuz bermoqda). Afsuski, bunday ko'rinishdagi alomatlar hozirgi kunda Rossiya va shuningdek, Germaniya va boshqa Yevropaning ko'plab mamlakatlarida aniq ko'rinyapti. Masalan, 1983—1987-yillarda Rossiyada yillik tug'ilish 2,5 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 1988—1993-yillarda esa 1,4 mln kishini tashkil etgan edi (hozirgi kunda bu ko'rsatkich yanada pasayib ketgan bo'lishi ham mumkin). Vaholanki, Rossiyada bunday past tug'ilishning o'zi butun bir XX asrning 50—70-yillarida ro'y bermagan.

Rossiyada tug'ilishga nisbatan o'limning o'sib borishi quyidagicha ko'rinishda — 1992-yilda o'lim 220 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1993-yilda 737,7 ming kishini, 1994-yilda 920,2 ming kishini tashkil etgan edi (o'limning o'sish darajasi hozirgi kunda ham saqlanib turibdi). Rossiyalik mutaxassislarining fikriga qaraganda, 2005-yilga qadar, mamlakat aholisining soni 9 mln kishiga (6 %) qisqarishi, bunda tug'ilishga nisbatan o'lim 12 mln kishiga ko'payishi taxmin qilinmoqda. Vaholanki, Rossiya aholisining yillik o'rtacha o'sish darajasi O'rta asrlar davrida 0,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, XIX asrning 60—80-yillarida 0,6 % ni, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida 1 % ni, XX asrning 70-yillariga kelib esa 2 % ni tashkil etgan.

BMT mutaxassislarining fikriga qaraganda, yer kurasi aholisi o'rtasida butun bir XXI asr davomida tug'ilish darajasining pasayishi ro'y berib, o'tgan avlodlarning o'rmini qoplash darajasida bo'lishi, shu bilan bir qatorda o'limning kamayishi va o'rtacha umr ko'rishning o'sishlik darajasi davom etishi ko'rsatilmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda 1975—2005-yillarda ko'payib borayotgan umum aholining 92—93 % rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri kelib, XXI asr boshlarida bu davlatlarda yer yuzi aholisining 80 % yashashi taxmin etilmoqda.

Xullas, jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligi hozirgi kunga kelib «demografik yetuklik» bosqichiga yetishganligini ko'rishimiz mumkin (tug'ilishning kamligi bilan o'limning pastligi deyarli tenglashishi, minimal tabiiy o'sishlik darajasi 0 ga tushib qolishligi). Bunga qarama-qarshi jahonning ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarida tug'ilish hali yetarli darajada yuqori bo'lib, faktlarga qaraganda ushbu mamlakatlarda aholi ko'payishi faqatgina XXI asrning oxirlariga kelib, biroz to'xtashi mumkin ekan.

9.3. Jahon iqtisodiyotida aholining yoshiga qarab tasniflanishi

Jahon iqtisodiyotida aholining yoshiga qarab tasniflanishida mavjud bo'lgan demografik qarashlar konsepsiyasining quyidagi mezonlaridan keng foydalanilmoqda:

- tasnifning iqtisodiy tipi;
- tasnifning biologik tipi.

Aholining differenziatsiyalanishida esa inson resurslarini iqtisodiy belgilariga qarab, quyidagi kichik bosqichlarga bo'lish mumkin:

- aholining mehnat qilish qobiliyatiga qadar bo'lgan bosqich (tug'ilish yoshidan to 14—16 yoshgacha);
- aholining mehnat qilish qobiliyatidagi bosqich (14—16 yoshdan to 55—60 yoshgacha);
- aholining mehnat qilish qobiliyatidan so'nggi qarilik bosqichi 55—60 yoshdan so'nggi).

Jahon iqtisodiyotida inson resurslarini bunday bosqichlarga bo'linishi jahonning turli mintaqalaridagi aholining mehnat resurslarini aniqlash va mehnatga yaroqsiz aholi soni bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish imkonini beradi. Statistika jahonning ba'zi bir malakatlarini mehnatga qobiliyatli yoshlarning pastki va yuqori chegaralari bir-biridan keskin farq qiladi. Bu farqlar esa asosan milliy mamlakatlarning mehnat qonunlari va an'analari asosida aniqlanadi.

Aholining biologik mezoni bo'yicha erkak va ayollar uchun differensiallash davri bir yillik, besh yillik va o'n yillik guruhlar alohida olinadi. Ayniqsa, katta yoshdagi, ya'ni Fertel (bola ko'rish qobiliyatidagi yosh) yoshidagi ayol guruhlarining 15—16 yoshdan 49—50 yoshgacha ajratilishi muhim ahamiyatga egadir.

Jahon iqtisodiyotida umumiy qabul qilingan aholi tasnifi yo'q, biroq demografiyada hozirgi kunda quyidagi tasniflardan keng foydalanilmoqda.

- yoshlikning bolalik va o'smirlik yillari (tug'ilish yoshidan 14—15 yoki 19—23 yoshgacha);
- yoshlik va katta yoshdagi davr (15-16 yoshdan to 55—60 yoshgacha yoki 18—19 yoshdan to 55—60 yoshga qadar);
- qarilik yoshi 55—60 yoki 65 yoshdan yuqori.

BMTning demografiyaga oid va shuningdek, antropologiyaga oid maqolalarida quyidagi yoshga oid guruhlar alohida ajratiladi:

- bolalik yoki o'smirlik yosh (tug'ilish yoshidan to 13—14 yoki 16—18 yoshgacha);

- katta yoshdagi davr (15—16 yoshdan to 50—55 yoshgacha);
- qarilik yosh (55 yoshdan yuqori).

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun aholining «qarilik» an'ananing davom etib borishi xarakterlidir (qarilik yoshdagi aholi ko'pchilikni tashkil etadi). Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa aholining tabiiy o'sish darajasi yuqoriligicha (40 % va undan yuqori) qolmoqda. Qarilik yoshdagi aholi (55—60 yoshdan yuqori) rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'pchilikni tashkil qilmaydi (taxminan 4—5 % atrofida).

9.4. Ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solishda xalqaro mehnat taqsimoti

1994-yilning iyun va bundan keyingi davrlarda bo'lib o'tgan BMTning demografik muammolariga bag'ishlangan simfozium va yig'ilishlarida ekspertlar Osiyo va Afrikaning rivojlanayotgan mamlakatlarida Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining tug'ilishni sun'iy ravishda kamaytirish to'g'risida chiqqan takliflarini qabul qilmadi. BMTning demografiya bilan shug'ullanuvchi ekspertlarning fikrlariga qaraganda, XXI asr aholining «qariyalar asri» bo'lishligi bilan xarakterlanar ekan. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda qarilik alomatlari davom etishi bilan bir qatorda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham qarilikni ortish an'ana boshlanganligi ko'zga tashlanmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashovchi aholi soni sanoati rivojlangan mamlakatlarda yashovchi aholi soni ustidan mutlaq jihati-dan ustunligi keskin kuzatilib, unda «qariyalar» guruhiga kiruvchilarning xalqaro munosabatlarda yangi muammolar paydo bo'ladi, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga mehnatkash aholining ommaviy ketib qolishligi holatlari kuzatiladi.

Jahon iqtisodiyotida inson resurslariga baho berish va tahlil qilishda ularning kasbiy (professional) strukturasi va ish bilan bandlik tomonlari hisobga olinadi. Yer kurasi aholisining kasbiy strukturasi doimo iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanish omillari majmuasi asosida shakllanib boradi. Bu holatlar esa ijtimoiy jamiyatning rivojlanishida, mamlakatlarning iqtisodiy yutuqlarida, milliy iqtisodning turli sohalarda ishchi kuchining o'zaro taqsimlanishida namoyon bo'ladi.

Jahon statistikasida «mutaxassislik» (professiya) tushunchasidan tashqari «kasbkorlik» tushunchalari ham mavjud bo'lib, bunday

tushunchalar jahon iqtisodiyotida aynan bir fikrni anglatmaydi. Haqiqatdan ham iqtisodiyotda ma'lum bir malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar nihoyatda kamchilikni tashkil etib, ular boshqa ko'rinishdagi ish faoliyatlari bilan band bo'lib qolishgan. XX—XXI asrlar bo'sag'asida dunyo aholisining professional o'rtacha ish bilan bandligi 41—49 % ni tashkil etgan. Shuningdek, jahon iqtisodiyoti fanida «aholining iqtisodiy faolligi» tushunchasi mavjud bo'lib, bu tushuncha nafaqat umumiy ishlab chiqarishni, balki ishsizlik va to'liq ish kuniga ega bo'lmagan (haftalik) ishsizlikning yashirin ko'rinishlarini ham hisobga olib o'rganadi.

XX asrning 50—70-yillarida sanoati rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiy faol aholining asosiy qismi (30—45 %) sanoat-qurilish ishlarida band bo'lishgan edi. Ammo lekin bu munosabat keyinchalik nisbatan o'zgarib borishi bilan bog'liq holda bu tarmoqlarda aholi sonining avval nisbiy, keyinchalik mutlaq bandlik darajasi keskin kamayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida aholining iqtisodiy faolligini pasayishi qishloq xo'jaligida kuzatilmoqda. Masalan, 1980—1990-yillarda qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi massasi taxminan Buyuk Britaniya va Belgiyada 3—4 % atrofida, Shvetsiya va GFRda 5—6 % atrofida, AQSHda 3—4 % atrofida bo'lgan. Biroq, hozirgi kunda ham ba'zi-bir rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni yetarli darajada yuqoriligicha qolmoqda (aholining iqtisodiy faol qismini umumiy aholi bilan taqqoslaganda). Bunday ahvol, ayniqsa, Janubiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlariga xosdir (Italiya qishloq xo'jaligida iqtisodiy faol aholining 13—15 % band bo'lsa, Gretsiyada 35—40 %).

Jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni qisqarib borishining dastlabki bosqichini XVII—XVIII asrlarga, ya'ni G'arbiy Yevropa mamlakatlarida mehnatga qobiliyatli aholini iqtisodiy qiynalib qolgan davrga to'g'ri kelgan edi. Ana shu davrlardan boshlab (asosan, XVII asrlardagi sanoat inqilobidan so'ng) G'arbiy Yevropaning sanoat tarmoqlarida mehnatga qobiliyatli aholi sonining mutlaq ko'tarilish jarayonlari yuz bera boshladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sanoati rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligi bilan sanoat tarmoqlari o'rtasida «dinamik muvozanat» o'rnatildi (ya'ni, aholi sonining chiqishi va kelishi asosan tenglashgan edi). Ushbu kuzatilgan jarayonlar sanoat va transport sohasida ham, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasidagi ish bilan band bo'lgan aholining iqtisodiy faolligining o'sishi bilan

ham xarakterlidir (misol uchun XX asrning 60—70-yillarida AQSHning xizmat ko'rsatish sohalaridagi ish bilan band bo'lgan aholi massasi 50—52 % atrofida bo'lgan).

Jahon iqtisodiyotida 70—80-yillardayoq sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalari keskin rivojlanib ketgan edi. Bu o'sishni jahon iqtisodiyotida «*ma'naviy ishlab chiqarish*» deb ko'rsatsa ham bo'ladi (ilm-fan, ta'limni rivojlanishi bilan bog'liq). Ma'naviy ishlab chiqarish rivojlanishida insonning jismoniy rivojlanishi va shuningdek, aqliy qobiliyati bilan bog'liq kompleks tarmoqlari (sog'liqni saqlash, dam olish, sport va ommaviy o'yinlar) muhim rol o'ynaydi. Bularning barchasi jamiyatda inson salohiyatini sifatli qayta ishlab chiqarishda muhim rol o'ynab, bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish omillari rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar hozirgi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishidagi o'ziga xos mazmuniga ega bo'lgan u yoki bu progressiv tomonlarni olib rivojlanib borayotir. Ushbu mamlakatlarda qishloq xo'jaligi asta-sekin sanoatning o'sishi hisobiga qisqarib borishiga qaramasdan ustunlik qilib turibdi (qishloq xo'jaligida aholining iqtisodiy faolligi 50—55 % ni tashkil etadi). Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarning mintaqalararo aholi guruhlari o'rtasidagi farqlar nihoyatda kattadir. Misol uchun, Lotin Amerikasi mamlakatlarining qishloq xo'jaligida band bo'lgan iqtisodiy faol aholi 32—35 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida 40—45 % ni, Osiyo va Afrikaning qolgan boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarida esa 50—55 % ni tashkil etyapti.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholining iqtisodiy faolligi ikkinchi darajali bo'lib qolmoqda. Bunga Lotin Amerikasi mamlakatlari kirmaydi, chunki ularda xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholi massasi 80-yillarning boshidayoq 40 % ni tashkil etib, qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholiga (36 %) nisbatan ancha yuqoriroq edi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi uchun xarakterli bo'lgan an'analardan biri — bu iqtisodiy jihatdan kuchayib borishligidir (YaID misolida ko'rishimiz mumkin), ammo ularda yangi xizmat ko'rsatish sohalariga (sanoat ishlab chiqarish sohasiga) moslasha olmaslik holatlari ham kuzatilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bo'lgan umumiy muammolardan biri ish-

sizlikdir. Zamonaviy sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun xarakterli an'anadan biri ishsizlikning o'sib borishidir. Agar 1993-yilda Yevropa hamkorligiga a'zo bo'lgan 25 davlatda va rivojlangan (OESR) mamlakatda ishsizlar soni 32 mln kishini (uning 7,6 % iqtisodiy faol aholiga to'g'ri keladi) tashkil etgan bo'lsa, 1994-yilga kelib, 35 mln kishiga (uning 8 % iqtisodiy faol aholiga to'g'ri keladi) yetgan edi. YeH davlatlari hozirgi kunda ishsizlikning o'sib borishi bilan bog'liq holda juda katta iqtisodiy zarar ham ko'rmoqdalar (to'lanmagan soliqlar hisobiga).

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarda ishsizlar sonini aniqlash hozirgi kunda eng qiyin muammolardan biri bo'lib turibdi (statistik hisobotlarning yomonligi, ishsizlarning o'ziga xos xususiyatlari hisobiga). Xalqaro mehnatni tashkil qilish tashkilotining bergan ma'lumotiga qaraganda, XX—XXI asrlar bo'sag'asida sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ishsizlarning umumiy soni 500 mln kishidan oshib ketgan edi (yer yuzi aholisining 1/10 qismi). Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida umumiy iqtisodiy ahvoning yomonlashib borishi o'z navbatida ishsizlar soni yildan-yilga kuchayib borishiga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda, ayniqsa, qarilik yoshdagi erkak va ayollar, shuningdek, ma'lum bir kasbiy tayyorgarlik va amaliyotiga ega bo'lmagan kishilar qiyin ahvolda qolmoqda.

Dunyoning ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida bolalar mehnatidan foydalanish eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Misol uchun, Italiyaning ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarida ishlayotgan ishchilarning taxminan 1 mln.ga yaqini 9—15 yoshlardagi bolalarni tashkil etadi (YeH davlatlari ichida bu ko'rsatkich bo'yicha Italiya «oldingi» o'rinlardan birida turadi. Ispaniyada ishlayotgan o'smirlar soni 200—250 ming kishini tashkil etayotgan bo'lsa, Taylandda bu ko'rsatkich 3—3,5 mln kishini tashkil etmoqda.

Rossiya va shuningdek, sobiq SSSR tarkibidan ajralib chiqqan, iqtisodiy o'tish davri davlatlarida ham ishsizlik muammosi tobora kuchayib bormoqda. 90-yillarning o'rtalarida Rossiyada ishsizlar soni 1,6 mln kishini (yoki iqtisodiy faol aholining 2,1 %) tashkil etib, 5,3 mln kishi (iqtisodiy faol aholining 7,1 %) hech qanday mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan edi. Ammo aholining ushbu qatlami mehnat qilishning barcha imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilishgan edilar. Xullas, 90-yilning o'rtalarida Rossiya ishsizlarning umumiy potensialida ishlab chiqarishda to'liq

ish bilan band bo'lmagan ishchi kuchini qo'shib hisoblaganda 10,1 mln kishini (iqtisodiy faol aholining 13,5 %) tashkil etib, ishsizlarning yuqori nuqtasiga yaqinlashib qolgan edi. Rossiyada aholining iqtisodiy faolligi ba'zi-bir tarmoqlar yoki sohalarga qo'shilib ketishi natijasida shahar bilan qishloq (посёлка) o'rtasidagi iqtisodiy muammolarni keskinlashtirib yuborgan edi. 2000-yildan boshlab dunyo mamlakatlarida, jumladan, RF va boshqa MDH mamlakatlarida ham qishloq aholisini keskin kamayishi holatlari sezilyapti. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq aholisining soni sanoati rivojlangan davlatlardagi qishloq aholisi soniga nisbatan keskin ortib bormoqda (qishloq aholisining taxminan 9/10 qismi hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi).

Jahon iqtisodiyotida bunday munosabatlar quyidagi jarayonlarda namoyon bo'lmoqda:

— sanoati rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan aholi sonining tobora kamayib borishi;

— rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida band aholining mutlaq miqdori juda kattaligi (YaID davlatlarini tashkil etilishi va boshqalar hisobiga qisqarib borishiga qaramasdan).

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarga XX—XXI asrlar bo'sag'asida qo'shimcha 500 mln.dan ortiq qishloq aholisining «kelishi», sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa, qishloq aholisining umumiy «yo'qotishi» (taxminan 64—66 mln kishini), 2000-yillardan so'ng esa jahon mamlakatlarida qishloq aholisining soni doimiy ravishda kamayib borishi kuzatilmoqda. Xullas, xo'jalikda qishloq aholisining asta-sekin turli sabablarga ko'ra, shahar aholisi tarkibiga qo'shilib ketishi, yirik shaharlar sonini o'sishiga va dunyo aholisining iqtisodiy va madaniy turmush tarzini yaxshilanishiga — *urbanizatsiyaga* olib kelmoqda.

Ma'lumki, XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya jahon mamlakatlari ichida eng rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan bo'lsa, XIX asrning oxirlariga kelib iqtisodiy rivojlanish barcha sanoati rivojlangan G'arbiy Yevropa mamlakatlarini va Shimoliy Amerikani ham qamrab olgan edi. Jahon iqtisodiyotida London, Nyu-York, Chikago kabi dunyoning eng yirik shaharlari paydo bo'ldi. Xullas, XX asr jahon xo'jaligi uchun umumiy urbanizatsiya asri bo'lib, jahon xo'jaligida juda katta o'zgarishlar yuz bera boshladi. Agar 70-yillarda shahar aholisi umumdunyo aholisining 38—39 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2000-yilda 48 % ni tashkil etgan edi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisi 80 % ni tashkil etgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 44 % ni tashkil etgan.

2025-yilga qadar urbanizatsiya jarayonlari davom etib, dunyo mamlakatlari shaharlarida aholining 2/3 qismi yashay boshlaydi (sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholining 85—87 %, rivojlangan mamlakatlarda esa aholining 61—63 %). Hozirgi kunda shahar aholisining keskin ko'payib borish alomatlari Janub va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining bir qator shaharlarida kuzatilmoqda (ushbu mamlakatlar aholisi taxminan 30—35 % shaharlarda yashamoqda). G'arbiy Yevropa dunyoning eng yirik urbanizatsiyalashgan mintaqasi sifatida tan olingan bo'lsa, ancha kam urbanizatsiyalashgan qit'alardan biri Afrikadir.

XX asrning 90-yillariga kelib, jahonning yetakchi sanoati rivojlangan davlatlarining ko'pchiligida shahar aholisining o'sishi (ko'payishi) darajasi qisqarib bormoqda. Bu holat rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya jarayonini borishini sekinlashtiryapti. Biroq, bunga qarama-qarshi rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida esa shahar aholisini ko'payishi alomatlari kuzatilayotir. Xarakterli tomoni shundaki, 70-yillarning o'rtalariga kelib, tarixda birinchi marta rivojlanayotgan mamlakatlarning shahar aholisi (50 % dan ortiqroqni tashkil etgan edi) dunyo mamlakatlari shahar aholisiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan edi. 90-yillarning boshidayoq rivojlangan mamlakatlarning shahar aholisi, sanoati rivojlangan davlatlarning shahar aholisiga nisbatan 1/3 ga ko'paygan bo'lsa, 2000-yillarga kelib esa ikki barobarga ortgan edi.

Jahon iqtisodiyotining eng muhim tomonlaridan biri shahar aholisining *megapollashib* (megapol — yunoncha so'z bo'lib, «katta shahar» demakdir) borayotganlidir. 1950-yilda jahon mamlakatlari ichida shahar aholisi 10 mln kishidan ortiq bo'lgan shaharlar soni faqat ikkita (Nyu-York va London) bo'lgan bo'lsa, 80-yillarga kelib jahonda yangi yetakchi shaharlar — Tokio-Iokogama (20 mln kishi) paydo bo'lgan edi. 2000-yilda jahonning eng yirik shaharlari bo'lib, Mexiko-Siti (aholisi 28 mln kishi atrofida), Tokio-Iokogama (aholisi 28 mln kishi), San-Paulo (aholisi 22 mln kishi atrofida), Nyu-York (aholisi 20 mln kishi atrofida) hisoblangan.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning megapolislashuv jarayonlarining borishi tobora xarakterli tusga kirib bormoqda. Agar 1980-yilda megapolis shaharlarining soni 17 bo'lgan bo'lsa, 2025-yillarga borib esa ularning soni yanada ortib — Mexiko-

Siti (37 mln kishi atrofida), San-Paulo (30 mln kishi atrofida), Katta Bombay (27 mln kishi atrofida), Kalkutta (37 mln kishi atrofida), Jakarta (24 mln kishi atrofida), Dakka (24 mln kishi atrofida), Madras (21 mln kishi atrofida), Karachi (21 mln kishi atrofida), Bangoq (20 mln kishi atrofida), Qohira (20 mln kishi atrofida), Lagos (20 mln kishi atrofida) va boshqalar megapolis shaharlardan bo'lib qolishi qayd etilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa bu davrda teskari an'ana, ya'ni shaharlarda yashovchi aholi o'sishining sekinlashishi va hatto megapolis shaharlardagi aholi soni qisqarib borishi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda iqtisodiyotning eng muhim muammolaridan biri, bu «shaharlar inqirozi»ning ro'y berayotganligidir. Bu inqiroz iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ekologik, transport, jinoyatchilikni o'sishi muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunday holatlar hozirgi kunda rivojlangan shaharlar hayotida kuzatilyapti.



1. Jahon iqtisodiyotida aholining xalqaro migratsiyasi dastlabki ko'rinishlarini xarakterlab bering.
2. Aholi migratsiyasining jahon mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib bering.
3. Xalqaro ishchi kuchi bozorlari doirasida faoliyat ko'rsatayotgan «TMKlar segmenti» to'g'risida nima bilasiz?
4. T.R. Maltusning demografik muammolarning mavjudligi to'g'risidagi nazariyasini izohlang.
5. Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan «demografik portlash» jarayonlarini bayon eting.
6. Jahon iqtisodiyotida aholi o'zgarishining dinamikasini xarakterlovchi asosiy populatsion sikllarni mazmuni va mohiyatini ochib bering.
7. Jahon iqtisodiyotida «mutaxassislik» va «kasbkorlik» tushunchalarini bir-biridan farqlarini ko'rsatib bering.
8. Jahon iqtisodiyotida urbanizatsiya jarayonlarining borishini xarakterlang.

10.1. Xalqaro ishlab chiqarishdagi hamkorliklar

Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanish dinamikasi va yo‘nalishi ishlab chiqarish hamda muomala sohasini qamrab oluvchi integratsion jarayonlarning mazmuni va mohiyatini asoslab beradi. Bunda ko‘pchilik hollarda savdo aloqalari ikkinchi o‘ringa qo‘yiladi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishdagi hamkorlikning bir necha bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir: uning birinchi bosqichida mamlakatlarning umumiy mehnat taqsimoti xalqaro ixtisoslashuvlar bilan chambarchas bog‘liqligini ifoda etadi. Bunda ishlab chiqarishning bir sohasidagi (masalan, sanoat) mahsulotlar boshqa sohasi tomonidan ishlab chiqarilgan (masalan, qishloq xo‘jaligi) mahsulotlariga ayirboshlash rivojlanadi.

Ikkinchi bosqich, qisman, xalqaro mehnat taqsimoti negizida tarmoqlararo ixtisoslashuvning intensiv rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu, eng avvalo, moddiy ishlab chiqarish tuzilmasining murakkablashuvi, ya‘ni sanoat tarmoqlarining differentsiatsiyasi bilan bog‘liq. Bu xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning vujudga kelishida o‘z aksini topadi.

Uchinchi bosqichda tarmoqlararo xalqaro iqtisoslashuv firma yoki ishlab chiqarish korxonolari ichidagi ixtisoslashuv jarayoni bilan bog‘liq. Bu mahsulotning alohida qismlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvni nazarda tutadi. Bu ixtisoslashuv keng doiradiga kooperativ aloqalarni mavjud bo‘lishini talab qiladi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish hamkorligida asosiy bo‘lgan xalqaro ixtisoslashuv va xalqaro kooperatsiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi — turli mamlakatlar huquqiy shaxslarini bir yoki bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan har xil ishlab chiqarish jarayonlarining bevosita birlashuvidir, ya‘ni u ishtirokchilarni aniq bir ishlab chiqarish maqsadida birlashtiradi.

Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining asosiy ko‘rinishlari — ixtisoslashuv va kooperatsiya asosida ishlab chiqarish, savdoni o‘zaro muvofiqlashtirish, qo‘shma korxonalar, pudrat asosidagi ishlar (qurilish) va shuningdek, ilmiy-texnikaviy hamkorliklar hisoblanadi. Bu ko‘rinishlar jahon iqtisodiyotida hamisha ham sof holda mavjud bo‘lavermaydi. Ammo amaliyotda firmalar biron-bir mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tarmoqlararo va tarmoq ichidagi ixtisoslashuvga asoslangan qo‘shma ishlab chiqarishni tashkil etishadi. Bu qo‘shma korxonalarda ilmiy ishlab chiqarish bilan savdo faoliyatlari uzviy bog‘liqlikda olib boriladi.

Xalqaro ixtisoslashuv asosidagi ishlab chiqarish jarayonlar xalqaro iqtisodiy integratsiyani va shuningdek, turli mamlakatlarning firmalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar rivojlanishining yuqori darajadiligini ifoda etadi.

Ishlab chiqarish hamkorligining o‘ziga xos belgilari quyidagilar:

— hamkorlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning uzoq muddatlilik, barqarorligi va doimiyligi;

— ishlab chiqarish kooperatsiyasi subyektlari sifatida turli mamlakatlarda sanoat korxonalar (firmalar)ning mavjudligi;

— kooperatsiyaning asosiy obyektlari sifatida tayyor buyumlarni va shuningdek, boshqa mahsulotlarni pudrat asosida texnologik ishlab chiqarishning mustahkamlanishi;

— muvofiqlashtirilgan dastur asosida vazifalarning hamkorlar o‘rtasida taqsimlanishi;

— hamkorlar o‘rtasida o‘zaro yoki bir tomonlama tovar yetkazib berishning xalqaro hamkorlik doirasidagi ishlab chiqarish dasturlarning amalga oshirilishi bilan bog‘liqligi (ya’ni, bu odatdagi oldisotdi shartnomalarini bajarish emas).

10.2. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorliklar

Ma’lumki, jahon iqtisodiyotida xalqaro, ilmiy-texnikaviy hamkorliklar, odatda, ilmiy, moddiy va moliyaviy resurslarni birlashtirish, mutaxassislarning ilmiy-tadqiqot guruhlarini yoki tashkilotlarini tashkil etish orqali ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlari bo‘yicha qo‘shma dasturlar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Jahon iqtisodiyotida ushbu hamkorliklarning eng oqilona va samarali ko‘rinishlari quyidagilar hisoblanadi:

— yangi ilmiy-texnikaviy g‘oyalardan, marketing tadqiqotlaridan va shuningdek, iqtisodiy hisob-kitoblardan oqilona foy-

dalanish maqsadida ilmiy-tadqiqot markazlarini, buro va laboratoriyalarini tashkil qilish;

— firma yoki ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy ko'rsatkichlarini samaradorligini oshirish maqsadida tajribalar o'tkazish;

— ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish sohasida xorij tajribalarini birgalikda o'rganish;

— ilmiy-texnikaviy siyosat masalalari bo'yicha joriy muvoqilashtirish va maslahatlar berish;

— malakali tadqiqotchi kadrlar tayyorlashni tashkillashtirish.

Jahon iqtisodiyotida ilmiy-texnikaviy hamkorliklar uchun uning samaradorligini tahlil qilish juda muhim sanaladi. Olingan ilmiy-tadqiqot natijalarining samaradorligi bir necha jihatdan qarab chiqiladi, ya'ni ularning nazariy, texnik va amaliy qiymati bilan aniqlanadi.

10.3. Integratsion jarayonlarning milliy iqtisodiyotga ta'siri

Bizga ma'lumki, integratsion birlashmaga qo'shiluvchi davlat iqtisodiyoti o'zaro aloqalar olib boruvchi hamkorlarga xos umumiy jarayonlarni boshidan kechira boshlaydi. Bu jarayonlar ko'pchilik hollarda ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, ba'zi-bir salbiy jihatlarga ham ega.

Milliy xo'jalik uchun integratsiyaning ustunlik tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

— bozor miqyosining kengayishi, bunda taklifning ko'payishi natijasida kapital aylanmada tezlik ortadi, bu esa o'z navbatida milliy bozori cheklangan kichik va o'rta mamlakatlar uchun, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi;

— ishtirokchi mamlakatlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi;

— integratsion blok a'zosi obro'-e'tiborining oshishi, bu o'z navbatida davlatlarga turli savdo-iqtisodiy muzokaralarda yaxshi mavqega ega bo'lishini ta'minlaydi;

— axborot-texnologiyalar ayirboshlash sur'atlarining tezlashishi, bu eksport mahsulotining tannarxini kamaytirish, sifati va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi;

— ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tartibga solish imkonini beruvchi mamlakatlar o'rtasidagi migratsiya aylanmasini oshishi.

Jahon iqtisodiyotida integratsiyaning yaqqol ko'zga tashlanuvchi salbiy oqibatlari ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

— iqtisodiyoti kuchsizroq bo'lgan mamlakatlardan resurslarning kuchli hamkorlar tomon oqib o'tishi;

— kompaniyalar o'rtasida oshkor bo'lmagan kartel bitimlar va o'zaro birlashishlar natijasida milliy monopoliyalar ahamiyatining kuchayishi, bu «sog'lom» bozor raqobatini cheklaydi;

— integratsion blokning burokratik institutlari faoliyati natijasida katta miqdordagi xarajatlarning vujudga kelishi.

Ko'plab chop etilgan milliy va xorijiy iqtisodchilarning asarlarida shu holat to'g'ri ko'rsatiladiki, ya'ni integratsion guruhda u yoki bu mamlakatning ishtirok etishi ijobiy yoki salbiy jihatlarini baholash juda murakkabdir. Biroq o'z-o'zidan tushunarliki, integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga kambag'al, jahon YaIMda kam ulushga ega bo'lgan davlatlar ko'proq iqtisodiy samara olishadi. Bunday natijaga turli integratsion tashkilotlarni, xususan, YeIning rivojlanish bosqichini tahlil qilish asosida kelingan edi.



1. Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi deganda, nimani tushunasiz?
2. Xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik degandachi?
3. Integratsion jarayonlarning milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Integratsion jarayonlarning milliy iqtisodiyotga salbiy ta'siri haqida nima deya olasiz?

11-bob. RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR — JAHON XO'JALIGI TIZIMIDA

11.1. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga umumiy tavsif. Iqtisodiy rivojlanishning umumiy qonunchiligi

XX—XXI asrlar bo'sag'asida bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning 40 tasi G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo, Avstraliya va Okeaniyada joylashgan bo'lib, uning 29 tasi iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining a'zosisdir. Rivojlangan davlatlarning 7 tasi, ya'ni AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya jahonning «katta yettilik» davlatlari hisoblanadi. Ushbu davlatlar hozirgi kunda jahon xo'jaligining barcha tarmoqlarini iqtisodiy rivojlanish yo'nalishini va shuningdek, mintaqalarda davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish alomatlarini belgilab beradi.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori hisoblanadi. 1997-yilda ushbu ko'rsatkich sanoati rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 21,5 ming dollarni, jahonning rivojlangan davlatlari bo'yicha esa o'rtacha 5,7 ming dollarni tashkil etgan edi (rivojlanayotgan mamlakatlarda 3—15 ming dollarni, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 5,5 ming dollarni, MDH davlatlarida esa 3,1 ming dollarni tashkil etgan). Rivojlangan mamlakatlarda YaIM miqdori aholi jon boshiga nisbatan 6,8 marta, rivojlanayotgan mamlakatlarda 6,8 marta, Sharqiy Yevropa davlatlarida 3,9 marta, MDH davlatlarida esa 6,7 marta o'sgan edi.

Jahon xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlar hududiga to'g'ri keladi. 1997-yilda rivojlangan mamlakatlarda yashovchi aholi soni 840,5 million kishini (yer yuzi aholisining 14,2 % ni tashkil etgan). Ushbu davlatlarda YaIM qiymati 18070 mlrd dollarni (bu ko'rsatkich jahon hajmiga nisbatan 52,8 % ni) tashkil etgan. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar hozirgi kunda jahonning boshqa mamlakatlari iqtisodiy

rivojlanishi yuzasidan (tashqi savdo, xorijiy investitsiya tarmog‘i, transmilliy korporatsiya tarmog‘i, ilmiy-texnikaviy monopoliyaga erishish va boshqalarni) nazorat qilish yildan-yilga kengayib bormoqda. 1929—1933-yillarda jahon kapitalistik xo‘jalik tizimini inqirozga yuz tutishi boshqarish tizimini izdan chiqishi, iqtisodiyotning beqarorligi, inflatsiya, ishsizlikning kuchayishi ishlab chiqarishning keskin tushishiga olib kelgan edi.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida davlat rolining ko‘zga ko‘rinarli darajada o‘shishi Ikkinchi Jahon urushidan keyin yuz berdi. Bu esa o‘z navbatida aralash iqtisodiyotni yuzaga keltirdi. Ya‘ni, xususiy biznesda asosiy o‘rinni davlat sektori egallagan edi. Davlat sektori va xo‘jalik mexanizmining bozor elementlariga qarab rivojlangan mamlakatlarning aralash iqtisodiyotini quyidagi bir necha iqtisodiy rivojlanish modellari asosida o‘rganish mumkin:

— *Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning liberal (Amerika) modeli* — bunda xususiy mulkchilik ishlab chiqarish raqobatida bozor mexanizmidan yuqori darajada sotsial differensiyalanadi. Davlat sektori makro-mikro iqtisodiyotni qonunlar asosida boshqarib turadi. Soliq, pul-kredit siyosati, raqobat va shuningdek, monopoliyani cheklash, bozorning kasotga uchrashi kabi aholining ma‘lum bir guruhlarini ijtimoiy-iqtisodiy qiziqishlarini himoya qiladi. Liberal model, asosan, AQSH va Kanadaniki bo‘lib, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Belgiya, Italiya va Fransiya kabi davlatlar ham hozirgi kunda liberal model asosida o‘z iqtisodiyotini rivojlantirib bormoqda.

— *Sotsial bozor (Germaniya) modeli* — ushbu model bozor mexanizmi infrastrukturasi tashkil qiladi va uni to‘ldiradi. Doimo aholining ishlab chiqarishdagi qiyinchiliklariga bardosh berishini qo‘llab-quvvatlaydi. Davlat iqtisodiy kam ta‘minlangan oilalarni, ishsizlarni, yoshlarni, kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarini o‘zining himoyasiga olib, katta iqtisodiy faollikni olib boradi.

— *Shved modeli*. Jahon iqtisodiyotida bu model, asosan, Shvetsiya, Skandinaviya, Avstraliyada qo‘llanilgan. Ushbu modelda daromadlarni keng miqyosda qayta taqsimlash va shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy birlikka asoslangan ijtimoiy kafolatlar yuqori darajada bo‘lishligi xarakterlidir. Shved modelining yana bir xarakterli tomoni shundaki, kasaba uyushmalarining xizmat sohalariga asoslanib jamoat va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga yo‘naltirilganligidir. Ushbu model *kooperativ modeli* ham deyiladi. Shved modeli o‘zining turli-tumanligi bilan Yapon modeliga xizmat qiladi.

— *Yaponiya modeli*. Bu model jahon iqtisodiyotida yo‘naltirib turuvchi kooperativ kapitalizmi modeli bo‘lib, davlat iqtisodiyotini rejalashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Davlat ishchilarining kasb mahoratini oshirishga e‘tiborni qaratib, ularning kasb mahoratini uzluksiz oshirishga harakat qiladi. Yapon modelining xarakterli tomoni shundaki, ishlab chiqarishni va mehnatni milliy an‘analar asosida tashkil qilishni shakllantirishga asoslangan. Yapon modeli iqtisodiyotni rivojlanishida anarxiya korporativizmi ham deb ataladi. Xullas, jahon iqtisodiyotida keyingi 100 yillar davomida bozor iqtisodiyoti o‘zining yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy tizimlaridan, ilmiy-texnika inqilobi (ITI)ni o‘zlashtirishda ehtiyoj va talabni to‘liq qondira olishligi bilan katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun tovar ishlab chiqarish va uni manfaatli proporsional rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davlatlarda umumiy ishlab chiqarishning qonuniyligi siklli xarakterda (ishlab chiqarishning tebranishlari va ko‘rsatkichlarida, bandlik va narxda) namoyon bo‘ladi. Iqtisodiyot nazariyasida investitsiya aktivlarining tebranishlari pul massasining hajmida, umumiy xarajatlarda asosiy kapital hajmining yangilanishi va ishlab chiqarish texnologiyasining almash-tirilishi sikllarida namoyon bo‘ladi.

XX—XXI asrlar bo‘lag‘asida rivojlangan mamlakatlar uch siklli iqtisodiy tushkunlikni o‘z boshidan (1974—1977; 1980—1982; 1990—1993-yillarda) kechirgan edi. Jahon iqtisodiyotida 70-yillardagi siklli dinamikadan farqli o‘laroq 80—90-yillarning siklli dinamikasi o‘zining sinxronli (teskari) harakati bilan xarakterlanadi. 1984-yilda AQSH va Kanadada, 1988-yilda Yaponiya, Buyuk Britaniya, Italiya, 1990-yilda GFR, AQSH, Buyuk Britaniya va Kanada yangi iqtisodiy pasayishning eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan edi.

90-yillardagi iqtisodiy pasayishdan so‘ng AQSHning iqtisodiy o‘sishdagi 1995-yildan keyin bir me‘yorda borganligi kuzatiladi. 1993-yilda Yaponiya iqtisodiyoti iqtisodiy inqirozning eng past nuqtasida turganligi bilan xarakterlanadi. Yaponiya iqtisodiy o‘sishni moliyaviy inqiroz buzgan bo‘lib, 1997-yilda bu inqiroz butun Sharqiy Osiyoni qamrab olgan edi. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy siklning sinxron fazalari 70—80-yillarda neft va boshqa yoqilg‘i xomashyo narxlarining global ko‘tarilishi bilan asoslanadi.

Jahonning ilg‘or mamlakatlarida bu holatning siklli rivojlanishiga ta’sir etmasligiga doim ko‘rilgan chora-tadbirlar *avtotxon* xarakter

kasb etadi. Zamonaviy sharoitda siklli rivojlanish xarakteriga faqat kapitalning yangilanishi ta'sir etib qolmasdan balki yangi ishlab chiqarilgan mahsulotlarini moddiylashtirilishi va shuningdek, umumiy ishlab chiqarishning asosiy resurslari farqidagi ma'lumot almashuvlari ham ta'sir qiladi. Jahonning sanoati rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning boshqa bir muhim jihatlarini biz ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning nomutanosibligida ko'rishimiz mumkin.

Umumiy ishlab chiqarishda bozor iqtisodiyotining siklligi mehnat samaradorligi, daromad ko'rsatkichlari va shu kabilarda namoyon bo'ladi. Agar, XVIII asr oxiri va XIX asrning 70-yillariga qadar jahon iqtisodiyotida Buyuk Britaniya yetakchi davlatlardan biri bo'lgan bo'lsa, XIX asrning 80—90-yillariga kelib o'zining o'rnini yosh kapitalistik davlatlar bo'lmish AQSH, Germaniya va Fransiyaga bo'shatib bergan edi. Ammo G'arbiy Yevropada o'zining yetakchilik pozitsiyasini saqlab qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori cho'qqisiga chiqishi bo'lib o'tgan ikki jahon urushiga bevosita bog'liqdir. Masalan, Birinchi Jahon urushida Germaniyaning yutqazishi AQSH, Angliya va Fransiyaning jahon xo'jaligida o'zining pozitsiyasini yanada mustahkamlashiga sabab bo'ldi. Germaniyaning Ikkinchi Jahon urushidagi yakka hukmronlikka bo'lgan intilishi esa uning mag'lubiyati va iqtisodiyotining nihoyatda pasayib ketishi bilan yakunlandi. Bu paytda esa AQSH jahonning rivojlangan kapitalistik davlatlarining yetakchilaridan biri bo'lib qolgan edi.

11.2. Rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyati

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyati, asosan, ushbu davlatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirilishi, ochiq iqtisodiyotning yaratilishi bilan bog'liqdir. Jahonning barcha rivojlangan davlatlari boshqa davlatlar bilan, birinchi o'rinda o'zaro doimiy tashqi iqtisodiy aloqalarni olib borishadi. Shunday qilib, IHTI davlatlarining dunyo eksportidagi ulushi oxirgi to'rt yil ichida qat'iy 72—73 % darajasida turibdi. 1998-yilda Osiyo—Tinch okeani mintaqasining «yangi industrial mamlakatlari»dan keskin o'sishiga qaramasdan, 72,4 % ni tashkil qilgan edi. 1997-yilda rivojlangan davlatlarning eksport kvotasi 27 % tashkil qilgan (rivojlanayotgan davlatlarda 12 %, o'tish davri iqtisodiyoti davlatlarida esa 5,5 % tashkil etgan, Rossiyadan tashqari). G'arbiy Yevropaning kichik rivojlangan davlatlarida (Belgiya,

Niderlandiya, Lyuksemburg) eksport kvotasi 40—50 % atrofida bo'lgan. 1998-yilda IHTT davlatlaridan 4016 mlrd dollar miqdoridagi tovar va xizmatlar olib chiqilgan. 90-yillardagi tovar va xizmatlar eksportining o'rtacha yillik o'sish sur'ati rivojlangan davlatlarni umumiy mahsulotining o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarning eksport strukturasi ilmiy texnologik xarakterga ega bo'lgan mahsulotlar birinchi o'rinda turgan edi. Eksport qilinadigan sanoat tovarlari orasida asosiy o'rinda axborot texnologiyalari va elektronika sanoat mahsulotlari, elektro aloqa uskunalari va elektron mikro sxemalar turgan. 90-yillar o'rtasida rivojlangan davlatlar ushbu mahsulotlarning 70 % ni jahon bozoriga chiqarishgan edi. Axborot texnologiyalari va elektronika sanoat mahsulotlarining asosiy eksport qiluvchilari bo'lib, eksport ulushi 40 % ni tashkil qilgan AQSH va Yaponiya davlatlari, shuningdek, eksport ulushi 280 % tashkil qiluvchi G'arbiy Yevropa mamlakatlari hisoblangan.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarning eksport xizmatlari hozirgi kunda tez sur'atlar bilan o'sib rivojlanib bormoqda. Oxirgi o'n-o'n besh yillar ichida ushbu mamlakatlarda eksport xizmatlari tovar olib chiqilishiga nisbatan tezroq o'sdi va uning eksportdagi umumiy ulushi 1998-yilga kelib 23 % ga yetgan edi. Bu jarayonga 90-yillarning o'rtalariga kelib internet va axborot uzatishning boshqa aloqa tizimlarini kuchli rivojlanishiga turtki bo'ldi. Eksportning kasbiy xizmat ko'rsatish turi ham rivojlanib bormoqda. Ularning umumiy eksport xizmatidagi ulushi rivojlangan davlatlarda 1998-yilda 28 % ni 44 % gacha o'sgan edi. Eksport xizmatining umumiy hisobda 1,3 qismini turizm egallagan. Yangi texnologiyalar o'z navbatida sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohasidagi eksport xizmatlarining imkoniyatlarini ham anchagina kengaytirgan edi.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlar turli xildagi tovarlarning yirik importyorlari ham bo'lib hisoblanadi. 1998-yilda ushbu davlatlar ulushiga dunyo mahsulotlar importining 68—69 %, ishlab chiqarishda xomashyo mahsulotlarining 61—62 %, yoqilg'ining 60—61 %, mis va metallarni 63—64 %, kimyoviy vositalarning 63—64 %, mashina va transport vositalarining 65—66 % va boshqa mahsulotlarni 67—68 % to'g'ri kelgan. 80-yillar bilan taqqoslaganda rivojlangan davlatlar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalari va boshqa predmetlari bilan ta'minlanishida importning roli ancha o'sgan edi. Shu bilan bir qatorda bu mamlakatlarning jahon importidagi (ruda, yoqilg'i va metallardagi)

ulushi bir muncha qisqardi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining ochiqligiga qaramasdan, ushbu davlatlarning hukumat rahbarlari o'zlarining eksportyorlarini faol qo'llab-quvvatlashadi. Ya'ni, eksport kreditlarini davlat kafolatlaydi. Ular o'zlarining jahon bozoridagi mahsulotlarini yuqori raqobatbardoshligiga erishmaganuncha, asosan, eng yuqori texnologiya sohasini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksportini subsidiya qiladi. Bundan tashqari, rivojlangan davlatlar aktiv demping choralarini asosan rivojlantirgan davlatlarga, shuningdek, Rossiya va boshqa davlatlarga nisbatan qo'llashadi.

AQSH ishbiarmon doiralari organi bo'lgan «Forchun» jurnali tan olishicha Amerikaning biznes kapitalizmi haqida gapirganda o'zidan boshqa hamma erkin bozorlarni nazarda tutadi. Ushbu iborani nafaqat jahon bozorining tovar va xizmatlarida balki dunyo moliyaviy bozorida yetakchilik qilayotgan barcha sanoati rivojlangan davlatlarga tegishli, deyish mumkin.

Sanoati rivojlangan davlatlar kapitalning tadbirkorligini biz ssuda shaklida asosiy eksportyorligini va shuningdek, importyori bo'lib xizmat qilishida ko'rishimiz mumkin. 1997-yilda jahondagi barcha to'g'ri investitsiyalarning 90 % rivojlangan davlatlarga tegishli bo'lib, uning 80 % dan ortig'i eng rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotiga qo'yilgan. Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda rivojlangan davlatlar orasida kapital harakatining eng tez rivojlangan shakli to'g'ri investitsiya bo'lgan. To'g'ri investitsiyalar, asosan, yangi kompaniyalarning asosiga qo'yilgan.

Kapital eksportida to'g'ri investitsiyaning sardori bo'lib AQSH hisoblangan. 1997-yilda AQSH to'g'ri kapital qo'yishning yirik importyori bo'lish (91 mlrd dollar) bilan bir qatorda yirik eksportyori ham bo'lgan (114,5 mlrd dollar). Shu yili butun dunyoda 424 mlrd dollar kapital eksporti chiqarilgan. Amerika qo'yilmalarining 60 % jahonning sanoati rivojlangan yettilik davlatlariga to'g'ri kelgan. Bu hamkorlar o'z navbatida AQSHdagi barcha chet el investitsiyalarning 85 % ni ta'minlagan edi.

90-yillarning boshida G'arbiy Yevropa investorlari Yaponiyaga Amerika investitsiyalarining 74 % ni yo'naltirishgan. Bunda Yevropa iqtisodiyotidagi qo'yilmalarning 63 % xizmat ko'rsatish sohasiga, 31 % esa sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan edi. Ko'chmas mulkka investitsiyalar umuman qo'yilmagan.

Jahon iqtisodiyotida Kanada va Yaponiya eng yirik xalqaro investor davlatlaridir. Xorijiy malakatlardagi investitsiyalarning

hajmi bo'yicha Yaponiya dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa chiqqan bo'lishi bilan bir qatorda o'zining xorijiy mamlakatlardagi investitsiyalarining o'rtacha 1,3 qismini u AQSH iqtisodiyotiga ham qo'ygan edi. G'arbiy Yevropa davlatlarida Yaponiya kapitalining 80 % moliyaviy va savdo-sotiq sohasiga, faqat 15 % qayta ishlash sanoatiga qo'yilgan. G'arbiy Yevropa kapitali asosan, AQSHga yo'naltirilgan bo'lib, uning ulushi chet qo'yilmalarning 2,3 qismiga to'g'ri kelgan edi. O'z navbatida G'arbiy Yevropa davlatlari AQSH investitsiyalarining 50 % ga yaqinini qabul qilgan.

Rivojlangan davlatlar investitsion siyosatning rivojlanishini muhim manbai bo'lib, axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritadigan kompaniyalarning bozorga chiqishi bo'ldi. Agar, G'arbiy Yevropada 1984—1991-yillarda sanoat sohasida 900 ta, moliyaviy sohada 141 ta, savdo sohasida 50 ta hamkorliklar sodir bo'lgan bo'lsa, oxirgi yetti yillikda ularning umumiy miqdori 4 mingtadan oshib ketgan edi. 90-yillarda xalqaro hamkorliklar OESRga a'zo bo'lgan davlatlar orasidagi investitsion oqimlarning 70 % ini ta'minlagan edi.

Rivojlangan davlatlarda investitsion siyosatning muhim o'sish manbai bo'lib, axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarning bozorga chiqishi bo'ldi. 1995-yilda bu sektorda 1994-yilga nisbatan 90,5 mlrd dollarlik ish bajarildi. Umumiy miqdori 134 mlrd dollarlik 1861 ta shartnoma o'rniga 2013 ta shartnoma amalga oshirildi. Shunday qilib, amerikalik, yevropalik va shuningdek, bir qator yapon kompaniyalari rivojlanishidagi davlatlarning asosiy ishlab chiqarish vositalariga o'z mablag'larini sarflashgan edi.

90-yillarda sanoati rivojlangan davlatlarning xalqaro kapital harakatidagi o'rni asosan o'zgardi. Agar, 80-yillarda sanoati rivojlangan davlatlar asosan moliyaviy resurslarning netto-importyorlari bo'lishgan bo'lsa, 90-yillarga kelib ular netto-eksportyor davlatlarga aylanishgan edi. Bundan tashqari, moliyaviy oqimlar harakatining asosiy yo'nalishlari, dunyo miqyosidagi investitsion iqlim mavjud bo'lgan rivojlangan davlatlardagi fond va valuta bozorlarining holatiga bog'liqdir.

Dunyoning asosiy moliyaviy markazlari sanoat mahsulotlarini yetkazib beruvchi davlatlar chegarasida joylashgan. 90-yillarning o'rtalarida OESR tarkibiga kiruvchi davlatlarning moliyaviy aktivlari umumiy miqdorda 35—40 trln AQSH dollarida tashkil qilgan bo'lib, bu ular tomonidan chiqarilgan mahsulotning miqdoridan ikki marta oshib ketgan edi. 2000-yilda doimiy narxlardagi qo'shma kapital

miqdori 53 trln AQSH dollariga yetgan bo'lib, bu davlatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan uch barobar ko'p edi. Rivojlangan davlatlarning zamonaviy fond bozorlarini asosiy yo'nalishi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sishiga nisbatan kompaniyalar aksiyalarini bozor narxida o'sib borishidir.

11.3. Rivojlangan mamlakatlarda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi

Jahon iqtisodiyotida ishchi kuchini xalqaro migratsiyasida rivojlangan davlatlar, asosan, qabul qiluvchi tomon bo'lishadi. 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan davlatlardan boshqa bir rivojlangan davlatga aholining migrativ qisqarishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Masalan, 1960-yillarda AQSHga G'arbiy Yevropa davlatlardan 140 mingga yaqin odam ko'chib kelgan bo'lsa, 80—90-yilga kelib 63 mingdan ortiq odam ko'chib kelgan edi, xolos. Bu esa G'arbiy Yevropaning postsanoat davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi va ularning turmush tarzi darajasining tenglashganligidan guvohlik beradi. Shu bilan birga AQSHda yuqori kvalifikatsiyaga ega bo'lgan immigrantlar hisobidagi ishchi kuchi tomonidan davomiy to'ldirishlik an'anasi mavjud.

XX—XXI asrlar bo'sag'asida bunaqa to'ldirishlikning manbai bo'lib, sobiq SSSRning ittifoqdosh respublikalari va Sharqiy Yevropa davlatlari asosiy rolni o'ynagan edi. Shunga qaramasdan, AQSHdagi bilim olish darajasi bo'yicha o'rtacha amerikaliknikidan to'rt marta past bo'lgan Lotin amerikalik yoki kelib chiqishi osiyolik bo'lgan 80 % dan kam bo'lmagan immigrantlar mavjud. Gap bu yerda rasmiy ro'yxatdan o'tgan immigrant to'g'risida bormoqda. Noqonuniy ko'chuvchilarning ko'pchiligi bilim olish darajasi ancha past bo'lib, ularning ko'pchiligi ishsizlar armiyasini to'ldirishyapti.

Jahon iqtisodiyotida xuddi shunga o'xshash holatlar G'arbiy Yevropa davlatlarida ham yuzaga kelmoqda. 90-yillarning o'rtalarida YeIga uning chegara hududlaridan kelgan immigrantlarning soni 10 mln kishini (YeI davlatlari ishchi kuchining 11 % ni) tashkil etgan edi. Turkiya, Yugoslaviya, Jazoir, Tunis, marokashliklardan iborat immigrantlar birinchi o'rinda yoshlar kamchilikni tashkil etgan mahalliy ishchilarga nisbatan qattiq raqobat hosil qiladigan Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiyaga kelishgan edi. Qoidaga ko'ra, immigrantlarning aynan o'sha ish uchun to'lov darajasi immigrant yevropaliklarning o'rtacha ish haqidan 1,5—2 barobar kamroqdir.

Jahon iqtisodiyotida immigrantrlarni qabul qiladigan davlatlarda ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy tanglik vujudga keladi. Tub aholi davlatga boshqa mintaqalardan kelgan immigrantrlarning ish joylarini «tortib» olishlariga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ijtimoiy «portlashdan» qochish uchun, rivojlangan davlatlarning hukumat rahbarlari oxirgi yillarda chet el fuqarolariga kirish huquqini beruvchi vizalarning miqdorini chegaralashni, shu bilan bir qatorda ba'zi-bir siyosiy sabablarga ko'ra immigratsion qonunlarga talabchanlikni kuchaytirmoqda. Bu an'ana, ekspertlarning fikricha, yaqin o'n yilliklarda AQSH va YeIda saqlanib qolishi mumkin.

11.4. Rivojlangan mamlakatlarning moliya-valuta siyosati

Ma'lumki, barcha xalqaro iqtisodiy munosabatlar valuta ayirboshlash shaklidagi moliyaviy oqimlar harakati orqali o'z ifodasini topadi. Barcha rivojlangan davlatlar uchun erkin valuta siyosati xos bo'lib, ular hech qanday valuta chegaralanishlarini qo'llab-quvvatlamaydi. Valuta kurslarining boshqarilishi Markaziy banklarning valuta intervensiyalari va pul-kredit siyosati vositalari orqali amalga oshiriladi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlar xalqaro valuta munosabatlari muhitida ustunlik qilishadi. Bu, avvalambor, AQSHga tegishlidir. 90-yillarning o'rtasida 40 % dan oshiq valuta-almashuv operatsiyalari 44 % atrofidagi mablag'ning turli xil moliyaviy institutlarga tegishli bo'lgan xalqaro savdo hisob-kitoblari, asosan, AQSH dollarida amalga oshirilgan edi. 90-yillarning ikkinchi yarmida dollar o'rnini jahon moliyaviy bozorida yiriklashishi va boshqa rivojlangan davlatlar valutasini o'rnining zaiflashishi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, dollarning barcha rivojlangan mamlakatlar valuta zaxirasidagi ulushi, EKYu ulushi (1991-yil 1-yanvardan yevro) 30 % ni tashkil qilgan holda, 1990-yildagi 45 % dan, 1998-yilda 58 % gacha ko'paygan edi.

Jahon iqtisodiyotida Yaponiya «iyena zona»sini tashkil qilishga urinishayotgan Osiyo— Tinch okeani mintaqasi davlatlarida ham 80-yillarda valuta zaxirasida dollarning ulushi 48,6 % dan 62,7 % gacha o'sgan bo'lib, iyenaning ulushi 13,9 % dan 17,7 % gacha o'sgan edi, xolos. Jahonning boshqa davlatlarida orttirilgan dollarlar asosli ravishda xalqaro moliyaviy bozorlardagi beqarorlik muhitida mashhurliki keskin o'sgan Amerika federal xazinasining qiymatli qog'ozlariga sarflangan edi.

Jahon iqtisodiyotida 1997—1998-yillarda ro‘y bergan moliyaviy inqiroz valuta va fond bozorlari ahvoriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan edi. 1998-yilda rivojlangan davlatlarning kompaniyalari aksiyalari kursining o‘shirish sur‘atlari amalda ikki marta sekinlashdi. G‘arbiy Yevropa bozorlaridagi aksiyalar kursi, ayniqsa, yuqori sur‘atda ko‘tarildi. G‘arbiy Yevropa davlatlarining investorlari faollik bilan aksiyalarini sotishgan. Shunday yo‘llar bilan AQSH va Germaniya yirik qiymatli qog‘ozlar vositasiga ega bo‘lishgan. Bunday ijobiy harakatlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini biz davlat budjeti zararining pasayishida, inflatsiya sekinlashishida, yevroni joriy qilinishida ko‘rishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida yevroni joriy qilinishida ko‘rilgan tayyorgarlik G‘arbiy Yevropa davlatlarini fond bozorlaridagi birlashuv jarayonlarini tezlashtirgan edi. 1998-yilning iyulida London va Frankfurt fond birjalari o‘rtasida yagona savdo tizimini tashkil qilish to‘g‘risidagi bitim tuzildi. 1998-yilning noyabrida ushbu bitimga G‘arbiy Yevropa davlatlarining yana 6 ta fond birjasi qo‘shilgan edi. Shu tarzda, rivojlangan davlatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bir tomondan, ularda xo‘jalikni baynalmilallashuvini kuchayishidan guvohlik bersa, boshqa bir tomondan esa ularning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirib, sanoati rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida kapitalning o‘zaro oqimidan zamonaviy texnologiyalar asosida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga o‘tayotganligidan dalolat beradi.



1. Rivojlangan mamlakatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini xarakterlab bering.
2. AQSHning liberal, Germaniyaning ijtimoiy bozor va Shvetsiyaning iqtisodiy rivojlanish modellarini mazmuni va mohiyatini ochib bering.
3. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi umumiy qonunchiligi masalalarini bayon eting.
4. Rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini o‘ziga xos an‘analarini xarakterlab bering.
5. Rivojlangan mamlakatlarning investitsion va moliyaviy-valuta siyosatlarini tavsiflang.
6. Rivojlangan mamlakatlardagi xalqaro ishchi kuchi migratsiyasidagi holatlarni ochib bering.

**12.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo‘jaligida
tutgan o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish
xususiyatlari**

Ma'lumki, XX asrning 50-yillaridan so'ng jahon xo'jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ahamiyatli tomonlaridan biri, sobiq koloniya va qaram hududlarning roli hamda ahamiyatini iqtisodiy jihatdan kuchayib borganligidir. Bu mamlakatlarni hozirda iqtisodiy va shuningdek, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ozod etilgan mamlakatlar, «uchinchi dunyo mamlakatlari», «janub» mamlakatlari, «periferiya» mamlakatlari sifatida tilga olishadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda hozirgi kunda 3,2 mlrd atrofida aholi yashaydi va ular turli-tumandir. Ularda juda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar kechmoqda.

XX asrning 60-yillaridan so'ng ozodlikka erishgan rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi bosh alomatlarini tobora o'sib boruvchi xarakter kasb etmoqda. Ularning eng ilg'orlari 50-yillardayoq, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy munosabatlarida «o'rtachalaridan» (54 mamlakat) 2,4 marta, nisbatan yuksaklikka erishgan edi. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab, yuqorida zikr etilgan mamlakatlar o'rtasidagi rivojlanish darajasidagi farq sezilarli darajada ortib bordi. Shuningdek, 1990-yillarga kelib rivojlanayotgan mamlakatlarning birinchi guruhiga kiruvchi mamlakatlardagi (19 ta mamlakat) aholi jon boshiga «to'g'ri keluvchi o'rtacha foyda» o'rtachalarining mos darajasiga nisbatan 2,9 barobar, quyi guruhlarinikiga nisbatan esa 12,2 barobarga o'sgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aynan shu guruhlari tarkibida ham o'zgarishlar vujudga kelgan edi. Shuningdek, ularni har birining doirasidagi mamlakatlar rivojlanish darajalari o'rtasidagi bog'liqlikda ham o'zgarishlar yuzaga kelgan edi.

Jahon iqtisodiyotida ushbu jarayonlarning natijasida tabaqalashuv ikki asosiy mintaqada ro'y bergan edi. Mintaqaning bir

tomonida ozodlikka erishgan mamlakatlarning ko'proq rivojlanishlari, jumladan, Fors ko'rfazidagi Qatar, Quvayt, OAE, Bagama, Bermud, shuningdek, Osiyo—Tinch okeani mintaqasi va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar joylashgan bo'lsa, mintaqaning ikkinchi tomonidan esa mutlaqo turg'unlik holatidagi iqtisodiy kambag'al mamlakatlar joylashgandir. Bu toifaga 48 mamlakat taalluqlidir. Ular orasida bir qator Afrika mamlakatlari, shu jumladan, Mozambik (YaIM yiliga kishi boshiga 80 dollar), Efiopiya (100 dollar), Sera Leone (140 dollar), Brundi (180 dollar), Uganda (190 dollar), Chad va Ruandi (200 dollar) kabi mamlakatlar mavjud. Bu guruhga taalluqli mamlakatlardan tashqari, guruh ro'yxatining quyi qismida bir qancha Osiyo mamlakatlari qayd etiladi. Bular — Nepal (160 dollar), Butan va Vetnam (170 dollar), Myanma va boshqalardir.

Ushbu mintaqalar orasida rivojlanayotgan dunyoning qolgan qismi joylashadi. Bu ham o'z navbatida, bir xil tipda bo'lmagan guruhdir. Uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlar ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy parametrlar bo'yicha farqlanadi. Rossiya olimlarining guvohlik berishicha, ikki qutb orasida, o'z navbatida tabaqalashuv an'alarini namoyon etuvchi rivojlanayotgan mamlakatlarning *konglomerati* joylashadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar tabaqalashuvining bunday guruhlari ba'zi bir mamlakatlarning iqtisodiy o'sish dinamikasini aniqlab bersa, boshqa birining zamonaviy xalqaro iqtisodiy doirasida ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatadi. Xullas, jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish jihatidan ancha muvaffaqiyatga erishgan rivojlanayotgan mamlakatlar orasida oldinroq ozodlikka erishgan «yangi industrial mamlakatlar» shakllanadi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan bir qator iqtisodiy rivojlanishning umumiyliklari bilan bir qatorda turli-tumanliklar va o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

— rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining ko'p *ukladlilik* *xarakterini* kasb etishi;

— rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishining past darajada ekanligi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy *infratuzilmasining qoloq ekanligi* (birinchi guruh «yuqori qutb» mamlakatlarini hisobga olmaganda);

— ularning iqtisodiyoti jahon xo'jaligi tizimiga bog'liq ekanligi, kapitalizmning perefirik xarakter kasb etishi;

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ko'p ukladli ijtimoiy-iqtisodiy xo'jalik tarkibga asoslangan bo'lib, bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalistik xo'jalik ukladlari bilan bir qatorda hamon urug'-aymoqchilik va patriarxal ishlab chiqarish munosabatlar ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida *davlat monopolistik va xususiy mulkchilik xo'jalik ukladlari* muhim rol o'ynaydi. Davlat sektorini rivojlantirish bosqichi, kapitalistik ishbilarmonlikni kengaytirish siyosati bilan olib boriladi. Buning natijasida esa *davlat monopolistik kapitalizmi* paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ko'p ukladli xo'jalik haqida fikr yuritilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ular, asosan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavqeyi ancha yuqori bo'lganligi uchun ham, ushbu mamlakatlar, asosan, qishloq xo'jaligi mamlakatlari hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda kichik tovar xo'jaligi bevosita patriarxal va natural ishlab chiqarish munosabatlarning keng tarqalganligi bois, qishloq xo'jaligida yuqori ahamiyatga egadir. Ozodlikka erishgan mamlakatlarda amal qiluvchi xususiy kapitalistik xo'jalik ukladlari o'z ichiga kapitalistik mulkchilikning turli shakllarini qamrab oladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bir-biridan xususiy kapitalistik munosabatlarning rivojlanish darajasi bo'yicha farq qiladi. Iqtisodiy jihatdan ancha ilgari ketgan rivojlanayotgan mamlakatlarning kapitalistik bozor munosabatlari sistemali tuzilish alomatlarini kasb etadi. Shuningdek, bir qator mamlakatlarda davlat monopolistik kapitalizmi alomatlarining shakllanishi ro'y beradi. Nisbatan past darajada rivojlanayotgan mamlakatlar guruhlarida milliy xususiy kapitalistik uklad endigina shakllanish pallasida turibdi.

Jahon iqtisodiyotida milliy xususiy kapitalistik xo'jalik ukladlari alomatlarining rivojlanishi va shakllanishi, jamg'arish muammolari (ya'ni, pul resurslarining yetishmovchiligi bilan) va jamg'arilgan mablag'lar asosan savdoga, (ichki va tashqi), ko'chmas mulklarni sotib olishga, mashinalarni ta'mirlashga sug'urtalashga, benzin quyish va boshqalar, shuningdek, sarmoyalarning katta qismi aylanadigan joylarga yo'naltiriladi. Ishlab chiqarish sohasida kapital faqatgina qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida sarf qilinadi. Ammo aksariyat hollarda ozodlikka erishgan mamlakatlar iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalar asosiy mavqeni egallagan bo'lib, ular, odatda, mahalliy tadbirkorlarga nisbatan yon berishni istashmaydi.

Milliy mustaqillikka erishgan mamlakatlarning ko'pchiligida paydo bo'ladigan va rivojlanib boradigan kapitalizm periferik

xarakter kasb etadi. Bu shuni anglatadiki, u sanoati rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan nafaqat rivojlanish darajasi bo'yicha, balki eng muhimi, ishlab chiqarish usullarining modeli va moddiy ne'matlar taqsimoti bo'yicha ham tubdan farq qiladi. Kapitalistik ishlab chiqarish markazlari jamg'arishning organik va o'zaro aloqador doimiy o'sish jarayonida, milliy zaminda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu yerda intensiv elementlar rivojlanishidagi bog'liqlik mavjud emasdir. Moslashuvchanlik (imitatsiya) aholining boy qatlamlari o'zlari uchun zaruriy bo'lgan barcha narsalarni qo'lga kiritma oladigan maxsus bozorlarning tashkil topishidan boshlanadi. Bunday vaziyat aholining asosiy qismini kambag'allikka mahkum etib, ularni bozorlarda erkin muomalada bo'lish imkoniyatidan mahrum etadi.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar tomonidan joriy qilingan yangi texnikalar, odatda, kechagi kungamos kelsa-da, ammo ularning bozor narxlari juda yuqoriligi qolishi mumkin. Periferik kapitalizmining rivojlanishi asinxronik, ya'ni noteng holatda amalga oshadi. Iqtisodiy o'sish va siyosiy demokratiya paralell ravishda rivojlanmay, balki ko'pincha teskari holatda ham sodir bo'lib, bir-biridan sezilarli darajada uzoqlashib boradi. Ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlar periferik kapitalizm modelini joriy qilgan ekan, ko'pchilik hollarda uni chetlab o'tish maqsadida o'ziga xosliklarni hisobga olib, ichki kuchlar va mablag'larni topish orqali taraqqiyotning yuqori cho'qqilari tomon harakat qilishmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligini bir-biriga o'xshash tomonlari ularning iqtisodiy qashshoqligi, aholisining qo'lloqligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, sanoati rivojlangan mamlakatlardan katta miqdorda qarzdorligi hisoblanadi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar o'zining to'laqonli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi bilan, shuningdek, aholisining turmush tarzi bo'yicha sanoatlashgan ilg'or mamlakatlardan 20—50 marotaba orqada qolmoqda.

12.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar ayirboshlashda tutgan o'rni

Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish, jahon xo'jaligi aloqalarining ancha rivojlangan sistemasi, oddiy va moliyaviy resurslarning mamlakatlararo oqib yuradigan qismi, iqtisodiy taraqqiyotning cheksiz shart-sharoitlariga

aylanib qoldi. Mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida ishtirok etish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasi 70-yillarning boshlaridan boshlab xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish uchun faol ravishda intilmoqda. Ushbu davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishining zaruriyati shunday asoslanib beriladiki, ular tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni yetishtirish imkoniyatiga ega emas. Hozirgi paytda ular sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun xomashyo yetishtirib beruvchilar hamda nisbatan arzon ishchi kuchi manbai bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, xalqaro mehnat taqsimotida ko'plab xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi guruhlar jamlangandir. Eng muhimi, xalqaro savdoni tashkil etuvchi xomashyolar va tayyor mahsulotlarni hamda, barcha iqtisodiy resurslarni dunyolar o'rtasidagi o'zaro almashinuvini ta'minlaydi. Xalqaro savdo asosan, eng kambag'al rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi daromadning ancha ishonchli manbai bo'lib qoladi. Ammo, material va energiya sig'imining keyingi yillarda kamayishi munosabati bilan rivojlangan mamlakatning o'sishida tabiiy xomashyolarning xalqaro savdodagi tutgan o'rni pasayib borishi aniq an'analarga egadir. Shunga muvofiq, u 1991-yilda jahon eksporti umumiy ulushining 25 % ni tashkil etadi. Bir vaqtning o'zida, bir qator an'anaviy tovarlarni ko'zda tutganda aynan o'sha rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ulushlarning qayta taqsimlanishi sodir bo'layotir.

Jahon iqtisodiyotida XX asrning 70—90-yillarida Afrikaning rivojlanayotgan mamlakatlarni umumiy eksport hajmidagi ulushi qisqarib borganligi qayd etiladi. U Osiyo mamlakatlaridan jo'natilayotgan mollarning doimiy o'sayotganligiga qaramasdan, ikki barobardan ko'proq pasayib ketdi. Eksportning asosi xomashyolardan iborat bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ularning jahon bozorida egallab turgan pozitsiyalarining yomonlashuvini to'xtatish imkoniyatiga ega bo'lgan qo'shimcha eksport resurslarini izlab topishga kuchli ehtiyoj sezilyapti. Buning uchun, eksportning xilma-xilligini ta'minlash, ya'ni chiqariladigan xomashyolarni qayta ishlash, boshqa turdagi sanoat mahsulotlari va boshqalarning jahon bozoridagi erkin harakatini ta'minlash eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon iqtisodiyotida an'anaviy tovarlar eksporti hajmini kengaytirish borasidagi ko'plab muammolarga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon eksportidagi umumiy ulushi

sekin-astalik bilan oshib borayotir. Shuningdek, u 1987-yildagi 22 % o'rniga 1992-yilga kelib 24,7 % ga qadar ortdi. 1993-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning eksportini fizik hajmi sanoati rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,2 % ga qisqarganiga qaramasdan yana 10 % ga ortgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jami eksportni tarkiblashtirish jarayoni sodir bo'lmoqda. 1991-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning eksportidagi sanoat mollarining ulushi (rangli materiallarni hisobga olganda) 57,7 % ga yetgan edi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon sanoati eksportidagi ulushi ham o'sib bordi. Agar rivojlanayotgan mamlakatlarning eksportidagi sanoat mollarining ulushi 1970-yilda 7,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1980-yilda 11 % ni, 1991-yilda 19,5 % ni, 1995-yilda esa 25 % ni tashkil etgan edi. Xullas, jahon xo'jaligida 90-yillar rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon eksportidagi ulushi doimiy ravishda o'sish an'anasiga ega bo'lishligi bilan xarakterlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat mahsulotlari eksporti hajmining o'sishida mashina va zamonaviy asbob-uskunalar eng muhim rol o'ynamoqda. Ushbu tovarlarni eksport qilish 1970—1991-yillar oralig'ida 90 marotabaga o'sib, sanoatning umumiy ulushi 35,7 % ni, tovarlar eksportining umumiy hajmi 22 % ni tashkil etgan edi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ba'zi-birlari 1980—1990-yillar mobaynida xomashyo mahsulotlarini ko'plab chetga chiqarish hisobiga o'zlarining xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish imkoniyatlarini ham kuchaytirishga erishdi. Boshqa bir rivojlanayotgan mamlakatlar esa o'zlarining jahon eksportidagi shaxsiy ulushlarini sanoatda qayta ishlanadigan mahsulotlarning tashqi bozordagi faol harakati hisobiga oshirib borishmoqda. O'z navbatida, mazkur guruhlar o'rtasidagi ba'zi-bir mamlakatlar erishgan muvaffaqiyatlar ham alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Jahon iqtisodiyotida oldingi o'rinlardan birida «yangi industrial mamlakatlar» borayotgan bo'lsa, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar esa, eksportning asosini tashkil etuvchi sanoatni kuchaytirish va kengaytirish borasida eng kam ulushni qo'lga kiritishgan. Ba'zi-bir rivojlanayotgan mamlakatlar esa, masalan, Afrikaning eng yirik davlatlaridan biri Nigeriya o'zining sanoat eksportidagi ulushini tobora qisqartirib bormoqda.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo misolida, rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijalarini baholash orqali jahon xo'jaligi tizimining butunlay

notenglik asosida qurilganligini ko'rishimiz mumkin. Ba'zi-bir rivojlanayotgan mamlakatlar ilmiy-texnologik yutuqlaridan kam foydalanayotgan bir paytda, rivojlanayotgan dunyoning qolgan qismlari esa oldingidek an'anaviy industriallashuviga, ba'zi-bir qismi esa industriallashuvigacha bo'lgan texnologik yutuqlarga asoslanib taraqqiy etmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi ahvoli bilan bog'liq bo'lgan umumiy holatlarni xarakterlash orqali shu narsani ta'kidlab o'tish lozimki, qoloq rivojlangan mamlakatlar borgan sari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidan «ajratib» qo'yilmoqda. Bunday fikrlar 1996-yilda savdo va rivojlanishga bag'ishlab o'tkazilgan (UNCTAD) BMT konferensiyasida taqdim etilgan ma'ruzalarning mualliflari tomonidan keltirib o'tilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida Urugvay — Raundi doirasida amal qiluvchi global savdo bitimi makonini olgan GATT — qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda subsidiyalarini qisqartirish kerakligini ta'kidlab o'tadi. Bunday vaziyat kuchsiz rivojlangan mamlakatlarga nisbatan berilgan kuchli zarba edi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida bug'doy, qand, go'sht va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining bozor narxlari kundan-kunga o'sib bormoqda. 2000-yilda eng kambag'al mamlakatlarning jami yillik savdo kamomadi taxminan 300—600 mlrd dollarni tashkil etgan edi.

Dunyo savdosida xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi tobora qisqarib borishi munosabati bilan ularni ishlab chiqarishga bo'lgan ixtisoslashuv o'zining yetakchilik rolini yo'qotyapti. Iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash maqsadidagi xomashyoviy ixtisoslashuv esa vaqtincha o'zining yordamchilik rolini bajarishga qodirligini ko'rsatmoqda, xolos. Xalqaro savdoning rivojlanish alomatlarining guvohlik berishicha, so'nggi o'n yilliklarda turli xildagi xizmatlarning hajmi va ahamiyati beqiyos darajada o'sib borayotir. Rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining bu yo'ldagi imkoniyatlaridan faol foydalanishmoqda. Masalan, sayyohlik va mehnat bilan bog'liq xizmatlar, turli xildagi «iflos» va past maosh to'lanadigan ishlar uchun ishchi kuchlarini eksport qilish shular jumlasidandir.

Jahon iqtisodiyotida *sayyohlik* ko'p yillardan buyon rivojlanayotgan malakatlar uchun xorijiy valutalar tushumining asosiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Misr uchun turizm EKV manbalarining ahamiyati bo'yicha jahon mamlakatlarida vaqtinchalik band bo'lgan misrlik ishchilar hisobidan o'tkaziladigan valutalar va xorijiy yordamlardan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi.

So‘nggi yillarda turizm Turkiyada yuqori sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu ko‘rsatkich turizmning umumjahon miqyosidagi 4 % li o‘sish ko‘rsatkichi bilan taqqoslanganda yiliga 8 % ni tashkil etadi. Turkiya ko‘proq milliy iqtisodiyotning turizm tarmog‘ini dinamik rivojlanishi bilan farq qiluvchi besh mamlakat qatoriga kiritilgan. Shu narsa kutilmoqdaki, 2005-yilda Turkiya sayyohlikdan tushadigan daromadning o‘lchami bo‘yicha dunyoda oldi o‘rinni egallashi mumkin.

Turkiya turizm xizmatlari bo‘yicha Gretsiya va Ispaniya bilan bo‘lgan raqobatda g‘alaba qozonish ehtimoliga ham egadir. So‘nggi yillarda ishchi kuchlarini eksport qilishdan keladigan valuta tushumlari aynan rivojlanayotgan mamlakatlarda ancha yuqori sur‘atlari bilan o‘sib, yiliga 10 % ni tashkil etayotir. Bu manbalardan sezilarli mablag‘larni qo‘lga kiritayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi hozirgi kunda ishchi-xizmatlar bo‘yicha o‘zlari uchun mos bo‘lgan eksport ixtisoslashuvlarini yaratishmoqda. 80-yillardan to hozirgi kunga qadar ishchi kuchlarini eksport qilish Pokiston iqtisodiyotiga ancha samarali ta’sir ko‘rsatyapti. Pokiston uchun xorijiy mamlakatlardagi ishchilar hisobidan o‘tkazilayotgan valuta tushumlari, tovarlar va xizmatlarni eksport qiladigan tushumlardan besh marotaba ortiqdir. Bu ko‘rsatkich Misr uchun 40 % ni, Marokash uchun 50 %, Turkiya uchun 60 %, Hindiston uchun 80 % ni tashkil etadi.

12.3. Xorijiy sarmoyalar — rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida

Ma’lumki, jahon iqtisodiyotida «qashshoqlik botqog‘i»dan qutilishga bo‘lgan intilish, xo‘jalikning barcha ilg‘or tarmoqlari rivojlanishiga bo‘lgan imkoniyatni yaratish va takomillashtirish rivojlanayotgan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalarni izchil jalb qilishni talab etadi. Ana shu maqsadda investitsion muhitni, kafolatlaydigan shart-sharoiti mavjud bo‘lgan maxsus mintaqaviy iqtisodiy zonalar tashkil etiladi.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida investitsion muhitni kuchaytirib borish jarayonlari osonlik bilan kechayotgani yo‘q. 1992-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarning miqdori 51,5 mlrd dollarni tashkil etgan edi. 90-yillarda Jahon bankining bergan ma’lumotiga qaraganda, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xususiy kapitallarni jalb qilinishi yanada kuchayib,

1994-yilda 173 mlrd dollarni tashkil etgan. Yangi fond bozorlaridagi aksiyalarga band etilgan portfel qo'yilmalar 1993-yilda 46,9 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1994-yilda 39,5 mlrd dollarni tashkil etgan. O'z navbatida banklarda deponentlangan va obligatsiyalarga qo'yilgan xususiy sarmoyalarning qiymati 1993-yilda 45,7 mlrd dollardan 1994-yilda 55,5 mlrd dollarga o'sgan. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar miqdori esa 1993-yilda 66,6 mlrd dollardan 1994-yilda 77,9 mlrd dollarga o'sgan. Qayd etib o'tish joizki, 1993-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zlari ham 14 mlrd dollar miqdoridagi sarmoyani xorijiy mamlakatlarga eksport qilishgan edi.

«Ernest va Yang» Amerika konsolting firmalari bergan baholariga ko'ra yaqin o'n yilliklarda rivojlanayotgan mamlakatlarning eng ko'zga ko'ringanlari: Xitoy, Hindiston, Indoneziya, shuningdek, Meksika va Braziliya kabi mamlakatlar bo'lishi bashorat qilinmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xususiy sarmoyalar jalb qilinar ekan, eng muhimi ular dinamikali o'sish imkoniyatiga ega bo'lib, istiqboli porloq bo'lgan mamlakatlar tomon ilgarilab bormoqda. Bugungi kunda xususiy investitsiyalarning 80 % rivojlanayotgan mamlakatlarning 20 % ga to'g'ri kelayotir. Bunda Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari asosiy o'rinni egallayapti. Kuchsiz rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining turg'unligi va shuningdek, ulardagi siyosiy vaziyatning barqaror emasligi esa ko'pincha sanoati rivojlangan mamlakatlardan kelayotgan ishbilarmon doiralarni cho'chitib qo'ymoqda. Ushbu mamlakatlar tomonidan uyushtirilayotgan davlat yordamlari, so'nggi 70—80-yillarda yetarli darajada barqaror amalga oshirilgan bo'lib, 90-yillarining o'rtalaridan e'tiboran ularning miqdori sezilarli darajada qisqarib borayotir. Xalqaro valuta fondining tahlilchilarning fikriga qaraganda, 1994-yilda butun dunyo bo'yicha inflatsiyaning oldini olish maqsadida davlat yo'llari orqali 59 mlrd dollarga teng bo'lgan rasmiy yordamlar uyushtirilgan (bu ko'rsatgich 1993-yildagiga nisbatan 3 mlrd dollarga kamdir).

Rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar bilan davlat miqyosidagi o'zaro hamkorligi o'zining me'yoriga yetgan 1990-yildagi darajasi bilan taqqoslab ko'riganda 12 mlrd dollarga kamayib borgan. Bu paytda iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan uyushtirilayotgan yordam hammasi bo'lib, ular jami yalpi milliy mahsulotining 0,3 % ni tashkil etgan, xolos. Muhim tomoni shundaki, Afrika mamlakatlariga uyushtirilayotgan

barcha tashqi yordamlar qarzlarning foizlari shaklida g'arbga tomon qaytib ketmoqda. 90-yillarning o'rtalarida Afrikaning Sahroi-Kabir janubgacha bo'lgan mintaqasidagi barcha mamlakatlarning qarzlari 211 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lib, 1984—1994-yillarda Afrika davlatlari ushbu kredit qarzlarning 150 mlrd dollarga yaqinini to'lashga muvaffaq bo'lishgan, xolos. 1994-yilda Afrikaning barcha mintaqalarida joylashgan davlatlarining umumiy qarzlari taxminan 303 mlrd dollarni tashkil etib, u qit'a mamlakatlari yillik eksport daromadining 204 % ga tengdir.

1994-yilda eng katta tashqi qarz Meksika va Xitoyda bo'lib, uning miqdori Meksikada 5 mlrd dollarni, Xitoyda 111 mlrd dollarni tashkil etgan. Osiyo—Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari hisoblanuvchi — Tayland, Janubiy Koreya, Hindiston, Filippin kabi davlatlarning tashqi qarzlari tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari miqdori 1994-yilda 1,7 trln dollarni tashkil etgan bo'lib, 1993-yilgi darajaga nisbatan 10 % ga o'sgan.

Jahon iqtisodiyotida Lotin Amerikasi mamlakatlari tashqi qarzlarning o'sib borayotganligini biz tashqi qarzlarni aholi jon boshiga nisbatan hisoblanganda mazkur mamlakatlar boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha oldinda turganligini ko'rishimiz mumkin (Osiyo mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha tashqi qarzar miqdori taxminan 250 dollarga teng bo'lsa, Lotin Amerikasida esa 1000 dollarni tashkil etadi).

Rivojlanayotgan mamlakatlarning amaldagi qarzlari xususiy kapital qo'yilmalari hisobidagi mulkiy munosabatlar orqali to'planib boradi. 1995-yilda kreditor mamlakatlar orasida Yaponiya birinchi o'rinni egallagan bo'lib, uning rivojlanayotgan mamlakatlardagi (birinchi navbatda Osiyo mamlakatlarida) kreditlarining umumiy miqdori taxminan 236 mlrd dollarni tashkil etgan. Keyingi o'rinni — 147 mlrd dollar miqdoridagi ko'rsatkich bilan AQSH egallagan bo'lib, ularning yarmisi Lotin Amerikasi mamlakatlari to'g'ri kelgan edi. Uchinchi o'rinda esa Germaniya turib, u 106 mlrd dollar miqdoridagi sarmoyalarni chetga chiqargan. O'z navbatida Fransiya ham xorijiy mamlakatlarga uncha katta miqdorda bo'lmagan kreditlarni beruvchi davlat hisoblanadi (103 mlrd dollar atrofida). GFRning qarzdorlari bo'lib, asosan, Afrika va Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qarzlarning qaytarilishi eng og'ir muammo bo'lib turgan bir

paytda, qarzdorlikka qarshi kurashning birdan-bir yo'li, bu kreditor mamlakatlarning qarzlarni kechib yuboriladigan umumiy miqdorini 75—100 % ga yetkazish ko'zda tutilganligidir. Bundan ko'zlangan maqsad, 80-yillardan buyon qarzlarining miqdori yuqori sur'atlar bilan o'sib kelayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yengillik berishdan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yangi xalqaro mehnat taqsimoti, ko'pchilik hollarda TMKlar tomonidan shakllantiriladi. TMKlar aynan rivojlanayotgan mamlakatlarni o'z manfaat zonalari deb bilib, ishlab chiqarishlarini ushbu zonalarga joylashtiradi, qachonki, u yerda ishlab chiqarishni tashkil etish iqtisodiy va texnologik jihatdan yuqori foyda keltiradi.

Jahonning yirik transmilliy korporatsiyalari bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning kengayib borishi, asosan, XX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Bunga ko'p jihatdan, rivojlanayotgan mamlakatlarda qabul qilingan xorijiy investitsiyalar haqidagi bir qator qonunlarning qayta ko'rib chiqilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Buni biz ana shu yillarda transmilliy korporatsiyalar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida paydo bo'lgan ba'zi bir kelishmovchilik holatlarning sud orqali muhokama etilishida ham ko'rishimiz mumkin.

Transmilliy korporatsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida yuksak iqtisodiy o'zgarishlarni vujudga keltirayotganligi bilan bir qatorda, ushbu korporatsiyalar texnik taraqqiyotining ichki omillariga juda katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Amaliyot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, transmilliy korporatsiyalar «uchinchi dunyo» mamlakatlarining rivojlanishida yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— Bir qator sanoat tarmoqlarda (yengil, to'qimachilik, elektron va boshqa sanoat tarmoqlari) qo'llanilayotgan texnika va texnologiyalarni yetkazib berishda transmilliy korporatsiyalar investor sifatida ham, shuningdek, investitsiya tovarlarini yoki texnologiyalarini (litsenziyalarini) yetkazib beruvchi korporatsiyalar sifatida ham muhim rol o'ynamoqda.

— Rivojlanayotgan mamlakatlarni jahon bozoriga xomashyo mahsulotlarini eksport qiluvchi davlatlardan tayyor mahsulotlarning sotuvchilariga aylantirish. Bunda, bevosita rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar uchun to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishdagi investitsiyalar moliyaviy resurslarni oddiy joylashtirishga nisbatan ancha muhim hisoblanadi.

— Transmilliy korporatsiyalar an'anaviy jarayonlarining tezlashuvini ta'minlaydi. Texnologik innovatsiyalar hozirgi kunda, asosan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda to'plangan bo'lib, so'nggi 10 yillikda ular bir qator mamlakatlarda, ayniqsa, «yangi industrial mamlakatlar» iqtisodiyotida muhim rol o'ynamoqda. Texnologiyalarning qo'llanishi atrof-muhit bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham TMK filiallarining faoliyati ular tanlagan mamlakatlarning tabiati uchun, shuningdek, insonlar manfaati va ularning hayotiga tahdid solmasligi lozim. Shu munosabat bilan xususiy, shuningdek, xorijiy korxonalar ustidan nazoratni o'rnatish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlardagi tartibot milliy organlarining faoliyatini kuchaytirish talab etiladi.

— TMKlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi mavjud bandlik muammolarini ham bartaraf etadi. Ta'kidlab o'tish joizki, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan ishchi o'rinlar unchalik ko'p bo'lmasdan rivojlanayotgan dunyodagi iqtisodiy aktiv aholining 1 % dan kamroq qismini ta'minlay oladi, xolos.

— Xalqaro tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlarga o'zlarining texnik yordamlarini ko'rsatishda TMKlar imkoniyatidan foydalanishni taklif etishyapti. O'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumat rahbarlari ham TMKlarni o'z iqtisodiyotlariga jalb etish borasida o'zaro kurash olib borishmoqda. Masalan, AQSHning «Jeneral motors» kompaniyasi 2005-yilda o'zining Osiyo —Tinch okeani mintaqasi bozoridagi ulushini ikki barobarga oshirish maqsadida, uning 10 % ga qadar ko'paytirishga harakat qilmoqda. Kompaniya Filippinda yoki Tailandda qiymati 1 mlrd dollarga teng bo'lgan mashina va ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi zavodni bunyod etishga harakat qilayotir. Mutaxassislarining fikricha, Tailand avtomobil bozorining rivojlanishi uchun eng qulay joy bo'lib hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda, Filippin ham «Jeneral motors» kompaniyasiga soliq va boj yengilliklari bilan bog'liq bo'lgan bir qator shart-sharoitlarni taklif etmoqdaki, bularning barchasi zavod qurilishi bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining obyektiv qonunlariga bo'ysungan holda, rivojlanayotgan mamlakatlar o'z oldilariga qo'yilgan alohida maqsadlari bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan va shuningdek, TMKlarning mamlakatlar iqtisodiyotidagi manfaatlariga mos keluvchi zaruriy parametrlarini izlab topishga harakat qilinmoqda.

1. Jahon xo'jaligida rivojlanayotgan mamlakatlarning tutgan o'rnini tavsiflab bering.
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xalqaro tovar almashinuvida rivojlanayotgan mamlakatlarning tutgan o'rnini.
4. Investitsion muhitning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati.
5. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalarning roli.

13-bob. **JAHON IQTISODIYOTIDA RIVOJLANAYOTGAN
«YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLAR»NING
TUTGAN O'RNINI**

**13.1. «Yangi industrial mamlakatlar»ning iqtisodiy
rivojlanishiga umumiy tavsif**

XX asrning 60—80-yillarida jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarni, shu jumladan, «yangi industrial mamlakatlar»ni (YaIM) umumiy tuzilishida ham global o'zgarishlar ro'y berganligi bilan karakterlanadi. Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligidan «yangi industrial mamlakatlar» o'z parametrlarining barcha tizimlari bo'yicha ajralib turadi. YaIMni rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ham ajralib turishligidir. Ya'ni, ularning rivojlanishi «yangi industrial» rivojlanish modeli sifatida mavjudligidir. Bunday xarakterli tomonlar, Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi va shuningdek, Lotin Amerikasidagi YaIMning rivojlanish tajribasini chuqur tahlil qilish jarayonida ko'zga tashlangan edi.

Lotin Amerikasidagi YaIMlarning rivojlanish tajribasi va shuningdek, Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi YaIMlarning ko'pchiligi ozodlikka erishgan jahonning rivojlanayotgan mamlakatlari uchun xalq xo'jaligining ichki rivojlanish dinamikasi bo'yicha ham, tashqi iqtisodiy munosabatlarning ekspansiyasi bo'yicha ham rivojlanishning o'ziga xos namunasi. Odatda, rivojlanayotgan «Yangi industrial mamlakatlar» qatoriga Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi Janubiy Koreya, Tayvan, G'ongkong, Singapur, Malayziya, shu bilan bir qatorda Lotin Amerikasidagi Argentina, Braziliya, Meksika kabi mamlakatlar taalluqlidir. Yuqorida qayd etib o'tilgan barcha mamlakatlar YaIMlarning birinchi avlodlari yoki birinchi qaldirg'ochlari hisoblanadi. Ularning orqasida YaIMning so'nggi avlodlari (Filippin va Xitoyning janubiy chegaralari) yetib chiqmoqda.

BMT tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha YaIM qatoriga kiruvchi mamlakatlar u yoki bu mezonlar bo'yicha alohida ajralib turadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotlarning miqdori;
- yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati;
- yalpi ichki mahsulot tarkibidagi qayta ishlash sanoatining umumiy miqdori (20 % atrofida bo'lishi kerak);
- chiqariladigan tovarlarning umumiy miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport miqdori;
- xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiy miqdori va h.k.lar.

Yangi industrial mamlakatlar ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlardan ajralib turadi, balki ayrim hollarda bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlardan ham ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka egadir. Masalan, Tayvan, 1952—1995-yillarda aholi jon boshiga YaIM hajmini 170 marotaba o'stirgan edi (aholining o'sishiga nisbatan 2,5 marotaba ortiqroqdir). Tashqi savdo hajmini esa 544 marotabaga oshirdi. Mamlakatning inflatsiya darajasi o'rtacha 3,6 % ni, iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'ati esa 8,7 % ni tashkil etgan edi. Shunday qilib, Tayvan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga kiritilgan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad taxminan 12 ming dollarni tashkil qilgan edi.

Shunday qilib, 1960—1990-yillarda Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'ati hisoblab ko'rilganda uning miqdori yiliga 5 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (bu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlarida 2 % ga teng bo'lgan). Ana shu yillarda, Tayvanda yillik o'sish sur'ati juda yuqori bo'lib, 8,7 % ni tashkil etgan. 90-yillarda Janubiy Koreya va Singapurda yillik o'sish sur'ati 8 % ni, Malayziyada esa 9 % ni tashkil etgan.

Jahon iqtisodiyotida «yangi industrial mamlakatlar»ning iqtisodiy rivojlanish sur'ati yuqoriligi aholining turmush tarzini yaxshilanib borayotganligi bilan uyg'unlashib bormoqda. 1960—1990-yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad rivojlanayotgan YaIM da 4 marotaba o'sgan edi. Xullas, xalqaro ekspertlarning bashorat qilishicha, 2010-yilga borib, Sharqiy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarini yalpi milliy mahsulotning hajmi bo'yicha quvib o'tishi, 2020-yilga borib esa Shimoliy Amerikadan ham o'zib ketishi bashorat qilinmoqda (3-jadval).

Osiyo—Tinch okeani mintaqasining «yangi industrial mamlakatlari»da yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari (% hisobida)

Mamlakatlar	1980—1990	1991	1992	1993	1994
Janubiy Koreya	9,9	8,3	7,3	6,4	7,6
Tayvan	8,3	7,3	6,7	6,7	6,9
Gonkong	7,1	4,0	5,8	5,4	5,5
Singapur	6,3	7,0	6,1	6,0	6,1
Malayziya	5,1	8,6	8,5	7,6	7,5

Osiyo—Tinch okeani mintaqasining «yangi industrial mamlakatlari»dan biri Singapur haqida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, u 1995-yilda Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib «industrial rivojlangan mamlakat» maqomini qo'lga kiritgan edi. Bunday unvon unga Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT) tomonidan rasman e'lon qilindi. Singapur o'zining barqaror iqtisodiy o'sishining 3 yilligi davomida nisbatan past rivojlanayotgan 10 ta mamlakatlar doirasidan ajralib chiqib, dunyoning boy rivojlangan davlatlari qatoridan joy oldi (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hisobiga). Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakatning sanoat ishlab chiqarishi yiliga o'rtacha 8,4 % ni tashkil etgan bo'lib, mamlakatdagi aholining har biri o'zining yashash darajasini o'rtacha yetti marotabaga orttirgan edi. Singapurdagi har bir aholining o'rtacha daromadi 1995-yilda 22,3 ming dollarni tashkil etdi. O'z navbatida Gonkong ham Buyuk Britaniyaning sobiq koloniyasi bo'lib, keyinchalik u ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni ko'pchiligi bo'yicha o'zining metropoliyali darajasidan yuqori pog'onaga ko'tarilgan edi.

13.2. Jahon iqtisodiyotida YaIMning iqtisodiy rivojlanish tamoyillari

Jahon iqtisodiyotida «yangi industrial mamlakatlar»ning iqtisodiy rivojlanish modeli va uning muvaffaqiyatli rivojlanish tomonlari qarab chiqilganda, uning tashqi va ichki omillari xususida ham to'xtalib o'tiladi. Ko'rinib turibdiki, omillarning bu ikki guruhleri YaIMlarning hukumatlari tomonidan olib borilayotgan nozik, maq-

sadli siyosatlar orqali to'ldirib turiladi. YaIMlarning ichki tuzilishidagi muammolarga hamda ularning xo'jalik mexanizmlariga asosiy e'tiborni qaratmasdan turib, YaIMlarni tashqi iqtisodiy rivojlanish omillarining o'ziga xos tomonlarini ochib bera olmaymiz.

Jahon mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish jarayonlari shuni ko'rsatmoqdaki, jahonning u yoki bu mamlakatlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol kirishayotganda asosiy ishni xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda tashqi savdoning o'sishiga zaruriy bo'lib hisoblanadigan shart-sharoitlarni yaratishdan boshlaydi. Shunday ekan, bu mamlakatlar o'z iqtisodiy rivojlanishlari doirasida texnologik ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlaridan keng foydalangan holda tarkibiy qayta qurilishlarga, ishlab chiqarishda tayyor xomashyolardan texnologik sig'imi yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'ta boshlaydi. Ishlab chiqarishda xo'jalik tarmoqlarni rivojlantirish va qayta ta'mirlash uchun eksportdan tushgan daromadlardan keng foydalanish xalqaro mehnat taqsimoti ko'lamida ancha istiqbolli va «foydali» usul hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi bir qator yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlar xuddi mana shu yo'llar orqali taraqqiy etgan edi. AQSH o'z iqtisodiy faoliyatini dastlabki yillarida asosan xomashyo, mevalar, paxta, asal, ko'mir va shunga o'xshash bir qator xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishdan boshlagan bo'lsa, GFR 50-yillarda ko'mir, qora metallurgiya, kimyoviy sanoat mahsulotlarni eksport qilishdan, Yaponiya esa to'qimachilik, metallurgiya, kimyoviy sanoat mahsulotlarni eksport qilishdan boshlagan edi.

XX asrning 60-yillarida Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi bir qator mamlakatlar, ya'ni, YaIMlar ham xuddi ana shu yo'llar orqali rivojlanish bosqichiga qadam qo'ygan edi. Ushbu davlatlar barchasi iqtisodiy o'sishning tashqi omillaridan samarali foydalandilar. Shu o'rinda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalar, texnika va texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilinganligini ta'kidlab o'tish lozimdir. Xullas, jahon iqtisodiyotida shunday savol tug'iladi: qaysi sabablarga ko'ra, «yangi industrial mamlakatlar»ni rivojlantirayotgan dunyodagi boshqa mamlakatlardan ajratib ko'rsatish mumkin?

Ma'lumki, bir qator sabablarga ko'ra, «yangi industrial mamlakatlar»ning ba'zi birlari sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlarning muhim siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ta'sir doirasiga tushib qolganligini ko'rishimiz mumkin. AQSHning siyosiy manfaatlari, asosan, Sharqiy Osiyo mamlakatlarining «kommunistik

ta'siriga» qarshi turuvchi Tayvan va Janubiy Koreyaning siyosiy manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Shuning uchun ham ushbu mamlakatlarga cheksiz iqtisodiy yordamlar uyushtirilib, harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi (masalan, Tayvanga 1,5 mlrd dollar miqdorida yordam ko'rsatilgan). 1950—1965-yillarda AQSHning yordami Tayvanda jalb etilgan jami investitsiyalarning 34 % ni tashkil etgan bo'lib, uning 74 % infrastrukturaga, 59 % qishloq xo'jaligiga va 13 % sanoat ishlab chiqarishiga jalb etilgan edi. Xullas, bularning barchasi Tayvan iqtisodiyotining rivojlanishida tashlangan ijobiy qadam bo'ldi.

Jahon iqtisodiyotida YaIMlarni zamonaviy iqtisodiy tarkibining shakllanishida, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning ta'sir doirasi ham katta bo'lmoqda. 80-yillarning birinchi yarmida YaIMlarni iqtisodiyotdagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning miqdori, rivojlanayotgan mamlakatlardagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan sarmoya quyilmalarining 42 % ga yetgan edi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AQSH «yangi industrial mamlakatlar»dagi ishbilarmonlik sarmoyalarining eng ko'zga ko'ringan investori hisoblanadi. Ulardagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sishi, xorijiy mamlakatlardagi xuddi shunday investitsiyalar umumiy miqdorining 10 % ni tashkil etadi. Yaponiya hozirgi kunda YaIMdagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning miqdori bo'yicha jahon mamlakatlari ichida ikkinchi o'rinda turadi.

Yaponiya investitsiyalari YaIMlarning industriallashuviga va ularning eksport tovarlarining raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratib, YaIMlar sanoatida qayta ishlanadigan mahsulotlarning yirik eksportyorlaridan biriga aylanishida muhim rol o'ynamoqda. Yaponiya investitsiyalarini kirib kelishi birgina 1982—1985-yillarning o'zida Tayvanda 2,1 martaga, Gonkongda 61 % ga o'sgan edi.

Yaponiya sarmoyalari ishtirokida, ushbu mamlakatlarda yuqori sifatli tayyor mahsulotlarning eksportyorlari bo'lib qolishiga imkon beruvchi yirik ishlab chiqarish bazasi tashkil etildi. 80-yillarning boshlarida Yaponiya investitsiyalari umumiy miqdorining yarmidan ko'prog'ini tashkil etgan edi. Xullas, yapon investorlari ishtirokida YaIMlarda zamonaviy stanoklar, elektronika jihozlari, dengiz kemalari va boshqalarni ishlab chiqarish bo'yicha komplekslar barpo etilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida Osiyoning YaIMlari uchun shu narsa xarakterli bo'ldiki, ulardagi tadbirkorlik sarmoyalari, birinchi galda qayta ishlash sanoati va xomashyo tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi. O'z navbatida, Lotin Amerikasining YaIMlaridagi

ishbilarmonlik sarmoyalari esa, ko'proq savdo, xizmat ko'rsatish sohalari va qayta ishlash sanoat tarmoqlariga jalb etilgan edi. Xullas, jahon iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalarning keng miqyosda tarqalishi shu narsaga olib keldiki, YaIMlarda xorijiy sarmoyalar ishtirok etmagan birorta ham iqtisodiy tarmoq qolmagan edi. 1998-yilda Lotin Amerikasi va Sharqiy Osiyoning YaIMlarining bozorlaridagi quyilmalarining daromadlilik darajasi (% hisobida) quyidagicha xarakterda bo'lgan edi: Argentinada 58 % ni, Braziliyada 83 % ni, Meksikada 40 % ni, Chilida 39 % ni, Indoneziyada 79 % ni, Janubiy Koreyada 26 % ni, Tayvanda 104 % ni, Tailandda 121 % ni, Filippinda 165 % ni tashkil etgan edi.

Ko'rinib turibdiki, Sharqiy Osiyoning YaIMlaridagi investitsiyalarning daromadlilik darajasi Lotin Amerikasi mamlakatlarinikidan sezilarli darajada yuqoriroq bo'lgan. Qonuniy shunday savol tug'iladi, xo'sh, nima uchun xorijiy mamlakatlarning xususiy sarmoyalarning barchasi Sharqiy Osiyo mintaqasidagi ba'zi bir mamlakatlarga nisbatan faolroq kirib boradi? Ma'lumki, 60-yillarning oxirlarida, jahon xo'jaligini rivojlanishidagi vaziyat shu qadar murakkablashgan ediki, natijada, transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish manfaatlari va strategiyalari Sharqiy Osiyodagi bir qator rivojlanayotgan davlatlarning imkoniyatlari va intilishlari bilan moslashib borgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlar importidagi turli xildagi cheklashlar va ularning uncha katta bo'lmagan to'lov qobiliyatiga duch kelayotgan transmilliy korporatsiyalar, joylarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida o'z sarmoyalari chetga chiqarish orqali tovarlar eksportini qisman yangilash tomon qadam qo'ya boshladi.

Transmilliy korporatsiyalarning xuddi ana shu yo'nalishlaridagi faoliyati, rivojlangan mamlakatlarning to'yingan bozorlarining konyukturasi, raqobatni avj oldirish va ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun kurashish orqali amalga oshirilmoqda. Transmilliy korporatsiyalar, o'z'lari faoliyat ko'rsatayotgan joylarda ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirishga e'tiborni qaratadi. Xarakterli tomoni shundaki, jahon iqtisodiyotida «Osiyo ajdarhosi» deb nom olgan xalqaro iqtisodiy konyukturalarining bunday o'zgarishlarni qabul qilishga va ulardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga tayyor ekanligi ma'lum bo'ldi. Transmilliy korporatsiyalarni, aynan Osiyo—Tinch okeani mintaqasiga jalb qilishida quyidagi shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etgan edi:

1. «Yangi industrial mamlakatlar»ning foydali jug'rofiy qulay joylashganligi. Ularning barchasi dunyo savdo iqtisodiy yo'llarining

chorraxasida, ya'ni jahon xo'jaligi markazlari bo'lmish — AQSH va Yaponiyaga yaqinroq hududlarda joylashganligi.

2. «Yangi industrial mamlakatlar»ning barchasida sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan munosib hisoblangan avtokratik yoki shunga yaqin bo'lgan siyosiy muhitlar yaratilganligi. Ularda siyosiy barqarorlik ta'minlanib, siyosiy hamda demokratik o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Xorijiy investorlarning xavfsizligi uchun yuqori darajali kafolatlar ta'minlandi.

3. Osiyodagi «yangi industrial mamlakatlar» aholisiga xos bo'lgan mehnatsevarlik, intiluvchanlik, tejamkorlik singari noiqtisodiy omillar ham katta ahamiyat kasb etdi. Bu omillar ma'lum darajada Osiyo—Tinch okeani va Lotin Amerikasidagi YaIMlarning ikki modeli o'rtasidagi o'ziga xos bo'lgan bellashuvda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Xo'sh, ushbu modellarning o'ziga xos tomonlarini nimada ko'rishimiz mumkin? Jahon iqtisodiyotida birinchi model milliy iqtisodiyotning tashqi bozor va eksportga tomon ustuvor yo'nalishlari orqali rivojlanishini ko'rsatib bersa, ikkinchi model esa import o'rnini egallashga qaratilganligidir.

Birinchi modelda ko'rsatib o'tilganidek, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida AQSH, Ikkinchi Jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya, keyinchalik esa Osiyo—Tinch okeani mintaqasining YaIMlari ham rivojlanishning birinchi modeli yo'lidan borishdi. Ikkinchi model esa sezilarli darajada Lotin Amerikasining YaIMlari tomonidan o'zlashtirib olingan edi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda import o'rnini egallashga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyalari bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiyotida muhim rol o'ynamoqda. Import o'rnini egallash strategiyalari xo'jalik tarkibining xilma-xilligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida esa yangi va muhim hisoblanuvchi bir qator ishlab chiqarish tarmoqlari barpo etilishi bilan bir qatorda muhim yo'nalishlar bo'yicha o'z-o'zini ta'minlash darajasi ham o'sib bormoqda.

Shuningdek, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishda asosiy yo'l hisoblanuvchi import o'rnini egallashga mo'ljallangan ishlab chiqarish sohalarni rivojlantirishni asosiy o'ringa qo'yuvchi barcha mamlakatlarda o'z-o'zidan jiddiy inqirozlar bo'lib turibdi. Gap shundaki, xorijiy kompaniyalar uchun imtiyozli kreditlarni yo'qligi va proteksionizm siyosatiga asoslangan milliy iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishini «qo'llab-quvvatlab turganlik» muhiti jahon ikti-

sodiyotida tez moslashuvchan va samarali iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga yo'l qo'ymaydi. Umuman olganda, import o'rnini egallash siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatining dunyo xo'jaligida tub o'zgarishlar yasashiga yo'l qo'ymaydi.

Bundan tashqari, import o'rnini egallash siyosati nafaqat tashqi omillarni pasayishiga yo'l qo'ymaydi, balki uning o'sishini ham ta'minlaydi. Import o'rnini egallash tamoyillariga uzoq vaqt tayaynilganda, mamlakatlarda qoloqlikni bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi hamda keng miqyosidagi taraqqiyotga erishishni ta'minlovchi iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarni vujudga kelishiga xalaqit beruvchi barcha to'siqlarga barham beriladi.

Proteksionizm, ichki bozorlarni va biznesni himoya qilish choralari sifatida qisman samarasiz ishlayotganiga qaramasdan, uning monopol holati va baholarining keskin o'sayotganligidan foydalanib foyda olayotgan mahalliy korxonalarni qo'llab-quvvatlaydi. Xullas, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida import o'rnini egallash davri bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, «yangi industrial mamlakatlar»da ham o'z nihoyasiga yetganligini ko'rishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida import o'rnini egallash strategiyasi Lotin Amerikasining YaIMlari (Braziliya, Argentina, Meksika) uchun xilma-xil milliy iqtisodiyotni barpo etishda va shuningdek, bir qator tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha jahonda salmoqli o'rinni egallab kelishida muhim rolni o'ynamoqda. Nima bo'lganda ham ushbu mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qoloqlik darajasini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yarata olishmadi. Shuning uchun ham Lotin Amerikasining YaIMlari qanchalik kuchayib, iqtisodiy potensialga ega bo'lishlariga qaramasdan, Osiyodagi YaIMlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan ancha qoloqligicha qolmoqda. Masalan, Braziliyaning yalpi ichki mahsuloti Sharqiy Osiyodagi «yangi industrial mamlakatlar»ning umumiy yalpi ichki mahsulotiga nisbatan biroz kamroqdir

13.3. «Yangi industrial mamlakatlar» — xalqaro mehnat taqsimoti tizimida

Jahon iqtisodiyotida Lotin Amerikasining yangi industrial mamlakatlari 90-yillarning o'rtalariga kelib, 80-yillardagi uzoq davom etgan inqirozidan chiqib oldi. Braziliya, Chili, Argentina kabi davlatlarda amalga oshirilgan liberal iqtisodiy o'sish sur'atlari yuksalib, savdo balansini yaxshilashda ijobiy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Lotin Amerikasining yirik, YaIMlaridan biri Braziliyada olib borilayotgan siyosat — ochiq iqtisodiyotni yaratishga qaratilganligidir. Buning uchun mamlakatning ichki bozorlarida raqobat kurashuvi uchun muhit yaratilayotgan bo‘lib, unga bog‘liq holda import tariflari pasaytirildi. 1995-yilda MERCOSUR mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay) o‘rtasidagi bojxona to‘siqlari to‘liq olib tashlandi.

Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi «yangi industrial mamlakatlar» o‘z iqtisodiyotining eksportga mo‘ljallangan ancha samarali va tez moslashuvchan modelini joriy etdi. Bu model, ma‘lum davr mobaynida bir vaqtning o‘zida import o‘rnini egallash siyosatini ham o‘z ichiga olgan edi. Eksport siyosati o‘rnini egallashga mo‘ljallangan industriallashuvning tugallangan davrini qayta sodir etishni talab etmaydi. Ma‘lumki, jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash va eksportga mo‘ljallangan iqtisodiy siyosat bir-biri bilan tengma-teng holda harakat qilib, ba‘zi davrlarda esa ular bir-biridan ustunlikka ham ega bo‘lishi mumkin. Eksportni kengaytirish davriga yoppasiga o‘tish oldidan, import o‘rnini egallash uchun jahon mamlakatlari ishlab chiqarishining zamonaviy tizimlarini vujudga keltirish, xalq xo‘jaligini an‘anaviy sektorini qayta qurish kabi masalalarga ham e‘tiborni qaratishmoqda.

Osiyo—Tinch okeani mintaqasining ko‘pchilik mamlakatlarida (50 va 60-yillarda Janubiy Koreyada, Tayvanda, 60-yillarda Malayziyada, 60 va 70-yillarning boshlarida Tailandda, 50 va 60-yillarning oxirida Filippinda) import o‘rnini egallash siyosati ustuvor bo‘lgan edi. Gonkong va ma‘lum darajada Singapur o‘zlarining tarixiy rivojlanish shart-sharoitlari, jug‘rofiy joylashuvi va ichki talabni cheklanganligi ta‘sirida ishlab chiqarishni ko‘proq eksportga qaratdilar.

Jahon xo‘jaligida ko‘rilgan mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar, qayta ishlash sanoatidagi foyda me‘yorini oshirish, iste‘mol mahsulotlarini va shuningdek, uzoq muddatli foydalanishga mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning asta-sekinlik bilan import o‘rnini egallashiga sabab bo‘lmoqda.

60—80-yillarda Janubiy Koreya jahon bozoriga xuddi shu mahsulotlarning 2,9 % ni, 3,4 % ni, 9,6 % ni, 9,3 % ni, 11,1 % ni va 9,6 % ni yetkazib bergan bo‘lib, uning jahon kemasozlik sanoati eksportidagi ulushi 13,1 % ga to‘g‘ri kelgan edi.

Osiyo—Tinch okeani mintaqasining «yangi industrial mamlakatlari» sanoat mahsulotlari eksportining yuqori dinamikasiga asoslangan holda an‘anaviy ayrim tovarlar eksporti bo‘yicha tashqi

savdo aylanmasida hal qiluvchi o'rinni egallagan edi. Masalan, Janubiy Koreya va Tayvan eksportida xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi mos ravishda 7,1 % va 7 % ni tashkil etgan edi. Xullas, 90-yillarda Janubiy Koreyada tovarlar eksportida qiymati bo'yicha ikkinchi o'rinni poyabzal mahsulotlari egallagan bo'lsa, Tayvanda esa o'yinchoqlar va sport tovarlari egallagan edi. Janubiy Koreya eksportida to'rtinchi o'rinni sintetik mahsulotlardan tayyorlangan tekstil tovarlari turgan bo'lsa, Tayvanda esa yettinchi o'rinda poyafzal mahsulotlari turgan edi.

Osiyo—Tinch okeani mintaqasining «yangi industrial mamlakatlari»da, ayniqsa, mashina va uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha eksportida Hindiston va shuningdek, Lotin Amerikasining YaIMlarining kuchsizlanishi sezilarlidir. Agar Lotin Amerikasining YaIMlarini tovarlar eksportining rivojlangan davlatlar umumiy eksportidagi ulushi 1998-yilda 1980-yilga nisbatan unchalik kamaymagan (0,5 %) bo'lsa-da, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha ulushi qariyb 1,8 barobarga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan, shu mashina-texnik mahsulotlar eksporti rivojlangan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi holatlarini yaxshilanishining eng muhim omilidir.

90-yillarda Osiyoning «yangi industrial mamlakatlari»ni olib borayotgan faol tashqi savdo siyosati AQSHning Osiyo—Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan bo'lgan yillik o'zaro savdo hajmi (128,4 mlrd doll.) G'arbiy Yevropa bilan bo'lgan savdo aylanmasidan (117,1 mlrd doll) yuqori bo'lgan edi. Bunda Osiyoning YaIMlari (Yaponiyani qo'shib hisoblaganda) AQSH avtomobil va elektrotexnika asbob-uskunalar bozorining 30 % ni, to'qimachilik mahsulotlari bozorining esa 50 % ni egallagan edi.

XX—XXI asrlar bo'sag'asida rivojlangan mamlakatlarning eng yirik kapital importyori bo'lgan «yangi industrial mamlakatlar» o'z jo'g'rofiyasini ancha kengaytirgan edi. Hozirgi kunda ilg'or sanoati rivojlangan davlatlarini kapitali uchun Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlar yangi bozorlardir. Masalan, Janubiy Koreya firmalari AQSHda aniq maqsadga yo'naltirilgan eksport ekspansiyasini o'tkazishyapti. Amerika iqtisodiyotiga kapital qo'yishib, Janubiy koreyaliklar o'z iqtisodiyoti uchun eng yangi texnika-texnologiyalarni kirib kelishiga yo'l ochishmoqda. Shuningdek, Janubiy Koreya firmalari Osiyo—Tinch okeani mintaqasining «ajdarho» deb nom olgan boshqa davlatlariga ham kapital olib chiqishni ko'paytirayotir. Masalan, Tayvanning Xitoyga bo'lgan

qiziqishi juda kattadir. 90-yillar o'rtalarida Tayvanning XXRdagi investitsiyalari 9 mlrd doll.dan oshib ketgan edi. O'z navbatida gongkonglik ishbiarmonlar XXRda ro'yxatga olingan qo'shma korxonalarining yarmidan ko'prog'iga egalik qilishgan.

XX asrning 50-yillarida jahon xo'jaligida baynalmilallashuv jarayonlarining tezlashishi rivojlanayotgan mamlakatlarni, birinchi navbatda YaIMlarni ham qamrab olgan edi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishni, mehnat va kapital bozorlarini va shuningdek, tovar ayirboshlash jarayonlarining baynalmilallashushiga moliya bozorlarining baynalmilallashuvi ham qo'shildi. YaIMlarning kredit imkoniyatini o'sishi milliy moliyaviy bozorlarning rivojlanishi bilan va shuningdek, moliyaviy salohiyatning oshishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda «yangi industrial mamlakatlar»ning ko'pchiligi milliy moliyaviy bozorlarni tashkil topishining birinchi bosqichidan o'tib, liberallashtirishning ikkinchi bosqichiga qadam qo'yishdi. Buning natijasida ushbu davlatlarda xalqaro moliyaviy munosabatlarni integratsiyalashuviga asos yaratildi.

Kapital harakatining baynalmilallashish jarayonlari, hatto rivojlangan davlatlar orasida ham yakunlanishidan uzoqdir. Shuning uchun ham bu haqda rivojlanayotgan davlatlar to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Shunga qaramasdan, ba'zi-bir «yangi industrial mamlakatlar» (Singapur va Gonkong) bu yo'lda sezilarli qadamlar qo'yishdi. Bunga, 70-yillarda yangi jahon iqtisodiyotida yangi xalqaro moliyaviy markazlarning hosil bo'lishi va tez o'sishini kiritish mumkin. XXI asr boshlarida Tayvan Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi yirik moliyaviy-valuta markaziga aylanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Hozirgi kunda Osiyoning YaIMlari kredit-moliya operatsiyalarini o'tkazish darajasi bo'yicha London, Parij, Syurix kabi yirik moliya markazlari qatoriga chiqib, ularni ssuda kapitali bozorida asta-sekin siqib chiqarmoqda.

Osiyo—Tinch okeani mintaqasini YaIMlarini iqtisodiy evolyutsiyasining xarakterli tomonlaridan biri ularning bir-biriga bo'lgan qiziqishining tobora ortib borayotganligidir. Sanoati rivojlangan G'arbiy Yevropa davlatlariga kapital yo'naltirishning ustuvor an'anasi mintaq va bir-biriga yaqin bo'lgan submintaqalarda savdo-iqtisodiy hamkorliklarni olib borishligi bilan to'ldirilmoqda. Ammo bu Osiyoning YaIMlarining raqobatbardoshligini oshirishga e'tibor bermayapti, degani emas. Xullas, 90-yillarning o'rtalarida tovarlarning raqobatbardoshligi bo'yicha jahondagi birinchi beshlikda Singapur, Gonkong, Tayvan kabi davlatlar turgan edi.

Bu davlatlarda qabul qilingan iqtisodiy strategiyaning asosiy yoʻnalishi — ilm talab mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Mehnat talab va past rentabelli ishlab chiqarishlar YaIMlarning «ikkinchi oqimida» turgan Xitoy va Vetnamga «topshirilmoqda». Natijada, bu ishlab chiqarishlarni bir paytlar sodir etgan sanoati rivojlangan davlatlardan birinchi avlod «yangi industrial mamlakatlar»ga koʻchish jarayoni amalda qaytarilmoqda.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyotida YaIMlarni rivojlanishidagi qoʻlga kiritgan yutuqlari, jahon xoʻjaligiga integratsiyasi, iqtisodiy oʻsishining istiqbollari, aholining turmush tarzini oʻsishi ushbu davlatlarning iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy ekspansiyalarning roli yuqori darajada, deyishga imkon beradi. XXI asrda ushbu davlatlar jahon iqtisodiyoti hukmronligida yuqori oʻrinni egallab, yangi va muhim natijalarni namoyish etishmoqda. Jahon bankining bashorat qilishicha, yaqin 10 yillar mobaynida yillik oʻsishning oʻrtacha surʼatlari Janubiy Osiyoda 5,5 % ni, Sharqiy Osiyoda 7,7 % ni, Lotin Amerikasida 3,5 % ni tashkil qilar ekan. 1996—2005-yillarda Sharqiy Osiyoda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan daromadning yillik oʻsishi 6,6 % ni tashkil etib, oʻrta hisobda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan yillik daromad yiliga 1,9 % ga oʻsgan edi.

Nazorat savollari

1. Osiyo—Tinch okeani mintaqasi va shuningdek, Lotin Amerikasida joylashgan qanday YaIMlarni bilasiz?
2. Osiyo va Lotin Amerikasidagi YaIMlarni rivojlanish xususiyatlarini xarakterlab bering.
3. Rivojlangan va YaIMlarni rivojlanish xususiyatlarini bir-biridan farqlab bering.
4. Jahon iqtisodiyotida YaIMlarning iqtisodiy rivojlanish modellarini oʻziga xos xususiyatlarini tavsiflang.

14-bob. BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TAYOTGAN DAVLATLAR

14.1. Ishlab chiqarishning sotsialistik rejali xo‘jalik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning zarurligi

Jahon iqtisodiyotida o‘tish davri iqtisodiyoti bir xo‘jalik yuritish tizimining boshqasi bilan almashish holatini ifoda etadi. Bu jarayon nisbatan uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Uning o‘ziga xos jihati shundaki, eski iqtisodiy tizim batamom yo‘q bo‘lib ketmaydi, yangi tizim esa o‘zining samaraliroq ekanligini ko‘rsata olmaydi. Buning natijasida iqtisodiyotning yaxlitligi buziladi, ya‘ni eski va yangi iqtisodiyotning unsurlari bir vaqtning o‘zida faoliyat ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash holatlar jahon xo‘jaligining sivilizatsiyalar almashuvida (antik davrdan o‘rta asrlar davriga, o‘rta asrlar davridan kapitalizmga o‘tishda) kuzatilgan edi.

Zamonaviy bosqichda o‘tish davri iqtisodiyoti Yevropa va Osiyodagi sobiq sotsialistik mamlakatlarga (KXDR bundan mustasno) xosdir. KXDR hozirgi kunda ham markazdan turib rejalashtirilgan tizimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirib kelmoqda. Jahon iqtisodiyotida SSSR, Chexoslovakiya va Yugoslaviya kabi sotsialistik tizimdagi davlatlar tarqalib (bo‘linib) ketgandan so‘ng, ularning o‘rmini 29 ta o‘tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar vujudga keldi. Hozirgi kunda ushbu davlatlar o‘tish davri qiyinchiliklarini boshidan kechirmoqda. O‘tish davri davlatlarining iqtisodiyoti bir butun yaxlit emas, buning natijasida barqaror o‘shish mexanizmlari qiyin ahvolga tushib qolgan bo‘lib, milliy xo‘jalik holati barqaror va turg‘un emas.

O‘tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarda davlat barqarorlashtirish jarayonlarini kuchaytirishga, milliy ishlab chiqarishni raqobatbardoshligini oshirishga, yangi xo‘jalik yuritishning bozor ko‘rinishlarini amalga oshirishni yengillashtirishga harakat qiladi. Jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshlik muammosi eng dolzarb hisoblanadi, chunki markazdan turib rejalashtirish tizimidan voz kechish, eng avvalo, ishlab chiqarishda samaradorlikni pastligi bilan va shuningdek, uning daromadligini pasayishi bilan xarakterlanadi. Sharqiy

Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti tashqi bozorga bog'liq bo'lganligi sababli o'z mahsulotlarini jahon bozorida sotishda bir qator muammolarga duch kelishgan edi. Eksport imkoniyatlarining yetarli darajada emasligi esa valuta mablag'larini jamlashda qiyinchiliklarni tug'dirdi. Bu esa o'z navbatida ushbu mamlakatlarda aholining turmush farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan import tovarlarni yetarli darajada sotib olish imkoniyatini bermagan edi.

O'tish davri mamlakatlari raqobatbardoshlik va jahon narxlariga bog'lanib qolganlik muammosini sobiq SSSRga nisbatan chuqurroq his etadi. Chunki sobiq SSSRda ichki bozor o'zining sig'imlilik va diversifikatsiyalanganligi uchun ham takror ishlab chiqarish jarayonida jahon bozoriga nisbatan ahamiyatliroq edi.

O'tish davri mamlakatlarida ishlab chiqarish samaradorligiga bo'lgan talablarga nisbatan yondashuv ham bir xil emas edi. Agar Sharqiy Yevropa mamlakatlarida xo'jalik boshqaruv mexanizmining inqirozga uchraganligi jahon bozori talablaridan orqada qolganligi bilan baholansa, sobiq SSSRda rejali iqtisodiyot ishlab chiqarishda aholining haqiqiy ehtiyojlari uchun xizmat qilmasligi tanqid ostiga olinadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari jahon bozori bosimini o'zlarida ko'proq his qilib, sobiq SSSRga nisbatan sotsializm modelini takomillashtirish yo'llarini faolroq izladilar. Bu mamlakatlarda davlat va kooperativ mulk mayda xususiy mulkni (xizmatlar, chakana va ulgurji savdo ishlari) siqib chiqarmagan edi. Bu holat, ayniqsa, Polshaga xos. Ushbu davlatning qishloq xo'jaligida kooperatsiyalashtirish jarayonlari amalga oshirilmagan edi. Shunday qilib, Sharqiy Yevropada bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan xususiy xo'jalik alohida iqtisodiy ukhad sifatida saqlanib qolgan bo'lib, u bozor islohotlarini amalda qo'llanilishini yengillashtirgan edi.

XX asrning 60-yillarida boshqaruvning sotsialistik xo'jalik iqtisodiyotida inqirozli holatlar kuzatila boshlandi, iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashdi. SSSRda sanoat mahsulotlarini sotish muammosi kuchayib ketdi. Xalq iste'moli tovarlari yetishmagan bir vaziyatda, o'z xaridorini topmagan tovarlarning ortib borishi kuzatildi. Bunday muammolar Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham mavjud. Ushbu mamlakatlarda bozorning kichikligi bois sotilmagan tovarlarni bir bozordan boshqasiga tashlash imkoniyati yo'q. Shuning uchun ham ular tovar assortimentini tez-tez almashtirishga va sifatiga ko'proq e'tibor berilgan. Ana shunday vaziyatda iqtisodiy o'sishning ekstensiv omillari tugab, intensiv o'sish omillariga o'tish zaruriyati tug'ildi.

14.2. O'tish davri davlatlarida bozor islohotlari. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar

Jahon iqtisodiyotida aytilgan davr oralig'ida muhim iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning asosiy maqsadi rejali iqtisodiyotning ustun jihatlarini bozor iqtisodiyoti yutuqlari bilan birlashtirish edi. Bozor sotsializmi deb nomlangan g'oya yuzaga kelgan bo'lib, bu g'oya sobiq SSSRda 1965-yildagi islohotlar o'z ifodasini topdi. Uning mohiyati rejali boqaruvni bozor raqobatlarini bilan uyg'unlashtirishga intilish edi. Bu davrda sobiq Yugoslaviyada bozor islohotlari yanada chuqurroq xarakterga ega bo'lgan. Yugoslaviyada ishlab chiqarish korxonalarini o'z-o'zini boshqarish, erkin narx belgilash va tovarlarni sotish imkoniyatiga ega bo'lib, raqobat kuchaygan. Buning oqibatida korxonalar bu raqobatga bardosh berish uchun bozor sharoitiga moslashishga majbur bo'lgan edi.

Yugoslaviya modeli korxonalarining talabga moslasha olish, bozorni to'ldirish va mahsulotni nisbatan yuqori sifatda bo'lishini ta'minlash imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Mamlakat o'zining stanoklarini zamonaviy yangilay olish imkoniyatini ham namoyish etdi. Bunday yangilash korxonalar tomonidan, o'z hisobiga amalga oshirildi. Biroq, bozor sotsializmining yugoslavcha modeli mamlakatda ishsizlikni oshishiga, inflatsion jarayonlarning kuchayishiga olib keldi.

XX asrning 60-yillari oxirida bozor islohotlari Sharqiy Yevropaning boshqa sotsialistik mamlakatlarida ham amalga oshirildi. Ularning iqtisodiyotidagi bozorga oid tarkibiy qismlar sobiq SSSR bilan solishtirilganda yanada sezilarli bo'lsa-da, biroq Yugoslaviya darajasiga yetib bordi.

Vengriya bozor sotsializmi modelini yaratish korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga mustaqillik berish yo'li bilan bog'liq bo'ldi. Ya'ni, ularga o'z mahsulotlarini o'zlari sotishga ruxsat berildi. Ma'lumki, mamlakat yetarli darajada kichik bo'lgan taqdirda bu jarayonga davlatning jiddiy aralashuvi talab etilmaydi. Shuning uchun ham Vengriyada korxonalar ish haqi fondlarini saqlab qolgan holatda bandlar sonini mustaqil belgilash huquqiga ega bo'lishdi. Ishchilar sonini kamaytirish hisobiga ish haqi fondi saqlab qolindi, natijada, korxonalar bu fondni qayta taqsimlash huquqiga ega bo'lganligi bois, ishlab chiqarishda bandlarning ish haqini oshirish imkoniga ega bo'lindi.

Vengriyada o'tkazilgan islohotlarning eng diqqatga sazovorli tomoni shunda bo'ldiki. bu yerda ichki narxlarni jahon narxlariga bog'lab qo'yishga harakat qilindi. O'tkazilgan bu islohotlar natijasida Vengriya, ya'ni mamlakat iqtisodiyoti ma'lum darajada qoloq, raqobatbardosh bo'lmagan ishlab chiqarishdan holi bo'lib, raqobatda g'olib chiqqan korxonalar jahon bozori talablariga moslashish ko'nikmasiga ega bo'ldi. Shunday qilib, o'tgan asrning 80-yillari boshlarida amalga oshirilgan jiddiy islohotlar vengerlar tomonidan «iqtisodiy qon almashtirish» sifatida baholandi va keyinchalik bu bozor iqtisodiyoti tomon tashlangan jiddiy qadam bo'ldi.

Bu islohot Avstriya bilan bo'lgan davlat chegaralarini ochilishi munosabati bilan yanada kuchaydi. Korxonalarining mahsulotlari o'zining kapitalistik qo'shnilari tomonidan kuchli raqobatni his eta boshladi. Juda ko'p narxlar, ayniqsa, chorvachilik mahsulotlaridagi narxlar Avstriyadagi narxlarga yaqinlashtirildi. Bu esa o'z navbatida avstriyaliklar tomonidan nisbatan arzon venger go'shtlarini ommaviy ravishda sotib olinishiga qarshi javob bo'ldi. Xullas, Vengriya sotsialistik xo'jalik tizimi hukumronlik davridayoq ochiq jamiyatni shakllantirish tomon, ya'ni jahon bozori xo'jaligi qonunlariga moslashish orqali ildam qadamlar tashlandi.

Chexoslovakiyada esa bozor sotsializmi tomon harakat 1968-yilda Varshava shartnomasi mamlakatlarining qo'shinlarini kiritilishi munosabati bilan bir muncha qiyinlashgan edi. Shunday bo'lsa-da, Chexoslovakiyada markazdan turib rejalashtirish asoslariga putur yetkazmagan holda, resurslarning narxlari har yili oshirilib, iste'mol tovarlari narxlari esa pasaytirib borildi. Natijada, 90-yillarga kelib, narx parametrlari va ularning tarkibi jahon standartlariga yaqinlashdi. Bu esa mamlakatga bundan keyingi inflatsion «karaxtlik»dan qutilib qolish imkonini berdi.

Jahon iqtisodiyotida Polsha iqtisodiyoti uchun siyosiy nobarqarorlik xos bo'lib, bu mamlakatda har qanday islohotlarni o'tkazishni qiyinlashtirgan edi. Shunday bo'lsa-da, 80-yillarda hukmronlik qilgan inflatsiya tarmoq tuzilmasini bir muncha yaxshiladi, bozor iqtisodiyotiga mos keladigan qonunchilik ishlab chiqildi. Bu holatni bozor xo'jaligi uchun mamlakatda huquqiy poydevor o'rnatilishi deb qarash mumkin, chunki, bu poydevorsiz bozor iqtisodiyotini yaratish mumkin emas.

Polshada bozor iqtisodiyotining boshlanishi uni amalda bo'lishining moddiy shart-sharoitini yaratishdan boshlandi. Buning


ichida erkin bozor narxлари hududining kengayishi, xususiy mulkchilikka nafaqat qishloq xo'jaligida, balki qayta ishlash sanoatida ham ruxsat etilishi va boshqalarni alohida qayd etish mumkin.

1982—1983-yillarda Polshada boshlangan islohotlar quyidagi yo'nalishlarni nazarda tutgan edi:

1. Markazdan turib rejalashtirishni davlat buyurtmalari tizimi bilan almashtirish.
2. Markazdan turib narx belgilash doirasini qisqartirish. Buning natijasida 1989-yilning kuziga kelib 90 % narx erkinlashdi.
3. Moddiy resurslarni markazdan turib taqsimlash ulushini 1986-yildagi 45 % dan 1988-yilga kelib 22 % gacha qisqartirish.
4. Tarmoq vazirliklarini tugatish va yagona sanoat vazirligini tashkil etish (Vengriya kabi).
5. Ish haqini erkinlashtirish va mehnatga haq to'lash fondining oshishiga o'sib boruvchi soliqni joriy etish.
6. Vositachilik va lizing shartnomalarini joriy etish.
7. Qayta ishlash sanoatida xususiy mulkchilikka ruxsat berish.
8. Xorijiy valuta bozorini 1989-yildan boshlab erkinlashtirish va boshqalar. Shunday qilib 80-yillarning oxiriga kelib Sharqiy Yevropada bozor iqtisodiyotiga o'tishni osonlashtiruvchi iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan edi.

Sobiq SSSRda esa 1965-yildagi islohotlar davom ettirilmasdan shiddat bilan orqaga qaytarilgan edi. Iqtisodiyot rejali xo'jalikni yanada markazlashtirish siyosatini kuchaytirish yo'lidan ketdi. Korxonalar amalda mustaqil faoliyat olib borish huquqiga ega emas edi. Ichki bozorning narx tuzilmasi xalqaro standartlarga umuman mos kelmasdi. Bozor islohotlari boshlanganda sobiq SSSRda resurslar narxi jahon narxining bor-yo'g'i 1/3 qismini tashkil etgan edi. Bu esa inflatsion jarayonlarning mamlakatda uzoq davom etishi va nihoyatda chuqurlashishini ifoda etadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi davlat sotsializmining so'nggi davrlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni MDH davlatlari bilan solishtirganda bozor islohotlarini o'tkazish uchun qulay vaziyat yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Dastlabki bunday qulay shart-sharoitlar bir qator jihatlar bilan bog'liqdir. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiyotning monopollashish darajasi MDH mamlakatlariga nisbatan pastroqligi, aholining turmush farovonligi esa nisbatan yuqoriligi hamda bu mamlakatlarda bozor mentaliteti saqlanib qolganligi bilan xarakterlanadi.

- 
1. Sotsialistik xo'jalik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotining afzalligini xarakterlab bering.
 2. O'tish davri davlatlari deganda qanday davlatlarni tushunasiz?
 3. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni o'ziga xos jihatlarini ochib bering.
 4. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni MDH mamlakatlari bilan taqqoslab, farqini aniqlang.

15-bob. **MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI
MAMLUKATLARI IQTISODIYOTI**

**15.1. MDH mamlakatlarini jahon xo‘jaligiga kirib
borishidagi asosiy muammolar**

XX asrning 90-yillari boshiga qadar sotsialistik rejali tizimni boshidan kechirgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari (RF, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) jahon xo‘jaligiga dadil kirib borishining nazariy va amaliy tomonlarini yechish uchun quyidagi muammolarni hal etishga kirishgan edilar:

1. «Ochiq iqtisodiyot» tamoyillari konsepsiyasini nazariy jihatlarini tahlil etib, amaliyotda keng qo‘llash.

2. Jahon iqtisodiyotida sotsialistik rejali tizimni boshidan kechirgan (XXR, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari) va hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti asosida dadil rivojlanib borayotgan mamlakatlar iqtisodiy islohotlarini chuqur tahlil etish va amaliyotda qo‘llash.

3. Iqtisodiyotda eksport strategiyasi bilan sanoat siyosati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni chuqur tahlil etish.

4. Jahon mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion jarayonlarning borishini tahlil etib, iqtisodiy faoliyatni jahon standartlariga mos mexanizmini qo‘llash, takomillashtirish va boshqalar.

**15.2. MDH mamlakatlarining yaqin va uzoq xorijiy
mamlakatlar bilan olib borayotgan savdo-iqtisodiy aloqalari**

Ma‘lumki, XX—XXI asrlar bo‘lag‘asi jahon iqtisodiyotida rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘lib, tashqi savdo sohasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global masshtabda rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Ana shu davrda MDH mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida stabillashuv jarayonlari ro‘y berganligi, Osiyo—Tinch okeani mintaqasi davlatlarini iqtisodiy tiklanganligi ko‘zga tashlanadi.

MDH mamlakatlari bilan yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarini borishida, ayniqsa, sanoati

rivojlangan mamlakatlar — AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Janubiy Koreya, GFR, Fransiya, Turkiya alohida o'zini egallamoqda.

MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida olib borilayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlar ham samarali rivoj topib bormoqda. MDH mamlakatlarini respublikamiz bilan bo'ladigan tovar aylanmasining rivojlanishi teng huquqli va o'zaro foydali tamoyillarga asoslangan. 2000-yilda Ukraina bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo aylanmasi 1999-yilga nisbatan 1,3 barabarga, RF bilan bo'ladigan savdo aylanmasi esa 16 % ga o'sdi.

Hozirgi kunda MDH mamlakatlarini respublikamiz bilan bo'ladigan tashqi savdo aylanmasining 30—35 % Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) orqali amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamiz tashqi savdo aloqalarining 70—80 % MDH hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1997-yilga kelib, 60—65 % ga to'g'ri keldi.

Rossiya Federatsiyasi bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar yildan-yilga kengayib, rivojlanib bormoqda. 1997-yilda Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi eksport-import saldo 65,3 mln dollarni tashkil etgan. Hozirgi kunda ham O'zbekiston Rossiyaga asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chiqarib, kamroq sanoat tovarlarini sotib olmoqda. Agar 1992-yilda Rossiyaga sotilgan mahsulotlarning 58—59 % paxta tolasiga, 7—8 % mashina va asbob-uskunalar, 1—2 % esa xalq iste'moli tovarlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1998-yilda paxta tolasining ulushi 21—22 % ga qisqarganligini, mashina va asbob-uskunalar 30—31 % ga, xalq iste'moli mahsulotlari savdosi uchun esa 14—15 % ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Xullas, respublikamiz qisqa iqtisodiy rivojlanish yillarida Rossiyadan xalq iste'moli mahsulotlarini import qiladigan mamlakatdan, ularni eksport qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

Agar 1992-yilda yoqilg'i mahsulotlari importi 61—62 % ni tashkil yetgan bo'lsa, 1998-yilga kelib RFdan yoqilg'i sotib olish deyarli to'xtadi. Hozirgi kunda mashina va asbob-uskunalar, 16—18 % atrofida kimyo, 15—18 % atrofida qora metallurgiya sanoati mahsulotlari sotib olinmoqda. Rossiya esa o'z navbatida O'zbekistondan, asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olyapti. Jumladan, 1992-yilda O'zbekistondan sotib olingan paxta tolasini 58—59 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1998-yilda 21—22 % ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston o'rtasida bo'ladigan tashqi savdo aylanmasining 30—35 % Markaziy Osiyo

mintaqasi davlatlari orqali amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 1999-yildan boshlab mintaqa davlatlari o'rtasida tovar aylanma yildan-yilga o'sib, rivoj topmoqda.

1999-yilda mintaqa davlatlari bilan respublikamiz o'rtasida tovar aylanma 525 mln dollarni, 2002-yilda esa 568 mln dollarni tashkil etdi. 2002-yilda Qozog'iston bilan O'zbekiston o'rtasidagi tovar aylanma 263,3 mln dollarni, Tojikiston bilan 116,9 mln dollarni, Qirg'iziston bilan 111,6 mln, Turkmaniston bilan esa 75,3 mln dollarni tashkil etdi.

MDH bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar sezilarli rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2003-yilda O'zbekistonning Ukraina bilan bo'lgan savdo aylanmasi 1,5—2 barobarga, RF bilan 20—25 % ga, Markaziy Osiyo davlatlari bilan 1,5—2 barobarga o'sdi. MDH mamlakatlarining savdo-iqtisodiy aloqalari Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya va Gruziya kabi mustaqil davlatlar bilan ham yildan-yilga kengayib bormoqda. MDH mamlakatlarining savdo-iqtisodiy aloqalari borishida, ayniqsa, sanoati rivojlangan (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya) va rivojlanayotgan (Hindiston, Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni) davlatlari alohida o'rinni egallab turibdi.

Nazorat savollari

1. MDH mamlakatlari tarkibiga kiruvchi davlatlarni aniqlab, ushbu mamlakatlar oldida turgan asosiy muammolarni xarakterlab bering.
2. MDH mamlakatlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
3. MDH mamlakatlarini yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan savdo-iqtisodiy aloqalarini tavsiflang.
4. Respublikamizning MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari qanday tamoyillarga asoslangan?



**16-bob. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING
MOHIYATI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI**

16.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati

Xalqaro iqtisodiy integratsiya — bu milliy xo'jaliklar o'rtasida o'zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tuzilmalarining turli darajada hamda turli ko'rinishdagi o'zaro aloqadorligini ifoda etadi.

Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlar to'g'risida mutaxassislar orasida yagona qarashlar konsepsiyasi mavjud emas. Bir guruh iqtisodchi olimlar integratsion jarayonlar mamlakatlar o'rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish orqali «resurslar cheklanganligi» muammosini bartaraf etish yo'li, deb talqin etishsa (bu orqali mamlakatlarda nisbatan serharajat tovarlar ishlab chiqarish yo'qotilib, texnologik ayirboshlashni kengaytirish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa o'z navbatida ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi), boshqa bir guruh olimlar integratsiyani talab etuvchi dastlabki turtki sifatida noiqtisodiy omillarni ilgari surishadi (masalan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va h.k.lar). Uchinchi bir guruh iqtisodchilar esa integratsiya bu ishlab chiqarishni barqaror o'sishi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik kabi maqsadlarga osonroq va tezroq erishish imkonini beradi, deb hisoblashadi. Xullas, u yoki bu nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni qayd etib o'tishimiz mumkinki, *integratsiya* — bu hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jaliklar komplekslarini o'zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borishi jarayonidir.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda integratsion jarayonlar ikki asosiy ko'rinishda, ya'ni birinchidan, *mikro* — *transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali*, ikkinchidan, *makro* — *iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiq-lashtirish siyosati orqali* amalga oshiriladi.

Mikro miqyosdagi integratsion jarayonlar bir-biriga yaqin joylashgan mamlakatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlari kapitallari o'zaro ta'sir doirasi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, ular o'rtasida iqtisodiy bitimlar tizimining shakllanishi, kichik shoxboshalar, sho'ba korxonalar tashkil etilishi orqali yuz beradi.

Ma'lumki, firma va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida aloqalarning tez rivojlanishi, tovar almashuvida xizmat ko'rsatish, kapital va ishchi kuchlarining mamlakatlar o'rtasida erkin harakatini ta'minlashga, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, tashqi iqtisodiy va shuningdek, mudofaa, moliya valuta sohasidagi harakatlar yagona siyosatga kelishishga qaratilgan davlatlararo tartibga solish zaruriyatini tug'diradi. Buning oqibatida, yagona valuta, infratuzilma, moliyaviy fondlar, umumiy davlatlararo boshqaruv organlariga ega bo'lgan iqtisodiy majmualar yaratilishi yuz beradi.

Jahon xo'jaligi rivojlanishining zamonaviy bosqichida turli shakllardagi integratsion jarayonlarni ko'rishimiz mumkin. Kundan-kunga xo'jalik hayotida integratsion jarayonlar chuqurlashib, kengayib bormoqda. Buni biz integratsion jarayonlarning borishini xalqaro iqtisodiy munosabatlarda savdodan tortib, ilmiy-axborot, tovar ayirboshlashgacha bo'lgan turli ko'rinishlari bir-biriga qo'shilib borishida ko'rishimiz mumkin.

16.2. Integratsion jarayonlarni ifodalovchi omillar

Ma'lumki, iqtisodiy integratsion jarayonlar asosida bir qator obyektiv omillar yotadi, ularning ichida eng muhimlari quyidagilardan iboratdir:

- xo'jalik hayotining yanada baynalmilallashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan ilmiy-texnika inqilobi (ITI);
- milliy iqtisodiyotda «ochiqlik» darajasining kuchayishi.

Jahon iqtisodiyotida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ushbu omillarning barchasi bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib boradi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning obyektiv shakllaridan biri *baynalmilallashuv* mamlakatlar o'rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va takror ishlab chiqarishning milliy xo'jaliklar doirasidan chetga chiqish jarayonlarini aks ettiradi (eng avvalo, xalqaro mehnat taqsimoti asosida). Baynalmilallashuvning o'sishi va rivojlanishida, ayniqsa, transmilliy korpo-

ratsiyalarning (TMK) ta'sir doirasi kattadir. UNCTAD ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida 40 mingdan ortiq TMKlar va ularning 270 mingdan ortiq shoxobchalari va sho'ba korxonalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Dunyodagi 100 dan ortiq eng yirik korporatsiyalarning uchdan bir qismi AQSHga qarashlidir.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarini rivojlanishining ikkinchi omili — xalqaro mehnat taqsimoti tuzilmasidagi chuqur o'zgarishlar hisoblanadi (bu, asosan, ITI ta'siri ostida yuz beradi). *Xalqaro mehnat taqsimoti* atamasi, bir tomondan, mamlakatlarning ma'lum bir mahsulotlar ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvini bildirsa, ikkinchi tomondan ishlab chiqarish majburiyatlarining firma ichida va firmalararo taqsimlanishini ifodalaydi.

Umumjahon ahamiyatga ega bo'lgan ITIning hozirgi bosqichi baynalmilallashuvni ham bozor, ham ishlab chiqarish sohasida sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqadi. ITI tashqi iqtisodiy aloqalarning zamonaviy ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli oshishini ta'minlovchi muhim omildir. Xullas, ITI jahonning u yoki bu mamlakatida alohida bir ajralgan holda to'laqonli rivojlanmaydi.

Keyingi yillarda jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlariga dunyo mamlakatlarining yanada chuqurroq kirib borishi natijasida milliy iqtisodiyotning «ochiqlik» darajasi beqiyos ortib bormoqda. Turli mamlakatlarga tegishli firmalarning kooperatsiyalashuvi natijasida ishlab chiqarish va investitsiya sohasida yirik xalqaro majmualar vujudga kelayotir. Ochiq iqtisodiyot shakllanishida davlatlarning eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirish sohasida olib borayotgan tashqi iqtisodiy strategiyasi katta ahamiyatga ega bo'layapti. Bunda, odatda, xorijdan kapitallar, texnologiyalar va malakali kadrlarning kirib kelishiga imkoniyat beruvchi huquqiy asoslarni yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

16.3. Integratsion jarayonlarning jahon markazlari

Ma'lumki, hozirgi kunda jahonda 20 dan ortiq xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalar (markazlar) mavjud. Jahon YaIMning uchdan ikki qismi, tovar aylanmasi va investitsiyalarning asosiy qismi ana shu markazlar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu iqtisodiy integratsion markazlar ichida uchtasini (G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo—Tinch okeani mintaqasi) alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

G'arbiy Yevropada Ikkinchi Jahon urushidan keyin ikki yirik integratsion guruhning, ya'ni Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EES) va Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (EAST)ning vujudga kelishi natijasida integratsion jarayonlar katta tezlikda rivojlanib bordi. 90-yillarning o'rtalariga kelib esa EES (1995-yildan boshlab YeIga aylantirilgan) deyarli EASTni o'z tarkibiga qo'shib oldi. EAST o'z tarkibida faqatgina Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shveysariya davlatlarini saqlab qoldi, xolos. Bu ikki birlashmani solishtiradigan bo'lsak, EAST o'zining taraqqiyotida bojxona ittifoqini yaratishdan u yog'iga o'tmadi, uning tuzilmasi millatlararo tashkilotlar bilan mustahkamlanmadi. 1990-yilda YeI va EAST o'rtasida Yevropa iqtisodiy makonini yaratish to'g'risida kelishib olindi. Bu makon doirasida EAST a'zolarining ishlab chiqaruvchilari YeI a'zolari kompaniyalari bilan bir qatorda preferensial bojxona rejimidan foydalanishadi.

Sharqiy Yevropada esa sobiq sotsialistik davlatlardagi demokratik qayta qurishlar 1949-yildan beri mavjud bo'lib kelgan O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashining tarqalib ketishiga sababchi bo'ldi. Sharqiy Yevropa davlatlari o'zlarining iqtisodiy aloqalari yo'nalishlarini g'arbiy bozorlarga qaratishga va yangi birlashmalar tashkil etishga intilishmoqda. Masalan, 1992-yilda erkin savdo to'g'risida Markaziy Yevropa kelishuvi imzolani, unga Vengriya, Polsha, Chexiya va Slovakiya a'zo bo'lgan edi. Sobiq SSSRning ittifoqdosh respublikalari esa 1991—1993-yillardan buyon Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida Iqtisodiy ittifoqni shakllantirishga harakat qilishib, integratsion jarayonlar asosida rivojlanib kelmoqda.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi xalqaro integratsion markazi Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. Bu yerda 1994-yilning 1-yanvarida Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi (NAFTA) tashkiloti kuchga kirdi. NAFTA AQSH, Kanada va Meksikani o'z tarkibiga birlashtirgan. NAFTA davlatlari kelishuvida asosan tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, o'zaro kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investitsion muhitni erkinlashtirish masalalari nazarda tutilgan. NAFTAning YeIga nisbatan o'ziga xos xususiyati integratsion jarayonlarning simmetrik emasligidir. Kanada va Meksika integratsiyalashuv jaryonida AQSH bilan ko'proq yaqinlashishga intilishadi, o'zaro esa kuchsiz bog'lanishgan.

Jahon iqtisodiyotida uchinchi integratsion markaz boshqa integratsion markazlarga nisbatan hududi, aholisi va resurslarining miqdori bo'yicha ancha ustundir. Biroq, Osiyo—Tinch okeani mintaqasini integratsiyalashuv yo'lida juda ko'p to'siqlar (mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin tafovutlar, etnik-madaniy farqlar, o'zaro siyosiy da'volar, hududiy to'qnashuvlar va boshq.) mavjud. Hozirgi kunda Osiyo—Tinch okeani havzasida bir necha yirik subhududiy iqtisodiy guruhlar — Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN), Janubiy Xitoy Forumi, Avstraliya-Yangi Zelandiya erkin savdo hududi va boshqalar mavjud bo'lib, ular ham dunyoning eng yirik okeani sohillarida joylashgan davlatlarning umumiy tashkilotini shakllanishiga xalaqit bermoqda.

Osiyo—Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorligi tashkiloti 1989-yilda tashkil topgan bo'lib, 21 mamlakatni o'z tarkibiga birlashtirgan. Bu tashkilotning 1995-yili Osaka shahrida ma'qullangan harakat dasturi 2010—2020-yillargacha savdo va investitsiyalashni Umumjahon Savdo Tashkiloti (UST) standartlariga muvofiq erkinlashtirishga yo'naltirilgan. Xullas, hozirgi kunda muvofiqlashtirilgan hujjatlar ushbu hamkorlik tashkilotida mavjud bo'lsa-da, unga a'zo mamlakatlar esa bojxona tariflari, transport va boshqa bir qator sohalardagi muammolarni hal etish uchun hali ko'p ishlarni amalga oshirishlari lozimdir.



1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyatini xarakterlang.
2. Integratsion jarayonlarni ifodalovchi asosiy omillar qaysilar?
3. Integratsion jarayonlarning jahon markazlari haqida nima bilasiz?
4. Osiyo—Tinch okeani havzasidagi qanday subhududiy iqtisodiy guruhlar bor?

17-bob. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING
KO'RINISHLARI

17.1. Jahon iqtisodiyotida integratsion guruhlar
tipologiyasi

Integratsion guruhlar tipologiyasi, asosan, ishtirokchi mamlakatlar iqtisodiyotining makro va mikro darajada o'zaro yaqinlashish va bir-biriga naqadar chuqur kirib borishi baholashda namoyon bo'ladi. Bu mezonga integratsiyaning to'rt ko'rinishini (erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqlarni) ajratib ko'rsatish mumkin. Erkin savdo hududi masalalari bo'yicha mavzuning ikkinchi savolida batafsil to'xtalib o'tamiz. Bu yerda esa, erkin savdo hududlarining o'ziga xos alomati uning ishtirokchilari o'rtasida bojxona tariflari va kvotalarni o'zaro bekor qilish to'g'risida kelishish ekanligini qayd etib o'tamiz, bunda uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo siyosati mustaqil tanlanishi mumkin.

Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan asosiy farqi ittifoq chegaralarida muvofiqlashtirilgan savdo-bojxona rejimini joriy etish

4-jadval

Integratsion birlashmalarning ko'rinishlari

Ko'rinishi	Ittifoq ichida erkin savdo	Uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo bojxona siyosati	Ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishi	Qonunchilik, ijtimoiy va valuta sohalarda iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish
Erkin savdo hududi	X			
Bojxona ittifoqi	X	X		
Umumiy bozor	X	X	X	
Iqtisodiy ittifoq	X	X	X	X

ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Integratsion jarayonlarning keyingi rivojlanishi integratsiyaning eng yetuk ko'rinishlaridan biri bo'lgan umumiy bozor, iqtisodiy ittifoqning shakllanishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyotida ko'plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma'lumki, aynan ana shu umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko'p diqqatga sazovordir (4-jadval).

17.2. Jahon iqtisodiyotida erkin savdo hududlarining mazmuni va mohiyati

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, *erkin savdo hududlari* (ESH) xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Erkin savdo hududi zamonaviy talqinda *preferensial hudud* hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklanishlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi.

ESH amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o'zaro savdosida bojlar, litsenziya va kvotalarni muzlatish va asta-sekin bekor qilish to'g'risidagi bitimlarning imzolanishi natijasida shakllanadi.

Bunda YeI, NAFTA va MERCOSUR tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish cheklangan tartibga ega, dastlab bojxona nomenklaturasidagi ba'zi pozitsiyalarni qamrab oladi.

Erkin savdo hududlarining ijobiy jihatlariga kelsak, ishtirokchi mamlakatlarning savdo siyosatida barqarorlikning o'rnatilishini kiritish mumkin. ESHga a'zo mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etish jarayonini tezlashishiga yordam beradi, ular xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkoniga ega bo'lishadi.

Erkin savdo hududlarining salbiy jihatlariga keladigan bo'lsak, ular ichki bozorda raqobatning kuchayishi bilan belgilanadi, chunki bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, EIHni yaratish millatlararo tartibga soluvchi organlarni tashkil etish holatlarida kuzatilmaydi, bu esa o'z navbatida qarorlar qabul qilishni sekinlashtiradi va shuningdek, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

Biroq, integratsiyaning boshlang'ich bosqichidagi qiyinchiliklar va muammolarga qaramasdan, erkin savdo hududlari jahon iqtisodiyotida keng tarqalishi ham mumkin.

17.3. Jahon iqtisodiyotida bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq tushunchalari

Huquqiy nuqtayi nazardan olganda *bojxona ittifoqi* (BI) ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida o'zaro va uchinchi bir mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan soliq siyosatining o'tkazilishini anglatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan olganda esa bojxona ittifoqini tashkil etish, bu yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va bu makon doirasida esa har qanday bojxona chegaralarini bartaraf etishni anglatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solishning bu ko'rinishi BI qatnashchilari o'rtasida bojsiz savdonigina emas, balki uning tashqi chegaralarida muvofiqlashtirilgan tarif tizimini joriy qilishni ham nazarda tutadi. Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan farqi ham ana shundadir.

Bojxona ittifoqlarini yaratish va ularning shakllanishi konkret natijalari unga a'zo mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol sohasida yuz beradigan tarkibiy o'zgarishlarda o'z aksini topadi: *talab va taklif nisbiy ustunlik tabiatiga mos ravishda o'zgaradi*. Boshqacha qilib aytganda, bojxona ittifoqi savdoning kengayishiga qarab, aholining turmush farovonligini oshiradi, biroq ayni bir paytda ishlab chiqaruvchilarning arzon mahsulotlaridan qimmatroq tovar ishlab chiqarishga moslashishlari natijasida esa, farovonlikni pasaytiradi.

Bojxona ittifoqining shakllanish jarayonida ikki yondashuv mavjudligini qayd etish kerak. Bu yondashuvlar, tovarlarga belgilangan umumiy tashqi tarif miqdorlari o'rnatilmasdan oldin ittifoq a'zosi bo'lgan mamlakatlarda amalda bo'lgan o'rtacha o'lchangan tarif miqdoriga solishtirish orqali aniqlanadi. Agar yangi tarif undan oldingi milliy tarifdan yuqori bo'lsa, bojxona ittifoqi ishtirokchisi bo'lgan mamlakat nisbatan arzon tashqi ta'minlash manbalaridan ittifoq ichidagi resurslar foydasiga voz kechishiga to'g'ri keladi. Tavsiflangan holatda o'xshash vaziyat bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlar tomonidan yangi yoqilg'i resurslari, materiallar va boshqalarni ishlab chiqarishning boshlanishi bilan bog'liq ravishda kuzatilishi mumkin.

Agar o'rnatilgan tarif undan oldin o'rtacha o'lchangan tarifdan past bo'lsa, natijaviy baholarni hisobga olganda tashqi savdoning o'zgarish yo'nalishi uchinchi mamlakatlar tomon yo'naladi. Bunday harakatlar, odatda, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va bojxona ittifoqi ishtirokchilarining tashqi iqtisodiy faoliyatini jadallashtirish maqsadida olib boriladi.

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishning keng tarqalgan ko‘rinishi sifatida bojxona ittifoqi haqida gapirganda shuni esdan chiqarmaslik lozimki, uning faoliyati uzoq vaqt mobaynida alohida olingan mamlakatlarning jami tovarlar va xizmatlar nomenklaturasiga tarqalmasligi mumkin. Bojxona ittifoqlarining rivojlanish jarayoni, birgalikda tartibga solish sohasining asta-sekin kengayib borishidan guvohlik beradi. Ya’ni, bosqichma-bosqich olib boriladigan jarayon oxir-oqibat millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar va institutlarni tashkil etish maqsadida kun tartibiga qo‘yadi.

Janubiy Amerika, Afrika va Osiyodagi bir qator xalqaro tashkilotlar tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining yagona umumiy bozor ko‘rinishidagi guruhlarni tashkil etganligi to‘g‘risidagi o‘zining shoshilinch e‘lonlarini tarqatgan bo‘lishsa-da, hozirgi paytgacha integratsiyaning bu ko‘rinishi amalda faqat G‘arbiy Yevropada keng amal qilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Umumiy bozorlar qatoriga quyidagi xalqaro tashkilotlarni kiritish mumkin:

— *Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori* (MERCOSUR) — Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay kabi davlatlarni birlashtirgan.

— *Markaziy Amerika umumiy bozori* — Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua va Salvador kabi davlatlarni birlashtirgan.

— *Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori* (COMESA), o‘z tarkibiga Afrikaning 19 rivojlanayotgan davlatini birlashtirgan.

— *Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi* (ASEAN) — Tinch va Hind okeani qirg‘oqlarida joylashgan 9 rivojlanayotgan mamlakatni birlashtirgan.

Bojxona ittifoqini umumiy bozorga aylantirish jarayoni faqatgina savdoni emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi katta miqdordagi qonuniy me‘yorlarni uyg‘unlashtirish masalalarini ham hal etish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ichki bojxona to‘siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish orqali uchinchi dunyo mamlakatlari bilan savdoda umumiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurki, buning natijasida milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining hech qanday to‘siqlarsiz o‘tishiga sharoit yaratiladi. Bundan tashqari, umumiy bozorni shakllantirish mobaynida ijtimoiy va hududiy rivojlanish uchun zamonaviy fondlarni yaratishga zaruriyat tug‘iladi.

Umumiy bozorni xalqaro iqtisodiy ittifoqqa aylantirish jarayonida bu fondlarning ahamiyati juda katta. Bunda millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa

Ittifoqi tajribasidan ma'lumki, bunday tashkilotlarni tashkil etmasdan turib, milliy qonunchilik me'yorini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiy qarorlarini bajari-lishini nazorat qilish mumkin emas.

Umumiy bozorning iqtisodiy ittifoqqa aylantirishning zamonaviy bosqichida YeIning ahamiyati kattadir. Chunki faqatgina ana shu tashkilot iqtisodiy integratsion jarayonlarning eng yuqori cho'qqisiga intilishini yaqqol namoyish etmoqda.

Ma'lumki, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning davlat rahbarlari XX—XXI asrlar bo'sag'asida o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarga erishishni rejalashtirgan edi. Hozircha yakuniy natijalar haqida gapirishga erta bo'lsa-da, iqtisodiy ittifoqqa xos bir qator xususiyatlar ko'zga tashlanib turibdi. Bu alomatlar quyidagilar hisoblanadi: *umumiy qonunchilik me'yorlarini yaratish, soliq bazasini soddalashtirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohada yagona standartlarni joriy etish, muvofiqlashtirilgan pul siyosatini o'tkazish, yagona valutaga o'tish* va boshqalar.



1. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning ko'rinishlarini tavsiflang.
2. Erkin savdo hududining mohiyati va mazmuni nimadan iborat?
3. Bojxona hududi nima?
4. Umumiy bozor tushunchasini tavsiflab bering.
5. Iqtisodiy ittifoqning umumiy bozordan farqi nimada?

18.1. YeI tashkilotining tashkil topishi va uning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari

Ikkinchi Jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ro'y bergan bir necha tarixiy va iqtisodiy-ijtimoiy voqealar integratsion guruhning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ushbu tashkilotning tashkil topishida 1950-yil 9-mayda Germaniya va Fransiya o'rtasida ko'mir hamda po'lat ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishni taklif etgan Fransiya tashqi ishlar vaziri R. Shumanning taklifini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Umumevropa hamkorligini uyushtirishda «Marshal rejasi» (1948-yil) ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu reja doirasida g'arbiy Yevropa davlatlari iqtisodiyotni tiklash va qayta qurish uchun AQSHdan juda katta miqdorda (12,4 mlrd AQSH dollari) moddiy yordam olishdi. Bundan tashqari, sobiq Ittifoq hukumati boshchiligida Sharqiy Yevropa davlatlarining 1949-yilda O'zaro Iqtisodiy Yordam kengashining tashkil etilishi ham G'arbiy Yevropa mamlakatlarining milliy xo'jaliklarini bir-biriga yaqinlashishiga turtki bo'ldi. Va, nihoyat, mustamlaka imperiyalarning (Britaniya, Fransiya, keyinchalik Ispaniya va Portugaliya imperiyalari) parchalanishi sobiq metropol davlatlarning o'z qit'asidagi qo'shnilar bilan aloqalarini rivojlantirishiga e'tibor qaratishga majbur etdi. Shunday qilib, 1951-yilning aprelida ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasini (KPEB) ta'sis etish haqida Parij shartnomasi imzolandi. Unga olti davlat (Belgiya, Niderlandiya), Lyuksemburg (BENILYuKS davlatlar GFR, Fransiya va Italiya) a'zo bo'ldi.

1955-yilning iyun oyida bo'lib o'tgan Missin anjumani qarorlari ham integratsion jarayonlarning rivojlanishida yangi turtki bo'ldi. Bu anjumanda Yevropa integratsiyasining istiqbollari belgilab olingan bo'lib, bundan pirovard maqsad milliy xo'jaliklarning birlashtirib ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirish orqali umumiy bozorni shakllantirish edi.

YeIning navbatdagi ikkinchi yirik tarixiy bosqichi 1957-yilning mart oyida bojxona ittifoqi va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy siyosat

olib borishga asoslangan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini (YeIH) tashkil etish to'g'risidagi Rim shartnomasining imzolaniishi bo'ldi. Bundan tashqari, shu yili atom energetikasi bo'yicha Yevropa Hamjamiyati (Yevroatom) tashkil topdi. Rim shartnomasining kuchga kirishi ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi, YeIH va Yevroatomning birlashishiga sabab bo'ldi. Yuqorida zikr etilgan olti mamlakat unga a'zo bo'lib kirdi. Ushbu hujjat integratsion jarayonlarni rivojlantirishga doir asosiy yondashuvlarni, jumladan, «to'rt erkinlik» makonni yaratishni, ya'ni tovarlar va xizmatlar ko'rsatish, kapital va ishchi kuchini erkin harakatlanishi makonini yaratishni ifodalab berdi. 60-yillarda YeIHning davlatlararo muvofiqlashtiruvchi organlarini shakllantirish jarayonlari amalga oshirildi. Vazirlar Kengashi, Yevropa Komissiyasi va Yevropa Sudi tashkil etildi.

1969-yili Gaaga shahrida (Niderlandiya) bo'lib o'tgan majlis YeI tarixida birinchi bosqich tugallanganligidan dalolat berdi. Bu davrni bojxona ittifoqi deb ham atash mumkin. 1973-yili «oltilik» tarkibiga Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya, 1981-yilda Gretsiya, 1986-yilda esa Ispaniya va Portugaliya qo'shildi. 1974-yilda Yevropa Kengashi tashkil etildi. 1979-yilda Yevropa Parlamenti saylanib, faoliyat ko'rsata boshladi. Yevropa valuta tizimi vujudga keldi.

YeI rivojlanishida 1986-yilda imzolangan Yagona Yevropa Akti (YeA) ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu akt umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirish yo'nalishlarini belgilab berdi. Ya'ni, savdo yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlash, ishtirokchi mamlakatlarda ichki chegaralarni ochish, ilmiy-texnologik ayirboshlashni jadallashtirish, yagona valuta tizimini joriy etish va barcha fuqarolarning huquqlari tengligi hamda ijtimoiy kafolatlanish va boshqalar edi.

YeI rivojlanishining uchinchi, ya'ni zamonaviy bosqichi G'arbiy Yevropada iqtisodiy ittifoqni yaratishga qaratilgan bo'lib, u XX asrning oxirgi o'n yilliklariga to'g'ri kelgan edi. 1990-yilda Hamjamiyatning o'n ikki davlat rahbarlaridan iborat a'zosi odamlar, tovarlar, kapital va axborotlarning erkin harakatlanishi uchun ishtirokchi-mamlakatlar o'rtasidagi chegaralarni 1993-yilning 1-yanvaridan boshlab ochish to'g'risida Shengen bitimini imzolashadi. 1992-yilda YeI to'g'risida Maastrix shartnomasi imzolaniib, ushbu hujjatga ko'ra quyidagilar ta'sis etildi:

- Yagona Yevropa fuqaroligi.
- Siyosiy ittifoqligi.
- Iqtisodiy va valuta ittifoqi.

Maastrix shartnomasida milliy valutalarni asta-sekin muomaladan chiqarib va yagona Umumevropa pul birligini (yevro) joriy etishdek murakkab jarayonga ilk qadam qo'yildi. Va, nihoyat, 1995-yilda Hamjamiyatga yana uch davlat (Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiya) kirishi va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining YeI deb nomlanishidan so'ng bu integratsion birlashma o'zining hozirgi zamonaviy ko'rinishiga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda YeI davlatlari 370 mln kishidan ortiq aholiga ega bo'lib, umumiy YaIM 5 trillion AQSH dollaridan ortiq 25 mamlakatni o'z tarkibiga birlashtirgan. 1970—1980-yillarda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar bilan, 90-yillarda Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EAST) a'zolari bilan, shuningdek, AQSH va Yaponiya bilan tuzilgan bitimlar YeIni jahon iqtisodiyotining yirik markazlardan biriga aylantirdi. YeI bilan jahonning barcha etakchi mamlakatlari o'zaro aloqalarni olib borishadi.

Xullas, YeI asosan uch asosga, ya'ni *iqtisodiy ittifoqqa, yustitsiya va ichki ishlar sohasidagi hamkorlikka, xavfsizlik va tashqi siyosatdagi kelishuvlarga tayanadi*. YeI tashkilotining maqsadi Yevropa xalqining uzviy aloqasini tashkil etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish, ichki chegarasiz umumiy makonni yaratish, ijtimoiy sohada o'zaro aloqalarni kuchaytirish hisoblanadi.

YeI tashkilotining eng muhim tamoyillaridan biri a'zo mamlakatlarning milliy xususiyatlari va inson huquqlariga hurmat bilan qarashlikdir. YeIning shtab-kvartirasi Bryusselda joylashgan. Bu yerda Kengash majlislari o'tkazilib, Yevropa Komissiyasi doimiy ravishda o'z faoliyatini olib boradi. Yevropa Parlamenti va Sudi Lyuksemburgda joylashgan.

18.2. YeI tuzilmasi va uning zamonaviy bosqichdagi rivojlanish muammolari, istiqbollari

YeIni Kengash boshqaradi. Kengash a'zo mamlakatlarning davlat yoki hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari, Yevropa komissiyasi Raisi va uning bir a'zosidan tarkib topgan vakili Kengashning faoliyati yarim yilda bir marta o'tkaziladigan sessiyadir. Ushbu sessiyada eng muhim siyosiy xarakterdagi qarorlar qabul qilinadi.

YeIning Oliy qonun chiqaruvchi organi Yevroparlament hisoblanadi. U 626 deputatdan tashkil topgan. Bu deputatlar umumiy saylovlarda 5 yil muddatga mamlakat aholisi soniga qarab saylanadi

(eng ko'p deputat Germaniyadan saylanadi — 99 kishi). Yevroparlament o'zining umumiy majlislarini oyda bir marta bir hafta davomida Fransiyaning Strasburg shahrida o'tkazadi. Parlamentning muhim huquqi — YeI budjetini tasdiqlashdir.

YeI Kengashi a'zo mamlakatlarning hukumat vazirlaridan iborat. Bu tashkilotning qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi, bu esa mamlakatlarga ma'lum kvotalar berishni talab qiladi. Masalan, Germaniya, Italiya, Fransiya va Buyuk Britaniyaning har biri 10 tadan, Ispaniya 8 ta, Belgiya, Gretsiya, Niderlandiya va Portugaliya 5 tadan, Avstriya va Shvetsiya 4 tadan, Daniya, Irlandiya va Finlandiya 3 tadan, Lyuksemburg 2 ta ovozga ega. Vazirlar tarkibi majlis mavzusiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Kengash o'z faoliyatida doimiy vakillar qo'mitasiga suyanadi. Bu qo'mita YeI'da akkreditatsiyadan o'tgan 15 elchidan tashkil topgan.

Yevropa Komissiyasi — oliy ijrochi organ bo'lib, doimiy ravishda faoliyat yuritadi. Yirik davlatlar Komissiyada ikkitadan, kichiklari bittadan ovozga ega. Barcha qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

YeI tuzilmasining muhim ahamiyatga ega bo'lgan oxirgi tashkiloti bo'lib Yevropa Sudi sanaladi. Sud a'zolarining roziligiga ko'ra olti yilga saylanuvchi 15 sudya va 9 prokurordan tarkib topgan. Sud ittifoq a'zolari va YeIning alohida institutlari o'rtasidagi bahslarni hal etishda ham qatnashadi.

So'nggi yillarda YeIning iqtisodiy va ijtimoiy qo'mitasi integratsion jarayonlarning rivojlanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Bu maslahat beruvchi organ bo'lib, u iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning turli sohalari vakillari bo'lgan 222 a'zoni birlashtirgan. Qo'mita tarkibida uch guruh (ish beruvchilar, ishchilar va boshqa ijtimoiy qatlamlar — fermerlar, iste'molchilar va boshq.) tashkil etilgan. Bu tuzilma mavqeyi jihatidan yuqorida sanab o'tilgan organlarga tenglasha olmas-da, YeI Kengashi va Yevropa Komissiyasi iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi barcha qarorlarni chiqarishdan oldin qo'mita bilan maslahatlashadi.

YeIning asosiy muammolaridan biri bu tashkilotning bundan keyingi kengayishi masalasidir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, YeIga yangi olti davlatni qabul qilish masalasi ijobiy hal etilgan. Biroq, ittifoqqa kirishga navbatda turgan davlatlar soni juda ko'p. Nomzodlar qatorida Sharqiy Yevropa davlatlari, sobiq Yugoslaviya respublikalari, Turkiya, Malta va Boltiqbo'yi mamlakatlari bor. Ularning qabul qilinishiga asosiy to'siq milliy xo'jaliklarning nisbatan past

darajada rivojlanganligi va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining to'liq yakunlanmaganidir. Yevroparlament vakolatlarini kengaytirish va YeI Kengashi nufuzini asta-sekin cheklash an'anasi kuzatilmoqda.

YeIning iqtisodiy masalalariga keladigan bo'lsak, yaqin yillardagi eng muhim vazifasi valuta islohotlarini o'tkazishdir. Ya'ni, milliy valutani muomaladan chiqarib, yagona yevroni joriy etishdan iborat. Bu jarayon 1992-yildagi Maastrixt shartnomasidan boshlangan edi. Valuta ittifoqi tomon qilingan iqtisodiy harakat uch bosqichda (1996-yil 1-yanvargacha tayyorgarlik, 1999-yil 1-yanvargacha tashkiliy va 2002-yilgacha yakuniy bosqichlar) amalga oshirildi. Yevro hududiga kirish uchun asosiy mezonlar quyidagicha bo'lgan edi:

- budget kamomadi 2 % dan yuqori bo'lmasligi;
- davlat qarzi YaIMning 60 % dan ko'p bo'lmasligi;
- yillik inflatsiya 1,5 % dan oshmasligi;
- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha nominal foiz stavkasi yiliga 2 % dan yuqori bo'lmasligi;
- valuta kursining tebranishi 2,25 % dan baland bo'lmasligi va boshqalar.

Valuta ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarga qo'yilgan ushbu muvofiqlashtirilgan talablar qattiqligi Yel davlatlarining ikki guruhga, jumladan 2002-yilgacha yevroni muomalaga kiritadigan davlatlar (15 tadan 11 tasi) va bu jarayonni 2002-yildan keyinga qoldiruvchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya) guruhiga bo'linishiga olib keldi.

2002-yilning o'rtalariga kelib, 11 davlat o'z milliy valutarini emissiya qilishni to'xtatishdi, muomalaga yevroning 5 ta tanga puli va 9 ta qog'oz pullari kiritildi. Mavjud milliy pul belgilari asta-sekin muomaladan chiqarilib, barcha hisob-kitob operatsiyalari xalqaro elektron tizim «Target» yordamida yevroga o'tkazildi.



1. YeIning tashkil topishi va uning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari.
2. YeIni tuzishning asosiy maqsadlari va mohiyati.
3. YeIning asosiy rivojlanish tamoyillari.
4. YeI tuzilmasi qanday?
5. YeIning zamonaviy bosqichdagi muammolari nimalardan iborat?
6. YeIning yaqin istiqboli haqida nimalar deya olasiz?

**19.1. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil topishi
va uning asosiy ko'rinishlari**

XX—XXI asrlar bo'sag'asida «Erkin (maxsus) iqtisodiy hududlar» (EIH) jahon xo'jaligini rivojlanishining asosiy ko'rinishlaridan biriga aylanib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida tashkil topdi. 90-yillarning o'rtalarida dunyo mamlakatlarida turli xildagi 4 mingdan ortiq EIH faoliyat ko'rsata boshlagan edi. G'arb mutaxassislarining fikricha, 2004-yil jahon tovar aylanmasining 30—35 % ana shu turli xildagi EIHLarda ro'y bergan. Xalqaro korporatsiyalar o'z faoliyatlarini yanada kengaytirish maqsadida EIHLar uchun imtiyozli sharoitlarni tashkil etib, ulardan ko'p foyda olish mumkin bo'lgan soha sifatida foydalanishadi. Yirik xalqaro korporatsiyalar EIHLarni o'zi ishlab chiqargan tovarlarni sotuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlardan biri, deb hisoblashadi.

EIH milliy mamlakatning boshqa bir qismlarida foydalanilmaydigan imtiyoz va rag'batlarning o'ziga xos tizimlari qo'llaniladigan iqtisodiy hududning bir qismidir, ya'ni EIH jo'g'rofiy jihatdan u yoki bu darajadagi rivoj topgan alohida bir hududdir. Ilmiy maqolalar va darsliklarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida turli xildagi iqtisodiy hududlarni ham «EIH» deyilgan. Ammo bu atama ushbu holatning mazmuni va mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Masalan, EIHLarning ko'pchiligida mavjud bo'lgan iqtisodiy qoidalar, ma'muriy qonunlar ularni ma'lum huquqiy va xo'jalik rejimidan ozod qilmaydi. U faqat tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi imtiyozlar beradi va uni yengillashtiradi. Davlat hokimiyatini esa iqtisodiy jarayonlarga aralashishini kamaytiradi.

Rivojlangan davlatlar uchun EIHLar ushbu hududda faoliyat ko'rsatuvchilarning hayotiy turmush darajasini va ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatuvchi «maxsus» hudud hisoblanadi. Shuning uchun ham bu hududlarni «maxsus iqtisodiy hududlar», deyiladi. Xo'sh, EIHLar nima maqsadda tashkil qilinadi? Nega ular hozirgi kunda o'z geografik masshtabini kengaytirib bormoqda?

Ma'lumki, EIHlarni tashkil qiluvchilar tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi ahamiyati kattadir. Ularning faoliyat ko'rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog'liqdir. U yoki bu davlatlar iqtisodiyotini tashqi dunyoga ochiqligida EIHlarni ahamiyati EIHlar bojxona, soliq va investitsion rejimlarni o'rnatishda va shuningdek, tashqi va ichki investitsiyalar faoliyati uchun qulaydir. EIHlar jahon xo'jaligida kapital migratsiyasi uchun qopqon hisoblanadi. Mamlakatlar ichidagi iqtisodiy jarayonlarni faollashtirishda xorijiy kapitalni jalb qilish bilan bir qatorda sanoat sohasida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida uchta muhim vazifani ko'rishimiz mumkin:

— sanoat eksportini rag'batlantirish asosida valuta mablag'larini jalb qilish;

— aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish;

— milliy xo'jalikni rivojlantirish maqsadida EIHlarni xo'jalik yuritish sohasidagi yangi usullarni amaliyotda qo'llash.

EIHlarni tashkil qilishning eng muhim sabablaridan biri shundaki, jahonning ko'pgina mamlakatlari iqtisodiyotda kapital va shuningdek, o'ziga xos investitsiya oqimini hamma joyda to'liq ochishni istamaydi. Shuning uchun ham EIHlar maxsus hudud sifatida u yoki bu davlatlarning ma'lum bir rivojlangan mintaqalarida tashkil topadi.

EIHlarning tashkil topgan va faoliyatining jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, jahon xo'jaligida integratsiyani chuqurlashtirish, xalqaro iqtisodiy aloqalarni rag'batlantirish maqsadida tuzilgan hududlar (erkin savdo hududi, eksport ishlab chiqarilishi, bojxona va boshqa hududlar) jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda (masalan, qoloq tumanlarni rivojlantirish, qoloq tumanlarni sanoatlashtirish, savdoni rivojlantirish va boshq). Shuning uchun ham erkin iqtisodiy hududlarni tashkil topishini sabablari va maqsadlari har bir mamlakatda o'zgacha bo'lib, bir-biriga mutlaqo o'xshamasligi ham mumkin. Masalan, AQSH, Buyuk Britaniya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlarda EIHlar depressiyaga uchragan hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan mintaqaviy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu maqsadda tadbirkorlarga (kichik va o'rta) mamlakatning boshqa mintaqalaridagiga nisbatan ko'proq faoliyat erkinligi va shuningdek, sezilarli moliyaviy imtiyozlar berildi (ularni rivojlantirishda xorijiy kapital jalb qilishga qaratilmagan).

Xuddi shu maqsadda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham EIHLar tashkil topadi. Bu esa qoloq rivojlanmagan hududlarni dinamik ravishda rivojlanayotgan hududlarga aylantirish imkonini beradi (sanoati rivojlangan davlatlardan farqli ravishda bu davlatlarda ko'proq xorijiy kapitalni jalb qilishga harakat qilinadi).

Erkin iqtisodiy hududlarning tashkiliy, huquqiy tizimi turli-tumandir. Ayrim hollarda u yoki bu YeIHLni aniq tasnifi murakkab. Rossiyalik mutaxassislar xo'jalik ixtisoslashuvini hududda faoliyat ko'rsatayotgan asosiy firmalarning ixtisoslashuvi bo'yicha klassifikatsiyasini ishlab chiqishgan (chizmaga qarang). YeIHLar klassifikatsiyasidagi markaziy o'rin va qayta ishlash hududlarga berilgan.

Erkin iqtisodiy hududlarning ko'rinishlari

I. Savdo	I. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	III. Texnika kiritish	IV. Xizmat
1. Erkin bojxona hududlari 2. Band omborlari 3. Erkin portlar 4. Erkin savdo hududlari	1. Import o'rini bosuvchi mahsulotlar 2. Eksportga ishlab chiqaruvchi mahsulotlar 3. Sanoat bog'lari 4. Ilmiy-sanoat bog'lari 5. Makiladoras (Meksika)	1. Texnopolis 2. Texnobog' 3. Yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari	1. Offshor hududlar 2. Moliyaviy markazlar 3. Bank xizmatlari hududi 4. Turizm xizmatlari hududi 5. Ekobog'lar
	V. Majmuaviy	VI. Xalqaro	

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil topishida ikki konseptual (hududiy va funksional) yondashuv qo'llaniladi. Birinchi holatdagi hududda barcha rezident korxonalar xo'jalik faoliyatida imtiyozlardan keng foydalanishadi. Ikkinchi yondashuv bo'yicha esa firma mamlakatning qaysi tumanida joylashishidan qat'iy nazar, tadbirkorlik faoliyatining ma'lum ko'rinishlari uchun qo'llaniladigan imtiyozli rejimlaridan foydalanishi mumkin xolos. Birinchi yondashuvga misol qilib Xitoydagi EIHLarni, Braziliyadagi «Manaus» hududini, rivojlanayotgan davlatlardagi eksport ishlab chiqarish hududlarini ko'rsatish mumkin. Ikkinchi yondashuvga misol qilib, offshor firmalarni, «d'yuti fri» magazinlarini ko'rsatish mumkin.

EIHLarning eng oddiy ko'rinishlaridan biri *erkin bojxona (bojsiz) hududlari* (EBH) hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII—XVIII asrlardan buyon mavjud. Bu hududlarda tranzit yoki kassignatsion omborlar, eksportga mo'ljallangan tovarlarni qadoqlash va kam miqdorda qayta ishlash sohalari kiradi. Bunday hududlarni ko'pincha bond omborlari yoki erkin bojxona hududlari ham deb ataladi. Erkin bojxona hududlarda tovar olib kirish va olib chiqishda bojdand ozod qilinadi.

Erkin savdo hududlari (ESH) ham dunyoda keng tarqalgan bo'lib, 1934-yildagi maxsus qonun-qoidalar asosida faoliyat ko'rsatmoqda. ESH AQSHda eng ko'p rivoj topgan. ESHlarning maqsadi xalqaro savdoni rag'batlantirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo xarajatlarni kamaytirishdan iboratdir. AQSH qonunchiligida tashqi iqtisodiy faoliyatda nisbatan imtiyozlar o'rnatilgan. Qonunda har bir rasmiy port qoshida kamida bitta erkin tashqi savdo hududi tashkil qilinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. AQSH qonunchiligiga muvofiq mamlakat hududidagi erkin savdo hududlari umumiy va maxsus (subhudud) hududlarga bo'linadi. Umumiy hududlar kichik hududda (bir necha km²) joylashib, milliy boj hududidan tashqarida bo'ladi. Ularda kiritilgan tovarlarni omborlarga joylashtirish va qayta ishlash ishlari amalga oshiriladi (qadoqlash, navlarga ajratish va boshq.).

Subhududlar faoliyati umumiy hududdan tashqariga chiquvchi alohida yirik kompaniyalar uchun tashkil qilinadi. Subhududlarda eksport yoki import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. 90-yillarning o'rtalariga kelib AQSHda 500 dan ortiq erkin savdo hududlari faoliyat ko'rsatgan edi.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlardagi maxsus «d'yuti fri» magazinlarini ham kiritish mumkin. Siyosiy rejim nuqtayi nazaridan ular davlat chegaralaridan tashqarida, deb hisoblanadi. Erkin savdo hududlari qatoriga imtiyozli holatga ega bo'lgan an'anaviy erkin portlarni ham kiritish mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish hududlari ikkinchi avlod hududlari hisoblanadi. Ular erkin savdo hududlariga faqat tovar emas, kapital ham olib kirilishi va shuningdek, faqat savdo bilan emas, ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug'ullanishi oqibatida vujudga kelgan edi. Sanoat ishlab chiqarish hududlari maxsus boj rejimiga ega bo'lgan hududlarda tashkil topadi. Ularda eksport uchun yoki import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. Bu hududlar soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo'ladi.

Eksport ishlab chiqarish hududlari (EICHH), ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalgan. Bunday hududlarning zamonaviy modeli 1959-yilda Irlandiyaning Shennon aeroportida tashkil qilingan hududiy tizimga asoslanadi. Bunday hududlardan «yangi industrial davlatlar» eng katta samara ko'rmogda. Eksport ishlab chiqarish hududlarini tashkil topishi mantiqan olganda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. XX asrning 50—60-yillarida rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat eksportini rag'batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshirish zaruriyati tug'ilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida texnika kiritish hududlari uchinchi avlod hududlari hisoblanadi (70—80-yillar). Ular stixiyali tarzda yoki maxsus davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil topishi mumkin. Ularda yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilar, loyihachilar, ilmiy ishlab chiqarish firmalar faoliyat ko'rsatadi. Hozirgi kunda texnika kiritish hududlari, asosan, AQSH, Yaponiya, Xitoyda faoliyat ko'rsatmogda. AQSHda ularni texnoparklar, Yaponiyada — texnopolislar, Xitoyda — yangi va ilg'or texnologiyalar hududi, deb yuritiladi.

Jahonda eng mashhur va AQSHdagi eng yirik «Silikon Velli» nomli texnopark jahonda ishlab chiqarilayotgan hisoblash texnikasi vositalari va komyuterlarni 20 % ni bermoqda. AQSHda hozirgi kunda 80 dan ortiq bunday hududlar mavjud. Yaponiyada maxsus hukumat dasturlari doirasida ilg'or ilmiy tashkilotlar asosida yigirmaga yaqin texnopolislar tashkil qilingan. XXRda ham bunday hududlar davlatning ilmiy-texnikani rivojlantirish rejalarini amalga oshirish paytida tashkil topdi. 90-yillarning o'rtalarida Xitoyda 50 dan ortiq yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari faoliyat ko'rsata boshlagan edi.

Jahon iqtisodiyotida turli iqtisodiy, moliyaviy-sug'urta va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi firma va tashkilotlar uchun tadbirkorlik faoliyatining imtiyozli sharoitlar yaratilgan hududlar servis hududlar deb ataladi. Servis hududlar qatoriga *offshor hududlar* (OH) va *soliq gavanlari* (SG) ham kiradi. OH va SG tadbirkorlarni qulay valuta-moliya va fiskal sharoitlar bilan bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi va davlat boshqaruvining kamligi bilan o'ziga jalb qiladi.

Offshor hududda ro'yxatga olingan soliq va boshqa imtiyozlarga ega bo'lgan kompaniyalarga qo'yiladigan asosiy talab — offshor markaz joylashgan davlatning rezidenti bo'lmaslik va bu davlatning

hududida daromad olmaslikdir. Soliq gavanlarining offshor hududlardan farqi shundaki, u yerda firmalar (xorijiy va mahalliy firmalar ham) faoliyatning barcha turlari bilan shug'ullanishida imtiyozlarga ega bo'lishadi. Hozirgi paytda jahonda 300 dan ortiq offshor markazlar mavjud bo'lib, ularning 70 tasi soliq gavanlari hisoblanadi.

Offshor kompaniyalar faoliyat ko'rsatayotgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Normandiya orollari, Men orollari (Britaniya), Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, Shvetsariya va boshqalar kiradi. Oxirgi o'n yillikda bularga Malta, Mavrikiya, G'arbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqa davlatlar ham qo'shilgan edi.

Offshor hududlardagi sanoat, savdo, bank, sug'urta va boshqa kompaniyalar umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya) yoki kichik miqdordagi soliqlar to'laydi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men orollari va boshq.), xolos. Masalan, Shvetsariyada offshor biznesga nisbatan kam soliq miqdori belgilangan. Bu soliq ma'lum holatlarda umuman to'lanmasligi ham mumkin. Shuningdek, offshor hududlar valuta cheklashlarning yo'qligi bilan daromadni olib chiqish erkinligi, xorijiy investorlar uchun bojlarning yo'qligi bilan ham ajralib turadi. Offshor hududlarni tashkil qiluvchi davlatlar qo'shimcha xorijiy kapital jalb qilish, offshor hududda ro'yxatga olingan korxonadan foyda olish, mahalliy mutaxassislar uchun qo'shimcha ish joylari tashkil qilinishi orqali foyda ko'rishadi.

Odatda, offshor biznes bank, sug'urta ishi, dengiz kemachiligi, ko'chmas mulk operatsiyalar bilan trast faoliyati va eksport-import operatsiyalari bilan, konsaltingda jamlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda offshor biznesda band bo'lgan kapital 500 mlrd dollarni tashkil etib, unda qariyb 2 mln kishi qatnashadi. Har yili bir necha minglab yangi offshor biznesga oid kompaniyalar ro'yxatga olinadi.

Majmuaviy hududlar alohida ma'muriy tumanlar hududida xo'jalik yuritish rejimiga nisbatan alohida, imtiyozli rejim o'rnatish yo'li bilan tashkil qilinadi. Ularga Xitoyning beshta maxsus iqtisodiy hududlarini, Braziliyadagi «Manuas» hududini, Argentinaning «Olovli yer»ni, sanoati rivojlangan davlatlarning kam rivojlangan mintaqalaridagi erkin tadbirkorlik hududlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

19.2. Jahon mamlakatlarida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari

90-yillarda jahon iqtisodiyotida xalqaro erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish jarayonlari kuchayib bordi. Maxsus erkin iqtisodiy hududni tashkil qilish loyihasi asosida Rossiya, XXR, KXDR chegaralari tutashgan joyda Tumangan erkin iqtisodiy hudud barpo etilgan edi. Ushbu loyiha 20 yilga mo'ljallangan bo'lib, uning birinchi bosqichdagi qiymati 90—110 mlrd dollarni tashkil etgan.

Turli ko'rinishdagi erkin iqtisodiy hududlarning o'xshash tomonlaridan biri ularda tadbirkorlar uchun moliyaviy, bojxona va soliq imtiyozlari, shuningdek, umumiy rejimga nisbatan ustunliklarga ega bo'lgan qulay investitsion iqlimni mavjudligidadir. Turli ko'rinishdagi erkin iqtisodiy hududlarda imtiyoz va rag'batlantirishlar o'zlarining ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Bunday imtiyozlarni to'rt asosiy guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

— *tashqi savdo imtiyozlari*. Bunga alohida bojxona-tarif rejimi kirib (eksport import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish), unda tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari soddalashtiriladi;

— *soliq imtiyozlari*. Bunda faoliyatning ma'lum ko'rinishlari soliq imtiyozlari orqali rag'batlantiriladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va boshq.) va shuningdek, uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, ish haqiga xarajat, transport) soliqqa tortilishidan doimiy va vaqtinchalik ozod qilinadi;

— *moliyaviy imtiyozlar* bo'lib, o'z ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Ularga kommunal xizmatlarning arzonligi, yer maydonlari va ishlab chiqarish binolari ijara haqini kamaytirish, imtiyozli kreditlar kiradi;

— *ma'muriy imtiyozlar*, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va xorijiy fuqarolarni kirib-chiqishlarini yengillashtirish, shuningdek, xizmatlar ko'rsatish maqsadida ma'muriyat tomonidan maxsus hududlarni ajratilishi kiradi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishning jahon tajribasi ularning umumiy yutuqlari va xususiyatlari, shuningdek, rivojlanishning o'ziga xos tomonlari haqida ma'lum bir xulosalar chiqarishga imkon beradi. Sanoati rivojlangan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlar muvaffaqiyati ularning yaxshi rejalashtirilganligiga va boshqaruv tizimining moslashuvchanligiga bog'liqdir. Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy holatlarning o'zgarib turishi erkin iqtisodiy hududlarni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, bu o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarishni talab qiladi.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan foydalidir. Bu hududlar ko'plab ish o'rinlarini tashkil qilishda, xalqaro tovar ayirboshlashni jonlantirishda, tashqi savdo natijalarini yaxshilashda, ilmiy ishlab chiqarish salohiyatni oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Rivojlanayotgan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlar bir qator o'xshashliklarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat. Birinchidan, bu davlatlarda eksport uchun ishlab chiqarish hududlari keng tarqalgan. Yuqorida aytilganidek, EICHH tashkil qilishga qator iqtisodiy sabablar, avvalambor, eksport uchun sanoat tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatga xorijiy kapital, ilg'or fan-texnika, zamonaviy texnik axborotlar jalb qilish zaruriyati kabi sabablar turtki bo'ladi. Ikkinchidan, EIHLardagi xo'jalik yuritish rejimi xorijiy ishbilarmonlar uchun erkin va imtiyozli bo'ladi. Bu EIHLar orasida xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar mavjud bo'ladi. Uchinchidan, EIHLar faoliyatida tovar sanoat diversifikatsiyasi ro'y beradi. Zamonaviy ITI yangi va yuqori texnologik ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan EIHLarni ilg'or o'rinlarga olib chiqadi.

Rivojlanayotgan davlatlar orasida Xitoydagi EIHLar sezilarli rivojlanib bormoqda. 80-yillarning boshida maxsus EIHLarga birlashgan kichik-kichik hududlar Xitoy hukumatini 90-yillarning boshlariga kelib yirik EIHLarga aylangan davlatlardan biri bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Mamlakatda va xorijda mashhur bo'lgan EIHLar «Shen chjen», «Chjuxay», «Syamen», «Shantou», «Xaynan»dan tashqari texnik-iqtisodiy hududlar (20 dan ortiq) va yangi yuqori texnikani rivojlantirish hududlari texnoparklar ham sezilarli rivojlandi. Xitoydagi «Pudun» iqtisodiy rivojlanish hududi bir necha o'n yillar mobaynida Shanxayni Osiyo—Tinch okeani mintaqasidagi yirik savdo va moliyaviy markazga aylantiradi.

EIHLarni tashkil topishi Xitoy hukumati tomonidan 70-yillar oxirida e'lon qilingan ochiq tashqi iqtisodiy siyosatning natijasidir. EIHLarni rivojlantirish modelini tanlashda Xitoy rahbariyati xorij tajribalarini e'tiborga oldi. Singapur, Tayvan va AQSH tajribalariga alohida e'tibor berildi. EIHLarni tashkil qilishning bir necha variantlari ishlab chiqildi. Oqibat natijada eksportga va shuningdek, xorijiy kapitalni jalb qilishga ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshilashga yo'naltirilgan EIHL modeli tanlab olindi. Maxsus iqtisodiy hududlar «ochiq eshiklar» siyosatini amalga oshirgan holda mamlakatning boshqa tumanlarini bog'lab turuvchi rolini o'ynay boshladi.

90-yillarning boshida XRRning dengiz port shaharlarida maxsus iqtisodiy hududlar — *erkin bojxona hududlari* (erkin bojsiz savdo hududlari) vujudga kela boshladi. Ular xitoylik mutaxassislarining fikricha, erkin bojxona hududlar boshqa xorijiy davlatlardagi erkin bojxona hududlari modeli bo'yicha rivojlantirilgan. Xullas, Xitoydagi maxsus iqtisodiy hududlar va shuningdek, boshqa imtiyozli investitsion iqlimdagi tumanlar faoliyatining amaliyoti shubhasiz muvaffaqiyatga erishdi. Xitoylik va xorijiy mutaxassislar EIHlar erishgan yutuqlar qatoriga, avvalambor, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini, hududlarga ko'p miqdorda xorijiy investorlarni jalb qilinishini mehnat unumdorligini sezilarli darajada o'sishini va nihoyat, aholini turmush tarzi darajasini o'sishini va h.k.larni kiritishadi.


Xitoydagi maxsus EIH umuman olganda, davlat mulki ustunlik qilgan holatdagi bozor munosabatlaridan foydalanish bo'yicha tajribadir. Ma'lumki, birdaniga bozor iqtisodiyotiga o'tish xalq uchun va milliy iqtisodiyot uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ham Xitoy hukumati bozor iqtisodiyotiga o'tish siyosatini birdaniga qabul qilmadi. Xitoylik iqtisodchilarning aytishicha, mamlakatning maxsus iqtisodiy hududlari XXI asrda Xitoy yashashi mumkin bo'lgan iqtisodiy modellarni polegoni bo'lib faoliyat ko'rsatgan.

EIHlar turli davlatlarning alohida tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarishning u yoki bu sohasini rivojlanishi uchun, xorijiy kapital jalb qilish yoki mahalliy kichik va o'rta biznes faoliyatini jonlantirishdagi rolga asos bo'la olmaydi. EIHlarning faoliyati mamlakatning boshqa hududiga ta'siri juda cheklangan holda qolmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa bunday masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Tadqiqotlarga qaraganda, EIHlarga xorijiy kapital jalb qilishga ketadigan xarajat o'rta hisobda 1 dollari xorij kapitaliga 4 dollarga to'g'ri keladi. Masalan, 80-yillarning oxirida XRRning to'rtta EIHlaridagi xorijiy kapital 4 mlrd.dollarni tashkil qilgan bo'lsa, Xitoyning o'zi kiritgan mablag'lari esa 22 mlrd dollarni tashkil qilgan. Shunday qilib, amalda Xitoyda EIHlarning infrastrukturalari, markaziy davlat mablag'lari hisobiga vujudga kelgan.

Xullas, EIHlar jahon iqtisodiyotida nafaqat muvaffaqiyat keltirish balkim, ularni tashkil etishda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ham mumkin. Masalan, Shri Lanka, Gvatemala, Liberiya, Senegal va boshqa davlatlarda turli ko'rinishdagi EIHlar nafaqat muvaf-

faqiyatsizlikka uchradi, balki umuman o'z faoliyatini to'xtatdi. Buning asosiy sabablari qilib siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy sabablarni ko'rsatish mumkin. Siyosiy sabablarga mamlakatdagi umumiy siyosiy beqarorlik, fuqarolar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va boshqalar kirs, iqtisodiy sabablarga, eng avvalo, EIHLardagi juda murakkab investitsion rejim haqidagi qonunchilik kiradi. EIHLardagi byurokratik boshqaruv va shuningdek, investorlarni ro'yxatga olishdagi byurokratik amallarning mavjudligi, reklamaning sustligi va boshqalar ham EIHLar taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



1. EIHLarni mazmuni va mohiyatini xarakterlab bering.
2. EIHLarning asosiy ko'rinishlarini tavsiflang.
3. Jahonning turli mamlakatlarida EIHLar faoliyatini o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari.
4. EIHLar muvaffaqiyatsizlikka uchrashining asosiy sabablarini ko'rsating.

**20.1. Globallashuv tushunchasining
mazmuni va mohiyati**

XX—XXI asrlar bo'sag'asida jahon iqtisodiyotida yangi atama *globallashuv* tushuncha paydo bo'lgan edi. Globallashuv muammolari hozirgi kunda tarixchi va faylasuflar iqtisodchi va texnologlar, shuningdek, mamlakatlarning hukmron doiralari hamda jamiyat vakillari tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Jahon iqtisodiyotida globallashuv tarafdorlari va unga qarshi bo'lganlarning mavjudligi ushbu tushuncha turlicha talqin qilinishini anglatadi. Globallashuv tarafdorlarining fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, aholi farovonligini oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratilishiga imkon beradi. Globallashuvga qarshi bo'lgan iqtisodchilar esa, u savdo ekspansiyasining kuchayishiga, iqtisodiy jinoyatlarning ortishiga (qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish, noqonuniy reeksport, narkotik moddalar savdosining oshishi va h.k.lar) ishlab chiqarishda atrof-muhitni ifloslanishiga, texnik-texnologik xavfsizlikka amal qilmaslikka, bolalar mehnatidan keng foydalanish va boshqa bir qator hodisalar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni kuchayishiga olib keladi, deb hisoblashadi. Xullas, jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda globallashuv jarayonini to'xtatib bo'lmaydi.

Iqtisodiy tahlilchilar tomonidan globallashuv iqtisodiy rivojlaniishi u yoki bu mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik va ekologik an'analarga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur o'rganishlari lozim bo'ladi. Jahon iqtisodiyotida «globallashuv» tushunchasi ilk bor amerikalik olimlar tomonidan fanga kiritilgan edi. Iqtisodchi olimlardan biri T. Levit o'zining «Bozorlarning globallashuvi» nomli maqolasida globallashuvni oldin tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada ko'p ko'rsatkichlarga ega bo'lgan iste'mol tovarlarini standartlashishi uchun global bozorlar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan yangi tijorat voqeligi, deb ta'rif bergan edi. Iqtisodchi olim N. Trift esa globallashuv jarayonining quyidagi jihatlarni alohida ajratib ko'rsatgan edi:

— moliyaviy markazlashuvning kuchayishi. Uning yordamida kredit mablag‘lar shakllantirilib, berilgan kreditlardan foydalanish va shuningdek, ishlab chiqarish ustidan kapitalning hukmronligi o‘rnatiladi.

— iqtisodiyotda axborotlar ahamiyatining oshishi.

— global oligopoliyaning to‘xtovsiz kengayishi.

— transmilliy korporatsiyalar sonining ortishi.

— iqtisodiy diplomatiyaning shakllanishi va milliy davlat hokimiyatining globallashuvi.

AQSHning Kaliforniya universiteti professori M. Kastels globallashuv jarayonini «Yangi kapitalistik iqtisod» deb atab, unda axborot, bilim va informatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik o‘shining asosiy manbayi ekanligini ta’kidlaydi. Rossiyalik olim I.G. Vladimirovaning fikricha, globallashuv jahon iqtisodiyotida baynalmilallashuvning eng yuqori bosqichidir. Xullas, jahon iqtisodiyotining globallashuvi — jahon iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli ishlab chiqarish soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo‘jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va bilimlar bozorini asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishini bildiradi. Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab olgan bo‘lib, ular quyidagilardir:

— tashqi aloqani, xalqaro savdoni, jahon miqyosidagi tovarlar oqimini, xizmat ko‘rsatish sohalarini, texnologiyalar, intellektual mulk obyektlari savdosini;

— ishlab chiqarish omillarning xalqaro harakatini (ishchi kuchi, kapital, axborot vositalari va boshq.);

— xalqaro moliya-kredit va valuta operatsiyalarini (beg‘araz moliyalashtirish va yordam, iqtisodiy munosabatlar, subyektlarning kredit va qarzlari, qimmatbaho qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalar, maxsus moliyaviy mexanizmlar, valuta operatsiyalari);

— ishlab chiqarish, ilmiy texnikaviy, texnologik, muhandislik, axborotlar sohasida hamkorlik qilish va boshqalar.

20.2. Jahon xo‘jaligida globallashuv jarayonlarining borishi

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi jarayonlarda namoyon bo‘ladi:

— ishlab chiqarishning baynalmilashuvi chuqurlashuvida namoyon bo‘lishi, bunda iste‘mol uchun yaratiladigan mahsulotlarni tayyorlashda jahonning turli davlatlaridan ishlab chiqaruvchilar qatnashdi. Shuning uchun ham hozirgi kunda jahon savdosining asosiy qismini yarim tayyor mahsulotlar egallab turibdi.

Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishning baynalmilallashuvida TMKlar muhim rol o'ynab, biz ularni quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin:

— kapitalning baynalmilallashuvini chuqurlashuvida, ya'ni, davlatlararo xalqaro kapital harakatining o'sishida, to'g'ri investitsiyalar ko'rinishida, fond bozorlarining baynalmilallashuvida;

— ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy texnologik bilimlar almashuvida, ya'ni, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuvda, ishlab chiqarish resurslarining xalqaro miqyosda joylashuvida ishlab chiqarish kuchlarining globallashtirishida;

— xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi global miqyosdagi material. Axborot vositalari, tashkiliy iqtisodiy infratuzilmalarning shakllanishi va boshqalar;

— xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashuvi natijasida ayir-boshlashni baynalmilallashuvini kuchayishida, xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish sohasiga nisbatan xizmatlar sohasining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishida;

— xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'sishida, rivojlangan davlatlarga kambag'al davlatlardan kelgan ishchi kuchlarini malaka talab qilmaydigan yoki past malaka talab qiladigan ishlarga jalb etilishida;

— ishlab chiqarish va iste'mol baynalmilallashuvi atrof-muhitga bo'lgan ta'sirining ortishiga olib keladi. Bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning yanada ortishini keltirib chiqaradi.

Bashoratchilarning fikriga ko'ra, jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

- mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtiradi;
- xo'jalik yuritishni to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyotining ochiqligini ta'minlaydi;
- bozorlardagi ishtirokchilarning to'siqlarsiz qatnashuvini ta'minlaydi;
- moliyaviy va savdo operatsiyalariga oid qonun-qoida chegaralarini universallashtiradi;
- bozorlarni tartibga solib, nazorat qilishni bir me'yorga keltiradi, ya'ni unifikatsiya qiladi;
- kapitalni joylashtirish va investitsion jarayonlarni umumjahon to'lov hisob tizimi asosida standartlashtiradi.

20.3. TMKlar globallashuv jarayonlarini harakatga keltiruvchi omili sifatida

Jahon iqtisodiyotida makroiqtisodiy darajadagi globallashuvda davlatlar integratsion uyushmalarining iqtisodiy faolligiga intilib, savdo va investitsion to'rsiqlarni olib tashlaydi, erkin savdo hududlarini tashkil qiladi. Bundan tashqari, globallashuv jarayoni davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va axborot texnologiyasi miqyosidagi o'zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv esa kompaniyalar faoliyatini ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida paydo bo'ladi. Bunda yirik transmilliy korporatsiyalar global miqyosda harakat qiladi (ular chegarasi va milliy davlat egaligidan qat'iy nazar, iste'molchilarning talabini qondirish kerak). TMKlar (asosan, ko'pmilliy va global) ichki bozorga nisbatan ko'pincha tashqi iqtisodiy faoliyatda muhim rol o'ynaydigan globallashuv jarayonining subyektidir.

Xullas, TMK bu globallashuvning asosi, uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Shu o'rinda biz globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari to'g'risida ham fikrlashsak maqsaddan bo'lur edi. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonining ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

— globallashuv natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv chuqurlashib boradi. Bunda mablag' va resurslar samarali sarflanadi;

— globallashuv jarayonida xarajatlarning qisqarishi, narxlarning pasayishi va barqaror iqtisodiy o'sishga olib keluvchi ishlab chiqarish ro'y beradi;

— globallashuv jarayonining jihatlaridan yana biri erkin savdodan keladigan yutuq jahonning barcha mamlakatlarini qanoatlantiradi;

— globallashuv jarayonida raqobatning kuchayishi yangi texnik-texnologiyalarni yaratilishini jahon mamlakatlari o'rtasida keng tarqalishini ta'minlaydi (xorijiy to'g'ri investitsiyalar jahon savdosining o'sishiga olib keladi).

— globallashuv jarayoni xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy-texnik, texnologik va nisbatan kam xarajat talab qiladigan yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi;

— globallashuv jarayonida xalqaro raqobat kuchayib, milliy bozordagi ichki raqobatchilar tarkibiga tashqi bozordagi kuchli

raqiblar ham qo‘shiladi (eng avvalo, iste‘molchilarga qulay bo‘lgan raqobat ularga narxlarni pasaytirish va tanlash imkonini beradi);

— globallashuv jarayonida ilg‘or texnologiyadan va global miqyosdagi ishlab chiqarishdan ratsional foydalanib, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi oshadi. Jahon miqyosidagi innovatsiyalar amaliyotga uzluksiz tadbir etiladi;

— globallashuv jarayoni davlatlarga moliyaviy resurslarni asosiy qismini aylanishini ta‘minlashga keng imkoniyat beradi. Globallashuv jarayoni jahon hamjamiyatini birlashishini turli sohalaridagi harakatlarini faollashtirishni talab qiluvchi muammolarni, eng avvalo, ekologik muammolarni hal qilish uchun jiddiy asos yaratadi. Xullas, ko‘pchilik mutaxassislar globallashuvning pirovard natijasi jahon mamlakatlari farovonligining oshishiga olib keladi, deb umid qilmoqdalar. Jahon iqtisodiyotida globallashuvning salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan muammolar xavf-xatarlidir.

Yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, jahon iqtisodiyotining globallashuvi turlicha talqin qilinmoqda. Bu jarayonga nafaqat ekspertlar, olimlar va mutaxassislar, balki turli mamlakatlarning fuqarolari ham o‘zlarining munosabatlarini bildirishmoqda. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari rivojlangan mamlakatlarda xayrixohlik bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xavotirlik bilan qabul qilinaypti. Buning sababi shundaki, globallashuv jarayonining afzalliklari barcha mamlakatlarga teng taqsimlanmaydi. Shuning uchun globallashuvdan kim foyda ko‘radi, degan savol turli munozaralarga sabab bo‘layotir.

Jahon iqtisodiyotida zamonaviy globallashuv jarayonlari, eng avvalo, sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeyini mustahkamlab, ularga qo‘shimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globallashuv jarayoni kengayishi iqtisodiy past rivojlangan mavqeyini salbiy o‘zgarishiga sabab bo‘lib, ularni globallashuv jarayonining subyektlariga emas, balki obyektlariga aylantirishi mumkin. Demak, globallashuv jarayonining alohida mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sirining darajasi ushbu mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘miga bog‘liqdir. Amaldagi afzalliklarning asosiy qismi boy davlatlarga yoki individuallarga tegadi.

Globallashuv sharoitida markazlashtiruvchi kuchlarning markazlashishi bilan bog‘liq bo‘lgan buzg‘unchilik ta‘siri yuzaga chiqishi mumkinki, bu mamlakat ichidagi an‘anaviy aolqalarning uzilishiga, ijtimoiy muammolarning kuchayishiga, mazkur jamiyat uchun begona bo‘lgan salbiy oqibatlar tufayli barcha mamlakatlarda yuzaga keladigan muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- globallashuvdan keladigan afzalliklar milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari o'rtasida bir xil taqsimlanmasligi;
- milliy iqtisodiyotda sanoatlashishning sekinlashuvi;
- ayrim mamlakatlarda iqtisodiyotni nazorat qilishni mustaqil hukumat qo'lidan boshqalarga, jumladan, kuchliroq davlatlarga, ya'ni TMKga topshirish va boshqalar.

Shunday qilib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jahon xo'jaligini vujudga kelishi, rivojlanish va globallashuvda tashkil topgan yirik moliyaviy kapital guruhlar muhim rol o'ynagan edi. Tashkil topgan ushbu TMKlar yirik masshtabdagi korporatsiyalarning shakllanishi va paydo bo'lishida katta ahamiyatga egadir. TMKlarning global masshtabdagi faoliyati shundan iboratki, ular o'z taktikalari doimo takomillashtirib, jahon bozorining eng muhim nuqtalarini, ishlab chiqarishning muhim sohalarini, xalqaro tovarlar savdosida esa asosiy obyektlarni egallab bormoqda.

AQSHning «jahon avtomashinasi» modeli deb hisoblangan «Modeo» bazasidagi avtomobil konserni yengil avtomashinalar ishlab chiqarish bo'yicha va shuningdek, Yaponiyaning «Matsusita» («Panasonik») firmalari global strategik ahamiyatga egadir. Ushbu yirik ishlab chiqaruvchi TMKlar uy-ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqarishdan tortib, elektr asbob-uskunalarni, sovutgichlarni ishlab chiqarishda ham jahon mamlakatlarining 40 ga yaqinida 150 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalariga egadir. Ular dunyo ilm fanining eng yangi yutuqlaridan foydalanib, turli bozorlar va madaniy markazlarda Ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlari ko'lamida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bunday TMKlarga turli davlatlarning mutaxassislari ham tortilyapti. Jumladan, Buyuk Britaniyaning «Royal — Datch — Shell» kompaniyasining Londondagi shtab-kvartirasida ishlayotgan xodimlar 40 ga yaqin millat vakillaridan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi yirik neft korxonalari joylashgan davlatlarning vakillaridir.



1. Jahon iqtisodiyotida globallashuv tushunchasining mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
2. Globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab bering.
3. TMKlar globallashuv jarayonlarini harakatga keltiruvchi omil ekanligi to'g'risida siz nima bilasiz.
4. TMKlarning global miqyosdagi faoliyatini izohlang.

21.1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar klassifikatsiyasi

«Jahon iqtisodiyoti» kursining oldingi mavzularida ba'zi-bir xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlar (savdo tashkilotlari — GAAT/UST; investitsion tashkilotlar — XTTB, YeTTB; xalqaro moliya-valuta, xalqaro migratsiya va ilmiy-texnika sohasidagi tashkilotlar) to'g'risida fikr yuritilgan edi. Mazkur mavzu materiallarini umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, ular yuqorida qayd qilingan manbalarning XIMni yaxlit bir kompleksi sifatida rivojlantirishda tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntirib berishga yordam beradi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar murakkab iqtisodiy mexanizm sifatida bir tomondan bozorga xos o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lsa (XIMning moddiy asosi hali ham jahon bozori hisoblanadi), ikkinchi tomondan, ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, alohida mamlakatlar va hududlar o'rtasida o'zaro aloqalarni osonlashtiruvchi davlatlararo tuzilmalarni yaratishni talab etadi.

Ayni paytda shuni qayd etib o'tish kerakki, Birinchi (1914—1918-yillar) va Ikkinchi (1939—1945-yillar) Jahon urushlari orasida xalqaro tashkilotlarni gurkirab vujudga kelish jarayoni (shu davr Xalqaro Mehnat Tashkiloti, o'zining «Inkoterm» kabi tijoriy hujjatlari bilan taniqli bo'lgan Xalqaro savdo palatasi, Xalqaro hisob-kitoblar banki tashkil etilgan) va ayniqsa, 40-yillarda ikki to'qnashuvni boshidan kechirgan davlatlar tarixidagi favqulodda holatlar va 1929—1932-yillardagi chuqur iqtisodiy tanazzul bilan bog'liq. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar vujudga kelishining ikkinchi «to'lqini» va harakatdagi faoliyatining faollashuvi ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachilik tizimining parchalanishi hamda 60—70-yillardagi iqtisodiy chayqalishlar bilan bog'liqdir. Va nihoyat, 80-yillarning boshlarida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatida uchinchi bosqichning boshlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab sifatida totalitar tizimlarning (cobiq SSSRni) inqirozga uchrashi va yangi ming yillik ostonasida insoniyatning global muammolarini keskin kuchayishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Jahonning ko'plab mamlakatlarining hukumat organlari zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi muammolarni mustaqil hal eta olmadilar va natijada, ular qayd etib o'tilgan muammolarni hal etishda birgalashib harakat qilish usullarini ishlab chiqara boshladilar. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida iqtisodiy gullab-yashnashi va jahon xalqlari farovonligini ta'minlash masalasi bilan shug'ullanuvchi minglab xalqaro tashkilotlar hisobga olingan. Ekspertlarning fikricha, jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladigan xalqaro tashkilotlar soni 100 ta atrofidadir.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar topologiyasi haqida gapirganda, ikki mezondan (jug'rofiy qamrovi kengligi va faoliyat xususiyatlarj) foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan kelib chiqib, ikki tomonlama, hududiy va global tuzilmalar ajratib ko'rsatiladi. Ikkinchi mezonni qo'llagan holda maxsuslashtirilgan (sohalar bo'yicha) va global tashkilotlarga ega bo'lamiz. Bularning ichida, ayniqsa, 1945-yilning 24-oktabrida tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tasarrufidagi iqtisodiy hamkorlik organlari alohida o'ringa ega. BMT — Ikkinchi Jahon urushidan so'ng antigitler koalitsiyasi a'zolari tomonidan tashkil etilgan eng universal, obro'e'tiborli va son jihatdan eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanadi.

21.2. BMT doirasidagi iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari

BMT shtab-kvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan bo'lib, uning tarkibida 185 mamlakat mavjud. BMT nizomining I-moddasida tashkilot faoliyatining asosiy maqsadlari ichida, «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik qilish» maqsadi ham yetakchi o'rinda turadi. BMT iqtisodiy sohada asosan quyidagi to'rt yo'nalish bo'yicha faoliyat olib boradi:

- global muammolarni hal etish;
- davlatlarning iqtisodiy hamkorligiga ko'maklashish;
- mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi uzilishlarni yengib o'tish;
- hududiy rivojlanishni rag'batlantirish.

Yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarning har biri BMT muasasalari faoliyatida axborot, texnika-maslahat va moliya sohasida hamkorliklarni ham o'z ichiga oladi. BMT bosh va yordamchi organlari, shuningdek, 18 ta maxsuslashtirilgan institut va bir qator avtonom tuzilmalar bo'limlari Bosh Assambleya (BA), Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) hamda Sekretariat hisoblanadi.

Bosh Assambleya yilida bir marta sessiyalar o'tkazadi (sentabr, dekabr), bu sessiyalarning har birida rais, uning o'rinbosarlari va asosiy qo'mitalarning boshliqlari saylanadi. Jahon iqtisodiyotidagi asosiy masalalar ham umumiy majlislarda ham maxsus ikkinchi qo'mita doirasida muhokama qilinadi.

BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengash bo'limi (EKOSOS) 1946-yilda tashkil etilgan. 54 mamlakat uning a'zolari hisoblanadi va ularning uchdan bir qismi (Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, AQSH va Fransiyadan tashqari) har yili uch yil muddatga qayta saylanadi. Yuqoridagi besh davlat urush va tinchlik masalalari bilan shug'ullanuvchi Xavsizlik Kengashida bo'lgani kabi doimiy ravishda EKOSOS tarkibiga kiradi. Kengash, odatda, bir yilda ikki marta (ijtimoiy-huquqiy va gumanitar mavzuda, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha) sessiya o'tkazadi.

XIM muammolari bo'yicha qarorlar va tavsiyalar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan barcha tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish mas'uliyati ham EKOSOS zimmasidadir. Bugungi kunga kelib EKOSOS oltita doimiy qo'mita, yettinchi funksional va beshta hududiy komissiyalarni ta'sis etgan. Bulardan tashqari 18 ta maxsuslashtirilgan muassasa, Jahon oziq-ovqat dasturi va UNCTAD/UST Xalqaro savdo markazi ham EKOSOS patronaji ostida faoliyat olib boradi. BMTning iqtisodiy organlari tizimida uchinchi bo'g'in sifatida Sekretariat faoliyat olib boradi. Sekretariat bir necha bo'limlardan (iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Departament) tarkib topgan bo'lib, ma'muriy-ijrochi tuzilma sifatida ish olib boradi.

Jahon xo'jaligi muammolarini hal qilishda BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha Anjumani (UNCTAD) va BMTning sanoat taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti (UNIDO) to'g'risida alohida to'xtalib o'tish lozim.

1964-yilning oxirida BMTning Bosh Assambleyasi xalqaro savdo bo'yicha hamkorlikka ko'maklashish uchun UNCTADni ta'sis etish haqida qaror qabul qildi. Anjumanning oliy organlari to'rt yilda bir o'tkaziladigan sessiya va yilda ikki marta to'planadigan Kengash hisoblanadi. Kengash nazorati ostida doimiy qo'mitalar, vaqtinchalik ishchi guruhlari va Sekretariat faoliyat ko'rsatadi. UNCTADga hozirgi kunda 186 ta davlat a'zo bo'lib, uning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan. UNCTAD rahbarligi ostida o'tkazilgan hukumatlararo maslahatlar natijasida bir qator muhim savdo bitimlari imzolandi, xomashyo tovarlari savdosi sohasidagi holatlarni o'rganish uchun

ekspert guruhlari tashkil etildi. Anjuman Yevropa va Amerika bozorlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning mahsulotlari uchun maxsus imtiyozlar berish rejimini quvvatlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatmoqda.

1967-yilda tashkil etilgan UNIDO 166 ta davlatni birlashtirgan bo'lib, uning shtab-kvartirasi Vena shahrida joylashgan. Bu tashkilotning bosh vazifasi Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika hamda Okeaniyadagi kambag'al va rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlar guruhini iqtisodiy qo'liqlikdan olib chiqish jarayonini rag'batlantirish maqsadida BMT doirasida sanoat rivojlanishini muvofiqlashtirishdan iborat. UNIDOning oliy organi ikki yilda bir marta chaqiriladigan Bosh Anjuman sanaladi. Boshqaruv tuzilmalari esa sanoat taraqqiyoti bo'yicha kengash va budget masalalari bo'yicha qo'mita hisoblanadi. UNIDO faoliyati hukumatlar va xususiy tarmoq bilan hamkorlik asosida qurilgan. Tashkilot investitsiyalar, texnik va sanoat hamkorligi masalalari bo'yicha forumlar o'tkazadi. Xorijiy investitsiyalarning ko'payib borishiga, rivojlangan mamlakatlarga texnologiyalar yetkazib berishga ko'maklashadi. Bu masalalarni amalga oshirishda UNIDOning Sanoat va texnologik axborotlar banki (STAB) samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Moliyalashtirishdagi muammolar, ortiqcha qog'ozbozlik va qarorlarning bajarilishini nazorat qilishning kuchsizligiga qaramasdan, zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida BMT tizimidagi iqtisodiy tashkilotlarning ahamiyati ortib bormoqda. BMTning maxsuslashtirilgan muassasalari rolining kuchayib borishida xalqaro mehnat taqsimoti tuzilmasining murakkablashuvi, axborot-texnologik ayirboshlashning yangidan-yangi kanallari vujudga kelishi jahon xo'jalik hayotining jadallashuvi va shuningdek, insoniyat oldida turgan jiddiy global muammolar va h.k.lar muhim rol o'ynamoqda.

21.3. Xalqaro hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Hududiy iqtisodiy tashkilotlar

BMT doirasiga kirmaydigan iqtisodiy tashkilotga 1961-yilda tashkil topgan, shtab-kvartirasi Parijda joylashgan Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkilotini (IHTT) kiritish mumkin. IHTT Ikkinchi Jahon urushidan keyin AQSHning moliyaviy yordamidan samarali foydalanish va ko'hna qit'adagi tiklanish jarayonini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Yevropa

iqtisodiy hamkorlik tashkilotining vorisi hisoblanadi. «Boylar klubi», jahon iqtisodiyotining «aql markazi» deb ataluvchi IHTT hozirgi kunda jahonning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan 29 ta mamlakatini o'z tarkibiga birlashtirgan. Chunonchi, bu tashkilotga a'zo mamlakatlar hissasiga jahon tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning 2/3 qismi to'g'ri keladi.

IHTTning oliy kengashi bo'lib, uning tarkibiga har bir a'zo-mamlakatdan bittadan vakil kiradi. Kengash a'zolar oyda bir marta Bosh kotib raisligida uchrashishadi. Bundan tashqari, Kengash vazirliklar (tashqi ishlar vazirligi, moliya vazirligi, iqtisodiyot vazirligi kabilar) miqyosda yillik majlislarni ham o'tkazib turadi. Doimiy asosda ish yurituvchi Ijroiya qo'mitaning asosiy vazifasi IHTT faoliyatini nazorat qilish va Kengash majlislarini tayyorlashdan iborat. 200 dan ortiq qo'mitalar, ishchi guruhlar va ekspert komissiyalarini ijtimoiy-iqtisodiy xarakterda bo'lgan keng doiradagi masalalar bilan ham shug'ullanadi.

IHTT tuzilmasi haqida fikr bildirilganda, albatta, Yevropa va o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar o'rtasida hamkorlik markazini eslatib o'tish joizdir. Bu markaz 1990-yilda tashkil etilgan bo'lib, IHTT va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turadi. IHTT faoliyatidagi eng muhim jihat — bu tashkilotga a'zo-mamlakatlar hukumatlari o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy muammolari bo'yicha fikr almashishni yo'lga qo'yishdir. Kapital va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlash, poraxo'rlikka qarshi kurash kabilar to'g'risidagi qonunlar bu sa'y-harakatlarning samarasidir. Hozirgi kunda IHTTning amaliy vazifalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

— bolalar va ayollar mehnati, mahsulot bahosini ataylab pasaytirish kabi g'irrom raqobatni chegaralash yo'llarini izlash;

— mehnatni himoyalash bo'yicha barcha mamlakatlar uchun yagona bo'lgan me'yoriy hujjatlar to'g'risida konvensiya qabul qilish;

— global miqyosda bevosita chet el investitsiyalarni berish rejimini tartibga solish (Investitsiyalar to'g'risida ko'p tomonlama kelishuv loyihasi kompaniyalarga, o'zlarini nuqtayi nazaricha, hukumatning noxolis investitsion siyosati bilan tortishish imkoniyatini beradi);

— sanoat korxonalarini faoliyatini ekologik jihatdan xalqaro nazoratini amalga oshirish.

Jahonda integratsion jarayonlar — Yel, NAFTA, MERCOSUR, MDH kabilar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan o'nlab

hududiy miqyosdagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar mavjud. Ularning faoliyat ko'rsatish mexanizmlarini o'rganish maqsadida biz g'arbiy yarim yer kurasi va Afrika qit'asidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan Amerika Davlatlari Tashkiloti (ADT) hamda Afrika Birdamlik Tashkiloti (ABT) to'g'risida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Amerika Davlatlari Tashkiloti (ADT) 1948-yilda Bogota shahrida (Kolumbiya) o'tkazilgan Amerika davlatlarining 9-chi xalqaro Anjumanida tashkil etilgan bo'lib, o'z tarkibiga 35 davlatni birlashtirgan. Shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan. Tashkilotning Faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy xarakterga ham ega. 60-yillarda «Sovuq urush» davri siyosati o'tgach, iqtisodiy masalalar bu tashkilot faoliyatidan oldingi o'ringa chiqdi. ADTning oliy bosh organi Bosh Assambleya hisoblanadi, yilda bir marta chaqiriladigan sessiyalarda eng jiddiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi. Doimiy Kengash tashkilotning barcha joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi va nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, doimiy qo'mitalar va ishchi guruhlarga tayangan holda Bosh Assambleyaning sessiyalarini tayyorlaydi. A'zo mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan Amerika davlatlararo iqtisodiy va ijtimoiy kengashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1994-yilda Amerika qit'asidagi 34 mamlakat (Kubadan tashqari) davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvda «taraqqiyot va rivojlanish» maqsadida hamkorlik tamoyillari: demokratiya, erkin savdo va amerikada barqaror rivojlanish to'g'risida deklaratsiya» qabul qilindi. Ushbu anjuman qatnashchilari kelajakda — 2005-yildan so'ng Panamerika erkin savdo hududini tashkil etishga qaror qilishdi.

Afrika Birdamlik Tashkiloti 1963-yilda Addis-Abebada (Efiopiya) o'tkazilgan Afrika davlatlari rahbarlari tashkilotning shtab-kvartirasi shu shaharda joylashgan bo'lib, unga Afrikaning deyarli barcha davlatlari a'zo bo'lgan (Marokashdan tashqari). ABT faoliyati ADTdagi kabi kompleks harakatiga ega, iqtisodiy masalalar hamisha boshqaruv tuzilmalari diqqat-markazida turadi. ABTning oliy organi Davlat va hukumat rahbarlari Assambleya hisoblanib, u yilda bir marotaba sessiyalar o'tkazadi. Tashkilotning boshqa muassasalari ichida Afrika davlatlarining iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish yuzasidan bevosita mas'ul bo'lgan Iqtisodiy va ijtimoiy komissiya sezilarli mavqega ega.

ABT hududiy siyosatiga tavsif berganda, 1991-yilda a'zo-mamlakatlar tomonidan qabul qilingan Afrika iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etish to'g'risidagi bitimni eslatib o'tish kerak. Bu

jarayonning umumiy davomiyligi 34 yilga mo'ljallangan bo'lib, u olti bosqichdan iborat. Xullas, jahon iqtisodiyotidagi ushbu hududiy iqtisodiy tashkilotlar global miqyosdagi tuzilmalar bilan birgalikda mamlakatlarga milliy chegaralanganlikni yengib o'tish, xo'jalik aloqalarini jadallashtirish va XX—XXI asrlar bo'sag'asida insoniyat duch kelayotgan juda ko'p muammolarni hal etish uchun harakatlarni birlashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyotida faoliyat ko'lami va sohasi turli tuman muassasalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar XIM tizimida vaqt o'tgan sayin yanada ahamiyatliroq bo'lib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ichida BMT tizimiga kiruvchi tuzilmalar (EKOSOS, UNCTAD, UNIDO va boshq.) markaziy o'rinni egallaydi. BMT doirasidan tashqari juda ko'p nufuzli, obro'li global va hududiy miqyosdagi tashkilotlar ham mavjud bo'lib, ushbu tashkilotlar jahon iqtisodiyotida keng doirada faoliyat ko'rsatmoqda.

21.4. O'zbekistonning jahondagi turli xalqaro iqtisodiy va siyosiy tashkilotlar bilan olib borayotgan munosabatlari

Jahon iqtisodiyotida O'zbekiston Respublikasi suveren mustaqillikka erishgan kundan boshlab (1991-yil 31-avgust) iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida rivojlanishning yangi davri boshlandi. O'zbekiston Osiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan bo'lib, uning hududida O'rta Osiyo aholisining 45 % yashaydi. O'zbekiston Respublikasi qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Afg'oniston kabi davlatlar bilan chegaralanib, Yevropa, Afrikaning bir qator mamlakatlari bilan transport va telekommunikatsiya aloqalari orqali bog'lanib turuvchi strategik xaridor hisoblanadi.

O'zbekiston hozirgi kunda jahonning ko'zga ko'ringan yirik va obro'li xalqaro tashkilotlari bilan, dunyoning barcha mintaqasida joylashgan o'nlab davlatlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatgan bo'lib, ularning yirik bank va moliyaviy tashkilotlari bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirib bormoqda. O'zbekistonda hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning elchixonasi 49 ta davlat va shuningdek, 15 ta davlatlararo tashkilotlari akkreditatsiya qilingan. Respublikamiz eng muhim xalqaro konvensiyalarning qatnashchisidir. O'zbekiston turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar (BMT, YeI, YeTTB, XVf, Osiyo banki va boshq.) bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib boruvchi davlatlardan biridir.

90-yillarning oxirida O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida xorijiy investorlarni respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga kirib kelishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xorijiy kompaniya va firmalar bilan iqtisodiy hamkorliklarda investitsiya loyihalari ustida amaliy ishlar olib borildi. Agar 1997-yilda O‘zbekistonga kirib kelgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 1,1 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 1999-yilda bu ko‘rsatkich 1,3 barobarga o‘ydi. Respublika hududida jahonning 80 dan ortiq davlatlarning sarmoyalari ishtirokida qurilgan 4 mingga yaqin qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsata boshladi (1996-yilga nisbatan 3 barobar ko‘p demakdir). Shunday qilib, 1999-yilda ro‘y bergan bir qator iqtisodiy tushkunliklardan so‘ng respublika sanoat korxonalarida ishlab chiqarish rivoj topib bordi. O‘zbekiston tovar aylanmasida import tovarlarni qisqarishi hisobiga eksport tovarlar va xizmat ko‘rsatish sohalar kengayib bordi.

2000-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aloqalari jo‘g‘rofiyasi yanada kengayib, tashqi savdo aylanmasining 63,1 % Yevropa mamlakatlariga to‘g‘ri kelgan edi. Shu yili respublikamizning Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan bo‘ladigan savdo iqtisodiy aloqalari 7,2 %, OPEK mamlakatlari bilan 1,4 barobarga, EKO mamlakatlari (Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Turkmaniston va boshq.) bilan esa 1,2 marta o‘stib, 2000-yilda O‘zbekistonning umumiy savdo aylanmasining 31—32 % Osiyo va Yaqin — O‘rta Sharq mamlakatlariga to‘g‘ri keldi.

O‘zbekiston Respublikasi YeI davlatlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivoj topishida «O‘zaro hamkorlik» to‘g‘risidagi memorandumni tasdiqlanishi (1992-yil) muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1994-yilda O‘zbekiston bilan Yevropa davlatlari o‘rtasida o‘zaro diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Shu yili YeI komissiyasining (O‘zbyurokYeS) «Texnik hamkorlikni kordinatsiyalash byurosini tashkil etish to‘g‘risi»da O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. 1995-yilda Bryussel shahrida YeI komissiyasi tarkibida mamlakatimiz diplomatik missiyasi o‘z ishini boshladi.

O‘zbekiston YeI davlatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida hukumat rahbarlarining sammim yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi (1996-yil). Ushbu yig‘ilishda «O‘zbekiston — YeI va ularga a‘zo davlatlar o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish» to‘g‘risida shartnoma (SPS) imzolandi. Shunday qilib, O‘zbekiston sobiq ittifoq ichida RFdan so‘ng ikkinchi

bo'lib, YeIga a'zo bo'ldi. Respublikaning SPSga a'zo bo'lishi mamlakat uchun YeI davlatlari bilan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni o'rnatish imkoniyatini berdi. SPSni kuchga kirishi (1999-yil 1-iyul) bilan «YeI—O'zbekiston» qo'shma qo'mitasida «O'zbekiston — YeI» hamkorlik kengashi tashkil topdi.

2002-yilda O'zbekiston bilan YeI davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama olib borilgan tovar aylanma 1 mlrd 65,8 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, uning 520,6 mln dollari eksport tovarlariga, 545,2 mln dollari esa import tovarlariga to'g'ri kelgan edi. Ana shu yili YeI davlatlari ichida O'zbekiston bilan samarali savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borgan davlatlar — Buyuk Britaniya (302 mln dollar), GFR (250,8 mln doll), Italiya (123,8 mln doll), Belgiya (95,5 mln doll), Fransiya (91,5 mln doll), Niderlandiya (68,5 mln doll) bo'ldi.

YeI mamlakatlari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun eng muhim investorlar hisoblanadi. Respublikamiz hududida YeIga a'zo-mamlakatlarning 150 ga yaqin firma va kompaniyalari akkreditatsiya qilingan. O'zbekiston Respublikasida YeIning 480 dan ortiq firma va kompaniyalari faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lib, ularning 114 tasi to'liq 100 % li Yevropa kapitali hisobiga ishlamoqda. Xullas, 1995—2004-yillarda YeI davlatlarining firma va kompaniyalari, shuningdek, ularning banklari O'zbekistonda miqdori 8,0 mlrd dollar atrofidagi investitsion loyihalarda qatnashgan edi. Hozirgi kunda O'zbekiston bilan YeI mamlakatlari — Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Belgiya va boshqalar o'rtasida olib borilayotgan ikki tomonlama hamkorliklar yildan-yilga rivoj topib bormoqda.

2004-yilda O'zbekiston Respublikasida umumiy hisobda 3090 ta xorijiy investorlar hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 2497 tasi qo'shma korxonalarni tashkil etgan edi. Ushbu qo'shma korxonalami tashkil etishda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, XRR, RF, Ukraina, Qozog'iston kabi davlatlarning investorlari faollik ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda Turkiya bilan 50 ta, AQSH bilan 49 ta, RF bilan 56 ta, Buyuk Britaniya bilan 40 ta, Janubiy Koreya bilan 23 ta, Shveysatriya bilan esa 18 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Xullas, O'zbekiston ishtirok etayotgan xalqaro tashkilotlar doirasi shunchalik kengki, u BMT va uning tarkibidagi barcha tashkiliy va muassasalarni hamda MDH, Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti, «Yevroosiyo» hamkorligi, Shanxay Hamkorlik tashkiloti, YeI va boshqa ko'plab mintaqaviy tuzilmalarni qamrab olgan.

Mamlakatimizning NAFTA davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari ham kengayib bormoqda. AQSH bilan olib borilayotgan iqtisodiy munosabatlarini rivojlanib borishida «AQSH—O‘zbekiston o‘rtasidagi strategik hamkorlik» to‘g‘risidagi Dekloratsiya (2002-yil) muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda amerikalik investorlarning hamkorligida tashkil topgan 323 ta ishlab chiqarish korxonalari ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lib, ularning 233 tasi qo‘shma korxonalar hisoblanadi (90—100 % ni xorijiy kapital hisobiga qurilgan). AQSH investorlari, asosan, respublikaning tog‘-ko‘n sanoati va neft-gaz komplekslarini qurilishlarida, agrokompleks bazasini texnologik rivojida, oziq-ovqat va transport infrastrukturasi sohalarida amal qilmoqda.

Xullas, O‘zbekistonning o‘n, o‘n besh yillik suveren mustaqilligi yillarida Amerika kompaniyalari va moliyaviy institutlari tomonidan amalga oshirilgan investitsion loyihalar 2,4 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lib, ularning 1,4 mlrd dollari Amerikaning moliyaviy institutlari tomonidan sug‘urta qilingan.

Osiyo—Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan olib borilayotgan savdo-iqtisodiy hamkorlik yildan-yilga rivoj topib bormoqda. Jumladan, mintaqaning yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlaridan biri Yaponiya respublikamizning suveren mustaqilligini (1991-yilning 28-dekabrida) tan oldi. Ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatilishida O‘zbekiston — Yaponiya va Yaponiya — O‘zbekiston qo‘mtalari iqtisodiy va madaniy tashkilotlarni tuzilishida (1994-yil) katta rol o‘ynamoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi (JAYKA) va tashqi savdo tashkiloti (JETRO) faoliyat ko‘rsatib kelayapti. Hozirgi kunda respublikaning xomashyo resurslari bazasida, neft-gaz va Yapon investorlari hamkorligida tashkil topgan 19 ta yirik kompaniya va ularning bo‘limlari 8 ta hamkorlik komplekslari faoliyat ko‘rsatib turibdi. Xullas, 2002-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanma 31,9 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lib, uning 11,6 mln dollari eksport tovarlarga, 20,3 mln dollari esa import tovarlarga to‘g‘ri kelgan edi.

Janubiy Koreya bilan olib borilayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishida ikki davlat o‘rtasida o‘zaro tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning huquqiy asoslari hisoblangan «Savdo to‘g‘risida»gi, «Investitsiyani himoya qilish va kengaytirish to‘g‘risida»gi, «Ilmiy-texnologik hamkorlik to‘g‘risida»gi 20 dan ortiq shartnomalar imzolanishi (1994-yil) muhim ahamiyatga ega


bo'ldi. 2002-yilda har ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanma 326,0 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, uning 67,0 mln dollari eksportga, 259,0 mln dollari esa importga to'g'ri kelgan. O'zbekiston eksportida asosiy o'rinda paxta tolasi, xizmat ko'rsatish, mato va to'qimachilik mahsulotlari turgan bo'lsa, importida esa transport vositalari, mexanik va elektr asbob-uskunalar, xizmat ko'rsatish, plastmassa va ulardan tayyorlangan buyumlar turgan. 2003-yiling sakkiz oyi davomida

O'zbekiston Janubiy Koreya o'rtasidagi tovar aylanma 179,2 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, uning 39,1 mln dollari eksportga, 140 mln dollari esa importga to'g'ri kelgan. 2003-yilda Janubiy Koreyaning eksport import banki tomonidan O'zbekistonga ko'rsatgan krediti 96,4 mln dollarni tashkil etib, ushbu yordam, asosan, telekommunikatsiya uzatishlari, «UzDAEWOOavto» qo'shma korxonasi bir qator yangi avtomobil rusumlarini yaratish, kasb-hunar kollejarini yangi texnik vositalar bilan ta'minlash, «O'zbek ipagi» assotsiatsiyasini texnik qayta jihozlash ishlariga sarf etilgan edi.

O'zbekiston bilan XRR o'rtasidagi hamkorlikning o'rnatilishida O'zbekiston — Xitoy o'rtasida o'zaro savdo iqtisodiy aloqalarni olib borish to'g'risidagi shartnomasini imzolanishi (1992-yil) muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu shartnomaga muvofiq 2002-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanma 130 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, uning 17,3 mln dollari eksportga, 112,7 mln dollari esa importga to'g'ri kelgan edi.

O'zbekiston eksportida, asosan, xizmat ko'rsatish, ipak mahsulotlari, neft va neft — kimyoviy mahsulotlar, paxta tolasi, kalava iplar tursa, importida esa mexanik va elektron asbob-uskunalar, optik buyumlar va apparatlar, plastmassa va ulardan tayyorlangan mahsulotlar, transport vositalari, trikotaj kiyim-kechaklar, poyabzal, kauchuk va rezina buyumlar, qahva, choy va turli shirinliklar turadi.

Hozirgi kunda XRR investorlari yordamida qurilgan 100 dan ortiq sanoat korxonalar (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, umumiy savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida) respublikamizda faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va savdo vazirligida XRRning 19 ta kompaniyasi akkreditatsiya qilingan.

- 
1. So'nggi 50—70 yil davomida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar vujudga kelishining faollashuvi jarayoni sabablari qaysilar?
 2. BMT tizimidagi iqtisodiy muassasalarning (savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT anjumani — UNCTAD) tuzilmalari va vazifalari haqida so'zlang.
 3. BMT tizimidagi iqtisodiy muassasalarning (sanoat taraqqiyoti bo'yicha BMT anjumani — UNIDO) tuzilmalari va vazifalarini xarakterlab bering.
 4. Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) faoliyati nimalarni o'z ichiga oladi?
 5. Hududiy iqtisodiy tashkilotlarga misollar keltiring.
 6. O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi ishtirokini yoritib bering.
 7. O'zbekiston Respublikasining YeI va Osiyo—Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan savdo iqtisodiy aloqalarini borishi haqida so'zlang.

22.1. MDHning tashkil topishi va rivojlanish xususiyatlari

1991-yilning 8-dekabrida Belorussiyaning Viskuli shahridagi hukumat qarorgohida Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya va Ukraina rahbarlari MDH ittifoqini tuzish to‘g‘risida bitimni imzolashdi. Shu yilning 21-dekabrida Olma-ota shahrida 11 ta suveren davlatlarning hukumat rahbarlari (Boltiqlab‘yi davlatlari va Gruziyadan tashqari) Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya, Qozog‘iston, Moldova, RF, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston va Ukraina MDHning teng huquqli a‘zolari ekanligini qayd etuvchi Bayonnomani imzolashgan edi. Keyinroq 1993-yilning dekabr oyida esa, Gruziya ham MDHga a‘zo bo‘lib kirdi. MDH o‘z a‘zolarining suveren tengligiga asoslangan bo‘lib, xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli subyekti hisoblanadi.

MDH doirasidagi mamlakatlarning hukmronligi va uning muvofiqlashgan institutlari bo‘lib, davlat rahbarlari Kengashi, hukumat rahbarlari Kengashi, Ijroiya kotibiyati hisoblanadi. MDH ustavida mamlakatlarning unga a‘zo bo‘lish shartlari, maqsad va tamoyillari belgilab berilgan.

MDH tashkil qilingan dastlabki kundan boshlab, O‘zbekiston iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, xo‘jalik aloqalarini saqlash va kengaytirish, siyosiy ishlarga aralashmaslik, bir-biriga sun‘iy ta‘sir qilmaslik tarafdori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin oldi. MDH mamlakatlari bilan bo‘lgan munosabatda O‘zbekistonning o‘rni quyidagilardan iborat edi:

1. MDHning barcha ishtirokchilari manfaatlarini teng huquqli asosini e‘tiborga olgan holda iqtisodiy integratsiyaning ustuvor yo‘nalishda bo‘lishligi sharti.

2. O‘zbekiston Respublikasi o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishda intiluvchi ixtiyoriyligi tamoyilini saqlash tarafdorligi va boshqalar.

MDH doirasidagi hamkorlikning iqtisodiy tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, MDH davlatlari bilan ikkiyoqlama va shuningdek,

har tomonlama olib borilayotgan iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarida teng huquqli hamkorlik qilish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. MDH yordamida katta yo‘qotishlarsiz yangi mustaqil davlatlarning o‘zaro hamkorlik qilishlari uchun huquqiy va tashkiliy sharoitlar ham yaratib berilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida MDH muhim tizim bo‘lib qolaveradi. Unda 12 davlat, umumiy va shuningdek, milliy davlat manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zaro foydali hamkorlikni amalga oshirishi mumkin. Davlatlararo hamkorlikning o‘zaro iqtisodiy munosabatlari MDH doirasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanib, ular quyidagilardir:

— MDH doirasida maqsadlar amalga oshgunga qadar integratsiyaga sakrab o‘tmasdan, balki bosqichma-bosqich erkin savdo zonasini tashkil qilish;

— MDH doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi salohiyatni ko‘tarish;

— MDH doirasida tovarlarning erkin harakatini ta‘minlash va boshqalar.

Jahon iqtisodiyotida MDH kordinator va axborotchi rolini o‘ynab, barcha a‘zo davlatlar uchun yuqori darajadagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy xo‘jalik natijalariga erishish maqsadida iqtisodiy jarayonlarni tartibga soluvchi platformaga aylanishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonlar MDH davlatlarining jahon xo‘jalik tizimiga bosqichma-bosqich kirishiga imkon beradi. Bunda samarali faoliyat yuritayotgan erkin savdo zonasining yaratilishi MDHda to‘laqonli bozor infratuzilmasini va xo‘jalik hamkorligini yuqori bosqichlarga o‘tishning shakllanishida obyektiv zaruriyat kasb etdi. MDHga a‘zo davlatlar jahon xo‘jalik aloqalarida hamda iqtisodiy hamnafaslik darajasiga bog‘liq holda integratsion jarayonlarning keyingi bosqichlarida va mintaqaviy birlashmalarida qatnashish to‘g‘risida mustaqil qarorlar qabul qilishadi. Qabul qilingan qarorlarning amaliy bajarilishi esa MDH doirasida samarali hamkorlikda namoyon bo‘ladi.

22.2. O‘zbekistonning MDH doirasidagi hamkorligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2003-yil 15—16-sentabr kunlari Qozog‘iston poytaxti Ostonada bo‘lib, MDHning navbatdagi sammitida ishtirok etdi. Sammit qatnashchilari Rossiyada ro‘y bergan terrorchilik harakatlarni keskin qoralashib, unga qarshi kurashda o‘zlarining birdamligini bildirishdi. MDH

Davlat rahbarlari kengashning tor doiradagi uchrashuvida ham, kengaytirilgan tartibdagi muzokaralarda ham terrorchilikka qarshi o'zaro hamkorlik zarurligiga alohida e'tibor qaratishdi.

So'nggi yillarda MDHning bir qator mamlakatlarida ro'y bergan ko'ngilsiz voqealar terrorchilik harakatining kengayib borayotganidan darak bermoqda. Bunday sharoitga faqat jipslashib, hamkorlik qilish bilan qarshi turish mumkinligi qayd etildi. Hozirgi kunda MDH mamlakatlarining xavfsizlik yo'lidagi hamkorligi bugungi kun talabi darajasida emasligi ko'zga tashlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «vaziyat qanchalik murakkab bo'lmasin, terror muammosiga hamma davlatlar ham birday jiddiy e'tibor berayapti, deb bo'lmaydi... ular tayyorlanadigan lagerlarni bartaraf etish zarur. Eng muhimi, terrorchilarni tayyorlash, operatsiyalarni moliyalashtirish, odamlar ongini zaharlash bilan shug'allanuvchi markazlarni yo'q qilish kerak».

Ushbu sammitda Islom Karimov MDH mamlakatlarida ekstremistik tashkilotlarning ro'yxatini tuzib, ularning faoliyatini qonun yo'li bilan taqiqlash taklifi bilan chiqib, terrorchilarning mamlakatlaridan nainki makonini topish, bu hududga, hatto qadam bosa olmasligi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish kerak, degan edi. Ayrim mamlakatlarning hukumat rahbarlari «tegmasak — bizga ham tegishmaydi», tamoyiliga tayanishi o'ta xato, hatto xatarli qarash ekanligi bugungi hayot, vaziyat yaqqol ko'rsatib turibdi. Terror kutilmagan joylarga ham kirib bormoqda. Demak, terrordan holi mamlakat bor, deb bo'lmaydi. Shunday ekan, unga qarshi kurashda hamkorlik qilish, buning uchun kuch va imkoniyatni safarbar etish kerak. Islom Karimov bu borada barcha davlatlarning rahbarlari mazkur illatga bir xil nazar bilan qarashi, muammoga bir xil baho berishi g'oyat muhimligini ushbu sammitda ta'kidlagan edi.

Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda alohida ajratib olingan davlat uchun xavfsizlik tushunchasi o'z kuchini yo'qotgan. Terrorchi bir mamlakatda tayyorgarlik ko'rsa, ikkinchisidan qurol, uchinchisidan mablag' oladi va to'rtinchi bir mamlakatda esa xunrezlikni amalga oshiradi. Ularning rahnamolari esa boshqa bir mamlakatda o'rnatilgan bo'ladi. Dunyoda ro'y berayotgan terrorchilik harakatlari chegara bilmassligi, millat va yosh tanlamasligini ko'rsatib turibdi. MDH mamlakatlari orasida esa chegara va muhojirlikka, uchinchi davlatlardan kelgan odamlarning bir mamlakatdan ikkinchi bir davlatga o'tishiga doir masalalar hali puxta ishlab chiqilmagan.

Demak, hozirgi kunda jahonning hech bir mamlakati terror xavfidan to'liq kafolatlanmagan. Sammit qatnashchilari yalpi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda, terrorchilik, diniy ekstremizm va uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yaroq va narkotik moddalar kontrabandasiga, noqonuniy muhojirlikka qarshi kurashda amaliy hamkorlikni har tomonlama kuchaytirish choralari ko'rib chiqishdi. Ushbu masala yuzasidan MDH Davlat rahbarlari kengashning bayonoti qabul qilindi.

Ostonada bo'lib o'tgan Oliy darajadagi uchrashuvda ko'rilgan asosiy masalalardan yana biri MDHga a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirishdir. Hukumat rahbarlari MDH doirasidagi hamkorlikka to'siq bo'layotgan omillarni tahlil etishdi. Hukumatning tegishli tashkilotlariga ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqilishi topshirilishiga kelishib olishdi. Islom Karimov erkin savdo zonasini barpo etish masalasi hamon MDH davlatlari doirasida oqsayotganini ta'kidladi. Holbuki, bu bilan ko'pgina muammolarga yechim topish mumkinligini qayd etgan edi.

Jahon iqtisodiyotida tovar va xizmatlarning erkin harakati o'zaro ishonch va hamkorlik ruhini mustahkamlaydi, axborot almashuvini kuchaytiradi. Ayni bir paytda qonunga zid bo'lgan savdo-sotiqqa chek qo'yiladi. Bu esa nafaqat kontrabanda va noqonuniy muhojirlik kabi iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish, balki xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan Markaziy Osiyo va umumiy bozorni yaratish g'oyasi zamirida integratsiyaning ana shunday shakli o'z ifodasini topgan. Aslida, iqtisodiyotda umumiy bozor va erkin savdo zonasining mohiyati yagona. Islom Karimov uchrashuv qatnashchilarini bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni faollashtirishga, tezroq amaliy ishga o'tishga chaqirdi. Sammita energetika, suv zaxiralari, transport va boshqa sohalarda MDH mamlakatlarining hamkorligini rivojlantirishga oid masalalar ham ko'rib chiqildi.

Sammitda noqonuniy muhojirlikka qarshi kurashdagi hamkorlik konsepsiyasi, jinoyatchilikka qarshi kurashning 2005—2007-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlarning davlatlararo dasturi, shuningdek, narkotik vositalar, psixotrop moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashda 2005—2007-yilga mo'ljallangan hamkorlik dasturlari imzolandi. RF Prezidenti Vladimir Putin MDH Davlat rahbarlari kengashining raisi etib saylangan.

Ostona shahrida O'zbekiston va Rossiya hukumat rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Islom Karimov va Vladimir Putin ikki tomonlama aloqalar, jumladan, xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi

hamkorlikka doir masalalarni muhokama qilishdi. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik tamoyillariga tayanuvchi munosabatlarning bugungi ahvolini tahlil etishib, fikr almashishdi.

YeTTB o'zining 2004-yil 9-noyabrdagi MDH mamlakatlarida iqtisodiy o'sish 7,4 % ga o'sganligi Berlin devorining qulashidan so'nggi 15 yil ichida Markaziy Yevropa va Markaziy Osiyoning sobiq kommunistik davlatlari bozor iqtisodiyotiga o'tishda ulkan muvaffaqiyatga erishganligini qayd etgan edi (2003-yilda bu ko'rsatkich 5,6 % ni tashkil etgan). Jahon iqtisodiyotida YeTTB bergan ma'lumotlarga ko'ra, eng yuqori iqtisodiy ko'rsatkich MDH mamlakatlarida kuzatilgan (7,4 %) bo'lsa, Janubiy — Sharqiy Yevropa davlatlarida iqtisodiy o'sish 5 % ga, Markaziy Yevropada va Bolqon mamlakatlarida esa 49 % ga o'sgan edi. Eng yirik iqtisodiyotga ega bo'lgan Rossiyaning iqtisodiy ko'rsatkichlari 7,3 % dan 69 % gacha o'sgan edi. 2005-yilda mazkur mintaqaning umumiy ko'rsatkichi 5,5 % ni tashkil etgan.

1992-yilning 20-martida O'zbekiston — Rossiya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi va RF o'rtasida munosabatlar uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega bo'lib, har ikki mamlakat parlamentining raislari, hukumat rahbarlari va tashqi ishlar vazirlarining oliy maqomdagi tashriflari muhim qadam bo'ldi. Jumladan, 1998-yilning 5—7-mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov davlat tashrifi bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi. 1998-yilning 11—12-oktabrida RF Prezidenti B.N. Yelsin davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. 1999-yilning 12—13-fevralida Rossiyaning Federal yig'ilishining raisi Y. Stroyev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. 1999-yilning 10—11-dekabrda RF Prezidenti Vladimir Putin rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. 2002-yilning 18—19-mayida RF Prezidenti V. V. Putin xizmat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. 2001-yilning 3—5-mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov davlat tashrifi bilan RFda bo'ldi. 2001-yilning 7—8-sentabrda Moskva shahri meri Yu. Lujkov boshchiligidagi poytaxt hukumati delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi.

2001-yilning 18—19-sentabrda RF Xavfsizlik kengashi kotibi V. Rushaylo xizmat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. 2002-yilning 9—10-yanvarida RF tashqi ishlar vaziri I. Ivanov xizmat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. 2002-yilning 4—5-iyunida RF Bosh vaziri o'rinbosari V. Xristenko boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi O'zbekistonga keldi. 2003-yilning 30-yanvarida RF Pre-

zidenti Ma'muriyati rahbari A. Voloshin boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga keldi. 2003-yilning mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Sankt-Peterburg shah-rining 300 yillik yubileyi tantanalarida ishtirok etish maqsadida RFda bo'ldi. 2003-yilning avgustida RF Prezidenti V.V. Putin xizmat safari bilan O'zbekistonga keldi.

1991-yildan to hozirgi kunga qadar respublikamiz hukumat rahbari tomonidan 160 dan ortiq xalqaro shartnoma va 40 dan ortiq boshqa hujjatlar (mintaqalararo hamkorlik to'g'risidagi hujjat-larni ham olganda) imzolandi. Jumladan, 1992-yilning 30-mayida imzolangan O'zbekiston Respublikasi va RF o'rtasida davlatlararo ahamiyatga ega bo'lgan do'stlik va hamkorlik asoslari haqida shart-noma va shuningdek, 1998-yilning 12-oktabrida imzolangan O'zbe-kiston bilan RF o'rtasida 1998—2000-yillarda iqtisodiy ham-korlikni mustahkamlash haqidagi bitim ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjatlar hisoblanadi. Hozirgi kunda ikki davlat o'rtasida iqtisodiy sohada 40 dan ortiq ijtimoiy va ilmiy-texnik hamkorlik sohasida 10 ta, harbiy hamkorlik masalalari bo'yicha 10 ta, soliq qonunlarini ishlab chiqish va huquqiy munosabatlar sohasi yuzasidn esa 10 dan ortiq hujjatlar imzolanganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, hozirgi kunda ikki davlat o'rtasida imzolangan 50 dan ortiq hujjatlar o'rganilib tahlil qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya doirasida ikki tomonlama hujjatlarni inventarizatsiya qilish bo'yicha tadbiriy ishlar olib borilyapti.

1997 va 2003-yillarda O'zbekiston Respublikasi va RF o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikning borishi quyidagicha bo'lgan edi (5-jadval):

5-jadval

Ko'rsatkichlar	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003, yanvar— avgust
Tovar ayirboshlash	1607,6	1053,4	864,7	1010,3	1129,8	912,3	681,0
Eksport	836,4	526,2	432,6	545,5	526,2	317,1	241,0
Import	771,2	527,2	432,1	464,8	603,6	595,2	440,0

2003-yilning birinchi yarmida O‘zbekistondan Rossiyaga eksport qilingan tovarlar tarkibi quyidagicha bo‘lgan edi: transport vositalari — 25,6 %, xizmatlar — 17,1 %, paxta tolasi — 14,6 %, tabiiy yoqilg‘i, neft mahsulotlari — 9,65 %, sabzavotlar — 4,6 %, gazlama, paxta kalavasi — 4,1 %, paxta, jun — 3,9 %, sabzavot va bog‘dorchilik mevalaridan qayta ishlangan mahsulotlar — 3,5 % ni tashkil qilgan. Rossiyadan O‘zbekistonga keltirilgan import mahsulotlar quyidagilarni tashkil etgan edi: mexanik uskunalar — 11,2 %, xizmatlar — 7,5 %, elektr asbob-uskunalar — 6,9 %, transport vositalari — 5,1 %, o‘rmon mahsulotlari — 5,1 %, kauchuk va rezina mahsulotlari — 4,5 %, optik asbob-uskunalar — 4,3 %, farmatsevtika mahsulotlari — 3,4 %.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Rossiya hukumatlararo komissiyaning 6 ta yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistonda RFning kapitali ishtirokida 300 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalar respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ularning 42 tasi to‘liq (100 %) RF investitsiyasi hisobiga qurilgan bo‘lsa, 258 tasi qo‘shma korxonadir. Hozirgi kunda 1998—2007-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturlari doirasida 20 dan ortiq hukumatlararo shartnoma, bitim va bayonnomalarni imzolaniib, 30 ga yaqin hukumatlararo shartnomalar va mintaqalararo hujjatlar ustida ish olib borilmoqda.

O‘zbekiston va RF o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hamkorlik ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. 2001-yilning martidan boshlab Toshkentda Rossiya xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik markazining («Росзарубежцентр») vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatib kelyapti. 2001-yilning noyabrida Moskvadagi Xalqaro fanlar akademiyasining oliy maktabida o‘zbek milliy bo‘limi tashkil etildi. 2002-yilning 25-sentabrida Sankt-Peterburg shahridagi Piskarevo memorial majmuyining «Xotira maydoni»da Leningrad shahri mudofaasida halok bo‘lgan o‘zbekistonliklar xotirasiga bag‘ishlab O‘zbekistonning marmartoshi o‘rnatildi. Moskva shahrida 2002-yilning noyabrida she‘riyat sultoni Alisher Navoiyga haykal ochilishi muhim voqea bo‘ldi. 2002-yili Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida «Yalla» guruhining yubiley konserti va «Ilhom» teatrining gastrollari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekistonda «Росзарубежцентр» qator madaniy tadbirlar olib bordi. 2002-yilning dekabrda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi bilan birgalikda Tretyakov galereyasining asoschisi P. Tretyakovga bag‘ishlangan ko‘rgazmasi ochildi va Rossiya kinosi kunlari bo‘lib

o'tdi. 2003-yilning yanvar oyida esa Samarqand shahrida hozirgi kunda rus tili va madaniyatini o'qitish borasida Xalqaro ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

2003-yilning 14-mayida Andrey Pervozvanniy jamg'armasi homiylik kengashi delegatsiyasining O'zbekistonga tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov RFning davlat mukofoti «Andrey Pervozvanniy» ordeniga taqdim etildi.

Oliy ta'lim sohasida O'zbekistonga 2003—2004-o'quv yili uchun Rossiya oliy va o'rta o'quv yurtlarining magistratura, aspirantura va doktoranturalarida ta'lim olish uchun 40 stipendiya va shuningdek, MGIMO va RF TIVning Diplomatik akademiyasiga kvotalar ajratildi. MDU rektori, akademik V. Sadovnichiyning 2001-yilning yanvarida Toshkentga tashrifi va shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovga «M.V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti faxriy professori» diplomi tantanali taqdimoti ikki davlat munosabatlarining maorif sohasida muhim voqea bo'ldi. Hozirgi kunda O'zbekistonning 800 ga yaqin maktablarida darslar o'zbek va rus tilida olib borilmoqda (159 ta maktabda ta'lim rus tilida olib borilib, ularda 313 mingga yaqin o'quvchi ta'lim olmoqda).

Mustaqillik yillarida respublikamiz kutubxonalari rus tilida chop etilayotgan adabiyotlar bilan ta'minlandi, oliy o'quv muassasalari fondlarining o'zida 19165954 nusxa kitob mavjud bo'lib, ulardan 11870322 nusxasi rus tilidadir. 2002 va 2003-yilning yetti oyi ichida oliy ta'limning barcha yo'nalishlari bo'yicha rus tilida 136 nomda darslik chop etildi. 2003—2004-o'quv yili uchun rus tilida 66 nomda darslik nashr qilinib, ularning umumiy tiraji 1,1 mln nusxani tashkil etdi. Bundan tashqari, har yili respublikada rus tilida 40—45 nomda darslik va o'quv adabiyotlari nashr etilib, ularning umumiy nusxasi 1,0—1,2 mln donani tashkil etmoqda. Hozirgi kunda rus tilida nashr qilinayotgan gazeta va jurnallarning umumiy soni o'zbek tilidagi nashrlar soniga deyarli tenglashib qolgan bo'lib, O'zbekistonda 85 gazeta va 52 jurnal rus tilida chop etiladi. Rossiya nashrlari sotuvda va obunada bor. Bundan tashqari, «Kamalak—TV» kanali orqali Rossiya televideniyesi dasturlarini to'liq hajmda tomosha qilish imkoniga ega bo'lindi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Armaniston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1995-yilning 27-oktabridagi bayonnoma imzolash orqali o'rnatilgan (Moskva shahrida) bo'lsa-da, ikki tomonlama olib borilayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlar hozirgi kunda o'z rivojini topgani yo'q.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi raisi E. Xalilov boshchiligidagi parlament delegatsiyasi 1999-yil 31-oktabrda Yerevanda bo‘lib, Armaniston Respublikasi Milliy Yig‘ilishi raisi K. Demerchyan va Armaniston Respublikasi Bosh vaziri V Sarkisyanlarning dafn marosimida qatnashishdi. 80-yillarda O‘zbekiston Armanistonga kundalik ehtiyoj mollarini, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, shuningdek, Armaniston Respublikasidan avtomobillar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qog‘oz, kundalik ehtiyoj mollari keltirilgan edi.

1988-yilda Armanistonda ro‘y bergan zilzila, Armaniston va Ozarbayjon o‘rtasidagi urush holatlari va Kavkazdagi murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat Armanistonning iqtisodiy sharoitini yanada chuqurlashtirib, ko‘pchilik korxonalar, xomashyo yoki yoqilg‘i resurslari yetishmasligi tufayli o‘z ishini to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek — arman iqtisodiy aloqalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan edi. Armanistonning ishlab chiqarish sanoat korxonalari bilan bog‘liq bo‘lgan respublikamiz korxonalari boshqa xorijiy davlatlarning kompaniyalari va tashkilotlari bilan shartnomalar tuzishga majbur bo‘lishdi. Xullas, 1993-yilning fevralida O‘zbekiston bilan Armaniston o‘rtasida imzolangan savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim Armanistondagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat sababli juda sustlashib ketgan edi (6-jadval):

6-jadval

Ko‘rsatkichlar	1998	1999	2000	2001	2002	2003-yilning 8 oyi
Tovar aylanish	158,2	955,5	1634,5	2294,1	1798,8	1,6
Eksport	102,0	610,5	591,1	726,5	372,1	0,4
Import	56,2	345,0	1043,4	1567,6	1426,7	1,2
Saldo	45,8	265,5	-452,3	-841,1	-1054,7	-0,8

Hozirgi kunda arman investorlari ishtirokida qurilgan 3 ta korxonada faoliyat yuritayotgan bo‘lib, 1 tasi qo‘shma korxonaga bo‘lsa, 2 tasi esa to‘liq Armanistonning investitsiyalari hisobiga ishlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va savdo vazirligida «Armaniston avialiniyasi»ning firmasi vakolatxonasi akkreditatsiya qilingan.

1992-yilning 25-avgustida O‘zbekiston — Ukraina o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni yuqori bosqichga ko‘tarilishida hukumat rahbarlari va tashqi ishlar vazirlarining tashriflari muhim o‘rin tutadi. Jumladan, 1991-yilning 27-oktabrida Kengash raisi L.V. Kravchuk boshchiligidagi Ukraina delegatsiyasi O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

— 1992-yilning avgustida O‘zR Prezidenti I.A. Karimov Ukrainada davlat tashrifi bilan bo‘ldi.

— 1993-yilning fevralida Bosh vazir L.D. Kuchma boshchiligidagi Ukraina delegatsiyasi vatanimizga tashrif buyurdi.

— 1994-yilning 10—11-noyabrida O‘zR Prezidenti I.A. Karimov davlat tashrifi bilan Ukrainada bo‘ldi.

— 1995-yilning iyunida Ukraina Prezidenti L.D. Kuchma O‘zRga davlat tashrifi bilan keldi.

— 1996-yilning sentyabrida Ukraina tashqi ishlar vaziri G. Udoenko O‘zRga rasmiy tashrif bilan bo‘ldi.

— 1997-yilning 28-martida Moskvada bo‘lib o‘tgan MDHning hukumat rahbarlari sammitida respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov va Ukraina Prezidenti L.D. Kuchma ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish qo‘shma komissiya tuzish to‘g‘risidagi protokolni imzolashdi.

— 1997-yilning aprelida har tomonlama hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Ukraina qo‘shma komissiyasi Ukrainada o‘zining birinchi yig‘ilishini o‘tkazdi. Bunda O‘zRsi Bosh vaziri O‘.T. Sultonov o‘zbek delegatsiyasiga boshchilik qildi.

— 1998-yilning yanvarida Ukraina Respublikasi Bosh vaziri V.P. Pusovoytenko O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Ushbu tashrif chog‘ida Toshkentda har tomonlama hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Ukraina qo‘shma komissiyasining ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

— 1998-yilning fevralida O‘zR Prezidenti I.A. Karimov Ukrainaga rasmiy tashrif bilan bordi. Ushbu tashrif chog‘ida boshqa bitimlar bilan bir qatorda O‘zbekiston va Ukraina Respublikasi o‘rtasida do‘stlikni, hamkorlikni mustahkamlash borasidagi shartnoma imzolandi.

— 1999-yilning 20—21-mayida O‘zR Bosh vaziri O‘.T. Sultonov Ukrainada rasmiy tashrif bilan bo‘ldi. Tashrif chog‘ida O‘zbekiston — Ukraina qo‘shma komissiyasining uchinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

— 1999-yilning 7—8-oktabrida Prezident I.A. Karimov rasmiy tashrif bilan Ukrainada bo‘ldi.

— 2000-yilning 11—12-sentabrida Ukraina Bosh vaziri A.V. Yushenko respublikamizga rasmiy tashrif buyurdi. Ushbu tashrif chogʻida Toshkentda har tomonlama hamkorlik boʻyicha Oʻzbekiston — Ukraina qoʻshma komissiyasining toʻrtinchi yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

— 2000-yilning 12—13-oktabrida Ukraina Prezidenti L.D. Kuchma OʻzRga rasmiy tashrif buyurdi.

— 2002-yilning 19—20-dekabrda Ukraina Prezidenti OʻzRda amaliy safarda boʻldi.

— 2003-yilning 29—30-yanvarida OʻzR Bosh vaziri Oʻ.T. Sultonov Ukrainada ishchi tashrifida boʻldi. Tashrif chogʻida Kiyevda har tomonlama hamkorlik boʻyicha Oʻzbekiston — Ukraina qoʻshma komissiyasining beshinchi yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

— 2003-yilning 11-aprelida Ukraina Prezidenti L.D. Kuchma OʻzRga xizmat safari bilan keldi.

Hozirgi kunda Oʻzbekiston va Ukraina oʻrtasida ikki yoqlama manfaatli xarakterga ega boʻlgan 140 ga yaqin hujjat imzolangan. Jumladan, 84 ta davlatlararo, hukumatlararo xarakterga ega boʻlgan shartnomalar; 25 ta idoralararo xarakterga ega boʻlgan shartnomalar; 24 ta boshqa hujjatlar (hukumatlararo qoʻshma komissiyasining bayonnomalari va boshqalar).

Ikki davlat oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjatlar 1998-yilning 19-fevralida imzolangan Oʻzbekiston bilan Ukraina oʻrtasidagi doʻstlikni va har tomonlama hamkorlikni mustahkamlash borasida shartnoma, 1998-yilning 7-oktabrida imzolangan Oʻzbekiston bilan Ukraina oʻrtasida 1999 va 2008-yilgacha boʻlgan iqtisodiy hamkorlik tashkil qilindi. Ikki davlat oʻrtasida, iqtisodiy sohada 60 ga yaqin hujjat, ijtimoiy va ilmiy-texnika sohalarida 8 ta, transport sohasida 10 ta, soliq qonunchiligini ishlab chiqish va huquqiy munosabatlar sohasida 6 ta, hamda hamkorlikning turli sohalaridagi boshqa hujjatlar ham imzolangan edi. Ikki mamlakatning 1996 va 2003-yilning avgustigacha boʻlgan savdo iqtisodiy hamkorligi 7-jadvalda oʻz aksini topgan.

Oʻzbekistonning Ukraina bilan olib borayotgan ijtimoiy sohadagi hamkorligi 1998-yilning 19-fevralida imzolangan doʻstlik va har tomonlama hamkorlikni mustahkamlash toʻgʻrisidagi davlatlararo shartnomada, 1994-yilning 10-noyabrda imzolangan madaniyat sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisidagi hukumatlararo shartnomada, 1995-yilning 20-iyunida imzolangan taʼlim sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisidagi shartnomada, 1994-yilda imzolangan OʻzRsi Ma-

mln AQSH doll

Ko'rsatkichlar	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003- yilning 8 oyi
Tovar ayirboshlash	202,0	321,7	182,1	252,7	331,9	372,7	282,1	238,0
Eksport	35,8	199,9	33,3	122,3	153,5	149,8	160,3	153,2
Import	166,2	121,8	148,8	130,4	178,4	222,9	121,8	84,8
Saldo	130,4	78,1	-115,5	-8,1	-14,9	-73,1	38,5	68,4

daniyat vazirligi bilan va Ukraina madaniyat vazirligi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi idoralararo bitimlarda o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. 2002-yilning 20-dekabrida Toshkentda Ukrainaning mashhur shoiri T. Shevchenko xotirasini abadiylashtirish maqsadida uning haykali ochilishi o'zbek-ukrain xalqlarining o'zaro madaniy aloqalarini yanada kengaytirdi.

2003-yilning 29-yanvarida Kiyevda Toshkent Davlat yuridik instituti va Yaroslav Mudriy nomli Ukraina milliy yuridik akademiyasi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolangan bo'lsa, shu yilning mart-iyun oylarida T.Shevchenko nomli Kiyev Milliy universitetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limining 12 talabasi M. Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy universitetida malaka oshirishi, davlatlararo ta'lim sohasini yanada rivojlantirishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1995-yil 2-oktabrda o'rnatildi. Ozarbayjon va O'zbekistonning o'zaro iqtisodiy aloqalarida mavjud bo'lgan umumiy tarixiy va madaniy bog'lanishlar, shuningdek, hukumat rahbarlarining o'zaro tashriflari muhim rol o'ynamoqda.

1996-yilning 27—28-mayida O'zR Prezidenti I.A. Karimov Ozarbayjon Respublikasiga rasmiy tashrif bilan borgan bo'lsa, 1997-yilning 18—19-iyunida Ozarbayjon Prezidenti H. Aliyev O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. 2000-yilning aprelida O'zR Oliy Majlisi raisi E. Xalilov Ozarbayjonda bo'lib o'tgan turkiy tilli davlatlar sammitida qatnashdi.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida ikki tomonlama xarakterga ega bo'lgan 90 dan ortiq hujjatlar imzolangan bo'lib, ularning 17 tasi davlatlararo xarakterga ega bo'lgan xalqaro shartnomalarni, 24 tasi tashkilotlararo xarakterdagi xalqaro shartnomalarni, 8 tasi hukumatlararo komissiyaning yig'ilishlari va bayonnomalaridan iboratdir.

1996-yilning 27-mayida Bokuda imzolangan O‘zR va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlik va do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma, O‘zbekiston va Ozarbayjon hukumatlari o‘rtasida 2001—2010-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi 2001-yilning 18-aprelida Toshkentda imzolangan bitimlar har ikki mamlakatning asosiy shartnomaviy-huquqiy hujjatlari hisoblanadi.

Ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy sohada 20 dan ortiq, ya’ni transport va aloqa bo‘yicha 5 ta, savdo-sotiq qonunchiligi, huquqiy munosabatlarni muhofaza qilish hamkorligi bo‘yicha 19 ta, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy sohalar bo‘yicha 9 ta hujjat va boshqa kelishuvlar imzolangan. Bundan tashqari, hozirgi kunda O‘zR va Ozarbayjon o‘rtasida 10 ga yaqin xalqaro xarakterga ega bo‘lgan hujjatlarni imzolash ustida ish olib borilmoqda.

O‘zbekistonning Ozarbayjon bilan 1996 va 2003-yilning avgustigacha olib borgan tashqi savdo dinamikasi quyidagicha:

8-jadval
mln AQSH doll

Ko‘rsatkichlar	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003-ning 8 oyi
Mahsulotlar ayirboshlash	7,9	23,5	5,3	5,1	7,7	12,2	10,7	6,5
Ekspart	3,6	3,1	2,3	2,5	3,5	3,7	5,2	4,1
Import	4,3	20,4	3,0	2,6	4,2	8,5	5,5	2,4

1998-yilning 26-fevralida ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha qo‘shma komissiya tuzildi. Komissiya faoliyati doirasiga nafaqat iqtisodiy xarakterdagi, balki TRASEKA loyihasi doirasidagi kommunikatsiya masalalari hamda fan va madaniyat sohasidagi hamkorliklar kirgan edi. Bugungi kunda ushbu komissiyaning 6 marta yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



1. O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy aloqalarini bayon eting.
2. Keyingi paytda o‘zaro hamkorlikka oid eng muhim shartnomalarini bilasizmi?
3. O‘zbekiston — Rossiya, O‘zbekiston — Ukraina o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning istiqbollarini qanday tasavvur qilasiz?

O'zbekiston

Milliy bayrami	1-sentabr
Poytaxti	Toshkent
Maydoni, ming km ²	448,9
Aholisi (2004-y.), mln kishi	26
– o'zbeklar	80 %
– ruslar, tojiklar	5 % dan
– qozoqlar	4 %
– musulmonlar	90 %
Shahar aholisining ulushi	37 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	71 yosh
Tili	o'zbek, rus, tojik
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	2,62
– sanoat sektorining ulushi	23 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	34 %
– xizmat sohalarining ulushi	43 %
Milliy pul birligi	o'zbek so'mi
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	3,73
– paxta tolasi	19,8 %
– elektrenergiya	9,8 %
– qora va rangli metallar	6,9 %
– mashinalar va jihozlar	5,9 %
– kimyoviy mahsulotlar	3,1 %
– oziq-ovqat mahsulotlari	2,7 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Buyuk Britaniya, Shveysariya, Eron	74 %
– Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari	26 %

Qozog‘iston

Milliy bayrami	16-dekabr
Poytaxti	Ostona
Maydoni, ming km ²	2717,3
Aholisi (2004-y.), mln kishi	14,9
– qozoqlar	55 %
– ruslar	29 %
– o‘zbek va ukrainlar	3 %
– nemis, tatar va uyg‘urlar	1,5–2 % dan
– musulmonlar	60 %
– xristianlar	35 %
Shahar aholisining ulushi	56 %
O‘rtacha umr ko‘rish, yil	62 yosh
Tili	qozoq, rus, o‘zbek
Yalpi milliy daromad (YaMD). mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	22,3
– sanoat sektorining ulushi	39 %
– qishloq xo‘jaligi sektorining ulushi	9 %
– xizmat sohalarining ulushi	52 %
Milliy pul birligi	qozoq tangasi
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	11,6
– neft va gaz kondensati	50 %
– mis va po‘lat mahsulotlari	7 % dan
– kimyoviy mahsulotlar	5 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Rossiya	20 %
– Bermud orollari (Buyuk Britaniya)	14 %
– Italiya	11 %
– Xitoy, GFR	6–7 % dan

Ozarbayjon

Milliy bayrami	28-may
Poytaxti	Boku
Maydoni, ming km ²	86,6

Aholisi (200-y.), mln kishi	8,2
– ozarbayjonlar	85 %
– ruslar	4 %
-- musulmon-sunniylar	35 %
Shahar aholisining ulushi	52 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	65 yosh
Tili	ozarbayjon, rus
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	5,8
– sanoat sektorining ulushi	48 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	16 %
– xizmat sohaslarining ulushi	37 %
Milliy pul birligi	ozarbayjon manati
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	2,67
– neft va neft mahsulotlari	85 %

Isroil

Milliy bayrami	14-may
Poytaxti	Tel-Aviv
Maydoni, ming km ²	21
Aholisi (2004-y.), mln kishi	6,6
– juhutlar	81 %
– arablar-falastinliklar	18 %
– yahudiylar	77 %
– musulmonlar	15 %
– xristianlar	2 %
Shahar aholisining ulushi	92 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	79 yosh
Tili	yahudiy, arab, ingliz, rus va iud
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	106.6
– sanoat sektorining ulushi	25 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	13 %
– xizmat sohaslarining ulushi	62 %
Milliy pul birligi	shekel

Eksporti (2004-y.), mlrd AQSH dollarida	38,5
– mashina va jihozlar	46 %
– kimyoviy mahsulotlar	14 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– AQSH	38 %
– Belgiya	6 %
– Buyuk Britaniya, GFR, Gonkong (Xitoy)	4 % dan
– Niderlandiya, Yaponiya, Italiya	3 % dan

Hindiston

Milliy bayrami	26-yanvar
Poytaxti	Dehli
Maydoni, ming km ²	3287,3
Aholisi (2004-y.), mln kishi	1048,6
– hind-arislari	72 %
– dravidlar	25 %
– tibetliklar va boshqa mo'g'ul irqiga oid aholi	3 %
– industlar (hindistonliklar)	80 %
– musulmonlar	11 %
Shahar aholisining ulushi	28 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	63 yosh
Tili	hind, ingliz, 17 ta mintaqaviy tillar
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	501,5
– sanoat sektorining ulushi	26 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	25 %
– xizmat sohaslarining ulushi	49 %
Milliy pul birligi	Hindiston rupiyasi
Eksporti (2002-y.), mlrd AQSH dollarida	77,6
– to'qimaclilik	22 %
– qimmatbaho toshlar, zebi-ziynat buyum	17 %
– mashinalar va asbob-uskunalar	16 %
– kimyoviy tovarlar	14 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– AQSH	20 %
– USA, Gonkong (Xitoy), Buyuk Britaniya, GFR, Yaponiya, Belgiya	3–5 % dan

Iroq

Milliy bayrami	17-iyul
Poytaxti	Bog'dod
Maydoni, ming km ²	438.3
Aholisi (2004-y.), mln kishi	24,2
– iroqlik arablar, falastinliklar	80 %
– kurdlar	15 %
– musulmon-shiyalar	61 %
– musulmon-sunniylar	34 %
– xristianlar	4,5 %
Shahar aholisining ulushi	68 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	63 yosh
Tili	arab, kurd, turk, osuriya
Milliy pul birligi	Iroq dinari

Eron

Milliy bayrami	11-fevral
Poytaxti	Tehron
Maydoni, ming km	1648,0
Aholisi (2004-y.), mln kishi	65,5
– forslar	50 %
– ozarbayjonlar	20 %
– luvrlar va baxtyarlar	10 %
– kurdlar	8 %
– musulmon-shiyalar	90 %
– musulmon-sunniylar	9 %
Shahar aholisining ulushi	65 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	69 yosh
Tili	fors, turk, kurd, luvr
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	112,1
– sanoat sektorining ulushi	33 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	19 %
– xizmat sohaslarining ulushi	48 %

Milliy pul birligi	rial
Eksporti (2002-y.), mlrd AQSH dollarida	35,5
— neft, neft mahsulotlari va gaz	82 %
— sanoat tovarlari	10 %
— gilamlar	2 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	19 %
— Yaponiya	
— Janubiy Koreya	9 %
— BAA, Xitoy, Italiya	7—8 % dan
— Hindiston, Gretsiya	4 % dan

Xitoy

Milliy bayrami	1-oktabr
Poytaxti	Pekin
Maydoni, ming km ²	9572,4
Aholisi (2004-y.), mln kishi	1280,4
— xitoyliklar (xan)	92 %
— konfutsialiklar, daosistlar	20 %
— buddistlar	7 %
— musulmonlar	2,5 %
Shahar aholisining ulushi	38 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	71 yosh
Tili	xitoy, milliy tilda so'zlashuvchi kam sonli aholi, ingliz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	1209,5*
— sanoat sektorining ulushi	51 %
— qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	15 %
— xizmat sohalarning ulushi	34 %
Milliy pul birligi	yuan
Eksporti (2002-y.), mlrd AQSH dollarida	366,0
— mashinasozlik mahsulotlari	33,6 %
— kiyim-kechak, poyabzal	16,1 %
— kimyo mahsulotlari	13,7 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	21,5 %
— AQSH	
— Gonkong (Xitoy), Yaponiya	15—18 % dan
— Janubiy Koreya, GFR	3,5—5 % dan

* Bu yerda Gonkong, Tayvan, Makkao kabi Xitoyga qarashli davlatlarning milliy daromadi hisobga olinmagan.

Janubiy Koreya

Milliy bayrami	15-avgust
Poytaxti	Seul
Maydoni, ming km ²	99,3
Aholisi (2004-y.), mln kishi	47,6
– koreyslar	99,9 %
– buddistlar	28 %
– xristianlar	24 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	79 yosh
Tili	koreys, ingliz, yapon
Shahar aholisining ulushi	83 %
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	473,0
– sanoat sektorining ulushi	41 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	4 %
– xizmat sohaslarining ulushi	55 %
Milliy pul birligi	Janubiy Koreya voni
Eksporti (2002-y.), mlrd AQSH dollarida	190,7
– mashinasozlik mahsulotlari	61,3 %
– po'lat, sement, to'qimachilik va qayta ishlangan tovarlar	16,6 %
– kimyo mahsulotlar	8,5 %
– mineral moylar va yonilg'i	1,8 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– AQSH	20 %
– Xitoy	15 %
– Yaponiya	9 %
– Gonkong (Xitoy)	6 %
– Tayvan (Xitoy)	4 %
– GFR, Singapur, Buyuk Britaniya	3 % dan

Quvayt

Milliy bayrami	25-fevral
Poytaxti	Al-Quvayt
Maydoni, ming km ²	17,8
Aholisi (2004-y.), mln kishi	2,3
– arablar-quvaytliklar	4 %

– boshqa mamlakatlarning arablari va chet elliklar	59 %
– musulmon-sunniylar	66 %
– musulmon-shiyalar	29 %
– xristianlar	2 %
Shahar aholisining ulushi	96 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	77 yosh
Tili	arab, ingliz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2004-y.)	37,4
– sanoat sektorining ulushi	44,5 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	0,5%
– xizmat sohalarining ulushi	55 %
Milliy pul birligi	Quvayt dinori
Eksporti (2002-y.), mlrd AQSH dollarida	17.0

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)

Milliy bayrami	2-dekabr
Poytaxti	Abu-Dabi
Maydoni, ming km ²	77,7
Aholisi (2004-y.), mln kishi	3,2
– arablar — BAA fuqarosi	25 %
– hindlar, pokistonliklar, eronliklar, filippinliklar va boshqa chet elliklar	75 %
– musulmon-sunniylar	80 %
– musulmon-shialar	16 %
– xristianlar	3 %
Shahar aholisining ulushi	88 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	75 yosh
Tili	arab, ingliz, hind, urdu, fors
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	48,7
– sanoat sektorining ulushi	48 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	3 %
– xizmat sohalarining ulushi	49 %
Milliy pul birligi	dirham

Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	45,7
— neft va siqilgan gaz	48 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
— Yaponiya	30 %
— Janubiy Koreya	10 %
— Hindiston, Ummon	3—5 % dan
— AQSH, Pokiston, Singapur, Tailand	3 % dan

Malayziya

Milliy bayrami	14-may
Poytaxti	Kuala-Lumpur
Maydoni, ming km ²	329,7
Aholisi (2004-y.), mln kishi	24,3
— malayziyaliklar	65 %
— xitoyliklar	26 %
— hindlar	8 %
— musulmonlar	60,5 %
— buddistlar	19,2 %
Shahar aholisining ulushi	59 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	73 yosh
Tili	malayziya, ingliz, xitoy
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	86,0
— sanoat sektorining ulushi	49 %
— qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	9 %
— xizmat sohalarining ulushi	42 %
Milliy pul birligi	ringgit
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	108,3
— mashinasozlik mahsulotlari	59,9 %
— tabiiy xomashyo	7,0 %
— kimyoviy buyumlar	4,4 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
— AQSH	20 %
— Singapur	17 %
— Yaponiya	13 %
— Gonkong (Xitoy), Niderlandiya	5 % dan

Pokiston

Milliy bayrami	23-mart
Poytaxti	Islomobod
Maydoni, ming km ²	796,1
Aholisi (2004-y.), mln kishi	144,9
– panjoblar	50 %
– sindhi, pushtunlar	15 %
– musulmonlar	97 %
Shahar aholisining ulushi	34 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	64 yosh
Tili	urdu, ingliz, panjob, sindhi, pushtun
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	59,2
– sanoat sektorining ulushi	23 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	25 %
– xizmat sohaslarining ulushi	52 %
Milliy pul birligi	Pokiston rupiyasi
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	12,3
– to'qimachilik, ip g'altagi, to'qimachilik buyumlari	64 %
– guruch va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari	11 %
– teridan tayyorlangan tovarlar	4 %
– sport tovarlari	3 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	26 %
– AQSH	
– BAA, Xitoy, Buyuk Britaniya	7—8 % dan
– GFR	5 %
– Saudiya Arabistoni	4 %

Saudiya Arabistoni

Milliy bayrami	23-sentabr
Poytaxti	Ar-Riyod
Maydoni, ming km ²	2240,0
Aholisi (2004-y.), mln kishi	21,9
– arablar-Saud arablari	73 %

– chet elliklar (boshqa arablar, filippinliklar, hindistonliklar)	27 %
– musulmonlar	98 %
Shahar aholisining ulushi	87 %
O‘rtacha umr ko‘rish, yil	73 yosh
Tili	arab, ingliz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	181,1
– sanoat sektorining ulushi	48 %
– qishloq xo‘jaligi sektorining ulushi	7 %
– xizmat sohalarining ulushi	45 %
Milliy pul birligi	Saudiya riali
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	76,9
– neft va neft mahsulotlari	87 %
– neft-kimyó mahsulotlari	12 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	17–18 % dan
– AQSH, Yaponiya	
– Janubiy Koreya	10 %
– Singapur	5 %
– Fransiya, Niderlandiya, Xitoy, BAA, Hindiston	3 % dan
– Ispaniya, GFR	1–2 % dan

Singapur

Milliy bayrami	9-avgust
Poytaxti	Singapur
Maydoni, ming km ²	0,68
Aholisi (2004-y.), mln kishi	4,2
– xitoyliklar	76 %
– malayziyaliklar	14 %
– hindistonliklar	8 %
– buddistlar	42 %
– musulmonlar	15 %
– xristianlar	14 %
Shahar aholisining ulushi	100 %
O‘rtacha umr ko‘rish, yil	78 yosh
Tili	malayziya, xitoy, tamil, ingliz

Yalpi milliy daromad (YaMD). mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	86.1
– sanoat sektorining ulushi	32 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	68 %
Milliy pul birligi	Singapur dollari
Eksporti (2003-y.). mlrd AQSH dollarida	158.1
– mashinalar va jihozlar	64 %
– qayta ishlangan neft mahsulotlari	10 %
– kimyoviy buyumlar	9 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Malayziya	17 %
– AQSH	15 %
– Gonkong (Xitoy), Yaponiya	7–9 % dan
– Xitoy, Tayvan (Xitoy), Tailand	5–7 % dan

Tailand

Milliy bayrami	5-dekabr
Poytaxti	Bangkok
Maydoni, ming km ²	513.1
Aholisi (2004-y.). mln kishi	61.6
– tailandliklar	80 %
– xitoyliklar	12 %
– malayziyaliklar	4 %
– kxmerlar	3 %
– buddistlar	94,6 %
– musulmonlar	4,6 %
– xristianlar	0,7 %
Shahar aholisining ulushi	20 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	69 yosh
Tili	tay, ingliz, xitoy
Yalpi milliy daromad (YaMD). mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	122,2
– sanoat sektorining ulushi	40 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	10 %
– xizmat sohalarining ulushi	50 %
Milliy pul birligi	bat
Eksporti (2003-y.). mlrd AQSH dollarida	82.1

— mashinalar va jihozlar	43 %
— to'qimachilik mahsulotlari va boshqa tovarlar	16 %
— guruch, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari	15 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	20 %
— AQSH	
— Yaponiya	15 %
— Singapur	8 %
— Gonkong (Xitoy), Malayziya, Xitoy	4—5 % dan

Turkiya

Milliy bayrami	29-oktabr
Poytaxti	Anqara
Maydoni, ming km	779,4
Aholisi (2004-y.), mln kishi	69,6
— turklar	92 %
— kurdlar	6 %
— musulmon-sunniylar	80 %
— musulmon-shiyalar	19 %
Shahar aholisining ulushi	67 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	70 yosh
Tili	turk, kurd, arab
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	170,0
— sanoat sektorining ulushi	26 %
— qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	14 %
— xizmat sohalarining ulushi	60 %
Milliy pul birligi	turk lirasi
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	54,6
— to'qimachilik va kiyim-kechak	35 %
— oziq-ovqat tovarlari	10 %
— avtomobillar	9 %
— qora metallurgiya	8 %
— elektron mahsulotlar	5 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	17 %
— GFR	
— Buyuk Britaniya, AQSH	9 % dan
— Italiya, Fransiya	6 % dan

Yaponiya

Milliy bayrami	23-dekabr
Poytaxti	Tokio
Maydoni, ming km ²	377,8
Aholisi (2004-y.), mln kishi	127,2
– yaponlar	99 %
– sintoistlar, buddistlar	38–39 % dan
– xristianlar	4 %
Shahar aholisining ulushi	79 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	82 yosh
Tili	yapon, ingliz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	4265,6
– sanoat sektorining ulushi	32 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	1 %
– xizmat sohalarining ulushi	67 %
Milliy pul birligi	iyena
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	461,3
– transport jihozlari	25 %
– elektro mashinalar	23 %
– umumiy mashinasozlik buyumlari	20 %
– avtomobillar	17 %
– kimyoviy mahsulotlar	8 %
– metallar va metall buyumlar	6 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– AQSH	28,5 %
– Xitoy	9,5 %
– Janubiy Koreya	7 %
– Tayvan (Xitoy), Gonkong (Xitoy)	6 % dan
– GFR, Singapur, Tailand	3 % dan

Argentina

Milliy bayrami	1 - noyabr
Poytaxti	Buenos-Ayros
Maydoni, ming km ²	2780,4
Aholisi (2004-y.), mln kishi	36,5
– oq tanlilar	90 %
– metislar	5 %
– hindular	0,1 %
– xristian-katoliklar	90 %
Shahar aholisining ulushi	88 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	74 yosh
Tili	ispan, rioplatens (ispaniya)
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	154,1
– sanoat sektorining ulushi	27 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	5 %
– xizmat sohaslarining ulushi	68 %
Milliy pul birligi	Argentina pyesosi
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	28,6
– don, goʻsht, yogʻ, vino va boshqa qishloq xoʻjaligi tovarlari	46 %
– issiqlik energiyasi	18 %
– kimyo mahsulotlari	9 %
– transport vositalari	7 %
– metall va metall buyumlar	6 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Braziliya	19 %
– Chili, AQSH	11–12 % dan
– Ispaniya, Xitoy, Niderlandiya	4–5 % dan

Braziliya

Milliy bayrami	7 - sentabr
Poytaxti	Brazilia
Maydoni, ming km ²	8547,4
Aholisi (2004-y.), mln kishi	174,5
– oq tanlilar	54 %

– mulatlar va metislar	39 %
– afroamerikaliklar	6 %
– xristian-protestantlar	15 %
– xristian-katoliklar	74 %
Shahar aholisining ulushi	82 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	69 yosh
Tili	portugal, hindu
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	497,4
– sanoat sektorining ulushi	34 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	9 %
– xizmat sohaslarining ulushi	57 %
Milliy pul birligi	real
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	70,0
– mashinalar va jihozlar	24 %
– metallar, yog'och materiallar, o'simlik xomashyosi, qahva, shakar, sitrus o'simliklar, go'sht va boshqa oziq-ovqat tovarlari	15 %
– kimyo mahsulotlari, yoqilg'i	5 % dan
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	25 %
– AQSH	
– Niderlandiya	5 %
– Argentina, GFR, Yaponiya, Xitoy, Meksika, Italiya, Buyuk Britaniya	3–4 % dan

AQSH

Milliy bayrami	4-iyul
Poytaxti	Vashington
Maydoni, ming km ²	9809,1
Aholisi (2004-y.), mln kishi	288,4
– oq tanlilar	75 %
– ispanamerikaliklar va osiyoliklar	13 %
– afroamerikaliklar	12 %
– hindular, eskimoslar, aleutlar	0,9 %
– xristianlar	85 %
– iudalar, musulmonlar	2 % dan
Shahar aholisining ulushi	77 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	77 yosh

Tili	ingliz, ispan
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	10110,1
— sanoat sektorining ulushi	25,2 %
— qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	1,6 %
— xizmat sohaslarining ulushi	73,2 %
Milliy pul birligi	AQSH dollari
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	974,1
— investitsiya tovarlari	43 %
— sanoat xomashyosi	23 %
— iste'mol tovarlari	12 %
— avtomobil va uning qismlari	12 %
— oziq-ovqat	7 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
— Kanada	23 %
— Meksika	14 %
— Yaponiya	7 %
— Buyuk Britaniya, GFR, Xitoy	4—5 % dan

Meksika

Milliy bayrami	16-sentabr
Poytaxti	Mexiko
Maydoni, ming km ²	1953,2
Aholisi (2004-y.), mln kishi	100,8
— metislar	75 %
— hindular	15 %
— oq tanlilar	10 %
— xristian-katoliklar	90 %
— xristian-protestantlar	5 %
Shahar aholisining ulushi	75 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	73 yosh
Tili	ispan, hindular
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	596,7
— sanoat sektorining ulushi	27 %

– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	4 %
– xizmat sohalarining ulushi	69 %
Milliy pul birligi	Meksika pyesosi
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	173,5
– mashinalar va jihozlar, metall buyumlar	70 %
– qazib olingan sanoat mahsulotlari	8 %
– to'qimachilik va teri mahsulotlari	7 %
– kimyoviy mahsulotlar	6 %
– qahva, go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari	3 %
– paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari	2 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	89 %
– AQSH	
– Kanada	2 %

Chili

Milliy bayrami	18-sentabr
Poytaxti	Sant-yago
Maydoni, ming km ²	756,1
Aholisi (2004-y.), mln kishi	15,6
– metislar va oq tanlilar	92,5 %
– mapuche, aymar, rapnui va boshqa hindular	7,5 %
– xristian-katoliklar	77 %
– xristian-protestantlar	13 %
Shahar aholisining ulushi	86 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	76 yosh
Tili	ispan, hindu
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	66,3
– sanoat sektorining ulushi	34 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	9 %
– xizmat sohalarining ulushi	57 %
Milliy pul birligi	Ghili pyesosi

Eksporti (2003-y), mlrd AQSH dollarida	22,3
— mis, temir va boshqa tog'-kon metallurgiya sanoati mahsulotlari	41 %
-- sanoat tovarlari	33 %
-- vino va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari	15 %
— mevalar va boshqa qishloq xo'jaligi tovarlari	10 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
— AQSH	19 %
— Yaponiya	12 %
—Buyuk Britaniya, Xitoy	6—7 % dan
— Braziliya, Italiya, Meksika	5 % dan

Kanada

Milliy bayrami	1-iyul
Poytaxti	Ottava
Maydoni, ming km ²	9984,7
Aholisi (2004-y), mln kishi	31,4
--britan-kanadaliklar	43 %
— franko-kanadaliklar	27 %
— boshqa yevrokanadaliklar, osiyoliklar	28 %
— hindular, inuitlar	2 %
— xristianlar	75 %
Shahar aholisining ulushi	79 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	79 yosh
Tili	ingliz, fransuz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	700,5
— sanoat sektorining ulushi	21 %
— qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	2 %
— xizmat sohalarining ulushi	77 %
Milliy pul birligi	Kanada dollari
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	301,3
— mashinasozlik mahsulotlari	47 %

—rangli metallar, boshqa ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar	17 %
— neft, gaz va boshqa yoqilg'i mahsulotlari	12 %
— o'rmon-qog'oz mahsulotlari	9 %
— bug'doy, go'sht, sut, yog' va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, baliq	7 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan: — AQSH	85 %
— Yeti mamlakatlari va Yaponiya	7 %



Jazoir

Milliy bayrami	28-noyabr
Poytaxti	Jazoir
Maydoni, ming km ²	1238,7
Aholisi (2004-y.), mln kishi	31,3
— jazoir arablari	84 %
— berberilar	16 %
— musulmon-sunniylar	100 %
Shahar aholisining ulushi	58 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	71 yosh
Tili	arab, berberi, fransuz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	53,8
— sanoat sektorining ulushi	55 %
— qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	10 %
— xizmat sohalarining ulushi	35 %
Milliy pul birligi	Jazoir dinori
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	18,4
— neft, tabiiy gaz va qayta ishlangan mahsulotlar	96 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan: — Italiya	27 %
— Ispaniya, AQSH	12 % dan
— Fransiya	11 %
— Braziliya	8 %
— GFR	7 %
— Niderlandiya	6 %

Misr

Milliy bayrami	23-iyul
Poytaxti	Qohira
Maydoni, ming km ²	1002,0
Aholisi (2004-y.), mln kishi	66,4
– misr arablari	99 %
– musulmonlar	90 %
– xristianlar	10 %
Shahar aholisining ulushi	43 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	69 yosh
Tili	arab, nubiya, berber, ingliz, fransuz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	97,6
– sanoat sektorining ulushi	33 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	17 %
– xizmat sohalarining ulushi	50 %
Milliy pul birligi	Misr funti
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	16,4
– issiqlik, texnik moylar	40 %
– yarim fabrikatlar	18 %
– ichimlik mahsulotlari	9 %
– tayyor buyumlar va kimyoviy vositalar	8 % dan
– xomashyo mahsulotlari	8 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Italiya, AQSH	8–9 % dan
– Niderlandiya, Hindiston	6–7 %
– Isroil, Fransiya, Ispaniya	4–5 % dan
– GFR	3 % dan

Janubiy Afrika Respublikasi

Milliy bayrami	27-aprel
Poytaxti	Pretoriya
Maydoni, ming km ²	1219,1
Aholisi (2004-y.), mln kishi	45,3

– zulu, kosa, tsvana, pedi, suto, tsonga, svazi, ndbele, venda va boshqa bantu tilida soʻzlashuvchi xalqlar	77,8 %
– burlar va boshqa yevroafrikaliklar	10,2 %
– metislar va mulatlar	8,7 %
– osiyoafrikaliklar	2,5 %
– xristianlar	68 %
– induistlar, musulmonlar	1—1,5 dan
Shahar aholisining ulushi	58 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	46 yosh
Tili	ingliz, afrikans va 9 tilda soʻzlashuvchi benuz-kongo xalqlari
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	113,5
– sanoat sektorining ulushi	31 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	3 %
– xizmat sohalarining ulushi	66 %
Milliy pul birligi	rand
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	35,6
– olmoslar, xomashyo, metallar	46 %
– mashinasozlik mahsulotlari	17 %
– oziq-ovqat mahsulotlari	13 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan: – AQSH, Buyuk Britaniya	8 % dan
GFR, Fransiya	5,7 % dan
Yaponiya, Italiya, Niderlandiya	3—4 % dan

Angola

Milliy bayrami	11-noyabr
Poytaxti	Luanda
Maydoni, ming km ²	1246,7
Aholisi (2004-y.), mln kishi	13,1
– ovimbundular	37 %
– ambundular	22 %
– kongoliklar	13 %

– xristian-katoliklar	70 %
– xristian-protestantlar	20 %
Shahar aholisining ulushi	35 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	47 yosh
Tili	portugal, umbund, kimbund, kikong
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y)	9,2
– sanoat sektorining ulushi	67 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	8 %
– xizmat sohaslarining ulushi	25 %
Milliy pul birligi	kvanza
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	8,57
– neft va neft mahsulotlari	88 %
– olmos	10 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– AQSH	60 %
– Xitoy va Tayvan (Xitoy)	6 % dan

Kongo Respublikasi

Milliy bayrami	15-avgust
Poytaxti	Brazzavil
Maydoni, ming km ²	342,0
Aholisi (2004-y), mln kishi	3,7
– ba-kongolik va vili-kongoliklar	52 %
– bateke va baviliklar	24 %
– nboshilar	12 %
– xristianlar	92 %
– mahalliy xudolarga sigʻinuvchilar	5 %
– musulmonlar	2 %
Shahar aholisining ulushi	67 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	52 yosh
Tili	fransuz, linganla, kikongo, monoqutuba, sango
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	2,2
– sanoat sektorining ulushi	66 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	6 %
– xizmat sohaslarining ulushi	28 %
Milliy pul birligi	Gʻarbiy Afrika franki
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	2,4
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– AQSH	25 %
– Italiya	15 %
– Niderlandiya	13 %
– Fransiya	9 %

Marokash

Milliy bayrami	30-iyul
Poytaxti	Rabot
Maydoni, ming km ²	458,7
Aholisi (2004-y.), mln kishi	29,6
– marokash arablari	70 %
– barbarlar	30 %
– musulmonlar	99 %
Shahar aholisining ulushi	57 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	68 yosh
Tili	arab, barbar, fransuz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	35,4
– sanoat sektorining ulushi	31 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	16 %
– xizmat sohalarining ulushi	53 %
Milliy pul birligi	dirham
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	12,2
– to'qimachilik, poyabzal va boshqa iste'mol tovarlari	39 %
– yarim fabrikatlar	21,9 %
– baliq konservalari, xurmo, anjir va boshqa iste'mol mahsulotlari	20,1 %
– investitsiya tovarlari	6,8 %
– fosfatlar	6,4 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Fransiya	25 %
– Ispaniya	11 %



Belorussiya

Milliy bayrami	27-iyul
Poytaxti	Minsk
Maydoni, ming km ²	207,6
Aholisi (2004-y.), mln kishi	9,9
– beloruslar	81 %
– ruslar	11 %

– polyaklar	4 %
– provaslav-xristian	60 %
– xristian-katoliklar	8 %
Shahar aholisining ulushi	70 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	68 yosh
Tili	belorus, rus
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	13,5
– sanoat sektorining ulushi	39 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	11 %
– xizmat sohalarining ulushi	50 %
Milliy pul birligi	Belorus rubli
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	9,3
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Rossiya	50 %
– Latviya, Buyuk Britaniya	6 % dan
– GFR	4 %
– Ukraina, Litva, Niderlandiya	3 % dan

Belgiya

Milliy bayrami	27-iyul
Poytaxti	Bryussel
Maydoni, ming km ²	32,5
Aholisi (2004-y.), mln kishi	10,3
– flamandlar	58 %
– vallonlar	32 %
– chet elliklar	9 %
– xristian-katoliklar	75 %
Shahar aholisining ulushi	97 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	79 yosh
Tili	niderland, fransuz, nemis
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	239,9
– sanoat sektorining ulushi	27 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	2 %

– xizmat sohalarining ulushi	71 %
Milliy pul birligi	yevro
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	227,7
– kimyoviy buyumlar	24,0 %
– mashinalar va ularning qismlari	15,5 %
– metallar va metall buyumlar	7,7 %
– qimmatbaho toshlar va metallar	6,9 %
– to'qimachilik	5,9 %
– tabiiy xomashyolar	4,9 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	17–18 % dan
– GFR, Fransiya	
– Niderlandiya	12 %
–Buyuk Britaniya	10 %
– Italiya, AQSH	6 % dan

Buyuk Britaniya

Milliy bayrami	21-aprel
Poytaxti	London
Maydoni, ming km ²	249,9
Aholisi (2004-y.), mln kishi	59,2
– inglizlar	80 %
– shotlandlar	10 %
– irlandlar	4 %
– uelsliklar	2 %
– xristian-protestantlar	44 %
– xristian-katoliklar	21 %
Shahar aholisining ulushi	90 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	77 yosh
Tili	ingliz, uels, gels
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	1486,2
– sanoat sektorining ulushi	27 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	1 %

– xizmat sohalarining ulushi	72 %
Milliy pul birligi	funt sterling
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	404,8
– mashinalar va jihozlar	45 %
– qayta ishlangan tovarlar	24 %
– kimyo mahsulotlari	15 %
– tabiiy yoqilg'i va moylar	9 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	15 %
– AQSH	
– GFR	12 %
Fransiya, Niderlandiya	8–9 % dan

Germaniya (GFR)

Milliy bayrami	3-oktabr
Poytaxti	Berlin
Maydoni, ming km ²	307,0
Aholisi (2004-y.), mln kishi	82,5
– nemislar, sorplar, daniyaliklar, frizlar, lulilar, boshqa mamlakatlar fuqarosi	91 %
– turklar va boshqa chet elliklar	9 %
– xristian-katolik va protestantlar	33 % dan
– musulmonlar	3,5 %
Shahar aholisining ulushi	88 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	78 yosh
Tili	nemis, sorp, dat
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	1870,4
– sanoat sektorining ulushi	31 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	1 %
– xizmat sohalarining ulushi	68 %
Milliy pul birligi	yevro
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	721,0
– mashinasozlik mahsulotlari	47 %

– kimyoviy mahsulotlar	12 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan: – Fransiya, AQSH	10–11 % dan
– Buyuk Britaniya	8 %
– Italiya, Niderlandiya	6–7 % dan
– Avstriya, Belgiya, Ispaniya	5 % dan
– Shveysariya	4 %

Italiya

Milliy bayrami	25-aprel
Poytaxti	Rim
Maydoni, ming km ²	301,3
Aholisi (2004-y.), mln kishi	57,7
– italyanlar	94 %
– sardinyaliklar	2,7 %
–xristian-katoliklar	83 %
Shahar aholisining ulushi	67 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	78 yosh
Tili	italyan, nemis, fransuz, sloven
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	1097,9
– sanoat sektorining ulushi	29 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	3 %
– xizmat sohaslarining ulushi	68 %
Milliy pul birligi	yevro
Chet ellikturistlardan koʻrgan foydasi (2002-y.), mlrd AQSH dollarida	26,9
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	313,9
– mashinalar va jihozlar	40,3 %
– kiyim-kechak va toʻqimachilik mahsulotlari	10,3 %
– kimyoviy mahsulotlar	10,1 %
– oziq-ovqat tovarlari	5,5 %

Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan: – GFR	14 %
– Fransiya	12 %
– AQSH	10 %
– Buyuk Britniya, Ispaniya	6–7 % dan

Niderlandiya

Milliy bayrami	30-aprel
Poytaxti	Amsterdam
Maydoni, ming km ²	41,5
Aholisi (2004-y.), mln kishi	16,1
– gollandlar, framandlar, frizlar, nemislar, surinamlar, yahudiylar va boshqa mamlakatlarning fuqarosi	95 %
– xristian-katoliklar	33 %
– xristian-protestantlar	25 %
– musulmonlar	4,5 %
Shahar aholisining ulushi	90 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	78 yosh
Tili	niderland, fransuz
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	386,8
– sanoat sektorining ulushi	27 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	3 %
– xizmat sohaslarining ulushi	70 %
Milliy pul birligi	yevro
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	267,9
– mashinasozlik va jihozlar	33 %
– kimyoviy mahsulotlar	16 %
– ichimlik va go'sht mahsulotlari	13 %
– neft mahsulotlari	8 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan: – GFR	25 %
– Belgiya va Lyuksemburg, Buyuk Britaniya	11 % dan
– Italiya, AQSH	5–6 % dan

Polsha

Milliy bayrami	3-may
Poytaxti	Varshava
Maydoni, ming km ²	312,7
Aholisi (2004-y.), mln kishi	38,6
– polyaklar	90 %
– xristian-katoliklar	90 %
Shahar aholisining ulushi	63 %
Oʻrtacha umr koʻrish, yil	74 yosh
Tili	polyak
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	176,6
– sanoat sektorining ulushi	37 %
– qishloq xoʻjaligi sektorining ulushi	4 %
– xizmat sohalarining ulushi	59 %
Milliy pul birligi	zlotiy
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	56,8
– mashinalar va jihozlar	38,6 %
– metall va metall buyumlar	11,4 %
– kimyoviy mahsulotlar	10,0 %
– toʻqimachilik va koʻn-teri tovarlari	8,6 %
– oziq-ovqat va goʻsht mahsulotlari	8,0 %
– oʻrmon-qogʻoz mahsulotlari	7,0 %
– mineral mahsulotlar	5,4 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
-- GFR	32,3 %
-- Fransiya	6 %
– Italiya, Buyuk Britaniya	5 % dan
– Niderlandiya	4,5 %
– Chexiya, Belgiya, Rossiya	3–4 % dan

Rossiya

Milliy bayrami	12-iyun
Poytaxti	Moskva
Maydoni, ming km ²	17075,4
Aholisi (2004-y.), mln kishi	144,1
– ruslar	80 %
– tatar va boshqirdlar	4,7 %
– ukrain va beloruslar	3,8 %
Shahar aholisining ulushi	73 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	66 yosh
Tili	rus, tatar, chuvash va boshqalar
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	307,9
– sanoat sektorining ulushi	37 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	7 %
– xizmat sohalarining ulushi	56 %
Milliy pul birligi	rus rubli
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	121,2
– energiya uzatishlar	51 %
– metall va metall buyumlar	11 %
– mashinalar va jihozlar	9 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan: – GFR, Italiya	7–8 %
– Niderlandiya, Xitoy	6,5 % dan
– Belorussiya, Ukraina	5,5 % dan

Ukraina

Milliy bayrami	24-avgust
Poytaxti	Kiyev
Maydoni, ming km ²	603,7
Aholisi (2004-y.), mln kishi	48,7
– ukrainlar	77,8 %

– ruslar	17,3 %
Shahar aholisining ulushi	68 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	68 yosh
Tili	ukrain, rus
Yalpi milliy daromad (YaMD). mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	37,7
– sanoat sektorining ulushi	39 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	17 %
– xizmat sohaslarining ulushi	44 %
Milliy pul birligi	grivna
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	23,3
– qora va rangli metallar	36,7 %
– tabiiy xomashyo	12,5 %
– qishloq xo'jaligi mahsulotlari	10,3 %
– mashinalar va jihozlar	9,8 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Rossiya	17,8 %
– Turkiya	6,9 %
– Italiya, GFR, Xitoy	4–5 % dan
– Buyuk Britaniya, Vengriya, AQSH	3 % dan

Fransiya

Milliy bayrami	14-iyul
Poytaxti	Parij
Maydoni, ming km ²	540,0
Aholisi (2004-y.). mln kishi	59,5
– fransuzlar va shuningdek, elsazliklar, britonliklar, katalonliklar va boshqalar	93 %
– jazoirliklar va chet elliklar	7 %
– xristian-katoliklar	79 %
– musulmonlar	8 %
Shahar aholisining ulushi	76 %

O'rtacha umr ko'rish, yil	78 yosh
Tili	fransuz, mintaqaviy tillar
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	1342,7
– sanoat sektorining ulushi	26 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	3 %
– xizmat sohalarining ulushi	71 %
Milliy pul birligi	yevro
Chet ellik turistlardan ko'rgan foydasi (2002-y.), mlrd AQSH dollarida	32,3
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	392,4
– yarim fabrikatlar	30 %
– investitsion tovarlar	24 %
– iste'mol tovarlari	15 %
– avtomobillar, qishloq xo'jaligi tovarlari	12 % dan
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	14 %
– GFR	
– Buyuk Britaniya, Ispaniya	10 % dan
– Italiya, Belgiya, AQSH	8–9 % dan

Chexiya

Milliy bayrami	28-oktabr
Poytaxti	Praga
Maydoni, ming km ²	78,9
Aholisi (2004-y.), mln kishi	10,2
– chexlar	94 %
– slovaklar	3 %
– xristian-katoliklar	27 %
– xristian-protestantlar	14 %
Shahar aholisining ulushi	75 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	75 yosh

Tili	chex, slovak
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	56,7
— sanoat sektorining ulushi	41,0 %
— qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	4 %
— xizmat sohalarining ulushi	55 %
Milliy pul birligi	chex kronasi
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	45,6
— mashinalar va jihozlar	49,6 %
— yarim fabrikatlar	23,3 %
— tayyor buyumlar	12,1 %
— kimyoviy mahsulotlar	6 %
— oziq-ovqat va issiqlik	3 % dan
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
-- GFR	36,5 %
— Slovakiya	7,7 %
— Avstriya, Polsha, Fransiya, Buyuk Britaniya	5—6 % dan

Shveysariya

Milliy bayrami	1-avgust
Poytaxti	Bern
Maydoni, ming km ²	41,3
Aholisi (2004-y.), mln kishi	7,3
— german,-franko,-italo-shveysarlar va retoromanliklar	79 %
— chet elliklar	21 %
— xristian-katoliklar	42 %
— xristian-protestantlar	35 %
— musulmonlar	5 %
Shahar aholisining ulushi	67 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	80 yosh

Tili	nemis, fransuz, italyan, retoroman
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	274,2
— sanoat sektorining ulushi	34,0
— qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	4 %
— xizmat sohaslarining ulushi	62 %
Milliy pul birligi	shveysar franki
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	129,8
— kimyoviy vositalar va dorilar	34,4 %
— mashinalar va apparatlar	21,1 %
— soat va aniq uskunalar	15,0 %
— to'qimachilik, kiyim-kechak va poyafzal	2,9 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	29 %
— GFR	
— AQSH, Fransiya, Italiya	8—11 % dan
— Buyuk Britaniya, Yaponiya	4—5 % dan



Avstraliya

Milliy bayrami	26-yanvar
Poytaxti	Kanberra
Maydoni, ming km ²	7692,5
Aholisi (2004-y.), mln kishi	19,7
— yevro-avstraliyaliklar	95 %
— avstraliyalik aborigenlar va kelib chiqishi jihatidan osiyoliklar	2 % dan
— xristianlar	68 %

Shahar aholisining ulushi	91 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	79 yosh
Tili	ingliz, boshqa yevropaliklar, osiyo va avstraliya tilida so'zlashuvchilar
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y)	386.6
– sanoat sektorining ulushi	26 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	3 %
– xizmat sohalarining ulushi	71 %
Milliy pul birligi	Avstraliya dollari
Eksposti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	83.0
– ko'mir, neft va gaz	20,7 %
– oziq-ovqat tovarlari	17,9 %
– metall rudalari	11,8 %
– mashina va jihozlar	11,7 %
– rangli metallar va oltin	11,5 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Yaponiya	19 %
– AQSH	10 %
– Janubiy Koreya	8 %
– Xitoy, Yangi Zelandiya	6 % dan

Yangi Zelandiya

Milliy bayrami	6-fevral
Poytaxti	Vellington
Maydoni, ming km ²	270,5
Aholisi (2004-y.), mln kishi	3,9
– kelib chiqishi yevropaliklar	70 %
– maori	7,9 %
– kelib chiqishi osiyoliklar	5,7 %

Shahar aholisining ulushi	86 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	78 yosh
Tili	ingliz, maori
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	53,1
– sanoat sektorining ulushi	30 %
– qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	9 %
– xizmat sohaslarining ulushi	61 %
Milliy pul birligi	Yangi Zelandiya dollari
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	19,6
– sut mahsulotlari	18,1 %
– go'sht	12,6 %
– o'rmon-qog'oz mahsulotlari	10,3 %
– mashinalar, poliz va mevalar	5–6 % dan
– dengiz mahsulotlari, alumin	4 % dan
– jun	2,5 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
– Avstraliya	16,9 %
– AQSH	15,2 %
– Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Xitoy	4–5 % dan


Papua-Yangi Gvineya

Milliy bayrami	16-sentabr
Poytaxti	Port-Morsbi
Maydoni, ming km ²	462,8
Aholisi (2004-y), mln kishi	5,4
– yangi gvineyalik-papuaslar	84 %
– melaneziyaliklar	15 %
– xristian-protestantlar	58 %
– xristian-katoliklar	33 %

Shahar aholisining ulushi	18 %
O'rtacha umr ko'rish, yil	57 yosh
Tili	ingliz, pjin, motu
Yalpi milliy daromad (YaMD), mlrd AQSH dollarida (2002-y.)	2,8
— sanoat sektorining ulushi	42 %
— qishloq xo'jaligi sektorining ulushi	26 %
— xizmat sohalarining ulushi	32 %
Milliy pul birligi	kina
Eksporti (2003-y.), mlrd AQSH dollarida	35
— oltin	5,6 %
— neft	31 %
— mis	11 %
— qahva	5 %
Tashqi iqtisodiy aloqada, asosan:	
— Avstraliya	29 %
— Yaponiya	11 %



Aholisi	40	— paxta	5
Maydoni	55	— tomat	15
O'zlashtiriladigan yeri	8	— uzum	20
Zaxirasi:		Ishlab chiqarish:	
— oltin	4	— quruq mevalar	5
— molibden va uran	8	— tomat pastasi	10
— mis	11	— paxta ip g'altagi	14
— uran	5	— azot o'g'iti	24
— folfram	7	Eksport:	
Yig'ish:		— paxta	2
— oltin	9	— uran	3



Aholisi	0,41	— uzum	0,9
Maydoni	0,33	— bug'doy	0,8
Chuchuk suv resurslari	0,2	Ishlab chiqarish:	
Haydaladigan yerlar	0,34	— qora ko'l	10
O'zlashtirilgan yerlar	1,5	— ipak xomashyosi	2
Haqiqiy zaxirasi:		— azot o'g'iti	1
— uran	6,3	— paxta ip g'altagi	1
— oltin	5	— jun	0,7
— tabiiy gaz	1,2	— sut	0,6
Qazib olish:		— ip to'qimachiligi	0,5
— oltin	3,3	— molibden	0,4
— suyultirilgan shi pat	0,75	— elektr energiyasi	0,3
— mis	0,6	Eksport:	
— rux	0,45	— paxta tolasi	15
Yig'ish:		— uran konsentrati	15
— paxta	5,4	— ip to'qimachiligi	0,2
— pomidor	1,0		



QKlar soni		Barcha QKlarning mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi, %	
Jami	464	Jami	100
Shu jumladan:		Shu jumladan:	
Rossiya	56	Janubiy Koreya	34,7
Turkiya	50	AQSH	27,5
AQSH	49	Buyuk Britaniya	5,5
Buyuk Britaniya, Isroil, GFR	40	Turkiya	4,5
Janubiy Koreya	23	Shveysariya	3,0
Shveysariya	18	GFR	2,3
Xitoy	12	Rossiya	2,2
		Italiya, BAA	1,4

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- I.A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarning chukurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1996.
- В.И. Ломакин. Мировая экономика. Учебник. М., 1998; 2002; 2004.
- A. Razzoqov, H. Xalilov. Jahon iqtisodiyoti XX—XXI asrlar bo'sag'asida. O'quv qo'llanma. T., 1998.
- Е.Ф. Авдокушин. Международные экономические отношения. Учебник. М., 1998; 2000; 2002.
- А.С. Булатов. Мировая экономика. Учебник. М., 2003.
- А. Кириеев. Международная экономика. Учебник. Часть 1,2. М., 2002; 2003.
- П. Кругман. Международная экономика. Учебник. С—П., 2002.
- И. А. Спиридонов. Мировая экономика. Учебное пособие. М., 2002.
- Т. Р. Тэор. Мировая экономика. С—П., 2002.
- О. Буторина. Европейский союз. Справочник-путеводитель. М., 2003.
- А. Зинкин и др. Всемирная торговая организация в схемах. М., 2003.
- И. Пашковская. Европейская экономическая и валютная интеграция. М., 2003.
- Т. Пугель. П. Линдерт. Международная экономика. Учебник. М., 2003.
- Современные международные экономические отношения. Учебник. М., 2003.
- G. Nazarova, H. Xalilov, A. Eshtoyev va boshqalar. Germaniya Federativ Respublikasi (ilmiy-omtabop risola). DSK, 2003.
- <http://www. I-U.ru>
- <http://www. wesmirbook.ru>
- <http://www. iskran.ru>
- <http://www. cer.ru>
- <http://www. bikimdon.uz>
- <http://www. gov.uz>
- <http://market. yandex.ru.catalog.xml>.
- <http://www. bizbook.ru>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

Birinchi bo'lim. JAHON IQTISODIYOTI: MOHIYATI VA TARAQQIYOTINING ASOSIY QONVNIYATLARI, TAMOYILLARI

1-bob. Jahon xo'jaligi va uning shakllanish bosqichlari

1.1. «Jahon iqtisodiyoti» fanining predmeti va o'rganish xususiyatlari	6
1.2. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining mohiyati va shakllanish bosqichlari	7
1.3. Jahon iqtisodiyotida «ochiq iqtisodiyot» tushunchasi	11

2-bob. Mamlakatlarning tasniflanishi va ularning jahon xo'jaligidagi ishtiroki

2.1. Jahon iqtisodiyotida davlatlarning iqtisodiy birlashmalari, asosiy tiplari	15
2.2. Jahon xo'jaligida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va ishtiroki	17
2.3. Jahon xo'jaligida mamlakatlarning raqobatbardoshligini aniqlash	19

3-bob. Xalqaro mehnat taqsimoti

3.1. Xalqaro mehnat taqsimotining mazmuni va mohiyati	23
3.2. Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar	25
3.3. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining o'ziga xos tomonlari. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi	26
3.4. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining g'arbdagi zamonaviy qarashlar konsepsiyasi	28

4-bob. Jahon iqtisodiyotida aloqa va transport

4.1. Jahon iqtisodiyotining aloqa va kommunikatsiya tizimlari	31
4.2. Jahon iqtisodiyotida transport va aloqa tizimining tutgan o'rni	32
4.3. Jahon xo'jaligida transport va aloqani xalqaro tartibga solinishi	35

5-bob. Jahon iqtisodiyotida jang'armalar

5.1. Jahon xo'jaligida jang'arma va iqtisodiy rivojlanish	36
5.2. Jahon iqtisodiyotida jang'armalarning rivojlanish darajasi	37

6-bob. Jahon xo'jaligida tabiiy resurslar va ulardan foydalanish muammolari

6.1 Xomashyo resurslarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish	38
6.2. Tabiiy resurslar va ishlab chiqarish kuchlari	40
6.3. Tabiiy resurslardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari	41
6.4. Tabiiy xomashyo resurslarda jahon narxlarining shakllanish xususiyatlari	44

7-bob. Jahon xo'jaligida xalqaro korporatsiyalar

7.1. Jahon xo'jaligida transmilliy korporatsiyalarning (TMK) vujudga kelishi va rivojlanishi	46
7.2. Jahon xo'jaligida TMKlar faoliyatining asosiy xususiyatlari	48
7.3. TMKlarning jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rni	51

8-bob. Global muammolarning iqtisodiy jihatlari

8.1 Jahon iqtisodiyotida global muammolarning mohiyati va xususiyatlari	53
8.2 Jahon iqtisodiyotida qurolsizlanish va harbiy ishlab chiqarishni o'zgartirish an'analari	54
8.3 Jahon iqtisodiyotida ekologik muammolar	55
8.4 Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat va demografik muammolar	56

9-bob. Jahon xo'jaligida demografik jarayonlar

9.1. Jahon xo'jaligida aholi migratsiyasining dastlabki ko'rinishlari	59
9.2. Jahon iqtisodiyotida «demografik portlash» jarayoni. Aholi o'zgarishidagi o'ziga xos populatsion sikllar	62
9.3. Jahon iqtisodiyotida aholining yoshiga qarab tasniflanishi	65
9.4. Ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solishda xalqaro mehnat taqsimoti	66

10-bob. Xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy hamkorlik

10.1 Xalqaro ishlab chiqarishdagi hamkorliklar	73
10.2. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorliklar	74
10.3. Integratsion jarayonlarning milliy iqtisodiyotga ta'siri	75

11-bob. Rivojlangan mamlakatlar — jahon xo'jaligi tizimida

11.1 Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga umumiy tavsif. Iqtisodiy rivojlanishning umumiy qonunchiligi	77
11.2. Rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyati	80
11.3. Rivojlangan mamlakatlarda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi	84
11.4. Rivojlangan mamlakatlarning moliya-valuta siyosati	85

12-hob. Rivojlanayotgan mamlakatlar —⁴ jahon xo'jaligi tizimida

12.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo'jaligida tutgan o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari	87
12.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar ayirboshlashda tutgan o'rni	90
12.3. Xorijiy sarmoyalar — rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida	94

13-hob. Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan «yangi industrial mamlakatlar»ning tutgan o'rni

13.1. «Yangi industrial mamlakatlar»ning iqtisodiy rivojlanishiga umumiy tavsif	100
13.2. Jahon iqtisodiyotida YalMning iqtisodiy rivojlanish tamoyillari	102
13.3. «Yangi industrial mamlakatlar» — xalqaro mehnat taqsimoti tizimida	107

14-hob. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar

14.1. Ishlab chiqarishning sotsialistik rejali xo'jalik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurligi	112
14.2. O'tish davri davlatlarida bozor islohotlari. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar	114

15-hob. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari iqtisodiyoti

15.1. MDH mamlakatlarini jahon xo'jaligiga kirib borishidagi asosiy muammolar	118
15.2. MDH mamlakatlarining yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan savdo-iqtisodiy aloqalari	118

Ikkinchi bo'lim. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

16-hob. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri

16.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati	121
16.2. Integratsion jarayonlarni ifodalovchi omillar	122
16.3. Integratsion jarayonlarning jahon markazlari	123

17-hob. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ko'rinishlari

17.1. Jahon iqtisodiyotida integratsion guruhlar tipologiyasi	126
17.2. Jahon iqtisodiyotida erkin savdo hududlarining mazmuni va mohiyati	127
17.3. Jahon iqtisodiyotida bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq tushunchalari	128

18-hob. Yevropa Ittifoqi iqtisodiy integratsiyasi

18.1. YeI tashkilotining tashkil topishi va uning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari	131
18.2. YeI tuzilmasi va uning zamonaviy bosqichdagi rivojlanish muammolari, istiqbollari	133

19 -bob. Jahon xo'jaligida erkin iqtisodiy hududlar

19.1. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil topishi va uning asosiy ko'rinishlari	136
19.2. Jahon mamlakatlarida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari	142

20-bob. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari

20.1. Globallashuv tushunchasining mazmuni va mohiyati	146
20.2. Jahon xo'jaligida globallashuv jarayonlarining borishi	147
20.3. TMKlar globallashuv jarayonlarini harakatga keltiruvchi omili sifatida	149

21-bob. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va unda O'zbekistonning ishtiroki

21.1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar klassifikatsiyasi	152
21.2. BMT doirasidagi iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari	153
21.3. Xalqaro hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Hududiy iqtisodiy tashkilotlar	155
21.4. O'zbekistonning jahondagi turli xalqaro iqtisodiy va siyosiy tashkilotlar bilan olib borayotgan munosabatlari	158

22-bob. O'zbekiston Respublikasi va MDH davlatlari

22.1. MDHning tashkil topishi va rivojlanish xususiyatlari	164
22.2. O'zbekistonning MDH doirasidagi hamkorligi	165
<i>1-ilova.</i> Osiyo davlatlari	177
<i>2-ilova.</i> Amerika davlatlari	191
<i>3-ilova.</i> Afrika davlatlari	196
<i>4-ilova.</i> Yevropa davlatlari	200
<i>5-ilova.</i> Avstraliya va Okeaniya davlatlari	211
<i>6-ilova.</i> O'zbekistonning jahon mamlakatlari ichida tutgan o'rni (2002-y.)	214
<i>7-ilova.</i> Jahon ko'rsatkichlarida O'zbekistonning ulushi, % (2002-y.)	215
<i>8-ilova.</i> O'zbekistonda yirik va o'rta korxonalarni harakorlikda (QK) tashkil etgan mamlakatlar (2003-y.)	216
Foydalanilgan adabiyotlar	217

GULCHEHRA G'OZIYEVNA NAZAROVA,
HAMRO XALILOVICH XALILOV,
ALISHER ABDUG'ANIYEVICH ESHTOYEV,
IKROM AKRAMOVICH AHMEDOV,
NAZARJON ZIYODULLAYEVICH HAKIMOV,
UMID HALITOVICH MUHAMEDRAHIMOV

JAHON IQTISODIYOTI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2005

Muharrir Z. Usmonova

Rassom Sh. Qahhorov

Texnik muharrir F. Samadov

Musahhah S. Badalboyeva

2005-yil 20-dekabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90¹/₁₆,
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 14,0.
Nashr tabog'i 14,0. 4000 nusxa. Buyurtma № 353.

Bahosi shartnoma asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 50—2005.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
700128, Toshkent, U.Yusupov ko'chasi, 86-uy.

J39 Nazarova G.G' va boshq. Jahon iqtisodiyoti.
Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.
T.: «ILM ZIYO», 2005. — 224 b.

I. Muallifdosh.

BBK 65.5ya722